

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI**

F.R. ABDURAXMONOV, Z.E. ABDURAXMONOVA

KASB PSIXOLOGIYASI

*O‘zbekiston respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan
darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT–2018

UO‘K: 159.9:331.54

KBK: 88.4ya7

A 15

F.R. Abduraxmonov, Z.E. Abduraxmonova.

Kasb psixologiyasi. [Matn]: / –T.: “Barkamol fayz media”
nashriyoti, 2018, 352 bet.

ISBN: 978-9943-5517-2-5

*Ushbu darslik kasb psixologiyasining namunaviy dasturi bo‘yicha
olib boriladigan darslar uchun mo‘ljallangan. Undan shu sohaga
qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.*

UO‘K: 159.9:331.54

KBK: 88.4ya7

Taqrizchilar:

E. G‘oziyev – psixologiya fanlari doktori, professor;

D. Muxamedova – psixologiya fanlari doktori.

ISBN: 978-9943-5517-2-5

© “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018.

© F.R. Abduraxmonov, Z.E. Abduraxmonova.

KIRISH

Dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga qo‘shilib borayotgan O‘zbekiston o‘zining mustaqil yo‘lidan borar ekan, bu sohada olib borilayotgan amaliy va nazariy ishlarini jamiyat hayotiga tadbiq etib ko‘plab yutuqlarga ega bo‘lib bormoqda. Shunday muhim masalalardan biri bu kadrlar masalasi, ya’ni jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi, raqobatbardosh, bilimli va ijodiy yondosha oladigan kadrlarni yaratish hisoblanadi. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday yozadi “ Lo‘nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz”. [9, 5.]

Jamiyatimizdagi bu kabi masalalarni amalga oshirishda ko‘plab fanlar o‘z ulushini qo‘shib kelmoqda. Xuddi shunday fanlardan biri bu – kasb psixologiyasi fani hisoblanadi. Bu fan O‘zbekistonda rivojlanayotgan yangi va navqiron fanlar qatoriga kiradi. Bu sohada hali qilinishi kerak bo‘lgan juda ko‘plab masalalar borki, bu kadrlar tayyorlashni sifatini va uzluksizligini ta’minlaydi. Kasb psixologiyasi sohasida olib boriladigan ko‘plab masalalar qatoriga darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratish masalasi ham kiradi. Ushbu o‘quv qo‘llanma o‘ziga xos bir debocha desa bo‘ladi. Yangi talablar asosida qilingan bu ish talabalarni shu sohaga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida qilindi.

Kasb psixologiyasi o'zida juda ko'plab masalalarni qamrab olgan va jamiyatda yoshlarni kasb tanlashlariga o'z yordamini beruvchi fan hisoblanadi. Bu sohada ko'plab insonlar hozirgacha o'z xizmatlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Bulardan eng asosiysi o'qituvchi hisoblanadi. Bolalar bilan har doim muloqotda bo'lgan o'qituvchilar ularning havaslari, qiziqishlari va manfaatlarini bilib borib ularni ma'lum bir kasbni egallashlariga o'z tavsiyalarini berib, ularni kasblarga yo'naltirib turadilar. Hozirda esa maktab psixologlari olib borayotgan amaliy ishlar natijasida bolalar o'zlari qiziqqan kasblarni egallashga va unga tayyorgarlik ko'rishga intilib boradilar. Ushbu o'quv qo'llanma kasb tanlash sohasidagi amaliy ishlarga yordam sifatida shakllandi. Unga bo'lgan qiziqish o'sib bormoqda. Jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan fanlar qatoriga kirib bormoqda.

I Bob. Kasb psixologiyasining rivojlanish tarixi, predmeti va metodlari

1.1 Kasb psixologiyasi fanining predmeti, qoʻllanish sohalari va asosiy muammolari

Kasb va kasb psixologiyasi haqida umumiy tushuncha

Insoniyat paydo boʻlibdiki, u har doim oʻzini boqishga, ehtiyojlarini va manfaatlarini qondirishga harakat qilgan va hozirda ham shu yoʻldan bormoqda. Inson oʻz ehtiyojlarini eng avvalo oziq – ovqat, boshpana, kiyim – kechaklarga boʻlgan ehtiyojlarni qondirishdan boshlagan. Keyinchalik yangi sivilizatsiyalar paydo boʻlgach, yaʼni insoniyat madaniylashib borgan sari oʻz ehtiyojlariga kerak boʻlgan mahsulotlarni ishlab chiqara boshlagan. Bular eng avvalo shu sohadagi kasb egalarini paydo boʻlishiga va jamiyatni shu mahsulotlarga boʻlgan ehtiyojini qondirishga intilishlarni paydo qilgan. Jamiyat rivojlana borgan sari yangi kasblar paydo boʻlgan va rivojlanib borgan. Insonlar esa yaxshi va baxtli yashashga intilganlar. Buning uchun kasb tanlaganlar, tajriba oshirganlar va bilimlarni toʻplaganlar.

Kasb - inson ish faoliyatining maʼlum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir. Kasbga umumiy yoki maxsus maʼlumot hamda amaliy tajriba yoʻli bilan erishiladi. Kasb ichida mehnat faoliyatining eng tor xarakteri bilan ajralib turuvchi ixtisoslari bor. Baʼzi kasblarda bir qancha ixtisoslar masalan: chilangar kasbida – remontchi chilangar, asbobsoz chilangar, yigʻuvchi chilangar kabi yoʻnalishlar mavjud. Demak, har bir kasbga xos boʻlgan yoʻnalishlar mavjud boʻladi. Bu esa inson faoliyatini kengayib borayotganligini, har bir sohani oʻziga xos tor jabhalari borligini tasdiqlaydi.

Hayotiy jarayonlar kasblarni doimiy emasligini ko'rsatadi. Kasblarni ayrimlari paydo bo'ladi ayrimlari yo'q bo'lib ketar ekan. Bu kasblarni ayrimlari texnika va texnologiya sohalarini taraqqiyoti bilan bog'liq holda takomillashib boradi, yangi ko'rinishga ega bo'lgan kasblarni paydo qiladi, eskilarini yanada takomillashtiradi. Misol uchun hozirgi zamon to'quvchisining ishini ilgari zamondagi to'quvchi mehnati bilan taqqoslab bo'lmaydi. Hozirda to'quvchi stanoklarni avtomatlashganligi tufayli bir qancha to'quv stanoklarini bir vaqtda boshqaradi. Albatta bu jarayonlarni taqqoslab bo'lmaydi, ulardagi mehnat sharoiti, stanoklarni boshqarishga va to'qishga bog'liq bo'lgan yangi bilimlar tizimi va shu kabilar ularning farqini ko'rsatib turadi.

Kasblarni o'zgarib borishiga ijtimoiy – iqtisodiy tuzum ham o'z ta'sirini o'tkazib boradi. Deylik, hozirda boshqaruvchi – master yoki inspektorlar mavjud bo'lib ular boshqa sohalardan tubdan farqlanib turadi. Bunga misol qilib shifokorlik kasbini olishimiz va uni jamiyatdagi rolini ko'rsatib berish mumkin. Jamiyatdagi “erkin tadbirkorlik” jarayoni shifokorni endi nafaqat davolovchi, balki tadbirkorlik ishi bilan shug'ullanuvchi qilib qo'ydi. Endi tadbirkor shifokor o'z ustida ishlash, davolashning yangi va samarador tomonlari ustida bosh qotirishga, o'z kapitalini o'stirib borishga intilishi kerak bo'ladi. Bu jarayon hamma kasblarga ham taalluqlidir. Jamiyatda yashayotgan har bir insonga qulaylik yaratish, uning ehtiyojlarini qondirish, yaxshi yashashi uchun sharoitlar yaratish bor kasblarni takomillashtirishga va yangi kasblarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Insoniyat hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarni qondirish davomida yangi kasblar ham paydo bo'lib bormoqda. Dunyoda 60 ming (qiyoslash uchun Rossiyada 20 ming) O'zbekistonda 6 mingdan ziyod kasblar mavjud. [22, 62.]

Shuni aytish joizki, jamiyat rivojlangan sari kasblar ham ko‘payib boradi. Shu bilan birga kasb bu jamiyatdagi qabul qilingan huquqiy – normativ Qonunlarga amal qilishi zarur bo‘ladi. Jamiyatda man qilingan va uning ahloqiga to‘g‘ri kelmaydigan kasblar jamiyat tomonidan taqiqlanadi va jazolanadi. O‘zbekistonda uning taraqqiyoti bilan bog‘liq holda ko‘pgina kasblar hayotga kirib kelmoqda. Bular haqida esa maktabda va boshqa o‘quv maskanlaridagi o‘qituvchilar, psixolog-lar talabalarga ma’lumotlar berib ularni tanishtirib borishlari kerak bo‘ladi.

Jamiyatdagi har qanday mehnatga layoqatli inson o‘zining mehnati bilan jamiyat taraqqiyotiga o‘z ulushini qo‘shib boradi. Inson o‘zining mehnatida jismoniy, aqliy, psixologik imkoniyatlarini sarflab, o‘z qobiliyatlarini, ijodiy imkoniyatlarini sarf qiladi. Bular uni ijodiy mehnatdan qoniqishini ta’minlaydi.

Shuni aytish kerakki, kasb –hunar va uni egalari azaldan xalqimiz tomonidan e’zozlanib kelingan. O‘zbekistonda hozirda bilimdon, o‘z kasbini yaxshi egallagan, mustaqil fikrlovchi, o‘z kasbiga ijodiy yondoshuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, izlanuvchan, intiluvchan mohir ustalar, kasb egalari ko‘proq talab qilinmoqda. Shunga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida va Vazirlar mahkamasi qarorlarida (Nizomlarida) mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb va katta e’tibor berilayotgan masalalardan biri bo‘lib turibdi.

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar bilan bog‘liq xalq ta’limini tubdan islohot qilish to‘g‘risida I.A Karimov o‘zining “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” asarida fikr bildirib shunday deydilar: “Shu tariqa yoshlarning biron bir shaklda bilimlarini takomillashtirish, muayyan kasb - hunar egasi bo‘lib yetishishlari uchun sharoit yaratiladi”. [9, 17.]

Bu bilan davlatimiz yoshlarni kasb - hunar egasi bo'lishlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berayotganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Yoshlar bu jamiyatning kelajagi, ularni o'zlari qiziqqan kasblarni egalashi, hayotda o'z o'rinlarini topa olishlari zaruriy jarayon hisoblanadi.

Kasb - hunarli bo'lish inson uchun zarur bir ehtiyoj ekanligini buyuk avlodlarimiz o'z asarlarida aytib o'tganlar. Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida shunday yozadi "Bas, agar aqling bo'lsa hunar o'rgang'il, nedinkim hunarsiz aql – boshsiz tan, suratsiz badandekdir... Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf' ep ko'rmas." [25, 26.]

Hozirda o'sib kelayotgan yoshlar o'z qiziqishlaridan kelib chiqib minglab kasblar ichidan o'zi uchun qiziqarli bo'lgan kasbni tanlab olishlari va o'z hayotlarini mazmunli, yaxshi o'tkazishlari uchun intiladilar. Ularga bu kasblarni tanlashlarida kasb psixologiyasining o'ri va ahamiyati juda katta. " Men kelajakda kim bo'laman?", "Yaxshi yashashim uchun qaysi kasbni tanlashim kerak?", "Mendagi iqtidor shunga yetadimi?", "Kelajagimdan qoniqamanmikan?" degan ko'plab savollar yoshlarni o'ylantiradi. Bu savollarga javob olish uchun ular atrofdagilarni kuzatadilar, hayotdan ma'lum bir malakalar olishga intiladilar. Kattalarni maslahatlarini o'ylaydilar va ikkilanib yuradilar. Kasb psixologiyasi esa ularni to'g'ri yo'lga solishga harakat qiladi. Kasb tanlovchilarga o'zlarini beg'araz maslahatlarini berib, ularni o'zlari qiziqqan kasblariga ega bo'lishlari uchun yo'l - yo'riqlar berib boradilar.

Izlanuvchi yoshlar kasb - hunar va uni egallash, hayotlarini, kelajaklarini hal qiluvchi omil ekanligini bilib boradilar. Shulardan kelib chiqib **kasb – bu inson hayoti uchun zarur bo'lgan, jamiyatdagi huquqiy normalarga javob beradigan, insonni kelajagini belgilab beradigan o'ziga xos murakkab bo'lgan jarayon deb belgilashimiz mumkin. Kasb – bu insonni ma'lum bir ehtiyojlarini va**

manfaatlarini o‘zi tanlagan kasb faoliyatidagi bilimlari, layoqati, malakalariga xos xususiyatlari orqali namoyon bo‘lishidir. Kasbga xos bo‘lgan jarayonlar, ularni egallash, tanlash inson psixologiyasi bilan bog‘liq. Kasb psixologiyasi aynan shunday murakkab jarayonlarni o‘rganish orqali yoshlarni o‘zlari qiziqqan kasbga yo‘nalish beruvchi murakkab fan hisoblanadi. Har bir kasbning o‘ziga xos bo‘lgan tomonlari, insonlarni o‘ziga jalb qila oladigan qirralari mavjud bo‘lib, inson bu jarayonlarni kuzatib borib shu kasbni egallashga intiladi. Bu jarayonlarda inson o‘zini ruhiyati bilan shu kasbga xos bo‘lgan psixologik tomonlarni ham shakllantirib boradi.

Jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlar yoshlarni ham kasb tanlashda o‘ylantirib qo‘ymoqda. Jamiyatda ko‘plab yangi kasblar paydo bo‘lmoqda, ularni fan yangiliklari, texnika va texnologik yangiliklar asosida shakllanib borishi yoshlarda ko‘plab yangi mutaxassisliklar bilan tanishishlarini talab qilmoqda va bu ularni kasb tanlashlarini qiyin, murakkab ahvolga solib qo‘ymoqda. Bundan tashqari jamiyatni olg‘a rivojlanib borishi yoshlarni olayotgan kasblarini raqobatbardoshligini, kerakligini va yashashlari uchun imkoniyatlar yaratib bera olishlariga ishonтира bilishini ham talab qilib bormoqda. Hayotiy jarayonlar, yashashga beriladigan imkoniyatlar, kasbga bo‘lgan intilishlar tabiiy ravishda amaliy psixologiyaning bir bo‘lagi bo‘lgan **kasb psixologiyasiga** bo‘lgan talabni zaruriy qilib qo‘ydi va bu fanni paydo bo‘lishiga olib keldi. Hozirda O‘zbekistonda bu fan endi rivojlanishi kerak bo‘lgan va yoshlarni tarbiyalashda, ularga kasb tanlashlariga yordam beruvchi asosiy mutaxassislik fani bo‘lib bormoqda. Kasb psixologiyasini mohiyati bu insonni kasbga xos xatti – harakatini va kasb tarixi bilan bog‘liq tomonlarni ko‘rsatib berish, shuningdek yoshlarni, kasb tanlovchilarni o‘zlari qiziqqan kasbni tanlashlarida yo‘l - yo‘riqlar berish, maslahatlar bilan o‘z layoqatlarini, imkoniyatlarini sinab olishlariga, shuningdek keyinchalik kasbdan ketishlariga, ya’ni nafaqaga chiqishlarida ham yordam berish kabi tomonlarini o‘rganib borish hisoblanadi.


Dunyoga kelgan bola haqida, uning kelajagi haqida, qanday kasbni egallashi haqida ko'proq uning ota - onasi bosh qotiradi. Bolani maktabga chiqqanidan boshlab uning ota - onasi "Mening bolam kelajakda vrach bo'ladi", yoki ma'lum bir kasbni oldindan orzu qilib tayyorlab qo'yadilar. Lekin hayotning o'zi bolani shaxs sifatida rivojlanishi, biologik taraqqiyoti, psixologik imkoniyatlari asosida o'ziga xos bo'lgan kasbni tanlashlariga imkoniyat yaratadi. Dunyoga kelgan bolada xuddi daraxt kurtagi tarzida o'ziga xos bo'lgan imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Ya'ni bola o'sib, rivojlanib borgan sari unda ma'lum bir kasbga qiziqish paydo bo'ladi va taraqqiy etib boradi.

Shaxs bo'lib borayotgan bolada psixologik xususiyatlar yuzaga chiqib, uni borliqqa bo'lgan qiziqishini orttirib boradi. Ayrim bolalar yosh davrlaridanoq o'simliklarga, ularning tuzilishiga qiziqadilar, ayrimlari harakatdagi hasharotlarga, hayvonlarga qiziqadilar. Qo'ng'izni ko'rgan bola uni harakatlanishini kuzatib uni nima harakatlantirmoqda degan savol bilan tekshirib ko'radi. Uni bo'laklarga ajratadi. Bunday bolalardan tarbiyalab borish orqali ko'plab yaxshi vrachlar, injenerlar, konstruktorlar yoki qassoblar chiqadi. Keyinchalik bunday shaxslar o'zida shu kasbga xos bo'lgan xususiyatlarni rivojlantirib boradilar. Bu ularning qiziqishlaridan kelib chiqadi. Shu sohaga xos bilimlar ularni kasbiy imkoniyatlarini orttirib boradi.


Shaxs sifatida bolada shu sohani bilishga ehtiyojlar rivojlanadi. Tanlagan mutaxassisligi bo'yicha bilimlar to'plab boradi. Bu maktabda, oliygohda, atrofdagilarning aytib berishlari va o'zining mustaqil o'rganishlari bilan shakllanib boradi. Maktabda bolalarga kasb bilan bog'liq bo'lgan tanishtirish darslarini ham tashkil etish zarur bo'ladi. Bunda bolalar ko'pchilik kasblar haqida bilib oladilar va kasb tanlashlari uchun imkoniyatlar kengayadi. Ularni yuqori sinfga o'tib borishlari bilan birga keyingi bosqichlarda qaysi kollejga va

litseyga kirishlari ham aniq bo‘lib boradi. Ular o‘zlari qiziqqan kasbni egallashga mustaqil qaror qabul qilgan holda intiladilar.

O‘tib kelayotgan yoshlar kasb tanlab borishga, o‘zlarining kelajaklari haqida o‘ylashga maktab yoshidan tayyorgarlik ko‘rib boradilar. Ular atrofdagilarni kuzatar ekan o‘zlari uchun qiziqish uyg‘otgan kasb haqida o‘ylay boshlaydilar. Yoshlarning kasb tanlashlari maktabdan boshlanadi. Bunga ularni tayyorlab borish zarur bo‘ladi. Buni psixolog olim Anvar Jalolov o‘zining “Kasb qanday tanlanadi” kitobida shunday ko‘rsatib beradi. [22, 9.]



Bu chizmadan ko‘rinib turibdiki, yoshlar kasb tanlashda ma‘lum bir bosqichlarni bosib o‘tadilar. Xilma - xil va qiziqarli kasblarni tanlashning asosiy maqsadi yaxshi yashash va yaxshi kasbni egallash hisoblanadi. O‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan kasb insonni har doim o‘z ustida ishlashga, uni yaxshiroq bilishga olib keladi. Insonda kasb tanlash jarayonini yana shu muallif quyidagicha belgilaydi. [22, 9.]




Insonda ma'lum kasbga, uni egallashga havas, mayl, orzu, ishtiyoq, xafsala bo'lmasa u hech qanday kasbni egallay olmaydi. Insondagi shu jarayonlar odamning o'z kelajagini to'g'ri anglashga, tushunishga olib keladi. Unda istak, xohish paydo bo'ladi. Bular bolada ma'lum bir maqsadni shakllanishiga va bu yo'lda iroda kuchini sarf qilishga olib keladi. Irodali inson o'z maqsadi sari intiladi va orzu havaslariga erishadi. Bunda bolada paydo bo'luvchi havas atrofda-gi insonlarni kuzatish orqali, ularga aytilgan maqtov so'zlarini ting-lash va uning mahoratiga qoyil qolish, odamlarni uning mahoratini maqtashlari, bu insonni bilimdonligi, qo'lidan ko'plab ishlar kelishini kuzatishi unda shu insonga o'xshashga havasni uyg'otadi. Unda orzu, armon, tilak, ishtiyoq va xafsala paydo bo'ladi. Bu jarayonlar bolada uyg'onayotgan ehtiyojlar va manfaatlar bilan bog'liq bo'lib uni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishning hissiyotlari, irodalari bilan bog'liq jarayondir.

Katta bo'lib borayotgan bolada havas paydo bo'ladi. Kasbga nis-batan olganda bolani shu kasbga qiziqishi, intilishi, mayli, xohish, istak va orzusi bo'lib ko'zga tashlanadi. Bu yo'lda bola o'ziga tilak tilab shu kasbni egallashga bo'lgan intilishi sodir bo'ladi. Agarda bola o'z tilaklarini xafsala bilan amalga oshirmasa, harakat qilmasa bu armon va orzu bo'lib qoladi. Shuning uchun u zo'r ishtiyoq bi-lan harakat qilishi va armonlarini amalga oshirishi zarur bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bu jarayonlar insonga xos bo'lgan psixologik jarayonlarni tashkil etib, insonning maqsadini vujudga kelishining asosi hisoblanadi. Albatta bu jarayonda insondan iroda kuchi ham talab qilinadi. Ishtiyoq bu – zo'r istak, xohish hisoblanadi.

Yoshlarni kasb tanlashlari yo'lidagi bunday jarayonlarni o'rgangan psixolog olimlar ularni quyidagicha ta'riflaydilar. Insonni anglash da-rajasi ko'ra kasb tanlashda quyidagi tomonlar ta'riflanadi. **Istak** – in-tilishning shunday bir turidirki, bunda inson faqatgina o'zining hozirgi

holatidan norozi ekanini his qilib tursa ham, lekin qanday maqsadga intilayotganini, binobarin, bu maqsadga erishishning yo‘l - yo‘riqlarini aniq bilmaydi. Bunda kishi nima istayotganini o‘zi anglab yetmaydi. Bola o‘zi nimani istayotganini anglamas ekan bu istakni amalga oshirib bo‘lmaydi. Insondagi istak ma‘lum darajada anglangan bo‘lsa, tilak – havasga aylanib ketishi mumkin. **Tilak – havas** intilishning shunday bir turidirki, bunda inson faqatgina qanday maqsadga intilayotganligini biladi, lekin bu maqsadga erishish yo‘llarini aniq bilmaydi. Bunday tilak bo‘lgan payitda bolada ko‘pincha yangi intilish paydo bo‘ladi. Bunda bolada tilakka erishish uchun vosita va yo‘llar qidirish, ba‘zi vaqtda esa o‘zida tug‘ilgan tilakni bosishga intilish hosil bo‘ladi. Agarda amalga oshirish uchun vosita va yo‘llar topilsa, u vaqtda tilak to‘la anglangan va maqsadga intilishning vosita va yo‘llarini aniq anglanganini ko‘rsatadi. Tilakni tobora anglanib boriishi natijasida xohishga aylanib boradi. **Xohish** esa to‘la anglangan intilishdir. Bunda inson maqsadi sari anglangan harakatlarni bajarishga tayyorlanadi va o‘z irodasini shu maqsad sari yo‘naltiradi. Kasb tanlashda inson irodaviy harakatlarni amalga oshiradi. **Irodaviy harakatlar** – ilgari mo‘ljallangan xohish bilan amalga oshiriladigan harakatlardir. Insondagi bu irodaviy harakatlar ixtiyorsiz va ixtiyoriy ravishda bo‘lishi mumkin. Ixtiyoriy harakatlar insonni anglangan va o‘z xohishi bilan bajariladigan harakatlari hisoblanadi. Irodaviy harakatlar motivlar asosida amalga oshiriladi. Motivlar kurashi natijasida inson o‘zining maqsadlaridan kelib chiqib qaror qabul qiladi va uni amalga oshirish uchun intiladi. Qat’iyat bilan qilingan harakatlar maqsadni amalga oshirsa, qat’iyatsizlik esa kasbdan yuz o‘girishga olib keladi. Bunday holat insonda boshqa bir oson kasbni tanlashga olib keladi. Bu yerda o‘z qiziqishlaridan voz kechadi va oxir oqibatda adashganini biladi. Qat’iyatsizlik insonni boshi berk ko‘chaga olib keladi. Qat’iyat esa uni o‘zi sevgan kasbini bilishga va undan rohat-


lanishga, qoniqishga olib keladi. Bu kasb orqali o'zini inson sifatida bilib boradi. Bu kasb orqali yaxshi yashaydi, orzulari amalga oshadi. **Kasb tanlash bu murakkab, lekin zaruriy jarayon bo'lib, insonni kelajagini va yaxshi yashash imkoniyatlarini yaratuvchi, shuningdek jamiyatda o'z o'rnini topib borib, unga foydali mehnat qilish hisoblanadi.** Yaxshi kasb tanlash uchun kerak bo'lgan tomonlar quyidagicha ko'rsatilishi mumkin.



Kasb va kasbiy psixologik jarayonlar kasb tanlovchidan quyidagilarni talab qiladi:

- Umumta'lim maktablarida beriladigan ta'lim darajalaridagi bilimlarga ega bo'lish;
- Kasb tushunchasining ta'rifini, uning tabiatini, xususiyatlarini kasblar sonini va turlarini bilish;
- Kasbni inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunish va u haqida tasavvurga ega bo'lish;
- Kasb tanlashga kerak bo'lgan idrokni, xohishning mavjud bo'lishi;
- O'z maqsadi va manfaatini to'g'ri anglab olgan bo'lishi;
- Kelajagi haqida tasavvurlarga ega bo'lish.

Bulardan kelib chiqqan holda kasb tushunchasining asosiy tamoyillarini ko'rsatish mumkin. Bular quyidagi chizmada o'z aksini topgan:



Yoshlar o‘z kelajagini anglagandagina, qiziqishlari va manfaatlarini aniqlab olgandagina, hayotini tashkil etishdagi ehtiyojlarini tushungandagina kasb tanlashlari oson kechadi. Kasb insonni boquvchi asosiy omil va hayotini tashkil etuvchi asos hisoblanadi.

Yuqorida tahlil qilgan fikrlarimiz kasb psixologiyasi bu o‘ziga xos murakkab va doimiy inson – kasb o‘rtasidagi bo‘ladigan munosabatlarni o‘rganib boruvchi jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Kasb psixologiyasi insonni o‘z faoliyati davomida kerak bo‘lgan, uni doimo qiziqtirib kelayotgan kasb yo‘nalishlariga yo‘naltirib turadi. O‘sib kelayotgan yoshlarga maslahat berish, ularni kasbga yo‘naltirish, kasblar haqida bilim berish, malakani oshirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, attestatsiyalash, o‘z kasbini ustasi bo‘lib yetishishlarida ularga yordam berish kabi ko‘plab amaliy ishlarni bajarib boradi.

Bundan tashqari kasbni insonga qo‘yadigan talablari ham bor, ki, kasb psixologiyasi bu masalalar bilan ham keng shug‘ullanishi zarur bo‘ladi. Bu talablar esa obyektiv bo‘lib, ularni inson o‘zgartira olmaydi. Kasb qo‘yadigan talablar birinchidan kasb bilan bog‘liq jarayonlar bo‘lsa, ikkinchidan jamiyat uchun zarur bo‘lgan talablar bilan bog‘liq bo‘ladi. Lekin bular insonni ishtiroki va ta’siri ostida shakllangandir. Kasblarning shakllanishi va rivojlanishi texnika so-

hasidagi taraqqiyot bilan va ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'ladi. Bu esa ko'plab kasblarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Kasb haqida ko'plab olimlar o'z fikrlarini bildirganlar. Kasbni tushuntirishda va uni psixologiya fani bilan bog'liqligini taniqlir rus psixologi K.M. Gurevich ham o'zicha ta'riflab bergan. Kasblar doimiy emas, ular paydo bo'ladi va yo'qolib ketadi. Ayrimlari fan – texnikaning rivojlanishi va takomillashib ketganligi sababli faqat nomigina saqlanib qolgan bo'lsada, o'zlari tubdan o'zgarib ketgandir. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, tikuvchilik kasbi – bu kasb texnikani o'sganligi sababli hozirda tikuvchilar avtomatlashtirilgan ko'plab tikuv stanoklarini boshqaradilar. Bu yerda matolarni to'qish nazarda tutilmoqda. Shuni aytilish kerakki, hozirgi to'quvchining ishini ilgari formatsiyadagi tikuvchining ishi bilan taqqoslab bo'lmaydi deb ko'rsatadi psixolog olim.

K.M. Gurevich kasblarni paydo bo'lishini va shakllanishini quyidagicha ko'rsatadi. 1) Mehnat taqsimotini yuzaga kelishi bilan; 2) Fan – texnikani paydo bo'lishi va taraqqiyoti bilan; 3) Formatsiyalarni o'zgarib borishi bilan. Bizning fikrimizcha bunga yana asos qilib insonni o'zini hayotiy ehtiyojlarini va manfaatlarini ham ko'rsatsa bo'ladi. Bular asosida yuqoridagi ko'rsatilgan jarayonlar sodir bo'ladi. Insonda ehtiyoj bo'lmas ekan faoliyatga ham, mehnat qilishga ham, bu mehnatni fan va texnika asosida rivojlantirishga ham ehtiyoj bo'lmaydi. Kasblarni paydo bo'lishi eng avvalo insondagi ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lib, so'ngra esa unga ta'sir etuvchi omillar, ya'ni mehnat taqsimoti, mehnatni yaxshilashga qaratilgan fan va texnikani va inson yashayotgan sharoit yangi kasblarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Inson faoliyatini ko'rinishi sifatida kasbning o'zi nima? degan savol berilar ekan, K.M. Gurevich unga shunday javob berishgan.

Gurevich K.M. ko'rsatib o'tganidek, olib borilayotgan kasbiy faoliyatni amalga oshirayotgan ishiga qarab, uning jamiyatga qo'shayotgan ulushiga qarab haq to'lanishi, bu kasbdagi ijodiy sharoitga, mehnat unumdorligiga qarab farqlanib borishini ko'rish mumkin bo'ladi. Kasblarni paydo bo'lishi va insonni unga bo'lgan ehtiyojini borligi – bu insoniyatni va jamiyatni yashashining, hayot kechirish jarayonlarining ko'rinishi va kelajagi hisoblanadi.

Kasb va kasb psixologiyasi o'zining tadqiqot sohasi bilan eng muhim amaliy ishni hayotga tadbiiq etib boradi. Bu yuqoridagi ko'rsatganimizdek, inson va kasb o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish orqali insonni kasbga tayyorlaydi, uning imkoniyatlarini va qiziqishlarini o'rganish orqali unga ma'lum bir kasblar haqida bilimlar berib boradi va o'ziga qiziq tuyulgan kasbni egallashga yo'l – yo'riqlar ko'rsatadi. Bu kabi ko'plab misollarni, ya'ni insonni kasbga o'rgatish, kasbga xos bo'lgan sir asrirlarni singdirish insoniyat tarixida ko'plab uchraydi. O'sib kelayotgan yosh avlod, uning kasb egallash bilan bog'liq masalalar katta avlodni har doim qiziqitirib kelgan va hozirda ham bu masala dolzarb masalalar qatorida turadi.

Ko'rinib turibdiki, kasb psixologiyasi o'zining ildizlari bilan qadimga borib taqaladi. Bu insonni o'z tirikchiligini o'tkazish uchun qanday faoliyat turi bilan shug'ullanishi, qaysi kasb unga ma'qul kelishi va yashashi uchun qulayliklar yarata olishi bilan bog'liq bo'ladi. Insoniyat o'zi yashayotgan jamiyatni bir butunlikda, yaxlitlikda hayot kechirishi uchun o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib har doim kasblarni tanlab borgan. Bu bilan birga insonda shu kasbga xos ruhiyat ham o'zgarib boradi. Inson va kasb o'rtasidagi aloqa insonni mehnat jarayoni bilan bog'liq holda shakllanib borgan.

Kasblarni har xil yo'sinda guruhlariga ajratilar ekan, E.A. Klimov bo'yicha beshta guruhni ko'rsatish mumkin bo'ladi. Bular: 1) Inson – texnika; 2) Inson – inson; 3) Inson – tabiat; 4) Inson – belgili

tizim; 5) Inson – badiiy obraz. Bu esa insonning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kasblarni shu beshta yo‘nalishga ajratishga olib keladi. Kasb tanlayotgan insonlar tanlov aynan shu beshta yo‘nalish bo‘yicha sodir bo‘ladi. O‘tib kelayotgan yosh avlod o‘zining qiziqishlari bilan bir - birlaridan ajralib turadi. Ba’zi bir yoshlar texnikaga, ayrimlar insonni o‘ziga va yana boshqalar tabiatga qiziqadilar. Ularning qiziqishlari shu sohalarga tegishli bo‘lgan kasblarni tanlashiga olib keladi. Bu esa ularning qiziqishlari xilma - xilligini ko‘rsatadi.

Kasb psixologiyasi fanini mustaqil fan sifatida shakllanishiga chet el psixologlari salmoqli hissalarini qo‘shganlar. Bular Borne-
mann E., Borow H., Daheim H.J., Crites J.O., Hess H.A., Holland J.L., Jaide W., Ries H. va shu kabilardir. Crites J.O. Vocational psychology :The study of vocational and development. New York 1969., Super D.E, Bonn M.J. Occupational psychology. London 1971 asarlari kasb psixologiyasini o‘rganishga qaratilgandir. Kasb tanlashning psixologik tomonlari D.E. Syuper izlanishlarida ko‘zga tashlanadi. U kasbiy yo‘nalishning yangi o‘ziga xos nazariyasini va tomonlarini ishlab chiqdi. U kasb tanlashni kasbiy yo‘nalishning bir ko‘rinishi deb tushunadi. [38, 9.] Bu va boshqa asarlardan keng foydalangan E.F. Zeer kasb psixologiyasini tarixini va rivojlanish etaplarini qarab chiqqandir. Albatta chet elda o‘rganilgan kasb psixologiyasi o‘zining o‘rganilishi jihatidan ayrim aniq ishlab chiqarish bilan bog‘liq yo‘nalishlarni o‘rgangan. O‘z jamiyatini o‘rgangan bu asarlarda faqat o‘z jamiyatiga xizmat qiladigan qirralarnigina ochib bergan. Deylik, bu olimlar harbiy sohaga kadrlar tanlashni, o‘qishda talabani qaysi sohaga layoqati borligini, meditsinaga xos tadqiqotlarni o‘rganganlar. Shuning uchun bu asarlardan to‘la foydalana olmaymiz. Ularda maxsus yo‘nalishlar tahlil qilingan. Umum kasbiy psixologiya masalalari yetarlicha ochib berilmagan.

Kasb psixologiyasi fanining obykti va predmeti

Psixologiyaga umumiy tarzda baho bersak – bu inson faoliyatini obyektiv reallik sifatida aks ettirish Qonunlari haqidagi fandir. Fandagi va amaliyotdagi differensial – integratsion jarayonlar psixologiyaning ko‘plab yo‘nalishlarini paydo bo‘lishiga olib keladi. Bularning har biri o‘zining mummolarini yechadi, ularning alohida vazifalari, metodlari va tushuntirib beruvchi tamoillari mavjud. Eng asosiysi fanning mustaqil yo‘nalishlari paydo bo‘lib ularning o‘ziga xos predmeti mavjudligidir.

Ko‘plab psixologiyaga tegishli bo‘lgan yo‘nalishlardan biri bo‘lgan kasb psixologiyasi o‘z o‘zidan paydo bo‘lmadi. Balki u insoniyatni o‘z ehtiyojlarini qondirish, yaxshi yashash uchun bo‘lgan intilishlari bilan bog‘liq holda shakllanib bordi va o‘z mehnatini yengillashtirish, ko‘proq hayot kechirish uchun imkoniyatlar izlanishining natijasi sifatida rivojlandi. Kasb psixologiyasi insonni mehnat qilishga, o‘z rizqini o‘zi topgan holda kelajagini qurish maqsadida shakllanib borgan uzoq tarixga ega bo‘lgan soha hisoblanadi. Albatta u insoniyatning keyingi tarixiy taraqqiyotida mustaqil soha sifatida shakllandi. Lekin ota – bobolarimiz yoshlarni tarbiyalashda kasbning o‘rni haqida juda ko‘plab fikrlar aytib o‘tganlar. Muqaddas “Avesto”da ham kasbni egallash to‘g‘risida fikrlar aytilgan. Bu qadimiy qo‘lyozmada yoshlar albatta kasbni egallashlari va boshqa odamlarga o‘z og‘irliklarini tashlamasliklari kerakligi ko‘rsatilgan. Bularda kasbga va insonga xos bo‘lgan psixologiya o‘z aksini topgandir.

Jamiyat yashashi uchun inson mehnat qilishi va o‘z ulushini jamiyatga qo‘shib borishi zarur bo‘ladi. Jamiyatga va uning Qonunlariga to‘g‘ri kelmaydigan daromad manbai bo‘lgan kasblar jazolanishi kerakligi ham tarixda yozib qoldirilgan va bu hozirda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham o‘z aksini topgandir. To‘g‘ri va halol topilgan manba insonni yaxshilikka

olib keladi va u tarbiyalayotgan kelajak avlod ham o'zining halol mehnati bilan jamiyat yashashiga hissa qo'shadi deb ko'rsatiladi.

Kasb psixologiyasi insoniyat mehnatini tashkil qilish bilan birga paydo bo'lib to hozirgi zamonlarga etib keldi. Qadimgi zamonlardayoq insonni kasb tanlashi va uni ustasi bo'lib yetishish masalasi dolzarb hisoblangan. Bu yerda inson va kasb o'rtasidagi munosabat, kasbni yaxshilab egallash va insonlarga foydali bo'lish masalasi juda dolzarb hisoblangan. Shu tariqa kasb psixologiyasining predmeti, ya'ni o'rganish asoslari yuzaga chiqqan.

Kasb psixologiyasining predmeti – bu shaxsni kasbni egallashi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos tomonlari, Qonuniyatlari, mexanizmlarini o'rganish hisoblanadi. *Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, kasb psixologiyasi – bu amaliy psixologiya*ning alohida yo'nalishi bo'lib, shaxsni kasb tanlashining Qonuniyatlari shakllanishini, kasb tanlashini, bu kasbni egallashini, kasb mutaxassisini shakllanishi, baholanishini va shu kasbni egasi bo'lishini, shuningdek kasbiy destrukturani o'rganuvchi fan hisoblanadi.

Kasb psixologiyasini predmeti- bu shaxsni kasb tanlashi, o'z kasbini yaxshi bilishga intilishi, insonni kasb tanlashiga sabab bo'luvchi motivlarni va o'zini yaxshi yashashi uchun intilishi kabi masalalarni o'rganish orqali namoyon bo'ladi. Insonni kasbni egallashi bilan bog'liq bo'lgan Qonunlarni, bu Qonunlarni ishlash mexanizmini, kasbga xos bo'lgan shaxsni tarbiyalash, uning o'zi tanlagan kasbga bo'lgan munosabati kabi masalalarni o'rganish kasb psixologiyasining predmetiga kiradi.

Kasb psixologiyasining obyekti - bu shaxs va kasb o'rtasidagi o'zaro ta'sir, bu ta'sirning natijalarini o'rganish hisoblanadi. Inson o'z hayoti davomida kasb tanlar ekan, bu ikki jarayon o'rtasida o'zaro ta'sir sodir bo'ladi. Bu o'zaro ta'sirdan insonda qoniqish yoki

qoniqmaslik jarayoni paydo bo'ladi. Qoniqish insonni o'z hayotini yaxshi qurishiga, undan o'ziga xos foyda ko'rishga olib keladi. Qoniqmaslik esa insonni o'z kasbini o'zgartirishga va tanlagan kasbidan qoniqmaslikka olib keladi.

Kasb psixologiyasining obyekti bo'lib shaxs va kasb o'rtasidagi o'zaro munosabat hisoblanadi. Kasb psixologiyasi shaxsni kasb egallab borishini o'rganadi. Kasb psixologiyasini o'rganishning markazida shaxsni kasbiy rivojlanib borishi va kasbni tanlab olishi yotadi. Bu yerda shaxs kasbiy shakllanishning subyekti sifatida qaraladi.

Kasbni o'rganish davomida mutaxassisni kasbiy xulqiga va har xil ijtimoiy madaniyat va ijtimoiy iqtisodiy sharoitlardagi xatti – harakatiga e'tibor beriladi. Kasbni egallashdagi individual xususiyatlarga va shaxsni tizimiga uning ta'siri ham o'rganiladi. Asosiy diqqat shaxsning bilimlariga asoslangan kasb yutuqlariga, motivatsion va psixologik omillariga qaratiladi. Inson va uning kasbi, kasbiy roli va kasbning dunyo tizimidagi munosabati kabilar tahlil qilinadi.

Kasb psixologiyasi hozirgi zamon kishisi uchun kasbiy faoliyatning ahamiyatini, insonni kasb egasi bo'lib borishdagi individual qiralarini, bolalik davridagi kasbga bo'lgan munosabatlarni o'sib borishini, kasbiy qadriyat va mehnat motivlarini, kasbiy mehnatdan qoniqishini, shuningdek kasbni inson biografiyasiga ta'sirini o'rganadi.

Kasb psixologiyasining obyekti bo'lgan shaxs va kasb o'rtasidagi o'zaro munosabat shaxsga xos bo'lgan psixologik xususiyatlar va individual – psixologik jarayonlarga va kasbga xos bo'lgan xususiyatlarga ham bog'liq bo'ladi. Shuni aytish joizki, kasbga xos bo'lgan psixologik va kasbni o'ziga xos tomonlari ham mavjuddir. Deylik, tikuvchilik kasbi va uning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari, psixologik tomonlari mavjud. Bu kasb egasi materiallarni yaxshi bilishi, uni sifati va tikilish usullari, estetik va dizayn bilan bog'liq nozik tomonlarini har doim sezib turadi. Demak, tikuvchining psi-

xologik xususiyati bu uning nozik ta'bligi, odamlarning ruhiyati bilan bog'liq didini yaxshi sezgan holda ishini bajarishi kerakligini ko'rsatadi. Tikuvchi insonni go'zal kiyimlar bilan bezatishga intiladi. Bu materialni tayyorlab beruvchi boshqa kasb egalari ham o'zlariga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarga ega bo'ladilar. Albatta, ko'rinib turibdiki, shaxs va kasb o'rtasidagi me'yoriy munosabat amalga oshirilayotgan ishlarni sifatini tashkil etadi. Kasb psixologiyasini psixologiya fanining mustaqil yo'nalish ekanligini ko'rsatish uchun mehnat psixologiyasini, injenerlik psixologiyasini, pedagogik va yosh davrlar psixologiyasini predmeti va obyektni farqini ko'ramiz. Bunda kasb psixologiyasini boshqa psixologik fanlar bilan uzviy bog'liqligi va ularni o'rganish predmetlari kasb psixologiyasi uchun ahamiyatli ekanligi ko'zga tashlanadi.

Kasb psixologiyasi bu fanlar predmeti va o'rganish obyektni farqlanishi bilan birga ularni olib borayotgan tadqiqotlari yutuqlariga ham suyanadi. Kasb psixologiyasining predmetini o'rganish orqali insonlarni kasb tanlashga yo'naltiriladi. Kasb psixologiyasi injenerlik psixologiyasi, mehnat psixologiyasi, yosh davrlar psixologiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning yutuqlaridan foydalangan holda yoshlarni kasbga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi.

Kasb psixologiyasining o'rganish predmeti shaxsga xos bo'lgan psixologik xususiyatlardan kelib chiqib kasbga insonni qiziqishini, bu kasbni egallash bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlar va manfaatlarini, maqsad va intilishlarini o'rganadi. Har bir inson o'ziga yarasha individual ekanligini undagi psixologik xususiyatlar o'ziga xos jarayon ekanligini o'rganib boradi. Deylik ayrim yoshlar kasbni tez o'rgansa ayrimlari unchalik diqqat qilmaganligi, e'tiborsizligi tufayli kasbni o'rgana olmasligini ko'rish mumkin. Jadval: [18, 17.]

Psixologiya yo'nalishlari	Izlanish predmeti	O'rganish obyekti
Mehnat psixologiyasi	Mehnat faoliyatini qonuniyatini va xususiyatini o'rganadi	Mehnat faoliyati: uning psixofiziologik va bajarilish xarakteristikasi
Injinerlik psixologiyasi	Texnika va insonni o'zaro ta'sirini psixologik qonuniyatlarini o'rganadi.	"Inson - mashina" tizimi
Pedagogik psixologiya	Ta'lim va tarbiyaning psixologik qonuniyatlarini o'rganadi	Tarbiyalanuvchilar
Yosh davrlar psixologiyasi	Shaxsni ontogenezdagi psixologik rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadi	Shaxsni ontogenezdagi psixologik rivojlanishi
Kasb psixologiyasi	Shaxsni kasb egasi bo'lib borishining psixologik qonuniyatlarini o'rganadi	Shaxsni "Inson - kasb" tizimidagi rivojlanishini o'rganadi

Ayrim yoshlar nazariy jihatidan tez o'zlashtirsalar ayrimlari amaliyotda tez va yaxshi o'zlashtirib boradilar. Kasb tanlashda ham ayrimlar o'z maqsadlarini yaxshi anglamaganligi tufayli kasb tanlay olmaydi. Ayrimlarga qaysi kasb bo'lsa ham baribir, ular kasblarni yaxshi bilmaydilar. Kasb psixologiyaning obyekti bo'lgan "inson –kasb" munosabatlari yuz beradigan o'zgarishlarni diqqat – e'tiborga olishi zarur va bular bu sohadagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikni vujudga keltiradi. Bu o'zgarishlarni N.D. Levitov ko'rsatganidek uchta guruhga birlashtirish mumkin:

1. Birinchi guruh – motivatsion komponentlar bo'lib, bu ijtimoiy ahamiyatlilik bilan bog'liq bo'ladi. Motivlarda insonni ma'lum bir kasbni egallashni xohlashi yoki xohlamasligi bilan bog'liq tomonlar ochib beriladi. Motivlarning shakllanishi esa kasbni jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatliliigi, ahloqiy tomonlarini hurmatlashi kabi tomonlar bilan o'lchanadi. Shu bilan birga motivga mehnatga beriladigan haq, kasbiy va kasbdan tashqaridagi hayot obrazi va shu kabilar

ta'sir etadi. Bundan tashqari motiv bo'lib oilasini ta'minlanganlik darajasi, tengdoshlarini fikrlari, ish joyini yaqin va uzoqligi, ota - onasining fikrlari va shu kabilar kiradi. Albatta motivga insonni o'zini mehnatidan oladigan qoniqish ham kiradi.

2. Ikkinchi guruhga – klassifikatsiya komponentlari kiradi. Deyarli hamma kasblar oldindan tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Bilish va uddalash qanday tarzda sodir bo'lishidan qat'i nazar, o'qish orqali yoki amaliyotda egallanadimi u kasbga bo'lgan munosabatda va unga bo'lgan layoqatda ko'rinadi. Insonni mehnatga bo'lgan layoqati uning psixofiziologik imkoniyatlaridan, o'zining xohishidan, ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqadi. Inson har qanday kasbni egallay olishi uchun eng avvalo unda layoqat bo'lishi, o'zida bilim va malakaga ehtiyoj sezishi muhimdir.

3. Uchinchi guruhga –shaxsning individual– psixologik xususiyatlari kiradi. Albatta motivlarni shakllanishida va uddalay olishda psixologik xususiyatlar muhim hisoblanadi. Lekin uni alohida o'rganish obyekti sifatida qarash kerak. Bir kishini ikkinchisidan ajratib turadigan ko'plab belgilardan doimiy yuz beruvchilariga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. Bu belgilar asosan biologik va tabiiyligiga bog'liq bo'ladi. Kasb psixologiyasining obyekti bo'lgan “inson –kasb” munosabatlarida bu tomonlar uning o'rganish predmeti sifatida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shaxsga xos bo'lgan individual – psixologik xususiyatlar insonni o'ziga xos bo'lgan tomonlari, ya'ni temperamenti, xarakteri, qobiliyati, dunyoqarashi kabi tomonlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

“Inson – kasb” munosabatlari shakllanib borishi natijasida shu yuqorida ko'rsatilgan uchta komponentlar muhim hisoblanadi. Ular birgalikda insonni o'zi tanlab olayotgan kasbini to'g'riligini ko'rsatib beradi.

Ko‘rinib turibdiki, kasb psixologiyasini predmeti va o‘rganish obyekti – bu uning hal qilishi kerak bo‘lgan ko‘pgina masalalar bilan bog‘liqdir. Bu sohada kasb psixologiyasi doimo izlanishda va tahlil qilishda bo‘lishi zarur bo‘ladi. Eng muhimi kasb psixologiyasi inson uchun kerak bo‘lgan qulaylikni yaratishi va ishlab chiqarishda insonni o‘rmini yaxshilab borishi muhim jarayon ekanligidan kelib chiqib izlanib boradi.

Kasbga xos psixologik jarayonlar va ularni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlar

O‘sib kelayotgan yoshlarni o‘ziga xos bo‘lgan dunyoqarashi borligini ajratib ham ko‘rsatish zarur. Bu dunyoqarash ularni atrof – muhitga, tabiatdagi va jamiyatlardagi hodisalarga qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bu esa kasb tanlovchining olayotgan bilimlaridan, malakalaridan, psixofiziologik imkoniyatlaridan, psixologik xususiyatlari, individual – psixologik tomonlaridan kelib chiqadi. O‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olgan insongina to‘g‘ri yo‘lni tanlay oladi. Bu yoshlardagi tirishqoqlik, uddaburonlik, bilimga chanqoqlik, kuzatuvchanlik, o‘zini sinab ko‘rishga intilishi kabilarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Yoshlarda o‘ziga xos ravishda ayrim kasblarga qiziqishlar shu kasb bilan bog‘liq ayrim psixologik xususiyatlarda ko‘zga tashlanadi. Masalan, hozirda qaysi boladan so‘rasang ko‘proq men tadbirkor bo‘laman, o‘zimni ishimni yo‘lga qo‘yaman deb javob beradi. Tadbirkor bu savdo sotiq, ishni tashkil etish, o‘zini mehnati bilan kapital ishlash hisoblanadi. Lekin bolalarda ko‘proq mashinaga ega bo‘lish, puldor bo‘lish, hamma narsani bemalol sotib olish kabi tomonlar ko‘zga tashlanadi. Buning ko‘zga tashlanmas qiyinchiliklarini ular ko‘ra olmaydilar. Shunday o‘ziga xos bo‘lgan tomonlar esa

ularni qiziqtirib boradi. Yoshlarni shunday tomonlarga qiziqib borishi ular orasida tadbirkor bo'lishga havas uyg'otadi. Xuddi shuningdek, tikuvchilik kasbi yoki paxtani qayta ishlash, dizayner bo'lish kabi tomonlar ham yoshlarni qiziqishlaridan kelib chiqadi. Har bir kasbni o'ziga xos bo'lgan psixologik tomonlari borki, bu yoshlarni doim o'ziga tortib turadi. Qiziqishini anglay olgan bolagina o'zi uchun kasbni to'g'ri tanlay oladi.

Yoshlardagi havas, qiziqish ularni shu kasbni egallashga intiltirib turadi. Zukko yoshlar shu kasbga tegishli bo'lgan bilimlarni eng avvalo kuzatishlar, so'rab bilishlar, kitoblardan o'qish orqali, hozirda esa internet orqali bilishga harakat qiladilar. O'zlari qiziqqan kasblari haqida ko'plab ma'lumotlar to'playdilar. Yoshlarni biror bir narsani yaratuvchanlik qiziqishi injenerlik yoki uning biror bir yo'nalishiga etaklaydi. Hozirda dunyoda ko'plab yangiliklar yaratilmoqdaki yoshlar va ularning diqqatlari doimo qiziqishlaridan kelib chiqqan holda shu obyektlarga qaratilmoqda. Har bir sohaning o'ziga xos bo'lgan qiziqarli tomonlari mavjuddir. Pedagog ham bolalarga yetkazib berishi kerak bo'lgan bilimlarni sifatli, qiziqarli, yetib boradigan qilib darslarni o'tkazishga va o'sib kelayotgan yoshlar o'rtasidan yaxshi kadrlar yaratishni orzu qiladi. Pedagog tarbiyalagan bolalar o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda jamiyatga ko'plab yangiliklar kiritishi mumkin bo'ladi. Pedagog esa shunday kadr yaratib bera olganidan faxrlanadi. Demak, ko'rinib turibdiki, yoshlarni kasbga yetaklovchi ehtiyojlardan biri uning qiziqishlari hisoblanadi. Bu esa insonni biror bir narsaga yetilib kelgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Bolalar o'sib borgan sari ma'lum bir taraqqiyot yo'lini bosib o'tadilar. Pedagogik sotsiologiyada aytilganidek bola tarbiyasiga o'z ta'sirini o'tkazayotgan omillar uni o'ylashga, o'z manfaatlari yo'lida mehnat qilishga majburlaydi. Yetilib kelayotgan yoshlardagi o'zgarish ularda ijtimoiy jarayonlarga va bu jarayonlardagi o'z o'rnini bilishga chorlaydi. Katta bo'layotgan, aql –

farosatga ega farzand kelajagi haqida bosh qotiradi, hayol suradi, kelajagini rejalashtiradi. Bular esa unda ko‘plab ehtiyojlarni paydo qiladi. Bolalik davridan o‘smirlik va o‘spirinlik davrlariga o‘tib borayotgan farzandda psixologik va eng asosiysi anatomik – fiziologik o‘zgarishlar yuz bera boshlaydi. Endi yoshlar o‘zidagi tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy ehtiyojlar tizimini seza boradi. Bu qator ehtiyojlardan biri yoshlarni kasb orqali o‘zini ta‘minlash ehtiyoji hisoblanadi. Bu ehtiyoj yoshlarni kasb tanlashga, o‘z hayotini go‘zal qilib yashashga majburlaydi. Aks holda ularda jamiyatga zid bo‘lgan jarayonlar paydo bo‘ladi.

Yoshlarni kasb egallashi nafaqat ularning ehtiyoji balki jamiyatning ham ehtiyoji hisoblanadi. Shuning uchun jamiyat o‘z ishlab chiqaruvchilarini yaratishi zarur jarayonga aylanadi. Jamiyat ishlab chiqarish orqali yashaydi va hayot kechiradi. Jamiyat ehtiyojlari har doim o‘sib boradi. Uni qondirishning yagona yo‘li kasb egalarini tarbiyalash, ularning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda yangidan yangi kasblarni yaratish hisoblanadi. Shuning uchun ham boshqa rivojlangan davlatlarda ko‘plab yangi kasblar paydo bo‘ladi va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga intiladi.

Jamiyatdagi ko‘plab ehtiyojlar shu kasbga kerak bo‘lgan kadrlarni yaratishni talab qiladi. Bu esa yoshlarda, ularning qiziqishlarida va maqsadlarida o‘z aksini topadi. Jamiyatda yaratuvchanlikka xos bo‘lgan mehnat qadrlanadi. Jamiyat uchun yaratilayotgan mahsulotlar va ularni tashkil etish ko‘plab kasblarni paydo qiladi. Demak, ko‘rinib turibdiki, inson va jamiyat ehtiyojlari uzviy ravishda bog‘liq jarayonlar ekan.

Kasb psixologiyasida kasblarga xos psixologik xususiyatlar va shaxsning psixologik xususiyatlari o‘rtasida munosabatlarni o‘rganuvchi yo‘nalish ham mavjuddir. Haqiqatdan shaxsdan kasb talab qiladigan psixologik xususiyatlar mavjudki, insonda bu xususiyatlar bo‘lmasa u bu kasbda o‘z yutug‘iga ega bo‘la olmaydi. Tadqiqotchi-

lar bu xususiyatlarni aniqlash uchun maxsus testlar o'tkazib insonni shu kasbga layoqatini tahlil qiladilar. Kasblar o'zidagi faoliyatlarni bajarish uchun insondan ma'lum bir psixologik xususiyatlarni egasi bo'lishlarini talab qiladilar. Deylik xotirani yaxshi bo'lishini, diqqatni yaxshi bo'lishini, hayol jarayonlardagi Qonunlarni o'zlashtirgan bo'lishini, sezgirlikni yaxshi rivojlanganligi, ayrim faoliyatlarda sabr – toqat, tartiblilik, intizom, ijodiy yondosha olish, har xil holatlardan chiqib keta olish, halollik, mehnatsevarlik, boshqalarni hurmat qilish va ularni haq – huquqlarini yaxshi bilish, bilimlilik darajasini yuksakligi, rahbarlik qilish uchun kerak bo'lgan xususiyatlarni bilish, tijorat uchun kerak bo'lgan psixologik xususiyatlarga ega bo'lish kabi ko'plab tomonlar bu jarayonlar uchun kerak bo'ladi.

Jamityada insonni qiziqtirgan ko'plab kasblar borki ular bir- biridan juda farqlanib turadi va insondan kasbga loyiq bo'lgan psixologik xususiyatlarni talab qiladi. Deylik pedagog uchun didaktik usul juda mos tushsa, aktiyor uchun xotiraning, hayolning va boshqa psixik jarayonlarning o'rni boshqacha hisoblanadi. To'qimachilik va yengil sanoatda ishlayotgan ishchi, injener, dizayner uchun o'ziga xos psixologik xususiyatlar kerak bo'ladi. Ya'ni dizayner uchun estetik did, hayol, tafakkurni egiluvchanligi, diqqat va juda nozik holdagi ranglarni ajrata olish kabi ko'plab xususiyatlar zarur bo'ladi. To'qimachilik va yengil sanoat uchun ko'plab xilma xil kasb egalari kerak bo'ladi. Bular uchun ham kasb psixologiyasi o'ziga xos bo'lgan inson psixikasini qirralarini shu kasbga xos tomonlarini va shaxsda ularni rivojlantirish masalalarini ham o'rganib boradi.

Yoshlarning qiziqishi, maqsad va manfaatlari o'z dunyoqarashlariga kerak bo'lgan kasbni tanlashga, bu kasbga xos bo'lgan psixologik tomonlarni bilishga intiltirib turadi. Kasb psixologiyasi har bir kasbga xos bo'lgan psixologik jarayonlarni o'rganib ularni tahlil qilib boradi.

Kasb psixologiyasi fanining kelajagi va hozirgi zamon talablari

Kasb psixologiyasi fani haqida soʻz ketganda shuni taʼkidlash kerakki, bu fanning kelajagi hali oldinda. Chunki jamiyat yashar ekan unda kasblarga boʻlgan zaruriyati mavjud ekan, bu kasblarni tanlash, yoʻl - yoʻriq berish zaruriy jarayon boʻlib qolaveradi. Koʻplab yangi kasblar paydo boʻladi va ularni oʻrganishga ehtiyojlar ham zaruriy jarayonlar boʻlib qoladi.

Sharq allomalaridan biri boʻlgan Nizomiy Ganjaviy shunday jumalarni yozgan edi:

Oʻqib oʻrganilgan har bitta hunar,
Hunarmandga bir kun foyda keltirar!
Hunaringdan bir kun yetarsan baxtga,
Hunarsiz kim yetar toj ila taxtga? ! [28, 20.]

Insonni baxtga olib keluvchi, uning yashashini yaxshilovchi – uning kasbi, ottirgan hunari ekanligini Sharqning buyuk faylasuf olimi Forobiy ham oʻz asarlarida koʻrsatib oʻtgan edi. “Juzʼiy narsalar eng yetuk baxtga–saodatga olib boruvchi fazilatli sanʼat (kasb - hunar) lardir.”

Bu fikrlarning oʻzi ham insonni kasb - hunar ottirishi uning eng asosiy burchi ekanligini koʻrsatadi. Lekin kasbga qiziqmaydigan, takasaltang, ish yoqmas yoshlar ham yoʻq emas. Ularning jamiyatga, oilasiga foydasidan koʻra ziyoni kattadir.

Hozirda Oʻzbekistonda ham yoshlarni taʼlim va kasb bilan taʼminlash masalasi dolzarb masalalardan boʻlib turibdi. Oʻz kasbini egallay olmagan koʻplab yoshlarni hunarli qilish, ulardan jamiyatga keladigan foydalarni taʼminlash, ota - ona, mahalla, jamiyat oldida turgan katta masalalardan biri hisoblanadi. Kasbga qiziqish, undan manfaat topish insonning oʻziga, qolaversa ota - onasiga, jamiyatga kerakligini anglash muhim vazifalardan hisoblanadi. Bular esa yoshlar oldiga koʻplab vazifalarni qoʻyadi:

- 1) O‘zi uchun foydali bo‘lgan kasbni to‘g‘ri tanlab olishni;
- 2) Bu kasbni yaxshi egallashni va o‘z kasbini ustasi bo‘lib yetishishni;
- 3) Kasbi haqida ko‘plab bilimlarni egallashni;
- 4) Kasbiga ijodiy yondosha olishni;
- 5) Mehnatsevar, o‘z ishini o‘zi tashkil qila oluvchi, kasbiga xos ahloqni egallashi;
- 6) O‘zining shogirdlarini yaratishga intilishi;
- 7) Jamiyatga va ota - onasiga yaxshi nomlar bilan maqtovl olib kelishi;
- 8) Kelajakda nafaqaga chiqishga ehtiyojlar paydo bo‘lganda uning ishlarini davom ettiruvchi shogirdlarni yaratishi va o‘z maktabini qoldirishi;
- 9) Kasbini o‘ziga xizmat qiluvchi va kelajagini ta’minlovchi hunar sifatida shakllantirishi;

Bu kabi talablar yoshlarga ko‘pgina imkoniyatni yaratib beradi. Kasbga bo‘lgan ehtiyoj yoshlarni oldiga qo‘yadigan talablar bilan uzviy bog‘liqdir. Yoshlar o‘zlariga yoqqan kasblarni tanlaganlardagina unga qiziqadilar va unda o‘zlariga foyda ko‘radilar.

Kasb psixologiyasi ham aynan shunday talablardan kelib chiqqan holda rivoj topib boradi. Kasb psixologiyasining kelajagi bu jamiyatdagi ehtiyojlar va manfaatlar bilan bog‘langandir. Bu eng avvalo quyidagilar bilan bog‘liq:

- Jamiyat taraqqiyoti
- Aholini o‘sib borishi
- Talab va ehtiyojlar
- Yoshlarni kasb tanlashlari
- Fan va texnika taraqqiyoti
- Yoshlarni bilim darajasi
- Yoshlarda jamiyatga foyda keltirishni anglashlari

- Yoshlarni o‘z hayotlarini farovonlashtirishga intilishlari
- Katta avlod va yosh avlod o‘rtasidagi ustoz – shogird munosabatlari
- Jamiyatni yoshlarga beradigan e’tibori
- Yangi faoliyat turlarini paydo bo‘lishi
- Mehnatni to‘g‘ri tashkil etish
- Jamiyatga ehtiyoj sifatida paydo bo‘layotgan yangi kasblarni shakllanishi bilan va sh.k.

Takrorlash uchun savollar

1. Kasb va kasb psixologiyasi haqida umumiy tushuncha.
2. Kasb psixologiyasining o‘rganish obyekti va predmeti.
3. Kasbga xos psixologik jarayonlar va ularni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlarni shakllanishi.
4. Aytingchi kasb qanday tanlanadi?
5. Insondagi kasb tanlashga xos psixologik jarayonlar.
6. K.M. Gurevich Kasbni paydo bo‘lishini qanday tushuntiradi?
7. E.A. Klimov Kasbni qanday guruhlarga ajratadi?
8. Kasb psixologiyasi fanining o‘rganish predmeti nima?
9. Kasb psixologiyasini fan sifatida paydo bo‘lishiga nima sabab bo‘ladi?
10. Kasb haqidagi qadimiy tushunchalarni bilasizmi?

1.2 Kasb psixologiyasi fanining vazifalari va boshqa fanlar bilan aloqasi

Kasb psixologiyasi fanining shakllanishi va vazifalari

Kasb psixologiyasining shakllanish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Bu kasblar paydo bo‘lishi bilan, insoniyat o‘zligini tani-

shi bilan, jamiyatda mehnat taqsimoti paydo bo'lishi bilan shakllanib borgandir. Bizga ma'lumki insoniyat ibtidoiy jamiyatda o'ziga xos holda mehnatni taqsimlanishini boshidan o'tkazgan. Bular esa uning tarixiy taraqqiyotida yanada murakkab jarayonlarni yuz berishi bilan, insoniyat o'z boshidan ma'lum bir tarixiy etaplarni bosib o'tishi bilan bog'liqdir. Biz bular haqida insoniyatda yozuvni paydo bo'lgungacha davrlarda, g'ordagi chizilgan rasmlarda ham ko'rishimiz mumkin. Keyinchalik insoniyat o'z orasidan ma'lum kasblarni o'zi uchun tirikchilik manbai qilib olganligida ko'rishimiz mumkin.

Insoniyat ibtidoiy jamiyatdan quldorchilikka va undan yer bilan ishlovchi - feodalizmga, ishlab chiqarishni rivojlanishi orqali fan va texnika bilan bog'liq bo'lgan kapitalizmga o'tib borar ekan, har xil bo'lgan kasblar paydo bo'ldi va ular orqali tirikchilik o'tkazildi. Insonlarni ma'lum bir kasblarga bo'lgan intilishi o'z hayot faoliyatini yaxshilashga, tirikchiligini o'tkazishga intilishlarni olib keldi. Jamiyatdagi mehnat taqsimoti insonlarni o'rganishga, ularni ma'lum bir kasblarda yaxshi natijalar berishini ko'rsatdi. Kasbga xos bo'lgan psixologik jarayonlar ham shakllanib bordi. Jamiyatga va insonlarga kasbini yaxshi biladigan, bilimli, mohir kasb egalari, shuningdek bu kasbni qaysi birini tanlab o'zi va jamiyat uchun foydali ishlarni bajara oladigan shaxslar ham zarur bo'ldi. Shu tariqa jamiyatga insonni kasbini va uni kasbiga mos keluvchi psixologik jarayonlarni o'rganuvchi kasb psixologiyasiga ehtiyoj tug'ildi. Lekin bu ham darrov yuzaga kelgani yo'q. Yillar davomida insonni kasbga bo'lgan munosabatini, kasbni egallashi bilan bog'liq jarayonlarni va mexanizmlarni, qarilik bilan bog'liq, ya'ni kasbdan ketish jarayonlarini, kasbni almashtirish va yangi bir kasbni egallash, kasbdagi qo'nimsizlik sabablarini, kasbni ustasi bo'lib yetishish va uning sirlarini, kasbdagi ijod va yangi qirralarni topish kabi ko'plab masalalarni o'rganishi kerak bo'lgan kasb psixologiyasiga ehtiyoj ko'payib bordi. Bu fan eng avvalo Yevropada shakllandi va

keyinchalik boshqa davlatlarga ham tarqaldi. Kasb psixologiyasining o'zi ham yangi kasb shakli sifatida insonni madaniyatini boyitib bordi.

Sharqda ham kasbga bo'lgan munosabatlar sharh mutafakkirlarining asarlarida o'z ifodasini topgan. Kasb haqidagi qadimiy fikrlarni eng qadimiy ta'limot bo'lgan muqaddas "Avesto"da uchratamiz. Keyinchalik esa sharqning buyuk allomalari asarlarida, xalqning og'zaki ijodida kasb haqidagi fikrlar yanada shakllandi. Kasbni ular yashashning, inson faoliyatidagi mustaqillikning, bitmas tuganmas boylikning, jamiyatda insonni o'rnini ko'rsatib beradigan asosi sifatida tushuntirib berdilar.

Jamiyatda paydo bo'lgan kasb psixologiyasi o'z o'zidan shakllanmadi, balki o'z oldiga ma'lum bir vazifalarni qo'yib, ularni yechishga va jamiyatda inson va kasb o'rtasida paydo bo'ladigan munosabatlardagi masalalarni o'rganishga, ularga javob topishga harakat qiluvchi fan sifatida shakllandi. Kasb psixologiyasi O'zbekistonda fan sifatida endi tashkil topayotgan psixologik yo'nalish hisoblanadi. Lekin uning ildizlari qadim davrlarga borib taqaladi.

Inson va jamiyat uchun fanning ahamiyati juda kattadir. Umuman fan haqida gapiradigan bo'lsak fanni quyidagicha ta'riflash mumkin: "Fan – bu rivojlanuvchi, o'suvchi bilimlar tizimi, insonning atrof olamni surunkali o'zlashtirilishiga, o'zini qurshagan voqelikning borlig'i haqida aniq va teran axborot olishi, bunday axborotni saqlash, qayta ishlash va undan foydalanishga yo'naltirilgan ijtimoiy ongning alohida shaklidir." Fanning jamiyat va insoniyat oldidagi ko'plab vazifalari mavjud. Bularning ayrimlarini ko'ramiz:

- Fanning moslashtiruvchi funksiyasi hayotiy faoliyatning tabiiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashish qobiliyatini shakllantiradi.
- Fanning faollashtiruvchi funksiyasi jamiyatda tabiatga nisbatan amaliy o'zgartiruvchi faoliyatga moyilliklarni shakllantiradi

- Fanning informativ funksiyasi odamlarga atrof – olam haqida yangi ilmiy bilimlar, aniq ilmiy axborot beradi.

Kasb psixologiyasi fan sifatida o‘z oldiga ko‘plab vazifalarni qo‘ygandir. Bu vazifalar jamiyat oldidagi va o‘zini fan sifatidagi vazifalardir. **Vazifa** so‘zi – arabchada maosh, oylik degan ma’noni bildiradi. Vazifa o‘z ishlatilishi jihatidan har xil yo‘nalishlarda o‘ziga xos ravishda ishlatiladi. Vazifa – amalga oshirilishi, hal qilinishi lozim bo‘lgan masaladir. Fan vazifasi bu o‘z o‘rganish predmetidan kelib chiqqan holdagi bajarilishi kerak bo‘lgan ish faoliyati hisoblanadi. Ya’ni fanning funksiyasi, bajarilishi kerak bo‘lgan ish faoliyatidir.

Kasb psixologiyasining vazifalarini belgilashda ham o‘ziga mos bo‘lgan yondoshuvlar mavjud. Har bir izlanuvchi keng va fanning oldiga qo‘yilgan masalalardan kelib chiqqan holda vazifalarni aniqlab olishga intiladi. Deylik, V.M.Karimovanning kasb psixologiyasi kitobida quyidagicha yondoshiladi.

1) Yoshlarga o‘zi tanlagan kasbining psixologik mohiyati hamda milliy istiqlol g‘oyalari asosida jamiyat oldidagi ahamiyatini to‘la anglash;

2) Tanlagan kasbining professional yo‘nalish sifatidagi jamiyatda tutgan nufuzi va ahamiyatiga xolis baho berishga o‘rgatish;

3) Har bir talabaning tanlagan kasbi to‘g‘risidagi tasavvurlarini kengaytirish, boyitish, bunda psixologiya arsenalidagi ishonchli metodikalar va testlardan foydalanishga o‘rgatish;

4) Kasb etikasi, odobi, professional ahloq tushunchalari borasida tanlangan kasbning murakkab qirralarini jamiyatdagi barqaror qadriyatlar va ma’naviy mezonlar nuqtayi nazaricha tahlil qilish; kasbga sadoqat tamoyillarini belgilash;

5) Bo‘lg‘usi o‘qituvchi muhandis yoshlarni to‘g‘ri professional yo‘nalishini shakllantirishning psixologik hamda pedagogik

texnologiyalaridan boxabar qilish, professional motivatsiya, professional maorif va konsultatsiya asoslari bilan tanishtirish.

6) Shaxsning individual psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, o'zini – o'zi kasbiy aniqlash, kasbiy muloqotning sirlarini aniqlash, professional bilim, malaka hamda ko'nikmalarni egallashda jamoaviylik psixologiyasi tamoillariga o'rgatish. [26, 17.]

Kasb psixologiyasini predmetini belgilash va muammoli tomonlarini tahlil qilish natijasida rossiyalik psixolog E.F. Zeer shunday yozadi.

1) Shaxsning kasbini egallash bilan bog'liq holdagi kasbiy metodologiyani asoslash va tadqiqotning asosiy tushuncha va tamoyillarini ko'rsatish;

2) Kasb psixologiyasi predmetiga adekvant bo'lgan tadqiqot metodlarini ishlab chiqish va o'zining xususiy metodlarini shakllantirish;

3) Kasbni psixologik tahlil qilish, tasniflash (klassifikatsiya) va xarakterlab berish; kasbni loyhalash metodlarini va tamoyillarini ishlab chiqish;

4) Shaxsni kasbni egallashini psixologik va qonuniy mexanizmlarini tahlil qilish; bu jarayonni deterministik dinamikasi omillarini belgilash; kasbni egallashdagi krizislarni o'rganish;

5) Mutaxassisni kasbiy destrukturasini o'rganish; shaxsni deformatsiyasini va stagnatsiyasini, kasbiy mehnat qilish imkoniyatlarini pasayib borishini tahlil qilish;

6) Shaxsni kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini psixodiagnostikasini ishlab chiqish va mutaxassisni attestatsiya qilish;

7) Shaxsni kasbni egallab borishini psixologik kuzatish; uni qo'llab – quvvatlash, rag'batlantirish va butun kasbiy faoliyati davomida unga yordamlashish, kasbiy maslahat berish, kasbiy texnologik rivojlanishida yordamlashish, attestatsiyalash, kasbiy mahoratini

o'sishida, bilimlarini boyib borishiga yordamlashish, kasbiy korrektsiyasida va reabilitatsiyasida yo'l - yo'riqlar berish, shuningdek kasbdan ketishidagi jarayonlarda unga suyanchiq bo'lish.[21,18.] Kasb psixologiyasi vazifalariga shu kabi yondoshuvlar borligini ko'ramiz. Albatta kasb psixologiyasi fan sifatida o'z funksiyalariga egadir. Ularni biz yuqorida ko'rsatgan vazifalardan kelib chiqib ta'riflaymiz. Kasb psixologiyasini vazifalari asosan inson va jamiyat manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladi. Bu manfaatlar bo'lmasa demak kasb psixologiyasining o'zini ham keragi bo'lmaydi. Fan sifatida va jamiyat oldidagi vazifalardan kelib chiqqan holda kasb psixologiyasining o'z vazifalari mavjud. Bu vazifalar umummetodologik va metodologik xususiyatlarga egadir. Biz bularga yuqorida to'xtab o'tdik.

Kasb psixologiyasining hozirdagi asosiy vazifasi fan sifatida O'zbekistonda shakllanib olishi bo'lsa, uning keyingi asosiy vazifasi ta'lim berishdagi jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalarni yechishda o'z hissasini qo'shishdir. Hozirgi vaqtdagi muhim masala kasb psixologiyasi uchun bu ko'plab kasblar ichidan o'zi uchun zarur bo'lgan kasbni tanlab olishda yoshlarga yordam berish hisoblanadi. Kasb psixologiyasi o'sib kelayotgan yoshlarni tarbiyalashda va o'zini fan sifatida shakllanib borishida tinmay izlanib bormoqda.

Kasb psixologiyasi fanining "ta'lim to'g'risidagi" qonunlarni ijrosiga xos bo'lgan vazifalari

O'zbekistonda jamiyat uchun kerak bo'lgan yaxshi, raqobatbardosh, bilimdon kadrlarni tarbiyalash masalasi dolzarb masalalardan bo'lib turibdi. Bu masalalarni hal qilishda O'zbekistonda ko'plab amaliy ishlar bajarilib kelinmoqda. Eng asosiylaridan biri bu ta'lim tizimini isloh qilish va jamiyatga kerakli bo'lgan kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Bu yo'lda "Ta'lim to'g'risi" dagi va "Kadrlar tay-

yorlash milliy dasturi”da ko‘tarilgan va amalga oshirilib kelayotgan masalalar o‘z aksini topgandir. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” asarida xalq ta’limini tubdan isloh qilish zarurligi va uning ahamiyati to‘g‘risida ko‘plab fikrlar mavjud. Prezident kelajak avlod bo‘lgan yoshlarni sog‘lom, barkamol bo‘lib tarbiyalanishini bizning milliy xususiyatimiz ekanligini ko‘rsatib beradilar. “Mana shuning uchun ham bugungi kunda biz bu masalaga jiddiy e’tibor bermoqdamiz. Shuning uchun ham bu maqsadga qaratilgan loyihalar jamoatchiligimiz diqqat – e’tibori markaziga o‘tmoqda, tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb,ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda”. [9, 5.] Ta’lim – tarbiya masalasi bu yoshlarni kelajakda kasb tanlashga, ularni o‘z hayot faoliyatlarini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb masaladir. Kasb tanlash bu maktabdan boshlanadi va kollej, litseylarda davom etadi. Shuning uchun ham olib borilayotgan islohotlar bu kasb sohasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Chunki jamiyatga kerak bo‘lgan kasblarni tanlashda , yo‘nalishlar berishda, kasbga xos bo‘lgan tarbiyani yoshlarga yetkazishda kasb psixologiyasining o‘rni juda kattadir.

Yengil sanoat yo‘nalishi bo‘yicha ham tayyorlanayotgan kadrlarni tarbiyalash, ularga o‘z kasblarini sevish va sadoqatli bo‘lish kabi xislatlarni berishda mutaxassis pedagoglarni tarbiyalash muhim masalalar qatoriga kiradi. Paxtani qayta ishlashdan tortib, uni ip shakliga keltirish, bulardan inson ko‘zini qamashtira oladigan matolarni tayyorlash, ulardan har xil ko‘rinishga ega bo‘lgan chiroyli va ixcham, insonga go‘zallik keltira oladigan kiyimlarni yaratish kabi ko‘plab kasblarni egallagan kadrlarni tayyorlab berish, albatta pedagog mutaxassislarga tegishlidir. Ularning bu sohadagi mehnatlari juda zarur bo‘lgan jarayondir. Kasb psixologiyasi bu kabi ko‘plab har xil sohalar-da mehnat qila oladigan kadrlarni tayyorlashda o‘z hissasini qo‘shadi.

Kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq dasturlardagi qo‘yilgan ko‘plab masalalar kasb psixologiyasini yoshlarga kasb tanlashlariga yordam bera oladigan o‘ziga xos bo‘lgan o‘z dasturlarini yaratish masalasini ham qo‘yadi. Lekin bu sohani O‘zbekistonda endigina rivojlanib kelishi, shu sohaga tegishli bo‘lgan psixolog kadrlarni yaratishni talab qiladi. Kasb psixologlari o‘z yo‘nalishlariga ega bo‘lgan tomonlarga ham, maxsus psixolog yo‘nalishlarga ham e’tibor berishlari zarur bo‘ladi. Psixolog konsultant, psixolog diagnost, psixolog terapevt va shu kabi yo‘nalishga xos kadrlar ham yaratilishini talab qiladi.

Ta’lim bilan bog‘liq bo‘lgan islohotlarning muhim ikkinchi turi sifatida kollejlarni nazarda tutadigan bo‘lsak, unda yoshlarni kasbga yo‘naltirish va kasblarini asosiy tomonlarini bilib olishlari uchun imkoniyatlar yaratiladi. Bu haqida O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday deydilar: “Mazkur o‘quv yurtlari zamonaviy jihozlanganligi, o‘qituvchi – pedagoglar saviyasi, o‘qish jarayonining tashkil etilishi va talablariga kamida 2 – 3 zamonaviy kasb - hunar bera olishi bilan oldingi PTU lardan tubdan farq qilishi kerak”. [9, 17.] Ko‘rinib turibdiki, yoshlarni kasb egasi bo‘lishlari va shu kasb yo‘nalishi bo‘yicha kadr bo‘lib yetishishi jamiyat uchun muhim jarayon hisoblanadi. Jamiyatda bu yo‘nalish bo‘yicha ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda. Yangi va yangi kollejlarni qurilmoqda, ular zamonaviy o‘quv qurollari bilan qurollanmoqda. Olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq qilish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Kasb psixologiyasi bu qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda umummetodologik vazifalarni amalga oshirib borishi zarur bo‘ladi. Bu yoshlarga bilim berish bilan bog‘liq – **gnosilogik** vazifa. Kasb psixologiyasi kasblarga tegishli bo‘lgan umumiy yo‘nalishlar bera oladigan bilimlar bilan yoshlarni tanishtirib boradi. Kasblarni jamiyatdagi o‘rni va yoyilish darajasi, ularga xos bo‘lgan kasb bilan bog‘liq ijtimoiy masalalar, iqtisodga xos masalalar kabi ko‘plab

– **sotsiologik** vazifalarni ham o‘taydi. Kasblarni tabiat va jamiyat bilan bog‘liq masalalarini, insonni taraqqiyotida ularni o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib beruvchi – **ontologik** vazifani, shuningdek kasbga xos bo‘lgan psixologik, ruhiy jarayonlarni tushuntirib beruvchi **psixologik** vazifasini ham bajarib boradi.

Kasb psixologiyasi “ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunlarni jamiyat uchun uning kelajagi uchun zarurligini bilgan holda yoshlarni o‘z kasblarini egallab olishlarida o‘z yordamini beradigan fan hisoblanib amaliy ishlarni hayotga tadbiiq etib borish bilan bog‘liq vazifalarni bajarib bormoqda.

Kasb psixologiyasi fanining o‘rganishdagi metod va metodologiya bilan bog‘liq vazifalari

Kasb psixologiyasi predmetini o‘rganish davomida o‘ziga xos bo‘lgan metodologiyaga suyanishi va o‘z metodlarini shakllantirishi zarur bo‘ladi. Bu uning eng asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu vazifasiz kasb psixologiyasi o‘zi o‘rganayotgan masalalarni yecha olmaydi. Kasb psixologiyasi uchun metodologik yo‘nalish bo‘lib jamiyatda hal qilinayotgan kasb bilan bog‘liq jarayonlar hisoblanadi. Metodologiya bu obyektiv haqiqatga yaqin bo‘lishni talab qiladi. Har bir fan voqealar haqiqatini o‘rganar ekan, metodologik yo‘lning o‘zi ham to‘g‘ri yo‘l bo‘lishi kerak. Fan metodologiyasini umumiy – alohida – maxsus tamoyilida tasniflash ma’qulroqdir. “Fanlar uchun umummetodologiya hisoblangan metodologiya yo‘q. Jahondagi yangi sharoit yangi umummetodologiyani yaratishga muhtoj” – deb yozadi taniqli faylasuf olim Omonulla Fayzullayev. Falsafiy bilimlar va ularni bilish bilan bog‘liq bo‘lgan tamoyillar har doim fanlarga metodologiya bo‘lib qolaveradi. Falsafa borliqni o‘rganib borar ekan undagi hamma jarayonlar harakatda, o‘zgarishda, o‘zaro ta’sirda

ekanligini ko'rsatib boradi. Bu o'zgarishlar garmoniyada (me'yorda) bo'lmasa unda ma'lum bir jarayonlar yuz beradi. O'z o'zidan sodir bo'ladigan jarayonlarda ham harakatlar mavjud. Ularsiz na tabiatda, na jamiyatda, na inson tafakkurida o'zgarishlar bo'ladi. Bu o'zgarishlarni garmonik birlikda sodir etishi o'ziga xos bo'lgan ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Aksincha garmoniyaning buzilishi har xil tasodiflarda ko'zga tashlanadi. Bu o'zgarishlarni hech kim kutmagan holda yuz berishi garmoniyaning buzilishiga olib keladi.

Biz kasb psixologiyasi fani uchun umummetodologik asos bo'lib falsafaning bilish bilan bog'liq jarayonlarini bilamiz. Shuningdek kasb psixologiyasi uchun alohida metodologiya bo'ladigan o'rtacha umumiy metodologiyani biz alohida metodologiya sifatida qaradik. Bunda psixologiya fanlari uchun kerak bo'ladigan shaxs bilan bog'liq nazariyalarni biz metodologiya sifatida qaradik. Maxsus metodologiya kichik, torroq bo'lib har bir ayrim fan doirasida o'z kuchiga ega bo'ladi.

Kasb psixologiyasiga metodologik asos bo'lib shaxsni kasbni egallashi bilan bog'liq konsepsiya yotadi. Bu konsepsiyaning mohiyati shundan iboratki ya'ni kasb tanlab, kasbni o'zlashtirib, kasbiy mahoratga ega bo'lib borayotgan shaxs boyib boradi, malakasi va bilimlari shakllanib boradi, kasbga xos zaruriy sifatлари rivojlanadi deb ko'rsatiladi. Kasbiy shakllanish ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar va destruktiv o'zgarishlar bilan bog'liq holda sodir bo'ladi. Bu jarayonni tezligi va maydoni biologik va ijtimoiy faktorlar bilan sababiy bog'liq, shaxsning o'z faolligi, shuningdek tasodifiy sharoitlar, hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar va kasbga xos kelishmovchiliklar sababli bo'ladi.

Kasbiy shakllanish - bu inson ontogenezining katta qismi bo'lib, kasbni egallash to'g'risidagi o'y-hayollardan tortib to bu kasbdan ketguncha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu jarayonda insonning kas-

biy bilimlarini va tayyorgarlikni, kasbga moslashishni, kasbiy mahorat va kasb ustasi bo'lib yetishishni ko'rish mumkin.

Kasb psixologiyasi fanining quyidagi vazifalari mavjud:

1. Kasb psixologiyasi fani o'zini fan sifatida rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni izlash.

2. Kasb psixologiyasi fani o'z izlanish predmetini o'rganish, tahlil qilish uchun o'zining usullarini ishlab chiqish.

3. Shaxs va kasb o'rtasida sodir bo'ladigan munosabatlar, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri keng va chuqur tahlil obyekti sifatida o'rganish.

4. Jamiyat, shaxs va kasb o'rtasida sodir bo'luvchi talab, ehtiyoj va manfaatlar munosabatini tahlil qilish, ularni jamiyat taraqqiyotiga bo'ladigan ta'sirini o'rganish.

5. Yoshlarda ularning qiziqish, intilishlaridan kelib chiqqan holda kasblar haqida tasavvurni uyg'otish, psixodiagnostik testlar orqali kasblarga yo'naltirib turish.

6. Insonni kasbni egallashi, kasbning ustasi, yuksak mahoratga ega bo'lgan bo'lishi uchun shaxsga xos psixologik jarayonlarni chuqur o'rganish va shaxsga yetarli to'g'ri maslahatlar, yo'nalishlar berib borish.


7. Yoshlarni kasb tanlashlarida va jamiyatga foydali inson bo'lib shakllanishlarida, ularga kasb haqida, kasbga xos psixologik xususiyatlar haqida, kasbni egallash va uni ustasi bo'lishlari uchun yo'l - yo'riqlar berish psixodiagnostik imkoniyatlarni tushuntirib yetkazish.

Kasb psixologiyasini bu kabi ko'plab vazifalarini ko'rsatib berish mumkin. Lekin eng asosiysi uni jamiyat manfaatlari, shaxsning o'z qiziqish, manfaatlariga qaratilgan vazifalari hisoblanadi. Shaxs va kasb o'rtasida sodir bo'luvchi va shaxsni kasbni egallashiga yordam berish kasb psixologiyasining eng asosiy vazifasi hisoblanadi.

Kasb psixologiyasini aniq va ijtimoiy fanlar bilan aloqasi

Yangi kasblarni paydo bo'lishi

Kasb psixologiyasi fan sifatida o'z vazifalarini bajarib borar ekan, u o'z o'zidan emas balki aniq fanlar bilan o'zaro aloqada rivojlanib boradi. Kasb psixologiyasi o'z predmetini yechish davomida bu aniq fanlardan foydalanadi. Aniq va texnik fanlar qatoriga ko'plab fanlarni kiritish mumkin. Deylik matematika fani uni hayotdan uzib bo'lmaydi. Insonga xos bo'lgan jarayonlarni matematik o'lchami mavjuddir. Kasb psixologiyasi ham o'z izlanish obyektlarini o'rganayotganda matematik usullarga suyanadi. Deylik, yoshlarni kasbga qiziqish davri, yoshi, sababi va shu kabilar. Yoki o'sib borayotgan yoshlarni fiziologik va anatomik tuzilishi jihatidan sog'lomligi, yoshlarning qancha foyizi ishga yaroqligi, aqliy va jismoniy jihatidan mehnat qilishga layoqatligi meditsinada keng o'rganiladi. Statistik sonlarda ularni ko'rsatib berish orqali jamiyatni o'zini boqa olishligi masalasi ko'rsatiladi. Ishga layoqatli degani bu kasb tanlash o'zi qiziqqan kasbi bilan jamiyatga o'z ulushini qo'shish deganidir.



Kasb psixologiyasi fani aniq va ijtimoiy fanlarga suyanib, ularning yaratgan yangiliklaridan ham foydalanib boradi. Biz uni bu tomonlarini kasb psixologiyasi fanini o'rganish davomida tanishib boramiz.

Shuningdek, kasb psixologiyasi fani ijtimoiy fanlar bilan ham uzviy bog'liq hisoblanadi. Deylik falsafa uning uchun metodologik fan hisoblansa, ahloqiy fanlar unga kasb etikasi bilan bog'liq masalalarni yechishga imkon beradi. Estetika kasb psixologiyasiga go'zallik haqida o'z ulushlarini qo'shsa, sotsiologiya kasb psixologiyasini jamiyatdagi masalalarini ko'rsatib beradi. Kasb psixologiyasi insonga xos bo'lgan ahloq va go'zallik tomonlarni o'zida mujassamlab inson yaratayotgan mahsulotlarda, ish jarayonidagi go'zalliklarni o'rganib boradi. Ayniqsa tikish va bichish ishlarida tikuvchi dizayn qonuniyatlariga rioya qiladi. Insonni go'zallik qonunlari asosida kiyintiradi.

Hozirgi vaqtda dunyo miqiyosida kompyuter va uning o'rni kengayib bormoqda. Internet orqali inson dunyoni hamma chekkalari bilan aloqada bo'lib, u yerlardan informatsiyalar olib bormoqda. Buning natijasida yangi kasblar paydo bo'lmoqda. Ularning ba'zilari yaxshi tomonni ko'rsatsa ba'zilari yomon tomondan insonga ziyon yetkazib kelmoqda. Deylik xakkerlar kompyuterni yaxshi biladilar va o'z foydalariga foydalanadilar. Ular o'zlarini faoliyatlari bilan jamiyatga va insonlarga ziyon yetkazib kelmoqdalar. Programmistlar va boshqa sohalar esa ko'plab foydali ishlarni amalga oshirmoqdalar.

O'zbekistondagi o'zgarishlar ham ko'plab yangi kasb egalarini paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Deylik, fermerlar, tijoratchilar, ish-bilarmonlar, boshqaruvchilar, bankirlar va shu kabilar. Bu kabi kasb egalari endigina tashkil topayotganligi va hayotga sekin - astalik bilan kirib kelishi tufayli bular haqida yetarli informatsiyalar ham yo'q.

Takrorlash uchun savollar

1. Kasb psixologiyasi fanining shakllanishi va vazifalari.
2. Kasb psixologiyasi fanining “ta’lim to’g’risidagi” Qonunlarni ijrosiga xos bo’lgan vazifalari.
3. Kasb psixologiyasi fanini o’rganishdagi metod va metodologiya bilan bog’liq vazifalari.
4. Kasb psixologiyasini aniq va ijtimoiy fanlar bilan aloqasi. Yangi kasblarni paydo bo’lishi.
5. Hozirda kasb psixologiyasi fani oldida turgan vazifalar haqida gapirib bering.
6. Kasb psixologiyasi fanining gnoseologik, sotsiologik, ontologik, psixologik vazifalari.
7. Metod va metodologiya tushunchalari.
8. Kasb psixologiyasi fanining boshqa aniq va gumanitar fanlar bilan aloqasi.

1.3. Kasb psixologiyasi fanining metodlari va asosiy muammolari

Kasb psixologiyasi faniga metodologik asos – bu shaxsning kasbiy layoqat konsepsiyasi ekanligi. Kasb psixologiyasi uchun metodologik asos bu O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risidagi” va kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shuningdek davlat hujjatlari.

Har bir fan uchun va uning izlanish olib borayotgan o’rganish predmeti uchun yo’nalish beruvchi, fanning maqsadi va vazifalarni belgilab olish uchun zarur bo’lgan ma’lum bir metodologiya mavjud bo’ladi. Metodologiya so’zi yunoncha – metodos - bilish yoki tadqiqot yo’li, nazariya, ta’limot va logos – so’z degan ma’noni bildiradi. [30,183.]Metodologiya – tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday

tizim haqidagi ta'limot. Metodologiya metodlar haqidagi ta'limot yoki yalpi – umumiy bilish metodi, deb ham ta'riflanadi. [30,183.]

Kasb psixologiyasiga metodologik asos bo'lib shaxsni kasbni egallashi bilan bog'liq konsepsiya yotadi. Bu konsepsiyaning mohiyati shundan iboratki ya'ni kasb tanlab, kasbni o'zlashtirib, kasbiy mahoratga ega bo'lib borayotgan shaxs bilimlarini boyib borishi, malakasi va bilimlari shakllanib borishi, kasbga xos zaruriy sifatлари rivojlanishi nazarda tutiladi.

Kasbga layoqatlilikni shaxsda ikki yo'nalish bo'yicha muhokama qilish mumkin deb ko'rsatadi K.M. Gurevich. Buning biri kasbni muvaffaqiyatli egallay olish bilan, ikkinchisi insonni o'zini mehnatidan qoniqishi orqali. Bu ikki tomon ham nisbiy bo'lib, u subyektivlikni ko'rsatadi. Shunga qaramasdan shu ikkala ko'rsatilgan yo'nalish kasbiy layoqatlilikni psixologik xarakteristikasini beradi.

Kasbga layoqatlilik shaxsning xususiyati bo'lganligi uchun shaxsning boshqa xususiyatlari kabi inson faoliyati davomida, ya'ni o'qish va mehnat qilish davomida shakllanadi. Ko'proq hollarda kasbga layoqatlilik mehnat jarayonida shakllanadi. Shu bilan birga kasbga layoqatlilikni jismoniy, psixologik va ijtimoiy yo'nalishlardagi o'rganish va uni aniq ko'rinishlarda tahlil qilish zarurdir.

Insonning tabiiy imkoniyatlari va xususiyatlari juda katta, shuningdek cheksiz egiluvchanlik imkoniyatlarini beradi. Inson kasbning juda ko'p ko'rinishlariga moslashishi mumkin va uni subyekt sifatida qoniqtirishi ham mumkin. Inson egallay olmaydigan kasb juda kamdir. Kasbga tayyorgarlik va keyingi faoliyat har xil tarzda kechishi mumkin, bular undagi xususiyatlardan kelib chiqib davom etadi. Eng muhimi va zaruriy tomoni bu kasbiy yo'nalganlik bo'lib, unda ijobiy kasb motivlari muhim hisoblanadi.

Kasbiy shakllanish ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar va destruktiv o'zgarishlar bilan bog'liq holda sodir bo'ladi. Bu jarayonni tezligi

va maydoni biologik va ijtimoiy faktorlar bilan sababiy bog‘liq, shaxsning o‘z faolligi, shuningdek tasodifiy sharoitlar, hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisalar va kasbga xos kelishmovchiliklar sababli bo‘ladi. Demak, ko‘rinib turibdiki, shaxsni kasbni egallash bilan bog‘liq fundamental bilimlar uning uchun asos hisoblanar ekan. Shaxsning kasbni egallashga bo‘lgan layoqati haqidagi bu konsepsiya kasb psixologiyasi uchun metodologiya hisoblanadi. Bu konsepsiya bo‘yicha shaxs kasbni egallashi davomida qanday jarayonlarni boshidan kechirishi va uni boshqarish uchun nima ishlar qilish kerakligini izlanuvchi bilib boradi. Kasbga layoqatli bo‘lish insonni psixologik va fiziologik jihatdan imkoniyatlari borligini, mehnat qilishga imkoniyatlari mavjudligini, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtira olishini, tafakkuri uni bilimlar asosida yanada rivojlantira olishini ko‘rsatadi.

Kasb psixologiyasi uchun yana jamiyatning oldidagi maqsadlar bilan bog‘liq bo‘lgan davlat hujjatlari ham metodologiya o‘rnini bosadi. Chunki jamiyat bu fandan o‘z maqsadlarini, ehtiyojlarini, manfaatlarini qondirish uchun foydalanib fanga o‘z izlanishlarida qanday masalalarni hal etib jamiyatga o‘z ulushini qo‘shib borishini ko‘rsatib ham beradi.

O‘zbekiston Respublikasidagi oliy ta’lim berishning uzluksiz jarayonining huquqiy asoslari – bu “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunda o‘z aksini topgan. Bu O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun hisoblanadi. Bunda o‘sib kelayotgan yosh avlodga, ta’lim va tarbiya sohasida izlanayotgan mamlakat aholisiga yetkazib beriladigan ta’lim, tarbiya, kasb - hunar, oliy ta’lim bilan bog‘liq barcha huquq va talablar o‘z aksini topgan. “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun asosida oliy ta’lim pedagogikasiga xos bo‘lgan huquqiy jarayonlar, ularga amal qilish me’yorlari, oliy ta’limning mohiyati va mazmuni o‘z aksini topgan. “Ta’lim

to'g'risidagi" Qonun o'zida ta'lim to'g'risidagi umumiy qoidalarni, ta'lim tizimi va turlarini, ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilishni, ta'lim tizimini boshqarishni, yakunlovchi qoidalarni mujassamlashtirgandir. Demak, ko'rinib turibdiki, dunyoga kelgan yosh avlodni tug'ilganidan to umrining oxirigacha bo'lgan davrda ta'lim – tarbiya berishning asosiy Qonunlari, huquqlari, ahloqiy va estetik tomonlari bu Qonunda qamrab olingan. Bu kelajak yosh avlod ichidan uzuluksiz ta'lim va tarbiya berib borish orqali oliy darajadagi mutaxassis va jamiyat uchun kerak bo'ladigan kadrlarni tayyorlashga qaratilgan oliy ta'lim pedagogikasidir.

"Ta'lim to'g'risidagi" Qonunda shunday yoziladi: "Ushbu Qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb - hunar o'rganishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishidan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan" .[9,34.] Bu "Ta'lim to'g'risidagi" Qonunning oliy ta'lim haqidagi 14 – moddasida quyidagi huquqiy imkoniyatlar haqida fikr bildirilgan.

Oliy ta'lim masalalarini o'zida qamrab olgan "Ta'lim to'g'risidagi" Qonunni amalga oshirish kadrlar tayyorlash milliy dasturida kengroq ta'riflab berilgandir. Bu dasturda qilinadigan ishlar va ularning kelajagi dasturiy lavhalarda yoritib berilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining **maqsadi** – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda oliy ta'lim pedagogikasining maqsadi ham shularda o'z aksini topadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining va oliy ta'lim pedagogikasining maqsadlarini amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalarni** hal etilishi nazarda tutiladi:

- Ta'lim tizimini yagona o'quv – ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

- Kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- Kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- Ta'lim oluvchilarni ma'naviy – ahloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- Yangi ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy – texnika va axborot bazasini yaratish;

- Ta'lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga budjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- Kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Bu kabi vazifalar kasb psixologiyasi fanining oldida turgan, ya'ni aholini kasbiy ta'limini shakllantirish, jamiyat va millat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladigan kadrlarni yaratish bilan bog'liq hisoblanadi. Demak, ko'rinib turibdiki, kasb psixologiyasini fan sifatida shakllanishlariga, aholi ta'lim va tarbiyasi, kasbga yo'naltirish kabi masalalar bilan shug'ullanishga asos bo'ladigan hujjatlar bu "Ta'lim to'g'risidagi" Qonunda va kadrlar tayyorlash milliy dasturida huquqiy asoslarga ega.

Kasb psixologiyasi uchun uni taraqqiyoti uchun asos bo'lib psixologiya fanidagi yutuqlar va psixolog olimlarning nazariy bilimlari muhim hisoblanadi. Ma'lumki shaxsni kasbni egallab borishida shaxs va uning faoliyati muhim tadqiqot mavzusi bo'la oladi. Shaxsni kasbni egallab borishida uning nazariy asosi bo'lib K.S. Abdulxanova – Slavskiy, B.G. Anan'ev, A.G. Asmolova, B.F. Lomov va boshqalarni shaxs va faoliyat sohasidagi ilmiy – tadqiqot ishlari, shuningdek bu konsepsiyani dasturlashda katta ta'sir etgan A.A. Bodalev, Yu.M. Zobrodin, E.A. Klimov, T.V. Kudravsev, A.K. Markova, N.S. Prejnikovlarning ishlari ko'zga tashlanadi.

Shaxsni kasbiy rivojlanib borishini psixologik tahlilini nazariy tomonlarini o'rganishda chet el olimlari A. Maslou, Dj. Sper, Dj. Xollandlarning ishlari ahamiyatlidir.

Yuqoridagi psixolog olimlarning ishlarini o'rganish orqali quyidagi konseptual holatlarni ko'rsatish mumkin:

- Shaxsni kasbni egallashining o'ziga xos tarixi va ijtimoiy madaniyati borligi;

- Shaxsni kasbni egallashining asosi bo'lib uni kasbga o'qishi, kasbni egallashi va kasbiy faoliyatini amalga oshirish hisoblanadi;

- Shaxsni kasbni egallash jarayoni o'ziga xos individual va alohidaligi bilan ajralib turishidan tashqari undagi xususiyatlar va qonuniyatlarni mavjudligi bilan ko'zga tashlanadi;

- Kasbiy hayot o'z imkoniyatlarini ko'rsata olishga, o'z faolligini ko'rsatish uchun imkoniyatlar yaratadi;

- Insonning kasbiy hayotining individual tomonlari me'yori va me'yori bo'lmagan hodisalar bilan tasodifiy sharoitlar bilan, shuningdek insonning aqliy imkoniyatlari bilan bog'liq bo'ladi.

- Kasbiy taraqqiyotning psixologik xususiyatlarini bilish insonga o'z kasbini ongli ravishda qurushni, o'z tarixini yaratishni, kasbiy biografiyasini shakllantirishni beradi.

Bu kabi fan bilan bog'liq tomonlar ham kasb psixologiyasi uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Demak, ko'rinib turibdiki, kasb psixologiyasi uchun uning jarayon sifatida mavjud bo'lgan jamiyatidagi maqsadlar va manfaatlar, fan yutuqlari va nazariy umumlashmalari, fanni rivojiga o'z hissasini qo'shadigan konsepsiyalar metodologik asos bo'la oladi.

Kasb psixologiyasi fani uchun psixologik fanlar metodlaridan foydalanish. Kasb psixologiyasida kuzatish, anketa, test, biografiya, faoliyat mahsulotlarini tahlil metodi. Kontent analiz, (hujjatlarin tahlil qilish) sotsiometriya metodlari

Kasb psixologiyasini metodlarini tushuntirishdan avval metod nima va undan qanday foydalaniladi degan savolga javob berib ko'ramiz. Metod yunoncha so'z bo'lib, tekshirish, izlanishning yo'li, usuli kabi ma'nolarni anglatadi. Metod – bu bilimga erishish usuli, olimning ma'lum tarzda tartibga solgan, ongli va izchil faoliyatidir. Har bir fan o'z predmetini o'rganish uchun ma'lum bir usullardan foydalanadi. Bu usullar o'ziga xos yo'lni tashkil etadi.

Kasb psixologiyasiga xos bo'lgan o'rganish bu shaxs va kasb o'rtasidagi munosabatlarda aks etib, uning o'rganish usullari o'ziga xos holda boshqa fanlardan ajralib turadi. Kasb psixologiyasi bir

butun fan sifatida juda keng masalalarni qamrab oladi. Bularga yoshlarni kasb tanlashlari, ularni mehnat sharoitlariga moslashishlari, kasbni egallay olishlari, o'z tanlagan kasbini ustasi va yuqori darajadagi mahoratni ko'rsata olishlari va shu jumladan kasb egalarini shu kasbdan ketishlari kabi ko'plab masalalarni qamrab oladi. Bu esa kasb psixologiyasida metodni har bir ko'rsatilgan davrda o'ziga xos holda tanlab olishni talab qiladi. Buni tushunish uchun shuni ko'z oldimizga keltirishimiz kerakki, kasb tanlash va undan o'z hayoti davomida foydalanish insonni butun umrini qamrab oladi. Insonni hayot faoliyati davomidagi kasb bilan bog'liq jarayonlarni ko'pgina olimlar o'rganib har biri o'ziga xos holda ularni tasniflashgan.

Kasbni o'rgangan ko'pgina psixologlar ichida Klimov E.A. insonni kasbiy hayotini o'ziga xos holda aniqroq shaklda tushuntirib beradi va ma'lum bir fazalarga bo'ladi. Bular quyidagilar:

- Optatsiya – kasbiy – o'quv maskanlarida kasb tanlash davri;
 - Adaptatsiya – kasbga kirish va unga moslashish;
 - Internal fazasi - kasbiy malakani egallash davri;
 - Ustalik – mehnat faoliyatini mahorat bilan bajarish;
 - O'rnak bo'la olish fazasi - kasb egasini yuksak darajada faoliyat ko'rsata olishi;
 - Ustozlik – kasb egasini o'z malakalarini boshqalarga bera olishi.
- [23,425.]

Bu yuqorida ko'rsatilgan fazalarning o'zi ham kasb psixologiyasini usullari har bir davrda o'ziga xos holda foydalanishni talab qilishini ko'rsatadi. Deylik, o'quv kasbiy maskanlarda endigina kasb tanlashga shaylanayotgan yoshlarni kasbga bo'lgan munosabatlari o'ziga xos holda aniqlanib olingan usullarda kuzatiladi.

Kasb psixologiyasining metodlari asosan umumpsixologik metodlardan kelib chiqadi. Har qanday usul o'rganilayotgan predmetning spetsifikasini aks ettiradi. Kasb psixologiyasi o'zi o'rganayotgan

obyektni o'rganish uchun umumiy, yosh davrlar, pedagogik psixologiya va shuningdek mehnat psixologiyasining metodlaridan foydalanadi. Kasb psixologiyasining maxsus izlanish metodlari bo'lib kasbiy psixobiografiyani tuzish, ziddiyatlarni o'rganish metodi, kasbga yo'nalgan grofalogiya, kasbiy mahoratni ekspert baholash metodi, kasbiy deformatsiyani refleksiyasi va sh.k. larni tashkil etadi deb yozadi Rossiyalik psixolog E. F. Zeer. Bu kabi metodlar kasb psixologiya fanining maxsus metodlari hisoblanib endigina fan hayotiga kirib kelayotgan metodlardir.

Umuman olganda psixologiyani izlanish metodlari – bu faoliyatni o'ziga xos ravishda tashkil etish natijasida psixik jarayonlarni mexanizmlarini, Qonunlarini o'rganish asosida yangi obyektiv bilimlarni olishga qaratilgan usullardir. Kasbiy psixologiyaning usullari asosan ikki metodologik tamoillarga asoslanadi:

*subyektiv – kasbni egallashni o'zini anglashiga asosan olib borishi;

*obyektiv –kasbni egallashni tashqi belgilarini o'rganish asosida psixik hodisalarni bilish maqsad qilinadi.

Izlanish usullarining ikki shakli mavjuddir:

- Longityud yoki uzoq davom etadigan izlanish;
- Ko'ndalang kesim asosidagi izlanish.

Longityud izlanish shaxsni yoki guruhni aynan bir xil parametrlar asosida uzoq va har doim kuzatishga asoslanadi. Longityud kasbiy shakllanishni individual yo'lini o'rganib, undagi o'ziga xos alohida tomonlarni, kasbiy biografiyaning o'ziga xos rivojlanish tomonlarini, kasbiy obro'ga ega bo'lish jarayonlarini ochib beradi. Longityud usulida o'z - o'zini kuzatish, psixobiografiya, panelli izlanishlar ishlatiladi. Panel – bu bitta ijtimoiy obyektni ma'lum vaqt ichida qayta – qayta o'rganish usuli hisoblanadi.

Ko'ndalang kesim asosidagi izlanishga esa har xil o'rganilayotgan guruhlarini taqqoslash nazarda tutiladi. Bu metod asosida o'rganila-

yotgan obyektни ko‘proq qismini qamrab olish mumkin. Ko‘ndalang kesim asosidagi izlanishlarda so‘rov usullari, testlar, eksperimentlar tadbiq etiladi.

Rossiyalik psixolog E. F. Zeer kasbiy psixologiyaning izlanish metodlari sifatida beshta guruh usullarini ko‘rsatadi.

Birinchı – shaxsni kasbni egallash bilan bog‘liq psixologik xususiyatlarnı ta‘riflab berish. Buning uchun longityud, so‘rov usullari (anketa, intervyu), psixo-biografiya ma‘qul deb hisoblanadi. Zeer E. F. bularni **genetik** usulga tegishli deb belgilaydi.

Ikkinchi – kasbni psixologik xarakteristikasi. Kasbni psixologik mazmunini o‘rganish, faoliyat mahsulotlarini o‘rganish, mehnat usullarini o‘rganish, hujjatlarnı tahlil qilish so‘rovli kuzatish, professo-grafiya kabilar orqali bilish mumkin. Bu guruh usullari **proksimetrik** usullar deyiladi. Ularnı kasb psixologiyasi uchun guruhlashni katta ahamiyati bo‘lib, ko‘pqirrali metodlarnı tizimlashtirishga yordam beradi. Jadval: [21, 17.]

Kasb psixologiyasining o‘rganish usullari

Izlanishning vazifasi	Izlanishga xos usullar guruhi	Izlanishning aniq usullari
Shaxsni kasb egallashini ko‘rsatish	Genetik usullar	Longityud usullar, biografik usul, kauzametriya, psixobiografiya, anamenez usul
Kasb xarakteristikasi	Praksimetrik usullar	Vazifalarnı tahlil qilish, hujjatlarnı o‘rganish, mehnat usullari, kuzatuv so‘rov

Kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan belgilarni o'lchash	Psixometrik usullar	Maxsus qobiliyatlar testi, yutuqlar testi, qiziqishlarni o'rganish so'rovnomasi, ta'lim diagnostikasi
Shaxsni kasbni egallashini tushuntirib berish	Ekspirimental usullar	Tabiiy, laboratoriya, modellashtiruvchi, shakllantirish eksperimenti
Izlanish usullarini ishlab chiqish	Matematik ishlab chiqarish usullari	Dipressiv, korreksion, omilli tahlil

Uchinchi – kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatkichlarni, shaxsning va faoliyatning belgilarini o'lchash. Bu izlanish vazifalarini yechishda maxsus qobiliyatlar testi, ta'lim, o'rgatish va yutuqlarga asoslangan testlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari kasbiy qiziqishga, qadriyatlarga asoslanish va kasbiy ustanovkalarga tegishli so'rovnomalardan foydalaniladi. Bu uslubni **psixometrik** deb ataladi.

To'rtinchi- bu kasbni egallashdagi mexanizmlar, Qonuniyatlar va xususiyatlarni tushuntirib beradi. Bu vazifalarni eksperimentlar asosida yechiladi, ya'ni laboratoriya, modellashtirish va tabiiy eksperimentlar asosida.

Beshinchi – bu usul izlanishni sonlarda o'tkazilishiga asoslanadi.

Ularga matematik ishlovlar tegishli bo'lib, ular dispersion, korrelyatsion, omilliy tahlil va boshqalar hisoblanadi.

Psixologiyada inson bilan bog'liq psixik hayot jarayonlari bu juda xilma - xil va murakkab hodisalardan iborat jarayonlardir. Insonni o'z hayotini ta'minlash bilan bog'liq jarayonlardan biri bu uni kasb tanlash va o'z kasbini ustasi bo'lib borishi hisoblanadi. Bunda insonni

kasbga yo‘naltirish, kasb bo‘yicha maslahat berish, kasbni egallashlari uchun kerak bo‘ladigan psixologik jarayonlarni o‘rganuvchi kasb psixologiyasi o‘z predmetini o‘rganishda umumpsixologik metodlardan keng foydalanib boradi. Buni u o‘z izlanish predmetini o‘rganishdan boshlaydi.

Kasb psixologiyasi fanining predmetini o‘rganish o‘ziga xos holda boshqa psixologik fanlardan farqlanib turadi. Kasb psixologiyasi shaxsni kasb tanlayotganidagi holatlarini, qiziqishlarini manfaatlari va eng asosan uni ehtiyojini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlardagi psixologik holatlarni o‘rganib boradi.

Kasb psixologiyasi umumpsixologik metodlardan biri bo‘lgan **kuzatish** metodidan keng va unumli foydalanishga intiladi. Insonda psixik hodisalar hayotda qanday bo‘lsa, ya‘ni tabiiy sharoitda, odamlarning turli tuman faoliyatida qanday ko‘rinishda sodir bo‘lsa, xuddi shu ko‘rinishda kuzatish metodi yordamida o‘rganiladi. Hozirda kuzatish metodiga o‘ziga xos holda yondoshishlar paydo bo‘ldiki, ular har bir predmetning izlanishidan kelib chiqib ta‘riflanadigan bo‘lib qoldi. Mazkur metod psixologiya fanining barcha yo‘nalishlari uchun umumiy ko‘rinishga egadir. Kasb psixologiya fani ham o‘z izlanishlarida bu metoddan foydalanadi. Kasb tanlayotgan yoshni kuzatish orqali qanday kasb uning uchun qiziqarli ekanligini ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Kasb psixologiyasi kuzatish metodidan foydalanar ekan uni tashqi va ichki kuzatish ko‘rinishlaridan foydalanadi. Kasb tanlashda eng avvalo insonni kasbga qiziqishini ko‘rsatuvchi omillarni tashqaridan kuzatiladi. Bunda inson o‘z qiziqishlariga bo‘lgan munosabatini har xil suhbatlarda, kasb to‘g‘risidagi so‘rovlarda, uni bilish bilan bog‘liq nazariy va amaliy bilimlarni bilishga intilganida ko‘rish mumkin bo‘ladi. Yoshlar o‘zi sevgan va qiziqqan kasbi haqida ko‘plab gapirishni uning o‘ziga xos tomonlarini ilg‘ab olishga intilishlarida ham ko‘rish mumkin. Yoshlardagi biror bir kasbga bo‘lgan havas,

intilish, bilimlarni egallashga bo'lgan iroda, ularning maqsadlari va manfaatlari bilan bog'liq bo'ladi. Yoshlar o'z ehtiyojlarini qondirish uchun, yaxshi yashash va imkoniyatlarini vujudga keltirishlari uchun o'zlaridagi havaslarini va qiziqishlarini o'zlari sevgan kasbga qaratadilar. Bular esa ularni tashqi kuzatishlari va obyektiv baholari bilan bog'liq bo'ladi.

Kasb psixologiyasida bundan tashqari ichki kuzatish ham mavjud. Bunda kuzatuvchi kuzatiladigan obyekt bilan uzviy aloqada bo'ladi, uning ichki dunyosiga kirib boradi, uning o'y-hayollariga sherik bo'ladi, bir so'z bilan aytganda uning yaqin sirdoshi sifatida kuzatadi. Kuzatuvchi bu jarayonda bolani havaslari, orzulari, maqsadlari nima uchun paydo bo'lganini, bunga uni qanday hodisalar yoki sharoitlar turtki bo'lganini bilib turadi. Insonga ta'sir etayotgan sharoitlar uni qandaydir kasbga qiziqishiga olib keladi. Inson o'z oldiga maqsadlar qo'yish bilan bu maqsadlarni amalga oshirish uchun intiladi.

Kasb psixologiyasida ichki kuzatuv sifatida kasb tanlovchining o'z - o'zini kuzatilishini ham ko'rsatish mumkin. Ko'pincha inson o'zligini anglagan holda kasbga e'tibor beradi. Bu uning o'zini ustida ishlashi, atrofdagilarni unga bergan turtkisi bo'lishi ham mumkin. Kasb tanlovchi bu yo'nalishda o'z - o'zini kuzatish orqali qanday kasb unga yoqishini va nima uchunligini bilib boradi. Albatta bu usuldan hamma emas balki o'zini anglaganlar ko'proq foydalanadilar. Ko'rinib turibdiki, kasb psixologiyasi kuzatish metodidan har tomonlama keng foydalanar ekan.

Umuman olganda kuzatish metodini har xil tomondan tasniflash mumkin. Deylik, prof E.G'.G'oziev kuzatish metodini uzoq davrlar davomida murakkablashib, kengayib, obyektivlik darajasi oshib borganini tasdiqlaydi. "Kuzatishning texnologiyasi takomillashdi, uning yangi shakllari, vositalari, usullari paydo bo'ldi, xolisonalik (obyek-

tivlik) darajasi ortdi, ishonchliligini ifodalovchi mezonlar, o‘lchovlar yaratildi” – deb ko‘rsatadi .[29,17.] Prof.E.G‘.G‘oziyev kuzatish metodini yoritib berish maqsadida, uning yoritilmay qolgan jihatlarini, tarkiblarini yanada kengroq yoritib berishga urinadi. Kuzatish metodining texnologiyasi quyidagilardan tashkil topadi:

- Voqelik (atrof – muhit, inson shaxsi)ni kuzatish oqimini muayyan qismlarga, yo‘nalishlarga ajratish (nemischa – lotincha “kvantifikatsiyalash”, ya’ni eng zarur, birinchi darajali jihatlarini saralash);
- Kuzatishning ko‘lami (hajmi), xususiyati va o‘ziga xosligini aniqlash, ya’ni uning nimalarga qaratilganini belgilab olish;
- Kuzatish jarayonida barcha holat, hodisa, alomat va tashqi qiyofa, ko‘rinishning o‘ziga xosligini qayd qilish (ularni yozma nutqda ifodalash, ya’ni fransuzcha – lotincha “fiksatsiyalash”);
- Kuzatish davomida to‘plangan omillar, ma’lumotlar, natijalarni matematik statistik metodlar yordami bilan hisoblab chiqish va miqdoriy tahlil yakunlari bo‘yicha psixologik sifat talqinini amalga oshirish.

Psixologik kuzatish olib borishdan ko‘zlangan maqsad quyidagilardan iborat;

- Kuzatiluvchi vaziyat, holat va obektni maqsadga muvofiq tanlash, uning oqilona ekanligiga ishonch hosil qilish;
- Kuzatishning dasturini ishlab chiqish, uni amaliyotga tatbiq qilish, sxematik ifodalashni yaratish, yig‘ilgan natijalarni chizma asosida aks ettirish.

Kuzatishning obyekti va predmeti quyidagi tuzilishga ega:

- Kuzatishning obyekti – inson, guruh, jamoa shaxslararo munosabatlar, emotsional – hissiy kechinmalar, hayvonot olami, shasning faoliyati, ijodiyoti, muomalasi kabilarni o‘rganishdan iboratdir;
- Kuzatish predmeti – insonning xilma xil holati, jarayoni, harakatining kuchi, jadalligi, uzluksizligi, dinamikasi, o‘ziga xosligi, uning hamkorlikdagi harakati, undagi onglilik, ongsizlik ongosti

holatlarining kechishi, faoliyat va muomala kabilarni eksteriorizatsiyalashdan tashkil topgandir;

- Amaliy va gnostik holatlar; nutq aktlari; ma'nosi, mazmuni, mohiyati, yo'nalishi, chastotasi, ritmikasi, tempi, amplitudasi, davomiyligi, intensivligi, ekspressivligi, uning leksikasi, grammatikasi, fonetikasi, lingvistikasi qurilishi va boshqalar;

- Noverbal nutq ifodasi; mimika, pantomimika va vokal mimi-kasi (musiqa ma'nosini tana a'zolari orqali ifodalash);

- Vegetativ reaksiyalarning ko'rinishi: rangning qizarishi, oqari-shi, terlash, nafas olishning tezlashuvi, sekinlashuvi va qiyinlashuvi.

Kuzatishning bosqichma – bosqichligi, tadrijiyligi (ierarxiyasi) tarkiblari quyidagilardan tashkil topadi:

- Kuzatishning maqsadi, vazifalari, dasturi, qaydnomasi: bunda umumiy talablarga rioya qilish, yaxlit qayd qilish, kundalik, texnika vositalari (faktik holatlar), natijalarning tahlili, talqini va g'oyalarni ilgari surish.

Kuzatishni ifodalash usullari: tajribalarda to'plangan ma'lumotlarni alomat, belgi va simbolika orqali aks ettirish (piktogramma, chizgi, jadval, anagramma) va turli shakl, xususiyatli bayonnomalar, qayd-nomalar yuzaga keltirish.

Psixologiya fanida kuzatishning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin: izchil, epizodli, dala sharoitli, laboratoriyaviy – sun'iy, tabiiy, xronologiyali, davriy, bir martali kabilar.[29,17.]

Kasb psixologiyasida ishlatiladigan metodlardan yana biri bu so'rash metodi hisoblanadi. Bu metod ikkiga bo'linadi, biri anketa va ikkinchisi intervyu yoki suhbat metodi deb ataladi. So'rash metodida kasb tanlovchi bilan ikki xil tarzda kasb haqida, uning qiziqishlari haqida surishtiruv faoliyati olib boriladi. Suhbat orqali kasb tanlovchining qiziqishlari, manfaatlari, psixologik xususiyatlari, kasbga xos bo'lgan layoqatlari kabilar o'rganilib boriladi. Yoshlar bilan suh-

batlashish uchun ularning o'ziga xos dunyosini bilish zarur bo'ladi. Suhbat o'tkazishning o'ziga xos bo'lgan talablari mavjuddir. Deylik, suhbat tergovga o'xshab ketmasligi zarur. Suhbat do'stona va ochiq ko'ngildan bo'lishi muhimdir. Suhbat metodida kasb tanlovchining dunyoqarashi, e'tiqodi, odamlarga va jarayonlarga bo'lgan munosabati, kasblarga va ular o'rtasida uning o'zini qiziqtirayotgan kasbga bo'lgan munosabatlari o'rganiladi. Kasb tanlovchining bir butun munosabati o'rganilib keyingina uning kasbi haqida so'zlashiladi. Chunki kasb tanlashda odamda ma'lum bir o'zgarma g'oyalar bo'lgandagina biror bir kasbni to'g'ri va barqaror ravishda tanlashi mumkin.

Bundan tashqari kasb tanlashda so'rov metodining anketa ko'rinishi ham mavjuddir. Bunda kasb tanlovchini oldindan tuzilgan savollar orqali ketma – ketlikda so'rovga tortiladi. Anketa metodi kasb tanlovchini kasb tanlashi bilan bog'liq savollar oldiga o'zini yakka qoldirib bu savollarga boshqalarni aralashishini cheklaydi. Bu esa kasb tanlovchini o'zi qiziqqan kasbiga bo'lgan intilish sababini to'g'ri ko'rsatib beradi. Anketa savollariga qo'yiladigan talablarni ko'plab kitoblardan ko'rish mumkin. [14,208 -211.] Anketa o'tkazishni turli xil ko'rinishlari mavjud. Anketa metodi boshqa sohalarda ham ko'p qo'llaniladi. Insonni kasb tanlashi bilan bog'liq masalalarda anketa metodi ko'proq insonni o'ziga bu savolga yakka o'zi javob berishini talab qiladi. Yoshlarning ko'pchiligi qaysi kasbni egallashi kerakligini aniq bila olmaydi. Bunday hollarda anketa metodida qo'yilgan savollar uni qiziqishini ko'rsatib bera oladi. Kasb tanlayotgan inson anketa savollariga javob berar ekan u qo'yilgan savollarga mustaqil, o'z malakalaridan kelib chiqib javob beradi. Bu esa uni qaysi kasbga qizishini aniq bilib olishga imkon beradi, bu anketa usulining yutug'i bo'lsa uning kamchiligi kasb tanlovchini noaniq bo'lgan savollarga javobini berishdagi qiyinchiliklarda ko'zga tashlanadi.

Kasb tanlash bilan bog‘liq bo‘lgan muhim metodlardan biri bu test usuli hisoblanadi. Kasb psixologiyasida bu metodni tadbiq etilishi kasb tanlovchilarni testlar orqali sinash imkoniyatini yaratdi. Kasbga xos masalalar bilan shug‘ullanishga bo‘lgan imkoniyatlar yanada kengayib, uning imkoniyatlari boyib bormoqda.

Testlarni kasb tanlashda ommaviy ishlatilishi G‘arb mamlakatlari keng yoyildi, ayniqsa AQShda, Rossiyada bu testlardan foydalanish chegaralangan edi. Psixotexnik ishlarni yoyilishi, sanoatga ishchilarni yetishmasligi, bu sohaga e‘tibor berishni talab qildi. Shuning uchun undan ayrim masalalarni izlash uchun va tor yo‘nalishdagi mutaxassislarni tanlash maqsadida ishlatildi.

Test inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib – o‘zbekchaga o‘girilganda “sinov”, “tekshirish” kabilarni anglatadi. Test terminini fanga F.Galton tomonidan kiritildi. **Test** – deb, standartlashtirilgan va ma’lum vaqtda chegaralangan, qisqa muddatda o‘tkaziladigan psixofiziologik tekshiruvlarni nomlangan. Bunda shaxsdagi individual – psixologik farqlarni tekshirish va taqqoslash uchun foydalanilganlar. Testdan insonga xos barcha faoliyatlarda foydalanilgan. Shuningdek testlardan insonlarni kasb tanlashlarida ham foydalanish mumkin.

Test, ya’ni sinash bilan bog‘liq tarixda ko‘plab misollarni ko‘rsatish mumkin. Qadimgi davrlarda odamlarni individual farqlanishini bilgan holda testlar o‘tkazilgan. Qadimgi Xitoyda eramizdan 2200-yil avval mansabdor shaxslarni tanlab olishga e‘tibor berilgan. Tanlanayotgan qobiliyatini sinash maqsadida ularga sinashdan tortib to o‘zini tutishgacha bo‘lgan sinovlar o‘tkazganlar.

Test metodini intellektual “aqliy testlar” sifatida Dj. Kettell tomonidan birinchi marta izlanish metodi sifatida ishlatilgan. Bu metodni fransuz vrachi va psixologi A.Bine yangi bosqichga olib chiqib intellektual test savollarini tuzib chiqdi. Kasb tanlashda insonga xos jarayonlarni testlar orqali bilib olish mumkin bo‘ladi.

Kasblar talab qiladigan jarayonlar mavjudki insondagi psixologik xususiyatlar ularga javob berishi kerak bo'ladi. Deylik, yengil sanoat uchun tayyorlanayotgan kadrlar qanday psixologik xususiyatlarga ega bo'lishlari kerak. Yengil sanoatda paxtani qayta ishlash bilan bog'liq kasblar va tayyor xom-ashiyodan aholi uchun kerak bo'lgan kiyim – kechaklarni tayyorlab beruvchi kasblar mavjud. Bularga e'tibor bersak har biri uchun psixologik xususiyatlarni yetarli darajada rivojlangan bo'lishini talab qilishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Shuning uchun insondagi sezgirlik, diqqatni barcha xususiyatlari, irodalilik, tafakkur va barcha boshqa psixologik jarayonlar juda zarur bo'ladi. Testlar orqali esa ularni sinab olish va kasb tanlovchini shu kasbga loyiqligini ko'rsatish mumkin bo'ladi. Har xil test savollari bilan sinalish orqali yoshlarda qaysi kasbga ularda layoqat borligini ko'rish mumkin va ularni shu kasb bo'yicha tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kasb psixologiyasida foydalaniladigan metodlardan yana biri bu **biografiya** (tarjimai hol) metodi hisoblanadi. Yoshlarni kasbga yo'naltirishda ularni biografiyasi bilan tanishish ham o'ziga yarasha ma'lumotlar beradi. Yoshlarni kasbga yo'naltirishda ularning hayotlarida sodir bo'luvchi psixik jarayonlarni o'zida aks ettirgan hayot faoliyatlari, ijodlari to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar, tarjimaiy holi, kundaliklari, xatlari, esdaliklari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Kasb tanlashda tarjimai hol metodi insondagi psixikani suhbat va tajriba metodlari vositasida o'rganilib bo'lmaydigan holatlarini ochib berishga yordam beradi. Mazkur metod orqali kasb tanlovchidagi ijodiy hayol bilan bog'liq jarayonlarni: she'riyatga, musiqaga, nafosatga, tasviriy san'atga, texnik ijodiyotning nozik turlariga, shuningdek ularning ma'naviy boylik darajasiga, ahloqiy bilimlari va shu kabilarga e'tibor beriladi.

Yoshlarda kasb tanlashga ta'sir etuvchi qator tomonlar bordir. Bular ularning sulolasi, ota-onasi, aka-ukalari, qavmu-qarindoshlari, atrofidagi namuna bo'ladigan insonlar, avlodlar bilan bog'liq jara-yonlar, atoqli shaxslar bilan bog'liq voqealar, allomalar to'g'risidagi ma'lumotlar va shu kabilarni ko'rsatish mumkin. Kasb tanlashda bu kabi omillar ham o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin bo'ladi. Kasb tanlovchilardagi havas, orzu va bularga erishish kabi tomonlar ularni shu kasbni tanlashlariga har doim intilib turishga majburlaydi. Masalan, avlodarida kimdir yaxshi vrach bo'lsa kasb tanlovchi xuddi shu insonga o'xshab vrach bo'lishga va aynan shu inson kabi yaxshi nom chiqarishga harakat qiladi. Bu undagi havas bo'lib doimo shu kasbni tanlashga undab turadi. Xuddi shunday jurnalist, olim, modeler, yaxshi tikuvchi va sh.k.

Kasb tanlashda **faoliyat mahsulotlarini** tahlil qilish metodi ham yaxshi natijalar beradi. Kasb tanlovchi ilg'or ishchilarni, yaxshi kasb egalarini yaratgan mahsulotlaridan ruhlangan holda ham o'zlari uchun kasb tanlay oladilar. Insonning kuch va qobiliyati u yaratgan narsalarda gavdalanadi. Inson faoliyatining samaradorligini tekshirganimizda shu barpo etilgan faoliyat natijalarini yaratishda insonlar qanday qilib fikrlaganligini, his qilganlarini, nimaga intilganlarini, ularning irodasini qanchalik kuchli bo'lganini, tafakkur qilish, yaratishga xos bo'lgan fikr o'ylarini ko'ramiz. Masalan, kiyimlarni yaratayotgan tikuvchilarni amaliy ishlarini o'rganadigan bo'lsak, ulardagi nozik estetik didni, go'zallikka intilish bilan bog'liq harakatlarni, ularni yaratishga qaratilgan tafakkurni, hayoliy fikrlarni va shu kabilarni ko'rishimiz mumkin. Kasb tanlashda bu metodning o'rni va roli katta ekanligini biz his qilishimiz mumkin. Bunda bolalar yaratayotgan rasmlarga, plastilin orqali ifodalagan obrazlarga, har xil yasash mumkin bo'lgan konstruktorlik o'yinlarga e'tibor bersak ularni o'y va fikrlarini ko'rish mumkin bo'ladi.

Kasb psixologiyasi ilmiy tadqiqotlarida metodlar masalasiga yangicha yondoshish muammolari. Kasb psixologiyasida model-lashtirish, kompyuterlashtirish va ulardan foydalanish

Kasb psixologiyasi yoshlarni o'zlari sevgan kasblarini tanlab olishlari uchun ko'plab izlanishlar olib boradi. Kasb psixologiyasi psixologik fanlar ichidagi amaliy fanlar qatoriga kiradi. Yoshlar bilan ishlash va kasb tanlovchi insonlar bilan ishlash davomida kasb psixologiyasi ko'plab muammolarga duch keladi. Shunday masalalardan biri bu kasb psixologiyasining ilmiy izlanish bilan bog'liq bo'lgan masalasi hisoblanadi. Kasb psixologiyasi o'z izlanishlarini umumpsixologik metodlar asosida olib borsada, lekin o'ziga xos bo'lgan tomonlar bilan ajralib turadi. Bular haqida yuqorida o'z fikrimizni aytib o'tgan edik.

Hozirgi davrda fan va texnikani o'sib borishi, insonlar hayotiga ko'plab yangiliklarni kirib kelishi, ishlab chiqarishni oldinga qarab ketishi, jamiyatda ko'plab yangi sohalarni ochilishi va shu kabilar kasb psixologiya fanini ham o'zgarib borishiga va yangi qirralarini ochilishiga olib keldi. Kasb sohasidagi yangi ish o'rinlarini paydo bo'lishi, bular bo'yicha yangi kadrlarni tayyorlash masalasi o'ziga xos holda ish joylarini kompyuterlashtirish bilan, bu ish joylarini modellashtirish va shu modellar asosida kadrlarni tarbiyalash kabi ko'plab masalalarni o'rta qo'yimoqda. Hozirda kasb psixologiyasi uchun zarur bo'lgan kompyuterlashtirish va undan kelib chiqqan holda modellashtirish kabi metodlar hayotga kirib kelmoqda. Inson hayotida kompyuterning o'rni va ahamiyati oshib bormoqda. Yoshlar kompyuter orqali dunyoning hamma yerlari bilan aloqaga chiqmoqdalar. Lekin uning salbiy tomonlari ham yo'q emas.

Yoshlarning kompyuterga qiziqishlari ularni yangi va yangi kasblar bilan tanishtirib bormoqda. Shu bilan birga kompyuter orqali

kasb psixologiyasi yoshlarga xos bo'lgan psixologik holatlarni moldellashtirish va ularni ma'lum bir kasbni bajara olishlari kabi savollarga ham javob berishga intilmoqdalar. Hozirda hayotga ko'plab yangiliklarni kirib kelishi yoshlardagi mehnatga bo'lgan munosabatlarni o'zgartirib yubormoqda. Bular asosida yoshlarni kasbga bo'lgan munosabatlari ham o'zgacha tus olmoqda. Bunga hayotdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Kompyuterda testlar orqali o'zini sinashlarga, kasblar haqida ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatlar yaratilmoqda. Modellashirish bu degani eng avvalo ish joylarida bajariladigan ish harakatlarini trenajerlarda oldin sinab ko'rishni oldinga surmoqda. Bular esa kasb psixologiyasiga yangi metodlarni kirib kelishiga olib keladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Kasb psixologiyasi faniga metodologik asos – bu shaxsning kasbiy layoqat.
2. Kasb psixologiyasi uchun metodologik asos bu O'zbekiston Respublikasining “T'alim to'g'risidagi” va kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shuningdek davlat hujjatlari.
3. Kasb psixologiyasi fani uchun psixologik fanlar metodlaridan foydalanish.
4. Kasb psixologiyasida kuzatish, anketa, test,biografiya, faoliyat mahsulotlarini tahlil metodi.
5. Kasb psixologiyasida kuzatish, anketa, test,biografiya, faoliyat mahsulotlarini tahlil metodi.
6. Kasb psixologiyasi ilmiy tadqiqotlarida metodlar masalasiga yangicha yondoshish muammolari.
7. Kasb psixologiyasida modellashtirish, kompyuterlashtirish va ulardan foydalanish.

1.4. Kasb psixologiyasi va uning psixologik fanlar bilan aloqasi

Kasb psixologiyasi fanining taraqqiyoti

Kasb psixologiyasi fani ishlab chiqarishni rivojlanishi bilan shakllanib borgan. XX asrning boshlarida ilmiy - texnik jarayonlar tezlashishi yangi kasblarni paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu kasblarni kengayib borishi, uning o'ziga xos tomonlarini paydo bo'lishi insonlar va mashinalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga e'tiborni oshirda. Buning natijasida inson va uning kasbi o'rtasida sodir bo'ladigan ruhiy munosabatlar odamlarni e'tiborini tortdi. Dunyoda yangi bir kasb paydo bo'ldi, bu kasblarni o'rganuvchi kasb psixologiyasi edi. Bu avvalo AQShda keyinchalik Yevropada va o'tgan asrning 90 – yillarida Rossiyada shakllandi. Bular haqida Rossiyalik psixolog Zeer E.F. “Психология профессий” kitobida ko'rsatib o'tadi. U kasb psixologiyasini paydo bo'lishini uchta asosini ko'rsatib o'tadi. Bular siyosiy, iqtisodiy va ilmiy tadqiqotga asoslangan tomonlar ekanligini asoslab beradi.

Kasb psixologiyasi fan sifatida O'zbekistonda ham rivojlanib bormoqda. Uning rivojlanishiga e'tibor bersak sobiq ittifoqdagi sharoitlar bu fanni taraqqiyotiga e'tibor bermaganligini ko'rish mumkin bo'ladi. Buni biz quyidagilarda ko'rishimiz mumkin.

1) Sobiq ittifoq totalitar tuzimida insonni individual xususiyatlari inkor etilgan. Asosan ijtimoiy zakazni bajarish uchun kerak bo'lgan kadrlar tayyorlangan. Bu davrda jamiyatimiz manfaatlari nazarga olinmagan. Mahalliy kadrlar masalasi asosan markaz manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan. Kasb psixologiyasiga e'tibor ham berilmagan.

2) Iqtisod ham asosan markaz manfaatlari bilan bog'liq holda olib borilgan. Shuning uchun bu kasb psixologiyasiga e'tibor berilmagan.

3) Ilmiy - tadqiqot ishlari ham nomiga olib borilgan.

Kasb psixologiyasi fanini taraqqiyoti va shakllanishi mustaqil O'zbekiston bilan uzviy bog'liqdir. Bu fanni rivojlanishi uchun O'zbekistonda mustaqillikni birinchi kunlaridanoq e'tibor berildi. Bu avvalom bor kadrlar masalasi bilan bog'liq holda yuz berdi. O'zbekistonda yaratilayotgan kadrlarni raqobatbardosh qilib tayyorlash masalasi siyosiy darajada e'tibor berildi. Bu sohada olib borilayotgan amaliy ishlar juda ko'p bo'lib, shulardan biri bu ta'lim tizimini isloh qilish bilan bog'liqdir. Bu sohadagi amaliy ishlar davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, huquqiy ishlarda o'z aksini topgan. Kasb psixologiyasini taraqqiyoti quyidagilar bilan bog'liq.

1) Kasb psixologiyasini rivojlantirish bu jamiyatdagi olib borilayotgan dolzarb masalalar bilan bog'liq. Bu o'z aksini "ta'lim to'g'risida"gi Qonunda va kadrlar tayyorlashning milliy dasturida o'z aksini topgan. Ta'lim tizimini isloh qilish, jahon standartlariga to'g'ri keladigan kadrlar tayyorlash, ularning bilim darajalari ham kuchli va raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash zarurligidan kelib chiqqan holda kasb psixologiyasiga e'tibor berilmoqda.

2) Bozor munosabatlariga o'tish va jamiyatimiz uchun zarur bo'lgan ko'pgina kasblarni tayyorlash, ularni sifatini, o'z kasbiga bo'lgan munosabatlarini mustahkamlash, bilimli va zukko bo'lishlari uchun ko'pgina malakalarni egallashlariga yordamlashish kabi masalalar bilan bog'liq. Bu sohada jamiyat o'z iqtisodini ko'tarish maqsadida ko'plab yaxshi kadrlarni tayyorlab kelmoqda. Bular ham kasb psixologiyasini shakllanib borishiga yordamlashadi.

3) Yoshlarni o'zlari tanlagan kasblarini yaxshi egallashlari uchun ularni orasida ilmiy – tadqiqot ishlari ham olib borilmoqda. Bu talabalar bilimlarini sinashda, ularni olayotgan bilimlarini egallay olishlarida, yaratilayotgan sharoitlardan sifatli foydalana olishlarida ko'zga tashlanadi.

Kasb psixologiyasini fan sifatida shakllanishi falsafa, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar bilan uzviy tarzda olib borilmoqda. Hozirda kasb psixologiyasi barcha oliygohlarda kiritilib tayyorlanayotgan kadrlarni bu soha bilan tanishtirilmoqda. Kasb psixologiyasi o'z oldiga qo'ygan masalalarni psixologiya fanlarining boshqa tarmoqlari bilan uzviy tarzda amalga oshirib kelmoqda. Kasb psixologiyasi jamiyat uchun zarur bo'lgan kadrlarni tarbiyalashda, ularni jamiyatga zarur bo'lgan kadrlar sifatida yaratishda, yoshlarni o'zlari tanlagan kasblarga layoqatliliklarini tarbiyalashda, kasbga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni shakllantirish kabi ko'plab masalalarni amalga oshirib bormoqda. Bunda kasb psixologiyasi kasbiy maslahatlar, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, kasb egallashdagi imkoniyatlarni o'rganib borib, o'z oldiga qo'ygan vazifalarni amalga oshirmoqda.

Kasb psixologiyasi fani psixologiya fanlari tizimida

Kasb psixologiya fani bu o'zining predmetini va o'rganish obyekti tahlil qilish uchun ma'lum bir usullardan foydalanadi. Kasb psixologiyasi bu masalalarni boshqa psixologik fanlar bilan bog'langan holda amalga oshiriladi. Har qanday kasb bu jamiyatni ehtiyojini qondirishga qaratilgan jarayon hisoblanganligi uchun unda inson va uning psixologik tomonlari o'z aksini topgan bo'ladi. Kasb psixologiyasi psixologiya sohalarining deyarli barchasi bilan uzviy bog'liqdir. Kasb psixologiyasi o'z o'rganish sohasiga ko'ra insonni kasbga kirishidan tortib uni ishdan ketguncha bo'lgan jarayonlarni o'rganib boradi. Kasbga yo'naltirish, kasb tanlashga yordam berish, kasbni egallashi bilan bog'liq jarayonlarda ishtirok etish, o'z ishini ustasi bo'lib yetishishiga va ijodiy yondoshishiga sharoitlar yaratishda ishtirok etish, qarilik bilan bog'liq jarayonlarda, ya'ni ishdan ketishiga tayyorlash

kabi ko‘plab masalalarni amalga oshirish davomida kasb psixologiyasi psixologiya fanlarining boshqa sohalariga suyanadi. Kasb psixologiyasi nafaqat insonni kasbga nisbatan munosabatini balki, kasbni ham insonga nisbatan qo‘yadigan talablarini o‘rganib boradi. Inson mehnat faoliyati davomida o‘zi tanlagan kasbining ma’lum bir talablariga ham javob berib borishi lozim. Kasbni insonga talabi bu obyektiv talablar hisoblanadi. Lekin bu talablar insonni ta’siri ostida shakllanadi. Quyida kasb psixologiyasini psixologik fanlar bilan bog‘liqligi chizmasi ko‘rsatilgan. 2-chizma. [18, 56.]



Yuqorida berilgan chizmada psixologiya fanini boshqa psixologik fanlar bilan aloqasi ko‘rsatib berilgandir. Psixologik fanlar tizimida kasb psixologiyasi barcha fanlar yutuqlaridan foydalanadi va o‘z oldiga qo‘ygan masalalarni hal qilib boradi. Psixologiya fanining o‘ziga xos tomonlariga taalluqli mutaxassislar o‘z predmeti masalalarini hal etib borib kasb psixologiyasiga tegishli bo‘lgan jarayonlarga ham tegib o‘tadi. Kasb psixologiya fani inson – kasb o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi fan ekan u barcha psixologik fanlar bilan aloqada va ularni yutuqlaridan foydalanib boradi.

Kasb psixologiyasi va psixologik fanlar

Yoshlarni kasbga yo'naltirish va ularni o'z kasbini to'g'ri tanlashlari bu larning o'zi uchun va jamiyat uchun katta foyda olib keladi. O'sib kelayotgan avlodni kasb bilan ta'minlashda kasb psixologiya fani ko'pgina fanlar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Biz bilamizki inson o'z o'sishi davomida ma'lum bir davrlarni boshidan o'tkazadi. Bu uning bolalik davri, o'smirlik va o'spirinlik davri, yetuklik va keksalik davrlaridir. Bularni esa yosh davrlar psixologiyasi o'rganadi. Ko'rinib turibdiki, maktabga chiqqan bola o'sib borib ulg'ayadi. Uning qiziqishlari kengayib borib, dunyoqarashi boyib, o'z taqdiri haqida o'ylay boradi. O'zini va ota - onasini kelajagi haqida bosh qotiradi. Unda o'zini yaxshi yashashi va o'zi uchun kerakli bo'lgan narsalarni egasi bo'lish istagi tug'iladi. Bolada endi kasbga bo'lgan havas va unga intilish boshlanadi. Yosh davrlar psixologiyasi insonning yashash bilan bog'liq davrlarini o'rganar ekan u insonga xos bo'lgan psixologik jarayonlarni o'rganish orqali kasbga bo'lgan munosabatini ham tahlil qilib boradi. Kasb psixologiyasi kasb tanlayotgan yoshlarni o'sish davri bilan bog'liq holda unga yo'nalishlar beradi va o'rgatib boradi. Kasb psixologiyasi kasb tanlayotgan yoshlarni qaysi davrda – o'smirlik davrimi yoki o'spirinlik davrimi, bu davrga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni bilishi zarur bo'ladi. Haqiqatda ham bu davrda yoshlarni o'ziga xos xarakterga ega bo'ladilar. O'spirinlik davrida kasb tanlayotgan yoshlar o'ziga yarasha psixologik jarayonlarni boshidan kechiradi. Ulardagi fiziologik o'zgarishlar ruhiy holatlarda ham sodir bo'ladi. Kasb tanlaydigan bo'lsalar o'zlariga xos bo'lgan qirralarni ko'pirtirib ko'rsatadilar.

Kasb tanlashda xuddi shuningdek shaxs psixologiyasi ham o'ziga yarasha tomonlar bilan ajralib turadi. Shaxsga xos o'ziga yarasha tomonlar uni kasb tanlashiga ta'sir etadi. Shaxsning xarakteri, temperamenti, qobiliyati, qiziquvchanligi, o'zini anglaganlik

darajasi uning kasb tanlashiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ma'lumki ayrim shaxslarda ma'lum bir qobiliyat kuchli bo'ladi. Deylik texnikani yaxshi tushunadi. Ayrimlarga buni ko'rsatib bersang ham uni uddalay olmaydi. Ayrim shaxslarda sezgirlik, diqqat yaxshi rivojlangan bo'lsa ayrimlarida bular unchalik emas. Deylik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki ayrim bolalar bo'layotgan jarayonni darrov bilib olmaydi, ayrimlari esa darrov sezadi va unga moslashishga harakatqiladi. Kasb tanlashda esa bu kabi tomonlar shaxsni qaysi kasbga loyiq ekanligini ko'rsatadi. Demak, shaxsdagi o'ziga xos tomonlar uni kasb tanlashida o'z ta'sirini berar ekan.

Takrorlash uchun savollar

1. Kasb psixologiyasi fanining taraqqiyoti.
2. Kasb psixologiyasi fani psixologiya fanlari tizimida.
3. Kasb psixologiyasi va psixologik fanlar.

1.5. Kasb psixologiyasi fanining rivojlanish tarixi va zamonaviy ko'rinishi

Kasb psixologiyasi fanining paydo bo'lish sabablari va asoslari

Ko'p qirrali psixologik fenomen bo'lgan shaxs va kasb o'rtasidagi masala mehnat psixologiyasida o'rganiladi. Lekin shaxsni kasbiy layoqati masalasi bunda ochib berilmadi. Mehnat psixologiyasi XX asr boshlarida paydo bo'lib har xil kasbiy masalalar bilan shug'ullanadi.

Mehnat psixologiyasi har xil kasblarni faoliyatini, faoliyatning insonga bo'lgan talabini, insonni psixofiziologik imkoniyatlarini, ahloqiy-irodaviy sifatlarini, kasbga kerak bo'lgan qobiliyat va malakalarni

o'rganar edi. Lekin mehnat psixologiyasining eng asosiy vazifasi bu mehnat sharoiti, mohiyati, uskunalarini tahlil qilish edi.

Unda katta e'tibor travmatizmni profilaktika qilish, ish qobiliyatini va charchashni diagnostika qilish, mehnat rejimini optimal yo'lini tanish va shu kabilar edi. Mehnat psixologiyasining asosiy masalasi bu insonni mehnat qurollariga va mehnat sharoitlariga moslashishi edi.

Insonlarni mehnat qilishlari uchun shu kasbga xos bo'lgan layoqatlarini, tanlagan kasblariga xos bo'lgan fiziologik, psixologik moslik darajalarini o'rganishga talablar oshib bordi. Bundan tashqari sanoatni tez o'sib borishi, qishloq yerlaridan insonlarni sanoat joylariga ko'chib kelishi – migratsiyasi kuchaydi. Bular esa ularni o'rganish masalalarini muhim masalalardan biri qilib qo'ydi. Shunday talablar asosida kasbga yo'nalishni o'rganuvchi birinchi laboratoriyalar paydo bo'ldi. Bu laboratoriyalar 1903-yilda Strasburgda (Fransiya) va 1908-yilda AQShning Boston shahrida paydo bo'ldi. Bu laboratoriyalar aynan sanoatni tez o'sib borishi bilan bog'liq holda shakllandi. Demak, ko'rinib turibdiki, quyidagi jarayonlar kasb psixologiyasini paydo bo'lishiga sabab bo'lgan: 1) Jamiyatda sanoatni tez o'sib borishi; 2) Sanoatni o'sib borishi bilan texnikani, mashinasozlikni rivojlanishi; 3) Migratsiyani o'sib borishi va odamlarni o'rganish zaruriyati paydo bo'ldi; 4) Inson va uni o'zi ishlayotgan kasbga moslik darajasini o'rganish zaruriyatini paydo qildi. Bular esa insonni fiziologik va psixologik jihatdan kasbga mosligini o'rganish masalasini qo'ydi. Bular esa ishlab chiqarishni kuchaytirishga va unga mos bo'lgan kasblarga insonlarni tayyorlash zaruriyatini vujudga keltirdi.

Shunday qilib mehnat faoliyatini psixologik o'rganish kasbiy shakllanishni o'rganishni natijalarini bera olmadi. Bu esa mehnat psixologiyasida alohida bo'lgan va kasbga xos tomonlarini o'rganuvchi alohida fanni vujudga kelishiga sharoit yaratdi. Shuni aytish ke-

rakki hozirgi psixologik fanlar ichida bunday fan deyarli yo‘q. Lekin jamiyat yoshlarni kasbga yo‘naltiruvchi va ularni mehnatini psixologik tomondan o‘rganuvchi fanga zaruriyat sezib bordi. Insonlarni mehnatga bo‘lgan intilishi ularni qiziqishi, iroda kuchi, kasbni mohirona egallashi, o‘zidagi psixologik jihatlarni rivojlantirib yaxshi kasb egasi bo‘lib borishi, aqliy jihatdan har xilligi va ularni o‘z o‘rniga qo‘yish kabi ko‘plab masalalar turibdiki, bular kasb psixologiyasi kasbini fan sifatida jamiyat uchun zarur qilib qo‘ymoqda. Bu aytilgan fikrlardan shunday o‘ziga xos tomonlar ko‘zga tashlanadi.

1) Jamiyatda o‘sib kelayotgan yoshlarni o‘zlari qiziqqan kasblarini egallashlari uchun yo‘nalish berishlari zarurligidan;

2) Jamiyatni ham ishlab chiqarishda kerakli bo‘lgan kadrlarni tayyorlashi zarurligidan;

3) Jamiyatni taraqqiyoti, fan va texnikani o‘sib borishi bilan bog‘liq holda yangi kasblar paydo bo‘lganligi sababli yoshlarni bu yangi kasblar bilan tanishtirish zarurligidan;

4) Jamiyatda olib borilayotgan islohotlarni natijasi sifatida jahondagi tayyorlanayotgan kadrlarga raqobatbardosh bo‘lgan sifatli mutaxassislarni tayyorlash zaruriyati;

5) Jamiyatimizni taraqqiyotini ta‘minlashga xizmat qiladigan fan sifatida zaruriyat tug‘ilganligi sababli.

Kasb psixologiyasining taraqqiyot tarixi

Kasb psixologiyasi psixologik fanlar ichidagi eng yosh va tarixi qadim zamonlarga borib taqaladigan fanlar qatoriga kiradi. Haqiqatan ham kasb psixologiyasi yaqin vaqtlarda ko‘zga ko‘rinib borgan bo‘lsa ham uning ahamiyati haqidagi fikrlar qadimlarga borib taqaladi. Dunyo madaniyatini beshigi bo‘lgan eng qadimiy ta‘limotlardan biri bo‘lgan muqaddas “Avestoda” ham kasb va uning ahamiyati haqida

fikrlar mavjuddir. Antik davr filosoflari ham kasb haqida o'z fikrlarini aytib o'tganlar. Masalan Platon o'z asarlarida odamlar kasb jihatidan taqsimlanishi kerakligi, bu esa ularga qo'yiladigan talablardan kelib chiqishini aytib o'tgan edi. "...Odamlar o'zaro tengdirlar, lekin ular majburiyatlariga munosabatlarida bir xil emasdirlar, ular qobiliyatlari jihatidan har xildirlar – bir xillari boshqarish uchun tug'ilganlar, boshqalari yordamlashishga, yana bir boshqalari – dehqonchilik, hunarmandchilik uchun yaratilgandirlar. Ularni hammasini... tilla, kumush, mis, va temir kabi farqlash mumkin" .[20,28.]

Kasb psixologiyasi mehnat psixologiyasi tarkibida shakllanib keldi. Mehnat psixologiyasi kasb psixologiyasiga tegishli bo'lgan masalalarini o'z predmetini hal etish davomida o'rganib bordi. Lekin kasb psixologiyasi qo'ygan masalalarga yondoshish davr talabi bilan zaruriy ravishda uni mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga sabab bo'ldi.

Kasb psixologiyasini mustaqil fan sifatida shakllanishini uchta etapga ajratish mumkin:

1) XIX asr oxirlarida psixotexnikani psixologiyani yo'nalishi sifatida paydo bo'lishi va mehnatni ilmiy tashkil qilishning psixologik muammolarni yechilishi (W. Stern, F. Teylor, N. Munsterberg va boshqalar.) Psixotexnikani asosiy vazifalari bu mehnat usullari va sharoitlarini ratsionalizatsiya qilish, travmatizm va avariya holatlarini kamaytirish, ishlab chiqarishga o'rgatishni takomillashtirish edi.

2) XX asr boshlarida mustaqil fan sifatida paydo bo'lgan mehnat psixologiyasi rivojlanishi (F. Parson, M. Weber, S.G. Gallershteyn, A.K. Gastev va boshqalar). Uning asosiy izlanish vazifalari – insonni mehnat jarayonida shakllanishi va psixikasini ko'rinishini, shuningdek, kasbiy tanlov, kasbiy maslahat va mehnat ekspertizasini o'rganish edi.

3) O'tgan asrning 70 - yillarida mehnat psixologiyasining inson va kasb o'rtasidagi munosabatlarini o'rganish asosida, yangi

kasb psixologiyasini alohida fan sifatida shakllanishiga olib keldi. Mehnat psixologiyasining bu alohida yoʻnalishi kasb psixologiyasi deb nomlanadi. Bu A. Huth, E. Bornemann, K. Seifert, E. Vlich ishlarida koʻrindi. Kasb psixologiyasi kasbiy maslahat, kasb tanlash va professiografiya masalalari bilan shugʻullandi.

Mustaqil fan sifatida kasb psixologiyasi AQShda shakllandi. Kasb psixologiyasining ajralib chiqishi hozirda insonni kasbiy mehnatga muvofiqlashishi, ayrim kasblar bilan oʻzaro munosabati, shuningdek kasblar dunyosiga boʻlgan munosabatidan kelib chiqadi. Kasb psixologiyasining asosiy vazifasi bu inson va kasb oʻrtasidagi munosabatlarni oʻrganish va uni nafaqaga tayyorlash hisoblanadi.

Kasb psixologiyasining rivojiga rossiyalik quyidagi olimlar oʻz hissasini qoʻshganlar: E.M.Borisova, K.M.Gurevich, Yu. M.Zabrodin, E.A. Klimov, Yu.V. Kotelova, T.V. Kudryavsev, N.V. Kuzmina, N.D. Livitov, B.F. Lomov, A.K. Markova, K.K. Platonov va boshqalar.

XIX asrning XXasrning boshlarida F.Teylorning mehnatni tashkil qilish va korxonani boshqarishga bagʻishlangan ishlari paydo boʻladi. Bu ishlarda fiziologik va psixologik masalalar – kasb tanlash, mehnat meʼyori, haq toʻlash tizimi, ragʻbatlantirish va jazolash, ish qurollarini ishchiga moslash kabi dolzarb tomonlar oʻrganiladi. Teylorning ishlari toʻlaligicha ishbilarmonlar manfaatiga qaratilgan boʻlib, koʻproq foyda olishni maqsad qilib qoʻygan edi.

Mehnat psixologiyasini vujudga kelishiga G.Ford tomonidan konveyer tizimini ishlab chiqarishga tadbiq qilinishida koʻrish mumkin. G. Ford oʻzini gʻoyasini oʻrta hol ishchiga qaratgan va ular ish qidirish davomida jismonan va ruxan zoʻriqmaydigan ishni qidiradilar deb koʻrsatadi. Ishlab chiqarishga texnikani kiritilishi esa ularni qoniqtiradi demoqchi boʻladi. Bu ularni kasblarni bilishini shart emas qilib qoʻyadi va ular maʼlum bir mexanik ishlarni bajaradilar demoqchi boʻladi. Bu orqali inson faktori inkor etiladi. Bu insonni ishlab

chiqarishni bir vintigi qilib qo'yadi.

F. Teylorning boshqarish tizimi quyidagilarga asoslangan edi;

1) Boshqarish va tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan aqliy mehnatdan ajratish.

2) Ishchilarni barcha boshqa ishlardan, ya'ni boshqarish va tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan aqliy ishlardan ozod qilish.

3) Ishchilarni normalarini bajarish yoki ortig'i bilan bajarishini differensial holda rag'batlantirish.

Bu davrda mehnatni ilmiy boshqarishga bo'lgan intilishlar vujudga kela boshladi. Teylor tomonidan tavsiya etilgan ilmiy boshqarishning mohiyati nimadan iborat edi. Teylor mavjud bo'lgan korxonani boshqarishni "tashabbuslar va rag'batlantirish" usulidagi boshqarish deb baholadi. Teylor ishlab chiqarishni pastligini ko'rsatuvchi uchta asosiy sababni ko'rsatdi. **Birinchi** sabab – bu ishchilar agar ish suratini oshirib ishlasak boshqa ishchilarni ishsiz qolishiga sababchi bo'lamiz deb o'ylashlari. **Ikkinchi** sabab ... odamlarni tabiiy instinktlari va odatlari bo'lgan bayramlar ... bosiqlik, o'rta hol darajasida sekin ishlashlari ham sabab bo'lgan. **Uchinchi** sabab korxonada ishlashni ratsional ko'rinishini ko'rsatib beradigan yo'riqnomani yo'qligi. Teylor shu sabablar tufayli ishlab chiqarish past deb baholaydi. Teylor ishchilarni o'rganish uchun ular bilan birga ishlashga va ularni sharoitini o'rganishga harakat qiladi. Mehnatni ilmiy boshqarish uchun Teylor eksperimentlar o'tkazadi.

Teylor ishlab chiqarishda yuqori yutuqlarga ega bo'lish uchun "ilmiy boshqarishning" 4 ta tomonini ko'rsatdi. Bular quyidagilar:

1) Ishchilarni qobiliyati va malakasini umumlashtirish, klassifikatsiya qilish orqali. Har bir mehnat turini ilmiy asosli o'rganish. Har bir insonni harakatini takomillashtirish va mehnat qurollarini standartlashtirishga qaratilgan eksperimentlar o'tkazish.

2) "ilmiy asoslangan talablarga" muvofiq ishchilarni tanlab olish. Ularni "yuqori sifatli ishchi" sifatida o'qitish, ishga tayyorlash. Bu

talablardan bosh tortganlarni bo'shatib yuborish.

3) Adminstratsiya ishchilar bilan yaxshi hamkorlikni amalga oshirishi. Teylor aytganidek ishchi va fan o'rtasida yaqinlikni yuzaga keltirish. Ishchilarni ish bajarishlarini tezlashtiradi va ularni aniq bajarishini ta'minlaydi.

4) Mehnat taqsimoti deyarli teng bo'lib, ishchi va boshqaruchilarni javobgarligi bir xilda bo'lishi kerak qilib qo'yiladi.

Teylorning bu kabi ilmiy eksperimentlari asosan tadbirkorlarning ish unumini va biznesini ko'payishiga qaratilgan bo'lsa ham ishchilarni malakasini oshirish, ularni yaxshi kasb egasi bo'lishga va psixologiyasida o'zgarishlar yasashi kerakligini ko'rsatadi. Teylor o'zining bu tamoyillari bilan ishchini "tashabbusi va rag'batlantirishni" ilmiy boshqarish asosida olib borish kerakligini, buning uchun esa sabr toqat, chidam va bosiqlik zarurligini ko'rsatadi. U o'zini bu tizimini tezda tadbiq qilib bo'lmasligini va kerakli natijani olish uchun bir necha yillar kerak bo'lishini aytib o'tadi. Ishchini o'rganish uchun uzoqdan emas, balki yaqindan turib, uni uy fikrlarini, mulohazalarini bilish zarurdir deb ko'rsatadi. Shuning uchun ishchi bilan yonma yon bo'lishni tavsiya etadi. Uni o'zini ketidan olib borish bilan yangiliklarga va yutuqlarga ega qilish mumkin deydi. Albatta bu sekin astalik bilan bo'lishini tushuntiradi. Eng oddiy tarzidagi mehnatni tashkil qilishda ham Teylorning fikricha ilmiylik yotadi.

Teylorning ikkinchi tezi ham birinchiga bog'liq bo'ladi. Bu "Dars" yoki "Vazifa" g'oyasidir. "Dars" Teylorning fikricha butun ilgarigi mehnatga beriladigan haqni almashtirishi zarur. Dars bu ish normasini bajarish hisoblanadi. Lekin Teylor bunga o'zgacha ma'no beradi. Dars bu har kungi vazifa bo'lib, uni bajarish qat'iy belgilangandir. Teylor buni maktabdagi beriladigan vazifaga tenglashtiradi. Dars bu yaxshi ishchining bir kunlik ish normasini bajarishi sifatida qoraladi. Bu esa ishchini bir kunlik ish normasini bajarishi hi-

soblanadi. Yaxshi ishlamagan yoki darslarni bajarmagan ishchilarni boshqasi bilan almashtirish va ish unumdorligini oshirish Teylorning asosiy maqsadi bo‘ladi. Teylor ishni tashkil etishda ishchilarni charchab qolishini hisobga olgan holda ularni dam olishlarini ham ilmiy boshqarishga kiritadi.

Teylorning ikkinchi tamoyiliga asosan ishchilarni tanlov asosida ishga olishni ko‘rsatadi. Uchinchi tamoyilga asosan administratsiya va ishchi o‘rtasida o‘zaro yaxshi munosabatlarni vujudga keltirish yotadi. Ishchilarni tanlashda Teylor bo‘yicha “ odamlarni ommaviy rivojlantirish emas”, balki “har bir alohida individumni” rivojlantirish kerakligi ko‘rsatiladi. Teylor olib borgan eksperimentlar asosida ishchini tanlab olish masalasi yotadi. Bunga misol qilib uni Shmid deb nomlangan ishchi bilan suhbatini ko‘rsatish mumkin bo‘ladi. Albatta Teylorning o‘tkazgan eksperimentlari o‘z davri uchun ma’lum bir yutuq va kamchiliklarga ega. Lekin mehnatni ilmiy boshqarish orqali ish unumdorligini oshirish, ishchilarga mehnat qilish uchun sharoitlar yaratib berish, mehnati uchun rag‘batlantirish va kamchiliklari uchun jazolash, ishchini fiziologik imkoniyatlarini bilish kabi masalalarni hal qilish davomida kasbga xos bo‘lgan masalalar ham yuzaga chiqadi. Bu olib borilgan tajribalardan kasb va kasbga tanlash, kasbga layoqatlilik, insonni fiziologik imkoniyatlari, insondagi psixologik xususiyatlar va jarayonlarni bilish, kasbini ustasi bo‘lish uchun nimalar qilish kerakligi va shu kabi ko‘plab masalar ko‘zga tashlanadi.

Teylorning mehnatni ilmiy tashkil qilishi bilan bog‘liq jarayonlarda kasbga va kasb psixologiyasiga tegishli ko‘plab masalalar yuzaga chiqishi orqali bu fanni rivojlanishi uchun imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Albatta mehnatni ilmiy tashkil etishning asosiy shartlaridan biri bu o‘z kasbini yaxshi biluvchi va unga qiziquvchi kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirda rivojlanayotgan davlatlarda

jamiyat uchun kerak bo'lgan yangi va yangi kasblarga tayyorlash va ulardan o'z kasbini yaxshi bilishlarini talab qilinmoqda. Bu yo'lda O'zbekistonda ham ko'plab amaliy ishlar olib borilib raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga diqqatni qaratilmoqda.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida amaliy psixologiyaning bir yo'nalishi sifatida industrial psixologiyani shakllanishi va rivojlanishi psixotexnikani paydo bo'lishiga olib keldi. Psixotexnika Amerikada teylorizm bilan parallell tarzda shakllandi. Teylorizm texnika va insonning jismoniy chidamligini o'rgangan bo'lsa, psixotexnika psixologiya tarkibidan o'sib chiqdi. Psixotexnika Teylorning ishlaridan alohida holda shakllanib chiqdi. Psixotexnikani shakllanishiga Frayburg universiteti dotsenti Gugo Myunsterberg o'zining "Psixologiya va iqtisodiy hayot" (1912 y) kitobida fikrlarini bildiradi. U keyinchalik Amerikaning Garvard universiteti professori bo'lib ishlaydi. Psixotexnika keyinchalik mehnat psixologiyasi bo'lib shakllandi.

Myunsterberg G. o'zining "Psixotexnika asoslari" deb nomlanuvchi asarida kasb psixologiyasini shakllanishiga ta'sir etuvchi fikrlar bildiradi. Myunsterberg o'zining bu asarida psixotexnikaning uchta asosiy masalalarini ko'rsatadi.

1. Ishlab chiqarishga "to'g'ri keluvchi odamlarni" tanlab olish (Bu yerda iqtisodiy to'g'ri keladigan va joyiga mos keladigan shaxslarni tanlab olish haqida gapirilmoqda).

2. Ishlab chiqarishda mehnat unumdorligining iloji boricha yuqori darajasiga erishish. (bu yerda psixologik ta'sir asosida mahsulotni sifatini, sonini ko'tarish yoki uni shu natijalarini pasayib ketmasligiga harakat qilish nazarda tutilmoqda).

3. Yuqori psixologik effektga erishish (shaxsga ta'sir etuvchi ma'lum psixologik jarayonlar asosida iqtisodiy jarayonni ko'tarish).

Birinchi masala bu kasbiy layoqatlik hisoblanib unda: kasbiy tanlov, kasbiy maslahat (profkonsultatsiya) va hatto kasblar bilan

yoshlarni tanishtirish (proforiyentatsiya) yotadi. Bu masalalarni hal qilish differensiyal psixologiya bilan bog‘liq bo‘lib, bu haqida Myunsterberg to‘g‘ri fikr bildiradi. Myunsterberg shunday deydi: “Industrial psixologiya uchun individual psixologik farqlar asosiy hal qiluvchi ahamiyatga ega”.

Myunsterbergga kasbiy layoqatlikni ajratib olish uchun V.Shternning va boshqa differensial psixologlarning qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Insondagi ma’lum bir psixologik jihatlar ma’lum kasb uchun muhim ekanligi buni esa differensial psixologlar tomonidan ko‘rsatilishini Myunsterberg aytib o‘tadi. “Eksperimental va hattoki differensial psixologiyani metodlari kasbiy talablarga mos tushmaydi. Shuning uchun maxsus eksperiment tizimini (testlarni) yaratish zarurdir. Bu testlar kasbga xos psixologik xususiyatlarni ko‘rsatishi va kasbiy faoliyatni faollashtirishi zarur”dir deb ko‘rsatadi Myunsterberg. Buning uchun aniq mehnat faoliyati ko‘rinishlarini kasbiylik nuqtayi nazaridan subyektiv faktorlar asosida o‘rganish zarurdir. “Biz har xil kasblarni sinchiklab o‘rganishimiz va ularga mos tushuvchi psixologik faoliyatlarni tahlil qilishimiz kerak bo‘ladi” – deb yozadi Myunsterberg.

Myunsterberg kasbni psixologik tahlil qilish uchun birinchi bo‘lib korxonalarning egalari bilan suhbatlar olib boradi. Korxonalarning egalari ishni tashkil qilish uchun ishchilarni o‘z ishiga intilib ishlashlarini, halol bo‘lishlarini, ishlarni bajara olishlarini, o‘z kasbini ustasi bo‘lish kabi tomonlarni ko‘rsatadilar. Lekin ular ishchilarga tegishli bo‘lgan psixologik tomonlarga etibor bermaydilar. Ishchilarning diqqati va uning o‘ziga xos tomonlari, xotirasi va uning kuchi, irodasi, tafakkuri va boshqa psixologik xususiyatlarini e’tiborga olmaydilar. Myunsterberg har bir mehnat faoliyatiga esa o‘ziga xos psixologik tomonlar borligini va ular kasbiga qarab farqlanishini ko‘rsatib beradi. Har bir faoliyat maxsus kasbga xos bo‘lgan psi-xologik

tahlilni, psixologik Qonunlarga asosan talab qiladi. Shuning uchun bu yerga mutaxassis psixologlarni jalb qilish zarur bo'ladi. Kelajakda deydi Myunsterberg korxonalarining egalari o'zlari psixolog mutaxassisligiga muhtoj bo'ladilar va ularni ishga chaqiradilar. Psixolog mutaxassislar ishni sifatini va unumdorlikni ko'tarish uchun ishchilarni faoliyatini o'rganadilar va o'ziga xos tavsiyalar bilan bu maqsadlarni amalga oshirib boradilar.

Myunsterberg sanoat psixotexnikasini "Mehnatni ishlab chiqishdagi yuksak yutug'i" deb ta'riflaydi. Myunsterberg ishchilarni "mashq qilish va o'rgatish"ga e'tibor qaratadi Uning olib borgan eksperimentlarida kasbga o'rgatish va bu o'rgatishlar davomida ishchilarni toliqib qolishi masalasini ko'zga tashlanganligini ko'rsatib beradi. Myunsterberg telegrafistlar va mashinistkalar bilan ishlar olib boradi va e'tiborni ularni mehnat qilishlari davomida yuzaga kelgan ko'plab masalalarni o'rganishga o'z diqqatini qaratadi. Myunsterberg o'z eksperimentlarida ishchilarni toliqib qolishi va ularga beriladigan imkoniyatlarni ham o'rganadi. Charchash faoliyatni susayishiga olib kelishini, u bilan bog'liq holda ko'plab psixologik muammolar vujudga kelishini ko'rsatadi. Myunsterberg o'z faoliyati davomida kasb psixologiyasini rivojlanishi uchun, mehnatni ilmiy boshqarish va kasblarga xos bo'lgan psixologiyani o'rganish uchun ko'plab eksperimentlar, testlar, mashq qilish bilan bog'liq maketlarni tayyorlab berdi. Keyinchalik fanni rivojlanib boriishi kasblarni mashq qilib o'rgatadigan, treninglar o'tkazadigan o'quv markazlari paydo bo'ldi. Kasb psixologiyasi rivoj topib bordi.

K.Torndayk, Dj.Fanogenlar tomonidan Amerika aviatsiyasi uchun pilot va ekipaj a'zolarini tanlashda ularni shu ish faoliyatiga layoqatini tahlil qilishdagi o'tkazgan testlari muvaffaqiyatli chiqdi. Ikkinchi jahon urushida AQSh kuchlariga jalb qilinganlardan 20 millioni testlardan o'tkazilib juda katta auditoriyani qamrab oldi. 1943-yil test sinovlaridan o'tgan 10 000 uchuvchilar 1950-yilgacha

kuzatuvchi bo'ldilar. Bu va boshqa o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, "yuqori darajadagi intellektual qobiliyatlar" juda xilma – xil o'lchamga, bir xil bo'lmagan tabiatga va mazmunga ega ekanlar. Kasb psixologiyasi masalalari Rossiyada ham o'rganildi. Bu sohani o'ziga yarasha o'rgangan psixologlar paydo bo'ldi. Ishlab chiqarishga va undagi jarayonlarni ilmiy boshqarishga asoslangan mehnatni ilmiy tashkil etish markazlari korxonalar qoshida tashkil topdi.

Harbiy holatdagi sharoit sanoatda test o'tkazishga bo'lgan qiziqishni ham faollashtirdi, shu jumladan korxonalardagi ishchi kuchini tartibga solishga e'tiborni ham tortdi.

O'tgan asrning 40 - yillarida test o'tkazish bo'yicha o'ttirilgan malakalar asosida AQShda qobiliyatlarni o'rganuvchi testlarni kompleks batareyalari shakllantira boshlandi. Bunda batareya so'zi quyidagilarni anglatadi, ya'ni uning elementi sifatida quyidagilar kiradi:

- tekshirilayotganlar uchun instruksiya;
- test mazmuni;
- olingan natijalarni ochib beruvchi kalit;
- testolog uchun instruksiya- bunda olingan natijalarni tahlil qilish nazarda tutiladi;
- testologni o'rgatish metodikasi;
- qayta test o'tkazish uchun instruksiya.

Ko'zga tashlangan batareyalar sifatida o'sha vaqtdagi AQShda tarqalgan testlar SAT - bunda o'qishga, kasb o'rganishga bo'lgan qobiliyati bo'lganlarni tanlab olish, yana TALENT- katta maktab yoshidagilar uchun testlar, shuningdek DATB – bu bo'yicha dunyoni 50dan ortiq mamlakatlarida sanoat uchun kasbiy tanlov va armiyaga tanlab olindi. 1948-yilda AQShda "situatsion testlar" ishlatila boshlandi. Bu tekstlarda odamlarni yolg'on gapirishlari, o'g'rilikka bo'lgan mayillari va xulqidagi ayrim tomonlar o'rganildi. Shu davrning o'zida shaxsni kasb tanlashgan qiziqishini o'rganuvchi

Rorshaxning testlari ham keng yoyildi.

Kasb psixologiyasini fan sifatida rivojlanishi Rossiyada E.F.Zeer, E.A.Klimov, A.K. Markova kabi psixologlar nomi bilan bog‘liq. Ular kasbiy psixologiyaga tegishli ko‘plab amaliy ishlarni hayotga tadbiq qilib kelmoqdalar. Yoshlarni kasbga yo‘naltirish, kasbiy maslahatlar, ishchilarni o‘z kasblarini egallashlari va bu sohani ustasi bo‘lishlari, nafaqaga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq ko‘plab psixologik masalalar ular tomonidan o‘rganilib, tadqiqot ishlari olib borilgan. Umuuman esa kasb bilan bog‘liq ishlar rus psixolog olimlari tomonidan o‘tgan asrning boshlaridayoq qiziqish obyekti bo‘lgan.

Sharq mutafakkirlari asarlarida kasb va kasbga yo‘naltirish masalalari

Kasb psixologiyasi o‘zining tarixi bilan sharh mamlakatlari bilan ham bog‘liq. Sharq haqida gap ketganda eng avvalo qadimgi ta’limot bo‘lgan Zardushtiylikka tegishli bo‘lgan yozuvlar va ulardagi kasb bilan bog‘liq fikrlar nazarda tutiladi. Muqaddas “Avesto” da inson hayotining barcha sohalariga tegishli bo‘lgan fikrlar mavjud. Shular qatorida kasb va unga bo‘lgan e’tibor ham o‘z aksini topgandir. Bu haqida “Avesto”da shunday deyiladi: “Har bir nekbin odam biron kasb bilan shug‘ullanishi, band bo‘lishi, «aql ishlatib» «ikki qo‘llab yergaishlov berib» «chorva parvarishlab» «biron dasgohni yurgazib» «biron oloti kor» yoki «oloti harba yasab» kun kechirmog‘i, beg‘araz rizq-u ro‘z topib yemog‘i, birovlariga muhtoj bo‘lib, «qo‘l uzatib, tilanchilik qilmoqdan» asramog‘i darkor”. [33,71.] Bu fikrlar shuni ko‘rsatadiki qadimdayoq odamlar kasblarni o‘rganish orqali o‘z tirikchiligini yaratishga intilganlar. O‘sha davrdayoq odamlar ongiga ilm, qalbiga ro‘shnolik, nazariga nekbinlik, qo‘liga hunar singdirishga intilishgan va ularni to‘g‘ri yo‘l

tutishga, rostgo'y bo'lishga vijdonan ishlashga o'rgatishgan.

Ko'hna sarchashmalar va «Avesto» dagi dalillar shuni ko'rsatadiki, - deb yozadi Xamidjon Xamidiy, - ta'lim jarayonida kundalik hayot uchun zarur bo'lgan barcha bilimlar o'qitilgan, hunarlar o'rgatilgan. Ko'rinib turibdiki, qadimgi ota – bobolarimiz yoshlarni tarbiyalashning muhim qirrasi deb unga hayotda kerak bo'ladigan kasblarni o'rgatishni o'z oldilariga vazifa qilib qo'yganlar.

Sharq o'zining bilimlari bilan har doim oldinda bo'lgan, Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Deylik, Kaykovsning "Qobusnoma"sida aynan kasb haqida uning inson uchun foydasi va zarurligi haqida fikrlar bildirilgan. "Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf' etkurmas.".[25,26.] Inson ma'lum bir kasbni egallab uni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi va shu kasbda o'z nomini ko'rsata olgan bo'lishi kerakligi aytilgan, ya'ni egallagan kasbning ustasi bo'lib yetishishi zarurligi bildirilgan. Yaxshi kasb egasi muloyim bo'lishi va o'zini kasbini boshqalarga o'rgatishi kerakligi ko'rsatilgan. Bu kasb egasidan boshqalarga ham foyda yetishi bildirilgan. Har kimki biror kasbni egalladimi u bu kasbni kelajak insonlariga o'rgatishi va ularni kasbli qilishi zarur ekanligi bildirilgan.

Kasbning hayotdagi o'rni va kerakligi haqida Sharqning juda ko'p allomalari o'z fikrlarini bildirib o'tganlar. Bularga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Deylik:

O'qib o'rganilgan har bitta hunar,
Hunarmandga bir kun foyda keltirar.

Nizomiy Ganjaviy

Hunar va san'at shunday narsaki, u keraksiz qolmaydi, ishlatmasang ham yo'qolib ketmaydi, kerak paytda esa senga ko'makchi bo'ladi. Erkak kishiga qirq hunar ham oz. Erkak bo'la turib «men buni bilmayman» deyish uyatdir.

Favokih –al -julaso

Haqiqatdan ham, hunar mehribon do'st, shafqatli yor va fayz yetkazuvchi bir chopog'on otdekki, u o'z chavandozini tezgina rohat va e'tibor manziliga yetkazadi va shunday himoyachidirki, o'z sohibini ta'ma olovidan qutqarib, omonda saqlaydi. [28,22- 25.]

Barxurdor ibn Mahmud

Sharqning ko'zga ko'ringan mutafakkirlari kasb to'g'risida shu kabi ko'plab fikrlarni aytib o'tganlar. Mehnat bu kishini yaxshilikka olib boruvchi yo'l bo'lsa, kasb uning mehnatini yuzaga chiqaruvchi va yaxshi yashashi uchun imkoniyatlar yaratib beruvchi asosiy saman otdir. Kasbni egallagan inson va uni juda cho'qqisiga chiqqan, mahoratli usta bu yaxshiliklar yoyuvchi shaxsdir. Bu insonga e'tibor berish esa, uning halol mehnatini rag'batlantiruvchi tomon kasb egasini jamiyatdagi o'rnini ko'rsatib beradi. Rag'batlantirilmagan kasb egasi e'tiborsiz qolgan chiroyli gulga o'xshaydi. Kerakli kasblarni egallab har doim xalq xizmatida bo'lgan insonlar albatta rag'batlantirilishi zarur.

Kasb haqida Sharqning buyuk mutafakkirlari o'z fikrlarini bildirganlar. Bulardan biri Abu Nasr Forobiy edi. Sharqdan chiqqan buyuk faylasuf va ikkinchi ustoz nomini olgan Forobiy o'z qarashlarida kasbga tegishli fikrlarni bildirgan edi. Forobiy kasbga xos fazilatlar tug'ma bo'lmasligini uni inson egallab borishini ko'rsatadi. Insondan kasb - hunarni o'zlashtirish uchun zo'r kuch va iroda talab qilinadi deb ko'rsatadi Forobiy. Kasb - hunarga insonlar ta'lim va tarbiya orqali erishadilar, ulardagi xislatlar kasbni egalash uchun asos bo'lishini ko'rsatadi. "Agar ular ish, kasb - hunarga berilgan bo'lsalar, kasb - hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb - hunarga jalb etsa, demak, ular kasb - hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar" [12,185.] deb yozadi Forobiy.

Forobiy kasblarni o'zlashtirish haqida gapirib uni ikki yo'l bi-

lan amalga oshirilishini ko'rsatadi. Biri yaxshi gaplar bilan, agarda kasb o'rganayotgan yaxshi gaplarga ko'nsa va uni bajarsa. Ikkinchisi kasbni majbur qilish yo'li bilan o'rgatish. "Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo'lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi". [31,67.] Forobiy ijtimoiy hayotning, inson faoliyatining muhim omili sifatida kasb - hunarga, hunar san'atiga, ya'ni ijtimoiy foydali mehnatga katta e'tibor berdi. Forobiy kishilarni keng ma'nodagi foydali mehnatisiz inson jamoasini, davlatni tasavvur qilib bo'lmasligini aytadi. Forobiy kasblarni klassifikatsiya qilishga ham urinadi. Forobiy fozil shaharlardagi turli kasb - hunarlar ustida to'xtab, ularni, chunonchi: dehqonchilik, baliqchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, tikuvchilik, to'quvchilik, kosiblik, quruvchilik, tabiblik, kalligrafiya, huquqshunoslik, raqs, notiqlik kabi san'atlarni birma - bir sanab o'tadi. [32,225.]

Kasb bu insonga tegishli bo'lgan zaruriy jarayonligini, inson o'z kasbi orqali hayotini qurishligini, kasbsiz inson bu jamiyat uchun juda katta ziyon keltirishini, yomon ishlardan qutilish uchun inson albatta biror bir kasbni egallashi zarurligini ko'plab sharqning buyuk allomalari o'z fikrlarida aytib o'tganlar. Biz buni Alisher Navoiyda, Bobir Mirzoda, Abdulla Avloniyda va boshqa ko'plab mutafakkirlarning asarlarida ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Kasb psixologiyasini hozirda O'zbekistondagi rivoji

Kasb psixologiyasi fan sifatida O'zbekistonda mustaqillikni qo'lga olgandan so'ng taraqqiy etib bordi. Albatta bu fan endigina rivoj topib bormoqda. Kasb psixologiyasini fan sifatida rivojlanishi ko'pgina masalalar bilan bog'liqdir. Hozirda kasb psixologiyasi fan sifatida oliygohlarga o'qitish uchun kiritilgan. Bu sohada yetarli darsliklar va o'quv qo'llanmalar ham yo'q. Lekin shunga qaramay o'zbekistonlik psixolo-

glar kasb psixologiyasi fanini rivojlantirish uchun intilmoqdalar.

Kasb psixologiyasi fanini o'qitish uchun kitoblar yaratib kelmoqdalar. Bu psixologlar E.G'.G'oziyev va K.Q.Mamedovlar tomonidan yozilgan "Kasb psixologiyasi", Karimova V.M. tomonidan yozilgan "Kasb psixologiyasi" va psixolog olim Anvar Jalolov tomonidan yozilgan "Kasb qanday tanlanadi" kabi kitoblardir. Bular albatta institutlar mashtabida yozilgan. Lekin kasb psixologiyasi bo'yicha mutaxassislar hali yetarli emas. O'zbekistonda bu sohalarini mutaxassislarini tayyorlash uchun sharoitlar mavjud. Albatta kasb psixologini bo'lishi ishlab chiqarishga va kasb tanlashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kasb psixologi tomonidan olib boriladigan ilmiy izlanish ishlari hozirgi vaqtda tadbirkorlikni, kasb tanlashni va yoshlarni o'z kasblarini to'g'ri aniqlab olishlari uchun qulayliklar yaratadi.

Kasb psixologiyasini taraqqiyoti uchun barcha sharoitlar mavjud. Bu ta'lim tizimini isloh qilish bilan bog'liq masalalarda, "Ta'lim to'g'risi" dagi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'z aksini topgandir. Hozirda bizga yaxshi kasbni egallagan kadrlar juda kerakdir. Bu yo'lda ko'plab amaliy ishlar hayotga tadbiiq etib borilmoqda. Bu ishlarni tashkil etishning o'ziga xos tomonlari borki, bular haqida yuqorida gapirib o'tdik. To'qimachilik va yengil sanoat uchun tayyorlanayotgan kadrlarni sifatini ko'tarish va yaxshi mutaxassis bo'lishlari uchun kasbiy tanlovlardan o'tishlari va o'zlarida bunga layoqat borliklarini sinab ko'rishlari zarur bo'ladi. Ma'lumki layoqati bor bo'lgan kasb egasidan jamiyat va o'zi uchun foydali amallar bajariladi. Insonning ma'lum bir kasblar uchun kerak bo'lgan layoqati uni o'z o'rnini topishga imkoniyatlar ham yaratadi. Shuning uchun ham yurtboshimiz ta'lim tizimini isloh qilish orqali yangi bir o'zanga ko'tarilishni, jamiyatimizda taraqqiyotni vujudga keltirishda yoshlarning o'rnini boshqacha ekanligiga o'z diqqatlarini qaratgan edilar. Kasb psixologiyasi o'zi sevgan va undan o'z hayotini qura oladigan mutaxassislarni tarbiyalab boradi. Uni rivojlantirish va yoshlarga

kasb tanlashlarida yordam berish hozirdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda kasb psixologiyasini rivojlantirish bu yoshlarni o'z kasblarini to'g'ri tanlashlarini yengillashtirish demakdir. Har bir sohani o'rganuvchi va shu sohaga kerakli bo'lgan iqtidorli kasb egalarini tanlab olish va shu yo'lda amaliy ishlarni hayotga tatbiq qilib borish hozirda juda zarur bo'lgan sohadir. Bu yo'lda O'zbekiston uchun kasb sohasiga ixtisoslashtirilgan psixologlar zarur bo'ladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Kasb psixologiyasi fanining paydo bo'lish sabablari va asoslari.
2. Kasb psixologiyasini taraqqiyot tarixi. Teylorning ishlab chiqarishda ilmiy boshqaruv konsepsiyasi va bu konsepsiyaning kasb psixologiyasidagi o'rni.
3. Kasbiy psixologiyada psixotexnikani asoschisi bo'lgan nemis psixologi G. Myunsterberg dasturi.
4. Rus psixologlari tomonidan kasb psixologiyasiga tegishli ilmiy – tadqiqot ishlari.
5. Sharq mutafakkirlari asarlarida kasb va kasbga yo'naltirish masalalari. Buyuk ajdodlarimiz kasb - hunar ottirish va uning foydalari to'g'risida.
6. Muqaddas "Avesto", Ibn Sino, Forobiy, Beruniy asarlarida kasb va uni egallash to'g'risidagi fikrlar.
7. Kasb psixologiyasini hozirda O'zbekistondagi rivoji. Kasb psixologiyasini M.G. Davletshin, E.G. G'oziyev, A. Jalolov va boshqa psixologlar tomonidan rivojlantirilishi.

II Bob. Kasb psixologiyasi, ta'lim va o'qituvchi – tarbiyalanuvchi munosabatlari

2.1. Kasb psixologiyasida o'qituvchi shaxsi va ta'lim psixologiyasi

Kasb psixologiyasi va o'qituvchi shaxsi

Jamiyat taraqqiyotida yoshlarni kasbga yo'naltirish, ularni o'zlari qiziqqan kasbga bo'lgan intilishlarini shakllantirish muhim va dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu yo'lda jamiyat, davlat bor kuchini berib yoshlarni foydali inson qilib shakllantirishga o'z e'tiborini beradi. Chunki yoshlarni kasb egallashlari va jamiyat taraqqiyoti o'zaro bog'liq jarayondir. Kasb va uni egallash o'ziga xos bo'lgan murakkab jarayondir. Yoshlar bu jarayonni boshlaridan o'tkazar ekanlar o'zlari uchun qaysi kasb qiziqarli va kerakli deb belgilab olishlari oson kechmaydi. Endigina bolalik davridan kattalar davriga o'sib o'tayotgan farzandlar berilgan tarbiyalariga qarab har xil bo'ladilar. Ulardagi mavjud bo'lgan ruhiy jarayonlar, berilgan tarbiya va bilimlar kasb tanlashda muhim hisoblanishi zarur. Ammo unday ham emas. Chunki ularni o'rab turgan ko'plab katta yoshli insonlar o'z ta'sirlari bilan xilma xil maslahatlari bilan kasb tanlashlarida ikkilanishlarni vujudga keltiradilar.

Kasb psixologiyasi o'z oldida turgan muhim kasb bilan bog'liq masalalarni o'rganishda va uni hal etishda o'qituvchi shaxsiga suyanadi. Shuning uchun ham kasb psixologiyasida o'qituvchini yoshlarni kasb tanlashlaridagi o'rni har doim uning diqqat markazida turadi. Kasb psixologiyasi o'z masalalarini o'rganishda o'qituvchi psixologiyasi, o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabat masalasi, o'qitish va kasbga yo'naltirish, kasbiy maslahatlar berish,

ularni sinchiklab o'rganish orqali kasbni tanlashdagi psixologik jarayonlar kabi ko'plab masalalarni keng va chuqur o'rganib boradi. Bunday masalalarda kasb psixologiyasiga o'zini beg'araz yordamini berayotgan o'qituvchini o'zi kim va uni qanday baholash mumkin? Degan ko'plab savollar tug'iladi. O'qituvchini kimligi va uni jamiyatda o'taydigan vazifasi haqida ko'plab tushunchalar mavjud. Shulardan biri bu V.Dalning "Толковый словарь" idagi o'qituvchiga berilgan ta'rifi hisoblanadi. Unda o'qituvchi – bu tarbiyalovchi, o'qituvchi (dars beruvchi), ya'ni uning amaldagi ikki asosiy vazifasi ko'rsatib beriladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga ijtimoiy malakani o'zlashtirishlariga va uni tadbiq etishlariga rahbarlik qilishi, shuningdek insoniyat yig'ib borgan bilimlarni yetkazib berishi ko'rsatib berilgan. Bu vazifalar insoniyat tarixining butun davrlarda asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

O'qituvchilik kasbi bu qadimiy kasblardan biridir. Uning ijtimoiy ahamiyati insoniyat jamiyatida hech ham kamaymaydi. O'qituvchilik kasbi bu o'tkinchi kasb emas. Insoniyat jamiyati o'zi asrlar davomida ottirgan bilimlarini, malakalarini avloddan – avlodga yetkazib bermaganda, u hech qachon rivojlanmas edi. Demak, o'qituvchilik kasbi – bu obyektiv reallik bo'lib, jamiyat uchun zaruriy hodisa hisoblanadi va uning qadri hech ham so'nmaydi. Shu bilan aytish kerakki hozirda kompyuterlashtirish, distantsion o'qitish, elektron ma'ruzalar, baholashning boshqa ko'rinishlari o'qituvchi faoliyatini o'ziga xos tarzda yanada kengroq o'rganish zarurligini ko'rsatmoqda. Xohlaymizmi yo'qmi har qanday ta'lim va tarbiya o'qituvchisiz, uning jonli, emotsional nutqisiz zerikarli bo'lar edi. Albatta talaba o'zi ustida ishlashi, berilgan bilimlarni o'zlashtirib borishi zarur. Lekin o'qituvchisiz u mustaqil ishni bajarishi ham oxiriga yetmaydi. O'quvchi o'z o'qituvchisiz, uning emotsional, jonli tushuntrishisiz real voqealarni tushuna olmaydi. Shuning uchun ham o'qituvchini faoliyatini boshqa hodisalar bilan almashtirib bo'lmaydi.

O'qituvchi, pedagog – insoniyat tomonidan asrlar davomida otirilgan bilimlarni, madaniy – tarixiy malakalarni avloddan – avlodga yetkazib beradi va bu amaliy malakalarni rivojlantirib ham boradi. O'qituvchi – bu o'sib borayotgan avlod va jamiyat o'rtasidagi vositachidir. U jamiyatni ishongan insoni, shaxsidir. Hozirgi vaqtda yuksak kasbga ega bo'lgan, ya'ni o'z fanini yaxshi bilgan, shuningdek chuqur metodologik va pedagogik – psixologik tayyorgarlikka ega bo'lgan, zukko, ijodkor, asli ziyoli va tashabbuskor o'qituvchilar zamonamizga zarurdir.

O'z vaqtida Yan Amos Komenskiy (1592 – 1670y) o'qituvchiga yuksak baho berib, uni “Quyosh ostidagi eng yuksak, unga teng kela oladigan narsa yo‘q”ligini ko‘rsatib o‘tgan edi. Yan Amos Komenskiy aholini o'qituvchiga hurmat bilan qarash kerakligini bir tomonlama talab qilgan bo'lsa, ikkinchi tomonlama o'qituvchini ham jamiyat oldidagi vazifalarni anglash, o'z holatini hissiy tarzda bilib turishi kerakligini uqtirdi. Asrlar osha Yan Amos Komenskiy insoniyat jamiyatiga o'qituvchini qadrlash va ezoqlash kerakligini ta'kidlab ketdi.

O'qituvchi shaxsi haqida gapirganda uning kasbiy yo'nalganligi muhim omillardan hisoblanib o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda pedagogning pedagogik faoliyati, shu faoliyat bilan band bo'lish qobiliyati, shuningdek bu faoliyatga emotsional munosabatida (bolalarni va kasbni sevishida, undan qoniqishida va boshq.) ko'rinadi. Bolalarga o'z diqqatini qaratgan o'qituvchi har doim o'quvchilarni o'zicha qaytarilmasligini va ulardagi individual qobiliyatlarni rivojlantirish harakatida bo'ladi.

O'qituvchini kasbga yo'naltirishda shaxs sifatida ko'zga tashlanadigan tomonlardan biri bu uning o'z “Men” ligini anglaganlikda ham ko'rinadi. O'qituvchini kasbiy o'z - o'zini anglaganligi (Men - konsepsiyasi) uning o'qituvchilik faoliyatida belgilanadi. Shuni

ta'kidlash kerakki Men – konsepsiyasini shakllanishi ko'p hollarda o'z - o'zidan (stixiyali) tarzda shakllanib boradi. Yetarli bo'lmagan metodik ta'minlanmaganligiga qaramay va pedagogik – psixologik yo'nalishlarsiz o'qituvchi o'zining ichki subyektiv tomonlaridan kelib chiqqan holda o'z faoliyatidan qoniqishi yoki qoniqmasligi mumkin bo'ladi, o'zining kuchiga ishonish yoki ishonmaslik asosida o'z xatti - harakatlari tufayli o'qituvchida bir butun Men konsepsiyasi shakllanib boradi. Bu unda o'ziga ishonish yoki ishonmaslik, o'zidagi qobiliyatlilik yoki qobiliyatsizlik kabilarni har xil muammoviy sharoitlarda sinash, shu sharoitlardan chiqib keta olishliklar asosida "Men konsepsiyasi" shakllanib boradi.

O'qituvchi kasbga yo'naltirar ekan o'z pedagogik faoliyatining subyeksi sifatida va o'quvchilar bilan ishlovchi shaxs sifatida quyidagi psixologik talablarga javob berishi zarur:

- Bolalarga nisbatan mehrli bo'lish;
- Pedagogik faoliyatni sevis;
- Yetarli bilimlarga ega bo'lish;
- Keng eruditsiyaga ega bo'lish;
- Pedagogik intuitsiyaga ega bo'lish;
- Yuksak tafakkurga ega bo'lish;
- Yuksak darajadagi ahloqqa va madaniyatga ega bo'lish;
- Bolalarni tarbiyalashda va o'qitishda har xil ta'sirchan metodlarga ega bo'lish;

Qo'shimcha talab sifatida quyidagilarni ham ko'rsatish mumkin: muloqotga kirishuvchanlik, artistlik mahorati, xushchaqchaqlik, yaxshi did va boshqa shu tomonlarga ega bo'lish muhim hisoblanadi.

Jamiyatda yuz berayotgan yangi hodisalar va jarayonlar o'qituvchi shaxsiga yangi talablar qo'yib boradi. Bular quyidagilarda ko'rinadi:

- Jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy talablarini to'g'ri baholash;
- Jamiyatni uzluksiz taraqqiyoti uchun inson qanday sifatlarga ega bo'lishi zarurligini belgilab olishi;

- Jamiyat uchun zarur bo'lgan insonni qanday shakllanishi va rivojlanishi uchun zamonaviy pedagog qanday bo'lishini bilishi zarur.

Pedagog faoliyatini uchta tizimini (komponentini) ajratiladi:

- Konstruktiv;
- Tashkiliy;
- Kommunikativ;

O'qituvchi faoliyatida darslarni konstruktivlash katta o'rin egallaydi. Chunki o'qituvchi darsni konstruktivlab, darsdan tashqari ishlarni olib borib, maktab dasturiga to'g'ri keladigan materiallarni, darsliklarni, har xil metodik qo'llanmalarni tanlab oladi. O'qitish jarayonini faollashtirish, mustahkamlash ham konstruktiv faoliyatga kiradi.


Tashkiliy komponent, konstruktiv komponent bilan uzviy bog'liq holda bir butun pedagoglik faoliyati tizimini tashkil etadi. Dars davomida yuz beradigan jarayonlar o'qituvchini tashkilotchiligi, uddaburonligi kabilar bilan bog'liqdir.

Kommunikativ komponent – bu o'zicha o'quvchilar bilan, ularni ota-onalari bilan, adminstratsiya bilan va boshqa o'qituvchilar bilan munosabatlarni tashkil etishni va uni qo'llab turishni o'zida aks etdiradi.

Bundan tashqari o'qituvchilik shaxsi uning amaldagi vazifalari bilan ham bog'liq bo'lib uni ko'plab olimlar sharhlab o'tganlar. Deylik A.I. Sherbakov o'qituvchilik faoliyatini psixologik vazifalarini quyidagilarda ko'rsatib o'tadi. Bular axborat berish vazifasi – bu materiallarni yaxshi egallaganlik va uni yetkazib bera olishlikda ko'rinadi. Keyingi vazifasi bu rivojlantiruvchanlik vazifasi bo'lib – bu maktab o'quvchisini bir butun holda shaxs sifatida taraqqiyotini

boshqarish. Yana biri bu yo‘naltirilganlik vazifasi – bu shaxsning yo‘nalishlari, motivlari va g‘oyalari bilan bog‘liq. Uning yana bir vazifasi bu jalb qilishlilik vazifasi bo‘lib – bu o‘quvchilarni aqliy faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqilligini taraqqiy ettirish. Oxirgi vazifasi sifatida ijodkorlik vazifasini qo‘yadi va ijodkorlik – bu pedagogik jarayonlardagi ijodiy izlanish, eksperimentlarni o‘tkazishni bilish, malakalarni umumlashtirish va o‘zini har doim o‘stirib borish.

O‘qituvchini haykaltaroshga o‘xshatishadi. O‘qituvchi xuddi simfonik orkestrni dirijoridek hamma diqqatni o‘quvchini ta’lim va tarbiyasiga yo‘naltiradi va hamma jarayonlarni birlashtirib boradi. Bu albatta bir g‘oya, lekin hayotda bu juda murakkab va qiyin masaladir. Agarda o‘quvchi ta’lim va tarbiyasiga diqqatni qaratsak uni quyidagi holatini ko‘ramiz. 3-chizma:[18, 78.]



Kasb psixologiyasi o'qituvchi shaxsiga eng zaruriy va kerakli jarayon sifatida qaraydi. Birgina o'qituvchi bolani tarbiyalab, uni hayotga yo'naltirish bilan cheklanmasdan uni kasb tanlashiga ham yordam berib boradi. Bu faoliyatda o'qituvchi juda ko'p rollarni va vazifalarni bajarib boradi. Buni biz quyidagi sxemadan ham ko'rishimiz mumkin.



4-chizma

O'qituvchining faoliyatidagi rollari va vazifalari sxemasi

Shuni aytish joizki o'qituvchini mehnati darrov natija bermaydi. Balki vaqt o'tishi bilan o'z natijalarini ko'rsatadi. Bu albatta kasb tanlashda, o'quvchining kelajakdagi yutuqlarida, o'z mehnati tufayli ottirgan obro' va hurmatlarida namoyon bo'ladi. Yuksak yutuqlarga erishgan olimlarni, siyosiy arboblarni, mashhur insonlarni va jamiki insonlarni yoshligida o'z mehrini berib ta'lim va tarbiya

bergan inson aynan shu o'qituvchi hisoblanadi. O'qituvchi bergan bilim va malakalar tufayli ular shu darajaga yetishgandirlar.

Kasb tanlashda o'sib kelayotgan yoshlarga ta'lim va tarbiya beruvchi ustozlar borki ularni o'rnini hech nima bilan almashtirib bo'lmaydi. Maktab va kollej davrida yoshlar o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan kasblarni egallashga intilib boradilar. Bu davr uchun pedagogning o'rnini butunlay boshqacha bo'lib qoladi. U endi faqat tarbiya va ta'lim beruvchigina emas, balki o'quvchilarni ma'lum bir kasbga bo'lgan intilishini shakllantiruvchi pedagog – psixolog ham bo'lib qoladi. Pedagog bu davrda o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarda bo'lib, uning qaysi fanlardan o'zlashtirishi yaxshiligini, qaysi fanlar uni qiziqtirishini va nima uchunligini, undagi boshqa fanlarga bo'lgan e'tiborini, qaysi fanlar uning uchun yetarli qiziqish uyg'otishini va shu kabilarni kuzatib boradi. Pedagog kuzatish orqali o'quvchidagi ma'lum fanlarga va kasblarga o'zida qiziqish borligini suhbatlar orqali, kuzatishlar orqali, darslardagi javoblar orqali bilib boradi. Pedagogni o'rnini va o'quvchini kasbni tanlashi bilan bog'liq jarayonlarni ko'plab psixolog olimlar kuzatishgan. Ular kasbga qiziqishni klassifikatsiya qilganlar. Deylik rossiyalik olimlar kasb egasi bo'ladiganlarni har xil davrlarga bo'lib ko'rsatganlar. Kudryavsev T.V. shaxsning kasb egasi bo'lishini 4ta davrini ko'rsatadi:

1. Kasbni tanlashga bo'lgan uyni paydo bo'lishi va shakllanishi.
 2. Kasbiy faoliyatga tayyorlanish va kasbga o'qish.
 3. Kasbni faol o'zlashtirish, unga kirib borish va o'zini ishlab chiqarish kollektivida tasavvur qilish.
 4. Shaxsni kasbiy mehnatda o'zini to'la o'z kuchini sarf qilishi.
- Klimov E.A. ham kasbni tanlashni quyidagi davrlarini ko'satadi:
1. Ongli ravishda kasbni tanlashga tayyorgarlik(12-17 yosh) davri.

2. Kasbga tayyorgarlik ko‘rish davri (15 –23 yosh) – bo‘lg‘usi kasbga xos bilimlarni va malakalarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq faoliyat.

3. Kasb taraqqiyoti davri (16 – 23 dan to pensiyagacha) – kasbga xos shaxslararo munosabatga kirishish va subyektni keyingi taraqqiyot davri.

Pedagog o‘quvchini kasbga yo‘naltirish davomida uni yoshiga qarab shu yuqorida ko‘rsatilgan jarayonlardan kelib chiqqan holda tayyorlashi kerak bo‘ladi. Haqiqatdan ham o‘quvchi shu davrlar davomida o‘zi uchun kasb tanlab boradi va pedagogning yordamida uni tan oladi.

Kasb tanlash davomida shaxsda ikki xil munosabatlar vujudga keladi;

1. Tashqi hayot faoliyati shart – sharoitlari va shaxslararo munosabatlarda.

2. Shaxsdagi ichki fikrlar asosida.

Insonni kasb egasi bo‘lishi uzoq vaqttni – ontogenez davrini qamrab oladi. Bunda o‘quvchining kasbga bo‘lgan intilishi individual tarzda kechadi, ya‘ni har bir o‘quvchi kasb tanlashga o‘ziga xos tarzda yondoshadi. Ayrim o‘quvchilar uchun kasb tanlash uning hayotining mazmunini tashkil qilsa, boshqalari uchun kelajakdagi ehtiyojlarni qondirishlari uchun o‘ziga xos fonni tashkil etadi, ayrimlar uchun esa kasb tanlash umuman ularni qiziqtirmaydi, ya‘ni kasb tanlash ma’noga ega emas. Bu jarayonlarni tizimlashtirishda va tartibga solishda pedagogning o‘rni juda katta hisoblanadi. Pedagog o‘quvchilarni ma’lum kasblarni o‘z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda tanlashlarida yo‘nalishlar berib turadi.

Kasb tanlashda o‘quvchilarni kasbga olib kiruvchilar, ya‘ni psixologik kuzatuvchilar, yo‘l - yo‘riq beruvchilar kimlar ekanligini kuzatishlar orqali aytish mumkin. Bular eng avvalo ota - onalar,

o‘qituvchilar, tengdoshlar, atrofdagi yaqinlar va boshqalar hisoblanadi. Albatta bu yerda kasb psixologi mutaxassis sifatida katta o‘rin oladi va uning bo‘lishi mutaxassis sifatida katta ta’sirga ega bo‘ladi. Shuni ham aytish kerakki hozirda kasbga yo‘naltiruvchi sifatida o‘qituvchilarning o‘rni o‘zgachadir. Pedagoglar tarbiyalanuvchilarni kuzatish orqali, ular bilan suhbatlashishlari orqali, o‘zlaridagi pedagogik mahoratlari, qobiliyatlari orqali bolalarning qiziqishlaridan, manfaatlaridan kelib chiqqan holda kasb tanlashlariga yo‘naltirib turadilar.

Pedagog bolalarni kasbga yo‘naltirishi uchun o‘ziga xos ixtisoslikka ega bo‘lishi zarur bo‘ladi. Bu haqida psixologiya fanlari doktori, professor G‘oziev E.G‘, Mamedov K.Q. larning “Kasb psixologiyasida” tushuntirib berilgan. Pedagogik ixtisos – ixtisoslikka munosiblikning modifikatsiyasi xaritasi quyidagilarni aks ettiradi:

1) jamiyat ehtiyojlariga mos tushuvchi yuksak darajadagi qarashlar, e‘tiqodlar, ideallar shakllanganligi (jamoaviy) yo‘nalganlikni ifodalovchi shaxsning ijtimoiy – siyosiy faolligi;

2) bolalarga nisbatan mehr – muhabbat, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini tushunish ko‘nikmasining mavjudligi;

3) pedagogik kuzatuvchanlik (persektiv qobiliyat);

4) hayot va faoliyatning u yoki bu jabhalarida odamlar xatti – harakatlarining xususiyatlarida oqilona tushunish va izohlashga qobiliyat;

5) o‘zgaruvchan shart – sharoitlarda omilkorlik bilan mo‘ljal olish qobiliyati;

6) tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatlarga ega;

7) umumiy va bilishga oid qiziqishlarning ko‘pqirraliligi;

8) maqsadga erishish yo‘lida irodaviy zo‘r berishga tayyorlik va sobitqadamlilik;

9) Yoshlarni kasbga yo‘naltirishda ularga yordamlashish.

O'qituvchilik kasbiga nomunosiblik xaritasida quyidagi omillar o'z aksini topadi (modifikatsiya bizniki – E.G.):

- 1) qarashlar, e'tiqod (maslak), ideallar ko'rsatkichining pastligi;
- 2) o'zgalar hisobiga o'z shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga tayyorlik, shaxsiyatparast, g'arazgo'y yo'nalishga egalik, o'z qiziqishlarini umumiyatdan ustun ko'rish;
- 3) bolalar (o'qituvchilar)ga loqayd, befarq munosabat;
- 4) aqliy taraqqiyot (intellektual) darajasining quyiligi (pastligi);
- 5) chidamlilik, topqirlik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, sobitqadamlilikning mavjud emasligi, irodasizlik;
- 6) ayrim ruhiy kasalliklar alomatlarining mavjudligi;

nutq faoliyatida sezilarli nuqsonlarga egalik, eshitish sezgisi va qabul qilish, payqash hissining yetishmasligi va boshqalar. [29,80- 81.]

Ta'lim tizimining va pedagogning ta'lim berishdan iborat asosiy vazifasi – bu ta'lim oluvchilarning fan asoslarni faol, ongli, mustahkam va tizimli ravishda o'zlashtirishini ta'minlashdir. Talabalarini o'qitishda pedagog uch omilga asoslanadi. Bular : 1) nimani o'qitish; 2) kim va qanday o'qitish; 3) kimni o'qitish; Bu o'qitish va o'zlashtirishga xos o'qituvchilik kasbining umumiy masalalari oxir oqibat kasb tanlash, kasbga qiziqish, kasbga yo'naltirish kabi ko'plab masalalarni hal qilishga olib keladi.

Bu yuqoridagilar haqida fikr yuritadigan bo'lsak ularni qisman ko'rib chiqamiz. Nimani o'qitish deganda – o'qishning xarakteri o'zlashtirilayotgan materialni mazmuniga va qanday tizimda yetkazib berilayotganligi bilan bog'liqdir. Kim va qanday o'qitishga bog'liqligi - o'qituvchining metodik mahoratiga, tajribasiga, shaxsiy xususiyatlariga, har xil vaziyatlarda qo'llay oladigan o'qitish uslubi-yatiga bog'liq bo'ladi. Kimni o'qitish deganda – o'qituvchining o'qish davomidagi o'ziga xos xususiyatlariga, uning psixik rivojlanishi (aqliy, emotsional, irodaviy), shuningdek

individual xarakteristikasiga, undagi o‘qishga nisbatan qaror topgan munosabatlarga, uning qiziqish – havaslariga bog‘liq bo‘ladi.

O‘qituvchilik kasbining umumiy masalalari qatoriga ta’lim oluvchining o‘zlashtirish bilan bog‘liq xususiyatlari ham kirib, uning asosida kasbga bo‘lgan qiziqishlar shakllanadi. O‘quvchilarni o‘zlashtirishi bilan bog‘liq masalalarini Levitov N.D. o‘rganib, “o‘zlashtirishning psixologik komponentlari” tushunchasini kiritadi. N. D. Levitovning fikricha shu komponentlarni faollashtirimasdan turib va tegishli tarzda yo‘nalishlar bermasdan turib ta’lim berishda muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. N.D. Levitov bunga quyidagilarni kiritadi:

- 1) o‘quvchilarni o‘qishga ijobiy munosabatda bo‘lishi;
- 2) berilayotgan materiallar bilan bevosita hissiy tanishish jarayonlari;
- 3) olingan o‘quv materialini faol ravishda qayta ishlash jarayoni bo‘lgan fikrlash jarayoni;
- 4) qabul qilingan hamda ishlab chiqilgan axborotlarni esda olib qolish va esda saqlash jarayoni;

O‘qituvchilik kasbiga xos bo‘lgan bu kabi umumiy masalalar bolalarni bilimlarini, malakalarini o‘zlashtirib borib ma’lum bir kasbga qiziqish, havaslarni paydo bo‘lishiga va oxir oqibat ma’lum bir kasbga intilishlariga olib keladi. O‘qituvchilik kasbining umumiy masalalari ta’lim tizimijda yanada aniqlashib borib, bolalar davriy rivojlanishidagi psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda pedagogik faoliyatlarni yaxshilashga olib keladi. Kasb tanlashda tanlashda o‘qituvchilar ta’lim oluvchilarni kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini, havaslarini, iroda va intilishlarini shakllantirib boradi.

O‘qituvchilar kasb - hunar kollejlari faoliyat olib borar ekanlar, shu yo‘nalishlar uchun kadrlar tayyorlab beradilar. Masalan, to‘qimachilik va yengil sanoat uchun. Bu yerda darslarni yaxshi

tashkil etish, bolalarni o‘zlashtirishi, ularning psixologik xususiyatlari kelajak kadrlarni ishlab chiqarishga, yaxshi mutaxassis bo‘lib qo‘shilishini ta’minlaydi.

Yoshlarni kasb tanlashlarida o‘qituvchilar va ota - onalar asosiy ta’sir etuvchilar qatoriga kiradi. Ayniqsa maktabda ta’limni boshqaruvchisi bo‘lgan pedagoglar o‘ziga xos tarzda, pedagogik mahorati orqali bolalarni kasb tanlashlariga ta’sir etuvchi omil hisoblanadi. Albatta, pedagog o‘zining mehnat faoliyati davomida kasbga yo‘naltirish bilan bog‘liq amaliy ishlarni ham bajarib boradi. Bular:

Birinchidan, bolalarga bilim berish va ularni shu bilimlarga bo‘lgan qiziqishlarini, havasini orttirib borish. Bilimlar ularning kasb haqidagi tasavvurlarini kengaytirib boradi va ma’lum bir kasbga intilishlarini vujudga keltiradi.

Ikkinchidan, ta’lim bilan birga tarbiya masalalari bilan ham shug‘ullanadi. Ularda milliy, umuminsoniy, ahloqiy, estetik bilimlarni shakllantiradi. Shular asosida kasbga xos psixologik, etikaviy munosabatlar rivoj topadi.

Uchinchidan, ta’lim oluvchilarda o‘qituvchi mustaqil fikrlashni, qaror qabul qilishni ham tarbiyalaydi.

To‘rtinchidan, bilimlar asosida ma’lum bir kasbga xos ko‘nikmalarni ham shakllanishiga yo‘l-yo‘riq beriladi.

O‘qituvchi shaxsi va kasbiy maslahat. Kasbga yo‘naltirish

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro tushunish asoslari. O‘qituvchilarga kasbga yo‘naltirishda qo‘yiladigan talablar. O‘qituvchilar kollektivi va ijtimoiy psixologik qiyofa.

Jamiyatning yoshlarga ta’lim va tarbiya berishida pedagoglarni – o‘qituvchilarni o‘rni va ahamiyati nihoyatda kattadir. O‘qituvchi – maktabdagi, kasb - hunar kollejlariidagi ta’lim – tarbiya jarayonlari-

ning asosiy tashkilotchisi, boshqaruvchisi, jamiyatga yangi kadrlarni yaratib beruvchisi hisoblanadi. Yosh yigit va qizlarni ma'lumot va kasb jihatidan umumiy tayyorgarlik darajasi, mustaqil ijodiy tafakkur taraqqiyoti, tarbiyalanganlik darajasi, fikrlay olish va tahlil qila olish, fahm - farosatlik darajasi kabilarni yuzaga kelishi eng avvalo o'qituvchining faoliyati bilan rivoj topib boradi. Shuning uchun o'qituvchi shaxsi bu eng mas'uliyatli va qadrli kasb hisoblanadi.

Zamonaviy maktab va kasb - hunar o'qituvchisi ta'lim va tarbiyaga tegishli qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi – o'quv jarayonini tashkilotchisi sifatida kasbga tegishli bo'lgan masalalarga ham o'z diqqatini qaratib boradi. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog ham bo'lishi, jamiyatdagi kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyojlar bilan ham tanishgan bo'lishi kerak. Kasbni egallash bilan bog'liq maslahatlar va yo'nalishlar berib borish ham pedagog zimmasiga tushgandir. Chunki pedagog bola bilan birgalikdagi faoliyati davomida undagi qiziqishlarni va havaslarni ham bilib turadi. Bu esa unga bolani qaysi kasbni egallashni xohlashini ko'rishga imkon yaratadi.

O'qituvchi shaxsi bu o'sib kelayotgan yoshlarga ularni iqtidorligidan, qobiliyatidan, qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kasblarni egallashlariga o'z yo'l yo'riqlarini berib, tarbiyalab borishlari kerak bo'ladi. O'qituvchi maktab, litsey, kollejlardagi o'qish jarayonlarini asosiy boshqaruvchisi va tashkilotchisi hisoblanadi. Bolalar bilan bo'ladigan o'z faoliyati davomida o'qituvchi sinfdagi har bir bola haqida umumiy va individual ma'lumotga ega bo'ladi. Bular esa o'qituvchini ular bilan bo'ladigan o'zaro muloqotida har bir bola va uning imkoniyatlari haqida bilimlarga ega bo'lishiga olib keladi. Boladagi kasb tanlash jarayonida o'qituvchi asosiy ta'sir etuvchi insonlardan biri hisoblanadi.

Kasb tanlash bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning asosida shaxs va uning manfaatlari yotadi. O'qituvchi bolalarga maktabga chiqqan vaqtdan boshlab ularning qiziqishlari,

havaslari, qobiliyatlari asosida ilk bor “katta bo‘lganida sen kim bo‘lasan”? - deb savollarga tutadi. Albatta bola o‘zining kuzatishlari, kattalarning fikrlariga asosan “Men katta bo‘lganimda shofyor bo‘laman”, “Men vrach bo‘laman”, “Men bog‘bon bo‘laman” kabi kasblarni aytib o‘zining orzularini aytib o‘tadi. Ularni yoshi katta bo‘lib borgan sari o‘qituvchilarining yordamida boshqa kasblar bilan tanishib boradi. Bu esa o‘qituvchini kasblar va ularning xususiyatlari bilan tanish bo‘lishini so‘raydi.

O‘quvchi o‘z kasbini tanlashda o‘qituvchining yordamiga muhtoj bo‘ladi. O‘qituvchi boladagi psixologik imkoniyatlardan kelib chiqqan holda uni ma’lum bir kasbga yo‘llab turadi, ya’ni kasbiy maslahat beradi. O‘qituvchi bu holatda kasblarga xos xususiyatlarni bilishi va ularni bolalarga tushuntirib berishi zarur bo‘ladi. Bu o‘qituvchiga professiografiya kabi tushunchalar bilan tanish bo‘lishni talab qiladi.

Professiografiya – bu kasb tomonidan shaxsga tegishli bo‘lgan xususiyatlarga, ya’ni uning psixologik qobiliyatlariga, psixofiziologik imkoniyatlariga qo‘yiladigan talablarni o‘rganuvchi texnologiyadir. Professiografiya inson va kasb o‘rtasidagi o‘zaro moslikni diagnostika qilish orqali, korreksiya qilish orqali, metodik qo‘llanmalarni shakllantirish va amaliy tavsiyalar berish orqali informatsiyalar berish bilan ta’minlab turadi. Professiografiya kasbiy mehnatni unumdorligini amaliy vazifalar va ularni tashkil qilish orqali ta’minlab beradi. Professiografiya aniq kasbiy faoliyatlarni – ijtimoiy, ijtimoiy – iqtisodiy, tarixiy, texnik, texnologik, huquqiy, psixologik, psixofiziologik, gigiyenik va ijtimoiy psixologik qamrab oladi. Bulardan ko‘rinib turibdiki, professiografiya bu o‘qituvchilar uchun bolalarni kasb tanlashlarida kerak bo‘ladigan sohalardan biridir.

O‘qituvchi o‘quvchilarni kasb tanlashlariga ijtimoiy jarayon sifatida qarar ekan, ularning kasb tanlashlaridagi individual tomonlarini ham hisobga olishi kerak bo‘ladi. Buning uchun yoshlarning

jinsini, yoshini va ularga xos bo'lgan xususiyatlarini ham e'tiborga olishi zarur bo'ladi. Bunda o'qituvchi birinchi navbatda o'quvchining kasbiy ehtiyojini, motivini, layoqatlilikini, qiziqishini, qobiliyati va manfaatlarini hisobga olishi muhimdir. Aks holda umumiy tarzda berilgan yo'llanma ham ijobiy natijalarga olib kelmaydi. Bular esa kasb maorifini bilishni talab qiladi. **Kasb maorifi** – bu o'quvchilarni kasbning mohiyati va xilma xil kasblarning shaxs oldiga qo'yiladigan talablari, kasblar haqidagi bilimlar tizimining majmuasi hisoblanadi. Kasb maorifi insonning yoshi, jinsi, saviyasi, fahm – farosatiga asosan xilma xil tarzda amalga oshiriladi. Bular o'qituvchining bilimlar berishi davomida kasblarga xos bo'lgan bilimlarni ham ko'rsatib o'tishida ko'zga tashlanadi.

Kasbga yo'l - yo'riq berish yoki kasbga yo'llash – bu yoshlarni kasbga ega bo'lishlaridagi psixologik – pedagogik va meditsina bilan bog'liq bir butun jarayon bo'lib, unda shu yoshlarning xohishlaridan, havaslari, qobiliyatlari va xalq xo'jaligini, jamiyatni mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holdagi yuz beradigan jarayondir. Bu kasbga yo'nalish berish (профессиональная ориентация) – fransuzcha so'zdan olingan bo'lib установка degan ma'noni bildiradi. Kasbga yo'nalish berish bilan tizimli ravishda ta'lim va tarbiya beruvchi o'quv maskanlari shug'ullanishadi. Ular yoshlarni kasblar bilan tanishtirib boradi, yoshlardagi psixologik imkoniyatlarni va ularning fiziologik holatlarini bilgan holda yo'l - yo'riqlar berib boradilar. O'qituvchining o'quvchini kasbga yo'llashi bu avvalo o'quvchidagi mavjud bo'lgan psixologik xususiyatlar bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchi kasb tanlashi uchun eng avvalo o'zida shu kasbga intilish, havas, qiziqish bo'lishi shart hisoblanadi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabat sharqona tarbiya asosida bo'lishi muhimdir. O'qituvchining yoshi kattaligi, uning o'quvchiga nisbatan hayotiy tajribasi, malakasi

ko'pligi, bilim va kasb darajasi yuqori turishi, sharhona urf - odatlar va an'analar o'quvchining o'z o'qituvchisiga bo'ladigan munosabatda hurmat, e'zozlash munosabatlarini olib borishga majburlab turadi. G'arbdagi o'quvchilarning o'zini erkin tutishi va o'qituvchi bilan bo'ladigan munosabati bizning ta'lim tizimimizga to'g'ri kelmaydi. Bizda ta'lim olish uchun o'quvchida tarbiya ham bo'lishi, Abdulla Avloniy aytganidek, ta'lim olishda tarbiyani uning muhim tomonini tashkil etishi kerak. Bilim olayotgan bola darsda jim o'tirishi, tinglashi, o'qituvchi aytgan jarayonlarni bajarishi shart hisoblanadi. O'qituvchi qachon o'zi bilim berayotgan o'quvchisi bilan yaqin munosabatda va o'zaro tushunishda bo'ladi. Qachonki o'zi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro hurmat va e'tibor bo'lganda, milliy urf - odatlar va an'analarga rioya qilinganda bu jarayon yuz beradi. Albatta, bu o'zaro munosabatni bo'lishi ko'pgina omillar bilan bog'liqdir. Bu bir tomondan o'quvchining yaqin odamlari, ya'ni oilasi, tanishlari, tengdoshlari o'qituvchi haqida va umuman pedagoglar haqida yaxshi fikrlarni bildirib, ularni hurmatini joyiga qo'ysalar. Ikkinchi tomondan o'qituvchining o'zi ham o'zidagi ahloqiy – estetik bilimlardan ijobiy foydalana olib, o'quvchilarda hurmat qozona olsalar. O'qituvchi o'quvchi bilan yaqin va o'zaro tushunish munosabatida bo'lishi uchun bolaning psixologik xususiyatlarini, har xil vaziyatli holatlarni yaxshi va to'g'ri baholab olishida, uning bilim, malaka, iqtidori haqida ma'lumotga ega bo'lsa va shuningdek o'quvchi ham o'qituvchini bilim va tarbiya berishga bo'lgan intilishini anglay olsagina sodir bo'ladi. Bilim berish bu tartibni, intizomni, ma'suliyatni his etish bilan bog'liq jarayondir. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini vujudga keltirishi bilan birga o'quvchining ham darsga bo'lgan o'zidagi ichki ruhiy qiziqishlari bo'lishi zarur hisoblanadi. O'qituvchi jonini berib tushuntirsada o'quvchi boshqa ishlar bilan

shugʻullansa uni bilim olishi qiyinlashadi. Albatta bolalar har xil individual - psixologik xususiyatlarga egalar. Ular oʻzlarini har xil vaziyatlarda har xil tutadilar. Lekin dars davomida oʻquvchi diqqatini faqat oʻqituvchiga qaratgan boʻlishi, oʻzlashtirishi kerak boʻlgan materiallarni oʻzlashtirishi shart hisoblanadi.

Oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi oʻzaro munosabat, tushunish qachon sodir boʻladi. Bu ikkala subyektni bir-biriga nisbatan boʻladigan munosabatlarida oʻzaro hurmat va bilimni olishga boʻlgan intilish boʻlsa sodir boʻladi. Bir-birini bunday oʻzaro tushungan jarayondan yaxshi natijalar olsa boʻladi.

Oʻqituvchi oʻquvchi bilan oʻzaro tushunish munosabatida boʻlar ekan, oʻqituvchi bolalarni iqtidoridan, qiziqishidan kelib chiqqan holda ularga maʼlum bir kasbga yoʻnalishlar, maslahatlar berib boradi. Bolalardagi oʻziga xos individual – psixologik xususiyatlarni boʻlishi ularni qaysi kasbni egallashlari mumkinligini koʻrsatadi. Oʻqituvchini oʻzi oʻqitayotgan oʻquvchilarini kasbga yoʻnaltirishda quyidagi talablar qoʻyiladi deb oʻylaymiz. Bular:

- Oʻquvchilarni bilim olishga boʻlgan qiziqishlarini bilish;
- Oʻquvchilardagi individual – psixologik xususiyatlarni qaysi tomoni yaxshi rivojlanganligi haqida bilimlarni bilishi;
- Oʻquvchilarni psixofiziologik va jismoniy sogʻlomligini bilish;
- Oʻquvchilar bilan boʻladigan oʻzaro munosabatdagi yaqinlik, oʻzaro ishonchdan kelib chiqqan holda bolalardagi isteʼdod, qobiliyat, havas, qiziqishlarni oʻqituvchi yaxshi bilgan holda kasbiy yoʻnalishlar berib, oʻrgatib borishi;
- Oʻqituvchini oʻzini ham kasb maorifi haqidagi bilimlarini boʻlishi, professiografiya haqida tasavvurlarni boʻlishi;
- Oʻqituvchini jamiyatdagi kasbga boʻlgan ehtiyojlar haqida ham bilimlari boʻlishi.

Kasbga yo‘naltirishda ta’lim va uning muhim psixologik tavsiflari. Kasbga yo‘naltirishda ta’lim va uning psixologik qiyofasi

Kasbga yo‘naltirish jarayoni bu ta’lim tizimi bilan uzviy bog‘liq jarayon hisoblanadi. Kasbga yo‘naltirish (профессиональная ориентация) – bu psixologik – pedagogik va meditsinaga oid kompleks tadbirlarning birligidir. Bunda yoshlarni kasb tanlash va ishga joylashishini eng qulay usullarini, ularning xohishlarni, intilishlari va shakllangan qobiliyatlari, shuningdek jamiyatni kadrlarga bo‘lgan talabini hisobga olish orqali kasbga yo‘llashdir. Kasbga yo‘naltirishning ikki xil shakli mavjud. Biri o‘quv maskanlarida kasbga tayyorlash davomida yoshlarni kasbiy faoliyatga tayyorlab borish bo‘lsa, ikkinchisi yoshlarni kasblar dunyosi bilan tanishtirish orqali ularni kasbga yo‘llash hisoblanadi.

Kasbga yo‘naltirishni ta’lim jarayonlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki **ta’lim** – bu bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni bo‘lib, insonni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Inson ta’lim jarayonida ma’lumot, bilim oladi va tarbiyalanib boradi. Kasbga yo‘naltirish bu eng avvalo kasb o‘rganuvchiga ma’lumot, bilim berish, uni o‘zi qiziqqan kasbni egallashi uchun shu kasblar haqida o‘ziga xos bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish hisoblanadi. Ta’lim jarayonining natijasi bu insonni jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, kasbiy faoliyati davomida aniq maqsadlarga erishishga olib keladi.

Dunyoni ko‘plab mutafakkirlari ta’lim haqida, uning ahamiyati haqida ko‘plab fikrlar aytib o‘tganlar. Deylik, E. Renan fransuz adabiyotchisi va tarixchisi shunday yozadi: “Avvalgi zamonlarda vorisiylik yordamida, asriy urf - odatlar, urug‘ - aymoqchilar va xalq udumlari yordamida erishilgan narsalarga endilikda faqat ta’limning

ko'magi bilangina erishish mumkin". L.N. Tolstoy rus yozuvchisi esa "Ta'limga ehtiyoj har bir kishida mujassam; xalq nafas olishi uchun havoni qanchalik ardoqlasa va izlasa, u ta'limni ham shu qadar e'zozlaydi va izlaydi". K.D. Ushinskiy rus pedagogi esa shunday yozadi: "Barcha ta'limlarning bosh vazifalaridan biri shundaki, ular mutlaq farog'at sari nihoyasiz intila borishdek umumiy ishda insoniyat uchun muttasil ravishda yangi avlodlarni yetishtirib beradi". T. Edison Amerikaning ko'zga ko'ringan olimi ta'lim haqida fikr bildirib shunday yozadi: "Sivilizatsiyaning buyuk vazifasi, odamni fikrlashga o'rgatishdir". Ya. Komenskiy Ta'lim qanday bo'lishi haqida fikr bildirib, "Ta'lim haqiqiy, to'la, ravshan va mustahkam bo'lmog'i zarur" [19,155 - 159.] deb ko'rsatadi.

Ta'lim bu kasb olishning maxsus yo'li sifatida ko'pgina shaxslarni o'ziga xos e'tibor berishlarini talab qiladi. Kasbga yo'naltirishda ustozlarni, ota - onani o'rni juda kattadir. Ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishda, kasb tanlashlarini tashkil etishda ular tashkil etgan muhitning o'rni juda muhimdir. "Buning uchun har qaysi ota - ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim - tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi". [10,61.]

Ta'lim berish bu o'zida insonga xos bo'lgan psixologik jarayonlarni qamrab oladi. Inson ta'lim olar ekan o'zidagi ma'lum bir qobiliyatlar asosida, ya'ni insonga xos psixologik xususiyatlarga, ta'lim olish jarayonidagi psixologik jarayonlarga suyangan holda bu jarayonlarni tashkil etadi. Inson ta'lim olishi davomida ta'limga xos bo'lgan psixologik jarayonlarni boshidan kechiradi. O'qituvchilar

o'quvchilardagi yoshga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni shakllantirib borib, ularga ta'lim olishlari uchun sharoitlar yaratadilar. Psixologiya fani yoshlarni ta'lim berish davomida o'rganadi, ularni bu jarayonlardagi sodir bo'luvchi qonuniyatlarini tahlil qilib boradi.

Yoshlarga ta'lim berib, ularni kasbga yo'naltirishdan iborat asosiy vazifa – bu o'quvchilarni fan asoslarini faol, ongli, mustahkam va tizimli ravishda egallashlarini ta'minlash hisoblanadi. Bolalarni bilimlarni, kasblarni haqiqiy o'zlashtirishlari - bu hamisha faol jarayon bo'lib, bilishga oid xilma - xil vazifalarni hal qilish bilan bog'langandir. Kasbga yo'naltirish davomida ta'lim olayotgan bolalar berilgan bilimlarni o'zlashtirib boradilar. O'zlashtirish esa keng ma'noda olganda o'quvchining uyushgan bilish faoliyatidir. O'quvchining bu faoliyati idrok, xotira, diqqat, tafakkur, hayol kabi qator bilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Shuni aytish kerakki, o'zlashtirish sifatida o'qish, bilim olish uch faktorga suyanadi. Bu nimani o'qitishga, kimni o'qitishga qanday o'qitishga bog'liqdir. Bunda aynan kasbga yo'naltirishga qaratilgan ta'limning psixologik tasniflari kelib chiqadi.

Kasbga yo'naltirilgan ta'lim o'zining psixologik tomonlari bilan kasb oluvchining va kasbga yo'naltiruvchining birgalikdagi o'zaro munosabatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim muhitini yaratadi. Bunda ta'limning xarakteri o'zlashtirilayotgan materialga, uning mazmuniga, bu materiallar qanday tizimda yetkazib berilayotganiga e'tibor bersak bu muhitning bir tomonini tashkil etishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Ikkinchi tomoni esa o'qituvchining bilimiga, uslubiy mahoratiga, tajribasiga, shaxsiy xususiyatlariga, o'ziga xos bo'lgan qaytarilmas usullaridan foydalana olishiga bog'liqdir. Uning uchinchi tomoni esa bu kasb o'rganuvchining o'ziga xos xususiyatlari, uning psixik rivojlanishi (aqliy, emotsional, irodaviy jihatlari va bosh.), uning o'qishga nisbatan qaror topgan munosabatlari, qiziqish – havaslariga bog'liqdir.

Kasbga yo‘naltirishda ta’lim va uning muhim psixologik tomoni bu o‘quvchilarni berilgan bilimlarni o‘zlashtirishi hisoblanadi. Bu sohada N.D. Levitov o‘zlashtirishning psixologik komponentlari tushunchasini fanga kiritdi. Uning fikricha, ana shu komponentlarni faollashtirmasdan turib ta’lim muhitini va maqsadini amalga oshirib bo‘lmaydi. Bunday komponentlarga quyidagilar kiradi:

- 1) o‘quvchilarning o‘qishga ijobiy munosabatda bo‘lishi;
- 2) material bilan bevosita hissiy tanishish jarayonlari;
- 3) olingan materialni faol ravishda qayta ishlash jarayoni bo‘lgan fikrlash jarayoni ;
- 4) qabul qilingan hamda ishlab chiqilgan axborotni esda saqlash protsessi.

Kasbga yo‘naltirishda ta’lim tizimini shakllantirish va undagi psixologik qiyofa yondoshilishi jihatidan ko‘p qirrali tushunchadir. Ta’limning psixologik qiyofasi eng avvalo jamiyat va uning ehtiyojlari bilan bog‘liq. Ta’limga ta’sir etuvchi yana bir muhim zveno bu o‘qituvchi va uning faoliyati hisoblanadi. Ta’limning psixologik qiyofasini eng muhim zvenosi bu tayyorlanayotgan kadrlar, kasb egalari. Mana shu uchta muhim omil ta’limdagi psixologik qiyofani shakllanishiga asos bo‘ladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Kasb psixologiyasi va o‘qituvchi shaxsi.
2. O‘qituvchilik kasbining umumiy masalalari va kasb psixologiyasi.
3. O‘qituvchi va ishlab chiqarish. Kasb tanlashda o‘qituvchining o‘rni va roli.
4. O‘qituvchi shaxsi va kasbiy maslahat.
5. Kasbga yo‘naltirish. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro tushunish asoslari.

6. O'qituvchilarga kasbga yo'naltirishda qo'yiladigan talablar. O'qituvchilar kollektivi va ijtimoiy psixologik qiyofa.

7. Kasbga yo'naltirishda ta'lim va uning muhim psixologik tavsiflari.

8. Kasbga yo'naltirishda ta'lim va uning psixologik qiyofasi.


2.2. Kasbga yo'naltirish va talaba – o'qituvchi o'rtasidagi bir - birini tushunish asoslari

Kasbga yo'naltirish va unda o'qituvchining roli. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi yaqinlikning paydo bo'lishi

O'sib kelayotgan yosh avlodni ma'lum bir kasbga yo'llashda o'qituvchilarning o'rnini juda kattadir. Kasbga yo'naltirish, o'quvchilarga kasbiy maslahatlar berishda o'qituvchilarning roli va vazifalari ko'pdir. Quyida kasbga yo'naltirishga xos bo'lgan ma'lum bir ta'rifni berib ko'ramiz. **Kasbga yo'naltirish** – bu yoshlarni kasbga ega bo'lishlaridagi psixologik - pedagogik va meditsina bilan bog'liq bir butun jarayon bo'lib, unda shu yoshlarning xohishlaridan, havaslari, qobiliyatlari va xalq xo'jaligini, jamiyatni mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holdagi yuz beradigan jarayondir. **Kasbga yo'naltirish** – bu pedagoglarni ta'lim va tarbiya berish jarayonida o'quvchilardagi qobiliyat va qiziqishlardan kelib chiqqan holdagi, ulardagi psixologik xususiyatlarni hisobga olgan tarzidagi maslahatlar berish jarayonidir.

Kasbga yo'naltirishda asosan maktab psixologlari ish olib bor-salarda, bu jarayonda ko'proq o'qituvchilarning o'rnini va roli katta bo'ladi. O'qituvchi o'quvchi bilan doimo bilim berish davomida muloqotda bo'ladi va undagi qobiliyat, havas, qiziqishlar haqida

ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Shulardan kelib chiqqan holda o‘qituvchining kasb tanlashda o‘quvchiga ta’siri ham, yo‘nalish berishga imkoniyati ham yuqori bo‘ladi.



Bu yuqoridagi chizmada biz shaxsning kasbiy yo‘nalishi bilan bog‘liq tomonlarni ko‘rsatganmiz. 5-chizma [18, 93.]

Kasbga yo‘naltirishda o‘qituvchining roli katta bo‘lib, o‘qituvchi o‘quvchi bilan bevosita ishlashi undagi ko‘plab va xususiyatlarni o‘rganib boradi. Shuni ta’kidlash kerakki, bo‘lg‘usi kasbni tanlayotgan yoshlar hayotida bu jarayon ular uchun va ota onalar uchun juda mas’uliyatli va qiziqarli jarayon hisoblanadi. Bu davrda o‘quvchilar va ota - onalar his - hayojonga, ikkilanishlar va tashvishlarga to‘la davr hisoblanadi. Bu davrda o‘qituvchining vazifasi ota - onalarga va o‘quvchilarning o‘ziga yordam berish, ularni to‘g‘ri kasb tanlashlari uchun maslahatlar berish hisoblanadi.

Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, kasb tanlash davridagi o'quvchilar hali kasbni mustaqil tanlay olmaydilar, ularning ko'pchiligi qaror qabul qilishda qo'rqinch hissini boshidan o'tkazadilar. Kasb tanlashda **ikki xil** kategoriyaga tegishli bo'lgan o'quvchilar mavjud. Biri hali biror bir kasbga qiziqmagan, hech narsa bilan mashg'ul bo'lmagan, ular uchun hayot bir xil, zerikarlidir. Ikkinchi ko'rinish uni teskarisi juda faol bo'lgan o'quvchilar, ular o'qishda juda faollar, boshqa faoliyat turlarida ham faolliklari bilan ajralib turadilar. Bu bolalar hamma narsani bajara oladigan, epchil, uddaburon bo'lib ularda talant ham bor, lekin kasb tanlashda ular qaysi kasbni tanlashga ikkilanib qoladilar. Ularda o'zlari bajarayotgan qaysi kasb ko'proq kerakligini anglash darajasi yaxshi bo'lmaydi. Bu yerda ham o'qituvchining roli ko'zga tashlanadi.

O'qituvchi o'quvchilarni kasbga yo'naltirishi bu asosan kasb tanlash jarayonida ko'proq ko'zga tashlanadi. Bunda katta yoshdagi maktab o'quvchilariga o'qituvchi quyidagi yo'nalishlarda o'z yordamlarini beradilar:

Maqsadli - motivli komponentlar (aniq bir kasbga bo'lgan qiziqishni mustahkamligi)

Irodaviy - emotsional komponentlar (faoliyatni aniqlashdagi mustaqillik, intizomlilik, faollik va emotsional bir xillik)

Kognitiv - komponent (kasb to'g'risidagi bilimlarni mavjudligi, kasbiy faoliyatni spetsifikasini bilish)

Amaliy - faoliyat komponentlari (kasbiy amaliyotda bilimlarni tadbiq etishdagi uddaburonlik va savodxonlik bilan xarakterlanadi)

Refleksiv – natijali komponent (kasbni tanlashdagi va keyingi davrdagi ishlariga qattiq ishonish va uni to'g'riligini anglash)

O'qituvchi o'quvchilarni kasb tanlashlarini shakllanishiga tayyorlashda quyidagi sharoitlarni tadbiq etadi:

- O'quvchilarni har xil kasb bilan tanishtirish, ayniqsa shu region

uchun zarur bo'lgan kasblarni ularga tanishtirib borish (ota - onalari - ni bu faoliyatga jalb qilish, shu kasbdagi ko'zga ko'ringan mutaxassislarni hayot yo'li bilan tanishtirish).

- O'quvchilarni shaxsiy intilishlarini, havaslarini anglashlariga yordam berish, ularni qobiliyatlarini va imkoniyatlarini har xil kasblarda tadbiq eta olishlarini tushunishlariga yordam berish (shu jumladan kasbga yo'naltiruvchi o'yinlar orqali).

- O'quvchilarni maqsadga yo'naltirilgan faoliyatlarini faollashtirish, qiziqishlarini rivojlantirish, havas va imkoniyatlarini faollashtirish (bu to'garaklarda va darsdan tashqari faoliyatlarda).

- Maktabdagi kasbga yo'naltirish masalalari bo'yicha oliy ta'lim o'quv yurtlari va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish (ekskursiyalar, "ochiq eshiklar").

- Kasbga yo'naltirish ishlari bo'yicha yuqori sinf o'quvchilarini "kasbni egallash yo'llari", "hozirgi mehnat bozorini tahlili" mavzusida tadqiqot ishlari olib borish.

Kasbga yo'naltirishda o'qituvchining roli o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi yaqinlik tufayli rivojlanadi. O'qituvchi o'quvchi bilan muloqotga kirishar ekan, uni kuzatadi, o'rganadi, bilimga intilishidan kelib chiqqan holda unga yo'l yo'riqlar berib boradi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi yaqinlik bu bir maqsadga birgalikdagi mehnat tufayli shakllanadi. O'qituvchi o'quvchini ayniqsa o'ziga yaqin bo'lgan, birgalikdagi faoliyatda ishtirok etgan o'quvchini o'z bolasidek ko'radi. Uni tarbiyasiga juda qiziqadi va hatto bitirib ketgandan keyin ham uni yutuqlaridan quvonadi.

O'qituvchini o'quvchini kasbga yo'naltirishdagi roli va ahamiyati eng avvalo bu o'quvchilarni tarbiyalashida, ta'lim berishida, ma'naviy boy inson bo'lishlariga yordamlashishlarida ko'zga tashlanadi. O'quvchini o'zini anglashi, o'z "Men"ligini tanishi bu o'z - o'zidan kelib chiqmaydi albatta, bunda o'qituvchining mehnati va talablari

yotadi. O'quvchini kasb tanlashida va bu kasb uning qiziqishlari bilan bog'lanishida aynan o'qituvchining amaliy ishlari, ya'ni tarbiyasi va bergan ta'limi yotadi. Biror narsaga qiziqish uchun insonda eng avvalo bilim, malaka bo'lishi bular asosida unda shakllangan dunyoqarash shakllangan bo'lishi kerak. Bu dunyoqarashni esa albatta o'qituvchining roli va o'rnisiz egallab bo'lmaydi.

Demak, ko'rinib turibdiki, o'qituvchi bu o'quvchining eng aziz insoni, uni o'z ota - onasidek ulug'lashi kerak bo'lgan zotdir. O'quvchiga butun mehnatini singdirib borayotgan inson sifatida o'qituvchining o'rnini bu almashtirib bo'lmaydigan o'rin ekanligini ko'rsatadi.

O'qituvchining o'quvchi qiziqishi, irodasi va intilishi haqidagi tasavvurlari. Birgalikdagi faoliyat, o'zaro ishonch va maqsad sari intilish muammolari

O'qituvchi o'quvchini aqlan va ruhan tayyorlashi

O'qituvchi ta'lim berishi davomida har bitta o'quvchi bilan bog'lanadi. Ulardagi bilimga va ta'lim olishga bo'lgan imkoniyatlarni biladi. O'quvchining bilim olishi va kasbga bo'lgan munosabati uning qiziqishlaridan, irodasidan, intilishlaridan kelib chiqadi. O'quvchining qiziqishi uning yosh jihatlari bilan, bu qiziqishni ushlab qolishga bo'lgan irodasi bilan, kasbga intilishi bilan bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ta'lim olishda birgalikdagi faoliyat bo'ladi. Bu o'qituvchini o'quvchiga berishi kerak bo'lgan bilimlarni berishi bilan bog'liq faoliyat bo'lsa, ikkinchisi bu o'quvchini o'qituvchi berayotgan bilimni o'zlashtirish va o'zi uchun qiziqarli bo'lgan fanlarni yaxshi o'zlashtirish hisoblanadi. Bu faoliyatda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro ishonch qo'yilgan maqsadlarga birgalikdagi intilishi zarurdir.

O'qituvchi ta'lim berish davomida o'quvchini aqlan rivojlanishini va ruhan tetik bo'lib borishini boshqarib boradi. Bu jarayon ta'lim va tarbiyada yaqqol ko'zga tashlanadi. Bolalar hali ko'pgina bilimlar haqida tasavvurga ega bo'lmaydilar. Uni o'qituvchi berib boradi va o'quvchilarda o'ziga xos bo'lgan bilim ba'zasini yaratadi. O'quvchilar esa bu bilimlarni amaliyotda sinab boradi. Bu ularni aqlan rivojlanishlari uchun asos bo'lib, o'zlariga bo'lgan ishonchni shakllanishiga olib keladi. Bu kabi ko'plab misollar orqali o'quvchini rivojlanib borayotganini ko'rsatish va testlar orqali sinab borish mumkin bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchini ta'lim berish davomida uning qiziqishlarini, intilishlarini, undagi irodani o'rganib va ularni shakllanishi uchun imkoniyatlar yaratib boradi. O'qituvchi o'quvchini kasblar bilan tanishtirib borib, undagi layoqatni kuzatadi. O'qituvchi o'quvchilarni kasbga bo'lgan havaslarini diagnostika qilib borish natijasida o'quvchilarga yordam ham beradi. Kasb tanlashdagi eng asosiy tomon bu o'quvchilardagi individual – psixologik xususiyatlar hisoblanadi, ya'ni o'quvchining qiziqishlari, xarakteri, temperamenti, dunyoqarashi, manfaatlari hisoblanib shular asosida ularda ma'lum bir kasbga havas, orzu, intilish paydo bo'ladi. O'qituvchilar o'quvchilarni qiziqishlarini E.O. Klimovning kasblarni o'rganish bo'yicha tasnifi asosida o'rganib ularni shu yo'nalishlar bo'yicha tayyorlab boradilar.

Kasb tanlayotgan o'quvchilar uchun o'qituvchining ular haqidagi fikrlari juda muhim hisoblanadi. O'quvchi o'z fikrlarini o'qituvchi fikrlari bilan taqqoslashga, ko'proq o'qituvchining fikrlarini qilishga intiladi. O'qituvchi o'z o'quvchilari orasida bo'lar ekan ularni qiziqishlarini, intilishlarini, ruhiy kamolotlarini kuzatib boradi. O'quvchilarda ma'lum bir kasbga bo'lgan qiziqishlarni paydo bo'lishini, ularni shu kasbga bo'lgan layoqatlarini,

o'quvchilarni fiziologik sog'lomligini, o'zlari tanlagan kasbga xos bo'lgan ahloqiy bilimlarini o'rganib boradi.

O'qituvchi o'zi tarbiyalayotgan o'quvchisida irodaviy xususiyatlarni tarbiyalab boradi. Bu albatta ularni birgalikdagi faoliyatida ko'zga tashlanadi. O'quvchilar bilan bo'ladigan muloqot o'qituvchida dars davomida, maktab faoliyatida, maktabdan tashqari bo'ladigan faoliyat turlarida ham yuz beradi. O'quvchi uchun o'qituvchi namuna bo'lib, o'quvchi o'z ustozini amaliy faoliyatini, hayotiy faoliyatini, kerak bo'lsa oilaviy faoliyatini ham zimdan kuzatadi. Ularning birgalikdagi olib boradigan faoliyatida bu jarayonlarning ham o'rne juda kattadir. Chunki o'quvchi o'z o'qituvchisidan namuna oladi, unga tenglashgisi keladi, kelajakda tanlagan kasbini amalga oshirishda o'z o'qituvchisining psixologik, ahloqiy, estetik qirralaridan foydalanadi. O'qituvchi o'quvchi uchun namuna rolini o'ynaydi.

O'qituvchi o'quvchi bilan bo'ladigan faoliyatda uni kuzatib borar ekan, o'quvchining kelajak maqsadlarini, unga bo'lgan intilishlarini, o'zini tayyorlab borishlarini kuzatib borib, o'quvchiga yaqinlashadi. Ular o'rtasida ishonch, o'zaro yordam, bir - birini tushunish kabi psixologik tomonlar yuzaga keladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bo'ladigan munosabatlar o'zaro ishonchni shakllanishiga olib keladi. O'quvchi ko'p hollarda o'zidagi sirlarni o'zi ishongan o'qituvchisiga aytadi va undan maslahatlar olishga intiladi. Ko'rinib turibdiki, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch kasb tanlashga, kasbiy bilimlarni shakllantirishga ham ta'sir etadi.

O'qituvchini o'quvchiga o'zi qiziqayotgan kasb va uning tabiati to'g'risida bilim berishi. O'qituvchini o'quvchi qiziqishini aniqlashi. O'quvchining kasbga xos qobiliyatini aniqlash. O'quvchida kasb tanlovini amalga oshirish. Kasb tanlovini amalda bajarish. O'qituvchini kasb tanlashga yo'naltirishi (prof. orientatsiya)

O'qituvchi o'quvchi bilan, o'quvchining qiziqishlari bilan suhbatlar o'tkazish uchun o'qituvchi o'quvchi o'rtasida o'zaro ishonch, yetarli darajada bir - birini yaxshi bilishi zarur bo'ladi. O'zaro ishonch esa o'quvchini o'qituvchi tomondan yaxshi bilishi, uni intilishlari, orzulari, imkoniyatlari, bilimlari, malakalari, psixologik xususiyatlarini va shu kabilarni kuzatganligi, o'quvchini imkoniyatlarini o'qituvchi yaxshi bilishi kerakligi bilan bog'liq. Lekin o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro sinovlar bo'lishi ham ularni yanada yaqinlashtiradi.

O'qituvchini o'quvchidagi qiziqishlarni bilish uchun qiziqishni o'zi nima? O'quvchida bu qiziqish qanday yo'sinda ko'rinadi? degan savollarga o'zida javob topish kerak.

Ma'lumki insonni qiziqishi bu o'ziga xos murakkab va serqirra jarayondir. Insonni qiziqishi bu uning ehtiyojlaridan kelib chiquvchi havasi, intilishidir. Qiziqish insonda ma'lum bir uning ehtiyojlari tufayli vujudga kelgan havasi bo'lib, bu jarayon kishida ma'lum bir maroqli, ajoyib, yoqimli jarayonni tashkil etadi. Qiziqish insonni maqsad va manfaatlaridan kelib chiqqan holda qisqa muddatli va uzoq muddatli ko'rinishlarga ega bo'ladi. Qisqa muddatli qiziqish havas tarzida qolib, unutilib ketishi mumkin. Shu bilan birga uzoq muddatli qiziqish turi ham borki, u insonda uzoq vaqt barqaror saqlanib turadi. Qiziqishning bu turi barqaror qiziqish deb ataladi. Bu qiziqishda insondagi iroda, intilish, har qanday holatlarda ham o'z qiziqishidan kechmaslik

yotadi. Ya'ni havas qilgan narsasi orzu tarzida qolib ketmay shu qiziqish uchun inson harakatda bo'ladi. Bunda o'zi tanlagan qiziqishi haqida bilimlar to'playdi, unga erishish yo'llarini izlaydi.

Odamlarga xos bo'lgan turli xil qiziqishlar orasida har bir kishining biron – bir sohaga asosiy qiziqishi bo'ladi. Bu esa o'quvchilarni kasb tanlashida ko'zga tashlanadi. Kasb tanlayotgan o'quvchilarda individual qiziqish mavjud bo'lib, u o'quvchining hayotida eng muhim, eng qimmatli hisoblanadi va shu narsaga o'quvchi erishish uchun doim intilishda bo'ladi. O'quvchining asosiy hayot yo'li uning individual qiziqishi bilan bog'liq bo'ladi. Qiziqish – bu shaxsning individual xususiyati bo'lib, uning diqqat – e'tibori real olamdagi muayyan bir sohaga muttasil qaratilishdir. Qiziqish hammadan ko'ra ko'proq kishining kasb, ixtisoslik bo'yicha qiladigan mehnati, o'qishi bilan bog'liq bo'ladi.

Inson qiziqishi juda keng tushunchadir. Shuning uchun o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatda qiziqish qanday shaklda yuz berishini aniqlash joizdir. Professor E. G'oziyev o'zining “Umumiy psixologiya” darsligida uning quyidagi tiplarini ajratib ko'rsatadi. Bular quyidagilardir: 1) mazmuniga ko'ra : shaxsiy va ijtimoiy; 2) maqsadiga binoan: bevosita va bilvosita; 3) ko'lamiga qaraganda: keng va tor; 4) qiziqishlar darajasi bo'yicha: barqaror va beqaror va boshqalar. [34,201.]

O'qituvchi o'quvchi bilan muloqotda bo'lar ekan uni o'zi tanlagan kasb bilan tanishtirib borishi, ya'ni bu kasb qanday kasb, uni o'zlashtirish uchun nima ishlarni bajarish kerakligi, bu kasbni jamiyatdagi o'rni, bu kasb unga nima bera olishi mumkinligi va shu kabilar bilan tanishtirib boradi. Bundan tashqari o'quvchidagi shu kasbga tegishli layoqat qandayligi, uni bunga loyiq va loyiq emasligi, uning bu kasbga bo'lgan munosabatlarini o'rganish natijasida o'quvchiga maslahatlar berib borishi va tushuntirishi zarur bo'ladi.

Albatta o'qituvchi o'quvchini o'zi tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishini aniqlashi kerak bo'ladi. Bu birinchidan o'quvchini kuzatish orqali, ikkinchisi psixologik testlar orqali test o'tkazish bilan.

O'qituvchi va maktab psixologi o'quvchiga o'zi qiziqayotgan kasblar haqida ma'lumotlar berishi va uni bu kasbga xos bo'lgan talablar, psixologik xususiyatlar haqida gapirib, tushuntirib berishi lozim bo'ladi. Deylik tikuvchilikka qiziqishi bor bo'lgan talabaga undagi ko'plab kasblarni ko'rsata olishi, ularni har xil yo'nalishlari borligini, ularga xos bo'lgan tabiatni ko'rsata olishi zarur bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchidagi kasbga bo'lgan qiziqishni aniqlash uchun ma'lum bir testlar orqali, kuzatishlar orqali, suhbat qilish orqali ham bilib borishi mumkin bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchidagi kasbga xos bo'lgan qiziqishlarni ta'lim berish davomida kuzatib borib unda shu kasbga xos bo'lgan qobiliyatlar borligini ham aniqlab boradi. Bu kasblarning har birini o'ziga yarasha talablari bo'lib ularni o'quvchi qobiliyatlarida ko'ramiz.

Ma'lumki o'quvchida tanlagan kasbiga nisbatan qobiliyat borligi o'qituvchi tomonidan kuzatilib borib aytiladi. Qobiliyat o'quvchining o'ziga xos bir individual – psixologik xususiyatiki uni bilmasdan turib, o'quvchidagi mavjud bo'lgan qobiliyat haqida gapirib bo'lmaydi. O'quvchini qobiliyatini o'qituvchi kuzatishlar orqali, fanlar bo'yicha o'zlashtirishlar orqali, sinf rahbarlik faoliyati orqali, fanlar bo'yicha o'qituvchilarning fikrlari orqali bilib olishlari mumkin bo'ladi. Qobiliyat bu o'quvchini ma'lum bir sohada o'ziga xos bo'lgan ulgurishidir. O'quvchida ko'pgina fanlarga qobiliyati bo'lishi mumkin. O'qituvchi esa uni kuzatishlari orqali undagi ma'lum bir kasbga layoqatliligi borligini bilib oladi. O'zaro faoliyat ko'rsatish davomida o'qituvchi o'quvchiga ularning qobiliyatidan kelib chiqib unga maslahatlar beradi va kasbga yo'naltiradi.

Takrorlash uchun savollar

1. Kasbga yoʻnaltirish va unda oʻqituvchining roli.
2. Oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi yaqinlikni paydo boʻlishi.
3. Oʻqituvchining oʻquvchi qiziqishi, irodasi va intilishi haqidagi tasavvurlari.
4. Birgalikdagi faoliyat, oʻzaro ishonch va maqsad sari intilish muammolari. Oʻqituvchi oʻquvchini aqlan va ruhan tayyorlashi.
5. Oʻqituvchini oʻquvchiga oʻzi qiziqayotgan kasb va uning tabiati toʻgʻrisida bilim berish. Oʻqituvchini oʻquvchi qiziqishini aniqlashi.
6. Oʻquvchining kasbga xos qobiliyatini aniqlash. Oʻquvchida kasb tanlovini amalga oshirish.
7. Kasb tanlovini amalda bajarish. Oʻqituvchini kasb tanlashga yoʻnaltirishi (prof. orintatsiya).

2.3. Kasbga yoʻnaltirishda taʼlim muhitining psixologik tavsiflari

Kasbga yoʻnaltirishda taʼlim va unga boʻlgan eʼtibor. Taʼlim tizimi, undagi psixologik sharoit va kasb tanlash

Insoniyat jamiyati vujudga kelibdiki u har doim oʻzi oʻzlashtirgan bilimlarni, malakalarni oʻsib kelayotgan yosh avlodga yetkazib berishga intilib keladi. Buning juda katta sabablari va zaruriyati mavjud. Eng asosiysi bu insonni va jamiyatni ehtiyojidan kelib chiqadi. Yaʼni inson ham jamiyat ham oʻzini yashashi uchun kerak boʻlgan zaruriy ehtiyojlarni qondirishga oʻzida zarurat sezadi. Buni esa inson ottirgan bilimlarini, malakalarini oʻsib kelayotga yosh avlodga yetkazib berish-da koʻramiz. Bu jarayonlar esa insoniyat madaniyatining buyuk kashfiyoti boʻlgan taʼlimda oʻz aksini topadi. **Taʼlim – bu**

bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, insonni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta’lim jarayonida bilim, ma’lumot olinadi va insonni tarbiyasi amalga oshiriladi. Ta’limning mohiyat va mazmuni bu dars berish jarayoni, ya’ni pedagog faoliyatini o‘quvchining bilish, o‘rganish faoliyatiga rahbarlik qilish va uni tashkil qilish hisoblanadi. Dunyoning juda ko‘plab buyuk insonlari ta’limga e’tibor berib ularga o‘z baholarini ham berib ketganlari ma’lum. Deylik, Ya.Komenskiy “Ta’lim haqiqiy, to‘la, ravshan va mustahkam bo‘lmog‘i zarur” degan edi. Rus faylasufi V.G.Belinskiy “Ta’lim va kamolotning turi ko‘p, ularning har biri o‘zicha muhim, ammo ahloqiy ta’lim ularning barchasidan yuqori turmog‘i lozim” degan edi. Bu so‘zdan ko‘rinib turibdiki, inson bilimlarining yaxshi bo‘lishi uchun unda eng avvalo tarbiyaviy ta’lim bo‘lmog‘i zarurdir. O‘sib kelayotgan yoshlarni bilim olishlari uchun tarbiyaviy ta’lim muhim va zaruriy ehtiyojdir.

Ta’lim jarayonlarni boshqarish har doim jamiyat nazoratida va davlat himoyasida bo‘lib kelgan. Jamiyat uchun va uning ehtiyojlari qondirish uchun ko‘plab kadrlar kerak bo‘lgan va shunga jamiyat har doim intilib borgan. Jamiyatning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini esa bu kadrlarni tarbiyalab berayotgan pedagoglar amalga oshirgan va oshirib kelmoqda. Jamiyat bu kadrlarni tayyorlashda ma’lum bir hujjatlarga asoslanadi. Bu eng avvalo O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi. Uning 41 moddasida Har kim bilim olish huquqiga ega deb yozib qo‘yilgan. Bundan kelib chiqqan holda tarbiyalanayotgan yoshlarni tarbiyalashda ma’lum bir hujjatlarga asosan boshqariladi. Bu esa Davlat tomonidan nazorat qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta’lim tizimini isloh qilish va uni yangi o‘zanga olib chiqish bilan bog‘liq hujjatlar qatoriga kiradi. Bu hujjatlarga asosan ta’lim va tarbiya ishlarini isloh qilish va dunyodagi ilg‘or davlatlar qatoriga

olib chiqish maqsadi qo'yilgan. "Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat erosti va erusti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuk-sak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir". [9,5.]

Bu esa yoshlarni ta'lim va tarbiya berish ularni dunyoqarashini va ma'naviyatini kengaytirib borish zarurligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida bo'layotgan o'zgarishlar, ya'ni qabul qilingan Qonun va farmoyishlar jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir qilishi shubhasizdir. Ular mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishda, davlat ta'lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi buning yaqqol misolidir. Ayniqsa, ta'limning o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi bosqichidagi yangiliklar boshqa jarayonlardan o'zining tizimlilik, izchilligi va uzviyligi bilan ajralib turadi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari jamiyatimizga ijodiy tafakkurga ega, bilim salohiyati yuqori bo'lgan, malakali kichik mutaxassislarni yetkazib berishi kerak. Buning uchun, albatta, kasb-hunar kollejlari yoshlarga bilim beradigan pedagog va muhandis-pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga e'tibor qaratilmog'i zarur. Ularning sa'i-harakatlari tufayli ta'lim tizimi ishlaydi.

Oliy ta'lim tizimining birinchi bosqichida ta'lim dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzluksizlik va uzviylikni ta'minlagan holda talabani o'quv rejasidagi fanlar bloklarini (gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, matematik va tabiiy-ilmiy; umumkasbiy ixtisoslik hamda qo'shimcha) o'zlashtirishlarini nazarda tutadi. Oliy ta'limning maqsadi ta'lim oluvchi tarbiyaliy inson shaxsini shakllantirishdir. Ta'lim va tarbiya to'g'risida taniqli faylasuf olim akademik Erkin Yusupov shunday yozadi: "Tarbiya – inson shaxsi ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimidir.

Ta'lim esa ahloqli, odobli shaxsga hunar o'rgatish, bilim berishdir. Inson shaxsini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan tarbiya va ta'lim bir - biri bilan uzviy bog'langan jarayondir." [37,118.]Ta'lim oluvchi tarbiyali bo'lsagina o'z ustozidan bilimlarni to'la o'zlashtira oladi. Tarbiya esa bu ta'lim bilan bog'liq holda o'zlashtiriladigan jarayondir. Bu haqida o'zbek pedagogikasining asoschilaridan bir bo'lgan Abdulla Avloniy shunday yozadi: "Dars (ya'ni ta'lim) ila tarbiya orasida biroz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir - biridan ayrilmaydigan, birining vujudi birga boylangan jon va tan kabidir... Chunki dars oluvchi tarbiya oluvchi, amal qiluvchi demakdir". [13,15 -16.]O'zbekistonda yoshlarni tarbiyalash bilan bog'liq juda ko'p amaliy ishlar olib borilmoqda. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda ta'lim tizimi va uning turlari haqida Qonunlar qabul qilingan. Bunda shunday deyiladi: "O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy - pedagogik muassasalar;

- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir." [9,22.]

O'zbekistonda yoshlarni bilim va malakalar bilan ta'minlovchi ta'lim tizimiga juda katta e'tibor berilib kelinmoqda. Uning moddiy bazasini yaratish va jahon standartlariga mos bo'lgan kadrlar tizimini yaratishga hamma sharoitlar yaratilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etishi, ularni shu mamlakatning asosiy ishlab chiqaruvchi bo'lajak kuchi ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun ta'lim va tarbiya va kasbiy tayyorgarlik

ko‘rish, yoshlarni bilimga, malakaga ega qilish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturining amalga oshirilishi natijasida 1 ming 536 ta akademik litsey va kasb - hunar kolleji, umumta’lim maktablarining qariyb 9 mingtasi, ya’ni deyarli hammasi, 1ming 800 dan ortiq sport zali namunaviy loyihalar asosida barpo etildi yoki kapital rekonstruksiya qilindi. Bu kabi ko‘plab misollar o‘sib kelayotgan yoshlarni kasb egallashlari uchun moddiy sharoitlar yaratilganini ko‘rsatadi. Quyida sinflarni kompyuter bilan ta’minlanganlik darajasiga rasm orqali ko‘rsatib bermoqdamiz.



1-rasm:[18, 105.]

Yoshlarga yaratilayotgan bu kabi sharoitlar ularni ruhiy – psixologik holatlarini ko‘taradi va ularni kasb egallashlari uchun, o‘zlari sevgan kasblarini egallashlari uchun intilishlarini, qiziqishlarini oshiradi. Kasb egallash uchun yoshlar o‘zlarini tayyorlab borishlari, o‘qituvchilari

bilan o‘zaro munosabatlarini yaxshilashlari juda zaruriy jarayonlardan biri hisoblanadi. Ta’lim tizimini laboratoriyalar, kompyuter xonalar, sport maydonlari va boshqa jihozlar bilan ta’minlanishi yoshlarda ijtimoiy psixologik holatlarni yaxshilanishiga olib keladi. Bu kabi tayyorgarliklar ularda kasblarga bo‘lgan qiziqish, xohish va istaklarni vujudga keltiradi. Bular esa ularni bo‘lg‘usida aniq bir kasbni egallashlari uchun turtki bo‘ladi. Albatta, yaratilayotgan sharoitlar yoshlarga, ularning ruhiy holatlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

O‘qituvchining psixologik maslahat xizmatlari. O‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan intilishni yanada rivojlantirish

Kasbga yo‘naltirishda o‘qituvchining o‘rni va ahamiyati kattadir. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqotda ularga o‘ziga xos maslahatlar bera oladi. Bunda u o‘quvchining iste’dodi, qobiliyati, imkoniyatlarini o‘rganib borib o‘z maslahatlarini berib boradi. O‘qituvchining bu maslahatlarini kasbiy maslahatlar qatoriga kiritish mumkin bo‘ladi. Umuman esa yoshlarga beriladigan kasbiy maslahatlar o‘qituvchi, psixolog va medik – vrachlar tomonidan berib boriladi. O‘qituvchining kasbiy maslahatlari asosan psixologik xususiyatlardan kelib chiqadi. Bunda o‘quvchining psixologik xususiyatlari, individual tomonlari hisobga olinadi. O‘qituvchi bu sohada ham bilimlarga ega bo‘lishi muhim jarayondir.


O‘qituvchi kasbga yo‘naltirishning muhim shakli bu kasbiy maslahat hisoblanib – bunda kasb tanlovchini psixologik – pedagogik va meditsinaga oid tomonlari o‘rganilishini, shular orqali ularni kasbga yo‘naltirilishini bilib olishi zarur bo‘ladi.

Kasbiy maslahatlarni tashkil etilishining asosiy tomonlari – bu kasbiy maslahat punktlari, “Kasb” bilan bog‘liq xonalar, yoshlarni ishga joylashtirish bilan bog‘liq byurolar, maxsus kasbiy maslahat

punktlari, kasb haqida ma'lumot olish bilan bog'liq bo'lgan korxonalar, psixologik va meditsinaga oid tekshiruvlar bilan bog'liq tomonlar va oxirida kasb tanlovchining individual - psixologik xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq tekshirishlar hisoblanadi.

Kasbiy maslahatni o'qituvchi tomonidan berilishi bu yoshlarni aniq kasb tanlashlariga yordam beradi. Kasbiy maslahat berayotgan o'qituvchi kasb tanlovchilarni qobiliyatlarini, qiziqishlarini, iqtidorlarini, intilishlarini hisobga olgan holda va shuningdek ularni kasb tanlashlarini rag'batlantirish orqali kerakli bo'lgan natijalarni olishi mumkin bo'ladi. Agarda kasb tanlovchilarni qiziqishlari va intilishlari bo'lsa-yu, ulardagi jismoniy sog'liq va psixologik xususiyatlar shu kasbga loyiq bo'lmasa u holda kasbga yo'naltiruvchi shaxs kasb tanlovchini ehtiyotlik bilan diqqatini boshqa kasblarga qaratish orqali ularni o'zlarining layoqatlariga mos kasblarga qaratishlari lozim bo'ladi.

6-chizma :[18, 107.]



Quyidagi chizmada o'qituvchini psixologik maslahatlari ko'rsatib berilishi bilan birga, o'ziga xos talablarga ham javob berishi ko'zga tashlanadi. Ayniqsa meditsinaga xos tekshiruvlar kasb tanlovchini kasbga bo'lgan jismoniy layoqatini ko'rsatib beradi.

O'qituvchi kasbiy maslahatlar berish davomida o'quvchidagi yutuqlarni va kamchiliklarni kuzatib borib o'quvchiga o'z maslahatlarini berib borishi va uni kasbga tayyorlashi muhim jarayon hisoblanadi. O'quvchilarni yangi adabiyotlar bilan tanishtirish, kasbga kerak bo'ladigan psixologik xususiyatlarni ko'rsatish va ularni o'quvchidagi holatidan kelib chiqib ularni rivojlantirish zaruriyatlarini asoslab berish. Bu kabi ko'plab masalalarini o'rganib borib, o'quvchida kasbga bo'lgan qiziqishni yanada shakllantirish va o'z maslahatlarini berish kerak bo'ladi.

Kasbiy maslahat insonni kasb tanlashiga psixologik yordam beruvchi yo'nalish bo'lib, kasbiy faoliyatni rejalash uchun, shuningdek kasbiy hayotdagi qiyinchiliklarni yengish uchun qaratilgan kasbiy psixologiyani tarmog'idir. Kasbiy maslahat insonni yoshiga qarab, jismoniy va individual psixologik xususiyatlariga qarab, uning umumiy va kasbiy qiziqishlariga qarab, intilishi, maqsadi va qobiliyatlariga qarab beriladi. Shuningdek kasbiy maslahat berishda mehnat bozorini talablari ham hisobga olinadi.

Kasbiy maslahatni asosan uchta vazifasi ajratiladi: ma'lumot beruvchi, diagnostika qiluvchi, oldindan (prognoz) aytib beruvchi.

Kasbiy maslahatni ma'lumot beruvchi vazifasi o'quvchiga aniq mutaxassislik haqida va kasb haqida ma'lumotlarni yetkazib berish va maslahatlar berish hisoblanadi.

Diagnostik vazifasi o'quvchini fiziologik va psixologik xususiyatlarini o'rganlik darajasi haqida ma'lumotlar beradi. Shu sababli uni ikki muhim tomonini ajratish mumkin bo'ladi. Bu tibbiy va psixologik tomonlari hisoblanadi.

Tibbiy vazifasi – bu butun tanani o‘rganib uning imkoniyatlarini (qon – tomir, nafas olish, nerv tizimi, mushaklar holati va sh.k) haqida ma’lumotlar beradi. Shuningdek, analizatorlarni vazifalarining darajasi haqida ham ma’lumot beradi.

Psixologik vazifalari esa quyidagi tamoillar asosida quriladi.

1. Subyektning kasbiy faoliyat faolligi asosida;
2. Subyektning kasb egasi bo‘lib borishidagi kompleks yondoshuvga;
3. Maslahatlarga ixtiyoriy ishtirok etish tamoyili asosida;
4. Individual yondoshuv tamoyiliga asosan.
5. Shaxsiy javobgarlik tamoyiliga.

Kasb tanlashda bilim manbalarini yanada ko‘paytirish

Kasb tanlashda o‘z bilimlariga va malakalariga ishonch hosil qilish

Kasb tanlashda iroda kuchi va uni mustahkamlash

Yoshlarni kasb tanlash masalalari psixologiya – pedagogikada ularning faolliklarini oshib borishi bilan bog‘liq. Kasb tanlash – bu yosh insonlarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan qarorlarni qabul qilish hisoblanadi, ya’ni ularni kattalar hayotiga kirib borishlarini, ijtimoiy foydali mehnat jarayonlarida ishtirok etishlaridir.

Kasb tanlash yoshlarning qiziqishi, intilishi, qobiliyatlari asosida tanlangan bo‘lsa, bunday tanlangan kasb yoshlarni manfaatlariga mos tushishi mumkin bo‘ladi. Agarda kasb boshqa omillar asosida tanlangan bo‘lsa, deylik, tanlangan kasb uning uyiga yaqinligi asosida, shu kasbni egallash moda bo‘lgan bo‘lsa, maoshi ko‘proq bo‘lgan bo‘lsa bu tanlangan kasb unga yoqmasligi mumkin. Bu fikrlar insonni kasb tanlashi uning o‘ziga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kasb tanlash jarayoni – bu kasb tanlovchini o‘z qobiliyatiga bo‘lgan munosabatidan, ya’ni o‘zining imkoniyatlarini tahlilidan, o‘zini anglagani, o‘ziga beradigan baholardan kelib chiqadigan jarayon ekanligi ko‘rinadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, kasb tanlashdagi faollik, o‘zini bilish jarayoni bilan (o‘zini qiziqishlarini, intilishlarini, ma’qul ko‘rganlarini, temperament va xarakterini o‘ziga xos xususiyatlarini) bog‘liqdir. Bundan tashqari o‘ziga beradigan baho (bunda o‘zini bilish jarayoni bilan kasb to‘g‘risidagi tasavvurlarni taqqoslash asosida beriladigan baholash nazarda tutiladi). Yana muhim jarayon bu o‘zini rivojlantirish (bunda bo‘lg‘usi kasbni egallashga kerak bo‘lgan xususiyatlarni o‘zida shakllantirish hisoblanadi).

Amerikalik izlanuvchilar yaxshi va to‘g‘ri tanlangan kasb insonni o‘zini o‘zi hurmat qilishni va o‘zi haqidagi ijobiy tasavvurni ko‘paytirishga olib kelishini, bir so‘z bilan aytganda shaxsni o‘zini hurmat qilishga olib kelar ekan. Bu insonni butun hayotiga o‘z ta’sirini o‘tkazib, o‘zini ijobiy baholashga olib kelar ekan. Shuning uchun kasb tanlayotgan inson kasblar dunyosi bilan tanishgan bo‘lishi va to‘g‘ri kasb tanlagan bo‘lishi kerak ekan.

Dunyoda har yili 500 ta yangi kasblar paydo bo‘lib, shu kasblar 5 – 15-yil yashab keyinchalik yo‘qolib ketar, bazilari esa butunlay yangicha ko‘rinishga ega bo‘lar ekan.

Kasb tanlashda kasb tanlovchining maktabda o‘tilayotgan fanlarning mohiyatini o‘zlashtirish, ulardan kelajakda qaysi sohalarini egallashlariga qarab kerakli darajalarini o‘zlashtirib borish muhim hisoblanadi. Kasb tanlashda bilim bu eng avvalo o‘quvchining maktab fanlarini o‘zlashtirishi hisoblansa, ikkinchisi bu kelajakdagi o‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan kasb haqida ma’lumotga ega bo‘lish hisoblanadi. Uchinchisi bu kasb tanlovchining irodasi, uning o‘ziga xos bo‘lgan irodaviy kuchlarini sarf qilishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Kasb tanlovchi o'z bilimlarini va malakalarini maktabda o'qish davomida, o'qituvchilarining berayotgan bilimlari asosida oshirib boradi. Agarda bolada iroda bo'lmasa bu o'ziga xos holda har xil ko'rinishlarga ega bo'lgan insoniy kamchiliklarni paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun ham o'qituvchi va ota - onalar birgalikda boladagi irodaviy kuchni tarbiyalab boradilar. Bolani xatti – harakatini ma'lum bir maqsadlarga qaratadilar, ularni irodaviy kuchlarini shakllanishiga intiladilar. Kasb tanlay olmagan bolalarda ko'proq irodaviy xususiyatlarni rivoj topmagani ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham ular o'z fikrlarini jamlay olmaydilar, biror mustaqil fikrga ega bo'lmaydilar, o'zlarini boshqarishda ham ikkilanib yuradilar.

Kasb tanlovchida iroda kuchi bo'lgandagina u biror bir kasbga intiladi, shu kasbni qaysidir unga yoqqan tomonini bilishga harakat qilib borib o'z ustida ishlab borishini kuzatish mumkin bo'ladi. Inson uchun irodani psixologik jarayon sifatida o'rni juda kattadir. Irodasi bo'lmagan inson biror bir oddiy ishni bajarishda ham qiynaladi. Shuning uchun kasb tanlayotgan o'quvchi qandaydir o'zi uchun yoqadigan kasbni tanlashi, o'zi ustida ishlashi, o'zini mustaqil fikri bo'lishi kabi masalalarni iroda kuchiga asoslanib ish ko'radi. Busiz unda ikkilanishlar, qaror qabul qila olmaslik, sabr – toqat kabi ko'plab irodaviy xususiyatlarni buzilishi yuz beradi.


Insondagi iroda kuchi uni ma'lum bir bilimlarni, malakalarni, ko'nikmalarni shakllanishi va mustahkamlanishiga olib keladi. Ko'rinib turibdiki, insonning irodasi va uni mustahkamlanib borishi shaxsni shakllanishini, ma'lum bir obro' va e'tiborga sazovor bo'lishiga olib keladi. Buning uchun esa kasb tanlovchi o'z irodasini mustahkamlab borishga e'tibor berishi juda zarurdir.

**Kasb tanlashga qo'yiladigan talablar. Tasavvur haqida
bilimga ega bo'lish. Kasbiy maslahat va uning natijalari
Kasbga yo'naltiruvchi maslahat va uning ahamiyati (prof.
konsultatsiya)**

Kasb tanlash bu o'ziga yarasha murakkab jarayon bo'lib bunda kasb tanlovchining va kasb o'rtasidagi munosabat yotadi. Kasb tanlovchi kasb tanlash uchun o'zidagi bor bo'lgan imkoniyatlarni sinagan bo'lishi va undan foydalana oladigan bo'lishi shartdir. Kasb tanlashga qo'yiladigan talablar kasb tanlovchidan ko'plab masalalarga javob berishni talab qiladi. Deylik unda o'ziga xos bilimlar tizimi bo'lishini, kasblar dunyosi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishini, o'z qobiliyatlari haqida tushunchaga ega bo'lishini, o'zining sog'lig'i haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi kabilarni bilishi kerak bo'ladi.

Kasb tanlashga ta'sir etuvchi sharoitlarga ko'pgina kasbga asoslangan omillar ta'sir etadi. Bular kasb tanlovchilarning qiziqish va manfaatlari, qobiliyatlari, sog'lig'ining darajasi va jamiyatni kadr-larga bo'lgan ehtiyojlari hisoblanadi. Kasb tanlashning o'ziga xos formulasi bo'lib, u quyidagilarda ko'rinadi.

Bu kasb tanlovchining quyidagi fikrlarida “xohlayman”, “bajara olaman”, “kerak” degan fikrlarida ko'rinadi.



7-chizma

“Xohlayman” – bu qiziqishlar va mayil, xohishlar.

Qiziqish – bu qandaydir fanni bilishga bo‘lgan ishtiyoq, intilish bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, kasb tanlovchini xatti – harakatidir.

Mayil – kasb tanlovchini ma’lum bir faoliyat bilan shug‘ullanishga intilishidir. Qiziqish va mayilni bir - biri bilan mos tushishi yoki tushmasligi mumkin. ularning birligi bitta, bir qancha va ko‘pgina faoliyatlarga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

“Bajara olaman” – qobiliyatlar, sog‘ligi darajasi.

Qobiliyat – bu ma’lum bir ish faoliyatini bajarishni osonlashtiradigan individual qobiliyatlar hisoblanadi. Kasb tanlovchini o‘zlashtirayotgan bilimlarini yengil va oson o‘zlashtira olishi hisoblanadi.

“Xohlayman” va “bajara olaman”dan tashqari yana uchinchi tomon borki, bu “Kerak” deb nomlanadi. Bu mehnat bozorining ehtiyojlari hisoblanadi.

Bu formula asosida kasb tanlashga bo'lgan talablar asosan tushuntiriladi. Kasb tanlashga bo'lgan talablar mohiyati jihatidan quyidagi savollarga javob berishni talab qiladi. Ya'ni "qanday qilsam o'z hayotimni 1/3 qismini baxtli qila olaman". XVI asrdayoq Frensis Bekon o'z hayotini baxtli deb hisoblaganlarning ko'pchiligi o'zi yoqtirgan kasb bilan shug'ullangan insonlar deb ko'rsatgan edi. Agarda o'zingiz yoqtirmagan kasb bilan shug'ulansangiz u holda har kuni kamida 8 soat yoqtirmagan kasbingiz bilan shug'ullanasiz. Bu esa sizda toliqishni, tez charchab qolishni sababchisi bo'ladi.

K.M. Gurevich har qanday inson biror bir kasbni egallashi mumkin deydi, lekin gap shundaki bu inson shu kasbni egallashga qancha vaqt sarflagan. Agarda u tanlagan kasbini o'zi qiziqib tanlagan bo'lsa u holda undagi qobiliyat kasbni tez o'zlashtirishga imkoniyat beradi. Aksi bo'lsa bu kasbni tanlashga qiyinchiliklar paydo qiladi. Albatta o'z ustida ishlab borgan kasb tanlovchi kasbni oson va qulay o'zlashtiradi.

Noto'g'ri kasb tanlash taxminan uchta yo'nalishda ko'zga tashlanadi:

1) Kasb dunyosini bilmaslik – mavjud kasblar va kelajagi dolzarb kasblarni bilmaslik.

2) Kasb tanlash Qonunlarini bilmaslik.

3) O'z - o'zini bilmaslik – ya'ni "Men nimaga ega bo'lishni xohlayman" va "nimadan men qoniqaman" degan savollarga o'zida javob topmaslik.

Katta hajmga ega bo'lgan kasblarni tanlash uchun o'ziga xos kasblar klassifikatsiyasi mavjud. Kasb klassifikatsiyasini E.A. Klimov tomonidan ko'rsatib berilgan tasniflari mavjud. Unga asosan kasbni beshta predmet, uchta maqsad, to'rtta omillar va to'rtta mehnat sharoitlariga asosan tasniflash mumkin. E.A. Klimov mehnat qurollariga asosan beshta guruhni ko'rsatadi. Bu "inson - texnika", "inson - inson", "Inson - tabiat", "inson – belgilar tizimi", "Inson – badiiy obraz".

1. Inson – texnika. Bu kasb guruhiga ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan, texnikani loyihalash va ta’mirlash bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar kiradi. Bular injener, konstruktor, uchuvchi, mashinist, haydovchi, elektrik, quruvchi va boshqalar.

2. Inson – inson. Bu kasb alohida ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib o‘ziga xos ruhiy holatlarni ham talab qiladi. Bu kasblar insondan chidam va talabni so‘raydi. O‘ziga mas’uliyatni olishni, o‘zidagi emotsional holatlarni boshqarishni talab qiladi. Bularga shifokor, hamshira, o‘qituvchi, tarbiyachi, ofitsiant, yurist, sotuvchi, sarta-rosh, ekskursovod va boshqalar kiradi.

3. Inson – tabiat. Bu kasb egalari tirik va jonsiz tabiat bilan aloqadagi kishilardir. Tabiiy resurslarni o‘rganuvchi, hayvonlar va o‘simliklarni parvarishlovchi, ularni davolash bilan bog‘liq sohalar. Bularga agronom, zootexnik, veterinar, kinolog, o‘simlikshunos, geolog, ekolog va boshqalar kiradi.

4. Inson va belgilar tizimi. Bu kasb namoyondalariga og‘zaki va yozma nutq bilan bog‘liq, son, miqdor va hujjatlar bilan ishlovchilar kiradi. Bular iqtisodchi, hisobchi, lingvist, matematiklar, programmistlar, natariustlar va boshqalar kiradi.

5. Inson – badiiy obrazlar. Bularga musiqa, badiiy – adabiyot, aktiyorlar va boshqa soha egalari kiradi. Bular ijodiy ish kishilari hisoblanib ular ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanadilar. Bu soha egalarida ijod qilish qobiliyati, talant, mehnatsevarlik kabi tomonlar bo‘lishi zarur hisoblanadi.

Albatta bu sanab o‘tilganlar barcha sohalarni qamrab olmaydi. Bulardan tashqari ko‘pgina sohalarni aralash holatlarini ko‘rsatuvchi kasblar ham mavjuddir.

Kasbga qo‘yiladigan talablar bu inson psixik xususiyatlari va jarayonlari bilan ham bog‘liqdir. Kasb tanlovchi kasb tanlashda o‘zidagi tasavvur jarayonini ham taraqqiy etdirgan bo‘lishi kerak. O‘zi tan-

layotgan kasbni ko‘z oldiga keltira olmasa u bu kasbni egallay olmaydi. Kasb tanlashda muhim tomonlardan biri bu insonga beriladigan kasbiy maslahatlar hisoblanadi. Kasbiy maslahat (angl. *vocational counseling*) — insonlarga kasb tanlashda yoki kasbni qayta tanlashlarida yordam beruvchi metod hisoblanadi. Kasbiy maslahat ayniqsa yoshlar uchun zarur bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Yoshlar kasb tanlayotganlarida hali o‘zlarini to‘la anglay olmagan va unda adashib qolishlari yoki ikkilanishlari mavjud bo‘ladi. Bu sharoitda kasb psixologi o‘z maslahatlari bilan yoshlarga yordam beradi. Kasbiy maslahat ishini uch etapga ajratish mumkin.

➤ Kasbiy maslahatga tayyorgarlik o‘quvchilarni kasbni ong-li ravishda tanlashga olib kelishi kerak va bu maktabdagi o‘qish davrini qamrab olishi kerak bo‘ladi.

➤ Oxiriga yetkazilgan kasbiy maslahatning maqsadi – bu o‘quvchilarni qiziqishlarini, intilishlarini va psixofiziologik qobiliyatlari asosida ularga yordam berish hisoblanadi.

➤ Aniqlovchi kasbiy maslahat maktab chegarasidan tashqariga chiqadi va kasb - hunar, oliygoh, ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda amaliy psixologlar oldida asosan to‘rtta asosiy yo‘nalish shakllanib kelmoqda. Bular 1) psixodiagnostics; 2) psixologik maslahat; 3) psixologik profilaktika; 4) psixologik korreksiya hisoblanadi. Psixologik maslahat psixodiagnostics tekshiruvdan keyin beriladi. Bu beriladigan maslahatlar aniq, tushunarli va amaliy jihatdan tadbiriq qilinadigan holatda berilishi kerak bo‘ladi. Bundan tashqari psixologik maslahat kasb tanlovchini psixolog bilan olib boriladigan suhbatidan keyin ham berilishi mumkin. Psixologik maslahatga shuningdek o‘qituvchilar bilan, ota - onalar bilan ularning o‘quv jarayonidagi ishlari va o‘z mutaxassisligini oshirish bilan bog‘liq holda ham olib boriladi.

Takrorlash uchun savollar

1 . Kasbga yo‘naltirishda ta’lim va unga bo‘lgan e’tibor. Ta’lim tizimi, undagi psixologik sharoit va kasb tanlash.

2 . O‘qituvchining psixologik maslahat xizmatlari. O‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan intilishni yanada rivojlantirish.

3 . Kasb tanlashda bilim manbalarini yanada ko‘paytirish. Kasb tanlashda o‘z bilimlariga va malakalariga ishonch hosil qilish. Kasb tanlashda kuchli iroda va uni mustahkamlash.

4. Kasb tanlashga qo‘yiladigan talablar. Tasavvur haqida bilimlarga ega bo‘lish. Kasbiy maslahat va uning natijalari. Kasbga yo‘naltiruvchi maslahat va uning ahamiyati. (prof.konsultatsiya).

2.4. Kasbga yo‘naltirishda ta’lim muhiti va uning psixologik xavfsizligi

Kasbga yo‘naltirishda ta’lim muhiti va shaxs imkoniyatlari

Insonni kasbga yo‘naltirish, uni hunarli bo‘lib o‘z rizqini o‘zi topib hayot kechirishi bu jamiyat uchun eng zarur bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Jamiyat o‘z fuqarolarini o‘zi uchun kerak bo‘lgan kasblarga o‘rgatishga har doim intilib kelgan. Buni biz insoniyat tarixidan juda yaxshi bilamiz. Jamiyatning rivojlanishi, taraqqiy topib mustahkamlanishi ko‘p jihatidan insonga, uning egallagan kasbiga bog‘liqdir. Jamiyat insonlarni ishlab chiqarishi, yangi va yangi bilimlarga suyanagan holda ishlab chiqarish bilan bog‘liq malakalarni o‘zlashtirib borishiga suyanadi. Jamiyatning o‘zi ham o‘zi uchun kerakli bo‘lgan kadrlarni yaratishga, ularni tarbiyalashga va ta’lim berib, o‘rgatib jamiyatga kerakli kadr qilib yetishtirishga intiladi. Demak, jamiyat ham yangi kadrlarni yaratishga ehtiyoj sezib boradi.

Jamiyat ta'lim berishda, ya'ni kadrlarni tarbiyalashda o'zining rivojlanganlik darajasida sharoitlar yaratib beradi. Bu esa jamiyatning oldida turgan manfaatlar, ehtiyojlar va qiziqishlardan kelib chiqadi. Ta'lim jarayonidagi muhitni biz ikki tomonlama tushunishimiz zarur. Bu birinchidan jamiyat tomonidan yaratilayotgan sharoitlar bo'lsa, ikkinchidan ta'lim olayotgan shaxsni ham subyektiv dunyoqarashlariga bog'liq bo'ladi. Insonda ma'lum bir darajada o'zini anglash, jamiyatdagi egallashi kerak bo'lgan o'rnini bilib borishi, o'zidagi maqsad va manfaatlarni jamiyat manfaatlari va maqsadlari bilan bog'lay olishi, o'zi va jamiyat uchun foydali ishlarni qilishga bo'lgan munosabatidan kelib chiqqan holda shaxs o'ziga ta'lim olish uchun sharoitlar yaratadi. Har qanday qiyinchiliklarga chidam va matonat bilan, iroda kuchini sarf qilib borib maqsadi yo'lida kurashib boradi. Bu kabi ko'plab tomonlar insonning subyektiv tomonini tashkil qilib, asosan undagi psixologik jarayonlarga bog'liq bo'ladi. Inson o'zida o'zi yoqtirgan kasbni egallashga kuch topa olsagina o'z orzulariga va niyatlariga etadi. Bu yerda insonni psixik jarayonlarining kurashi ketadi, ya'ni yaxshi yo'nalish olish yoki yomon yo'lga kirib ketish. Yengil hayot uni jazolaydi. Mehnatga asoslangan kasbni egallash esa uni rag'batlantiradi. Ko'rinib turibdiki, insonni o'zida ikki tomonni kurashi har doim yuz berib turadi. Inson o'zini yaxshi tomonlari bilan, irodasi va chidami bilan yaxshi kasblarni egallab boradi va jamiyatda o'z hurmatiga sazovor bo'ladi. Bularning asosida insonni o'z - o'zini anglash jarayoni yotadi.

Jamiyat ta'lim berishda o'z kadrlarini yaxshi mutaxassis bo'lishini istagan holda ta'lim uchun sharoitlar yaratib beradi. Ta'lim muhiti juda ko'p omillarga bog'liq bo'lib uni shakllantirish va yo'lga qo'yish ko'pgina mehnatni talab qiladi.

Hozirda shaxsga kasb tanlash uchun va shu kasbga o'qish uchun hamma sharoilar mavjuddir. Jamiyatimiz ta'lim tizimida olib borayotgan barcha ishlar, islohotlar faqat bir narsaga qaratilgan, bu

ham bo'lsa jamiyatga kerak bo'lgan bilimli kadrlarni tarbiyalash va ulardan jamiyatga kerakli bo'lgan manfaatlarni olish. Albatta inson eng avvalo o'z manfaatlariga o'z e'tiborini qaratadi. Bu insonni o'zi yoqtirgan kasbni egallashi, undan o'zi uchun foyda olishi, bu kasbda karera qila olishga intilishi, o'z ishiga ijodiy yondoshib undan zavqlanishi kabi manfaatlarni ko'zlaydi. Inson qachon o'zi tanlagan kasbdan foyda oladi? Bu avvalam bor o'z manfaatlarini jamiyat, davlat manfaatlari bilan uyg'unlashtirgan holda yuz beradi. Bu manfaatlar insonda ma'lum bir qiziqishlarni, motivlarni shakllanishiga olib keladi. Albatta bundan tashqari ko'plab ta'lim muhitiga ta'sir etuvchi omillarni sanab o'tish mumkin. Bularda quyidagilarni namuna sifatida ko'rsatish mumkin:

Davlatimizni olib borayotgan islohotlari asosan ta'lim muhitini yaxshilashga va yaxshi kadrlar tayyorlashga qaratilgandir.

Ta'lim tizimini shakllantirish va ta'limga kerak bo'ladigan asosni yaratish, yangi zamonaviy darsliklar yaratish, o'qitishning zamonaviy ko'rinishlarini shakllantirish va shu kabilar.

O'quvchi – talabalarni psixologik xususiyatlaridan foydalangan holda ularda yangi pedagogik asosdagi bilimlar tizimini shakllantirish.

Xar bir o'quv maskanini zamonaviy talablar asosida ta'minlash.

O'quvchilar uchun zarur bo'lgan o'quv darsliklarini, o'quv qo'llanmalarni yaratish va ularda zamonaviy ta'lim tizimini aks ettirish.

O'quvchilarga qulayliklar yaratib bera oladigan kutubxonalarni shakllantirish.

Darslar davomida o'quvchilarni mustaqil fikrlay olishiga zarur bo'lgan uslublardan foydalanish va shu kabilar.


Albatta bunday qulayliklardan foydalanayotgan yoshlarni bilim olishlarida o'zlarining subyektiv imkoniyatlarini ko'rsata olish. O'zini anglagan holda ichki imkoniyatlarini ishga solish, javobgarlikni his etish, shaxs sifatida shakllanishlariga zarur bo'lgan ichki

rezervlardan keng foydalana olish. O'sib kelayotgan yosh avlod yaratib berilayotgan imkoniyatlarni his etgan holda o'z - o'zini tarbiyalab borib, shaxs sifatida bu imkoniyatlarni kengaytirishi zarur. Shaxs sifatida yoshlarda juda ko'plab imkoniyatlar mavjud. Bular 1) Shaxsni ichki rezervlari, subyektiv imkoniyatlari hisoblanadi. 2) Unga yaratilgan tashqi imkoniyatlardan unumli foydalangan holda o'z bilimlarini, malakalarini shakllantirib borish. 3) Shaxsdagi imkoniyatlardan yana muhim tomoni bu milliy qadriyatlarga asoslangan holda ahloqiy, estetik, ijtimoiy, iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirib borib o'zidagi imkoniyatlarni yanada kengaytirish hisoblanadi. 4) Shaxs kasb egallashi uchun zarur bo'lgan malakalar bu oilada, atrofdagi yaqinlar orasida shakllanadi, ularning ta'siri shaxsdagi imkoniyatlarni yana bir qirrasini tashkil etadi. 5) Shaxsni o'zligini anglashi, tanlagan kasbiga intilib borishi, buning uchun o'zidagi psixologik xususiyatlarni shakllantirishi ham uning imkoniyatlarini ko'rsatadi. 6) O'quv maskanlarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro faoliyat ham o'quvchining imkoniyatlarini shakllanishiga olib keladi.

Albatta o'quvchilarni ta'lim olishlariga yaratilayotgan muhit juda zarurdir. Yaratilayotgan sharoit o'quvchilar orasidan aqlli, bilag'on, malakali insonlarni yetishtirib chiqadi. Shu bilan birga shaxsning ham o'z imkoniyatlarini shu maqsadga qaratilishi kadr-larni sifatini yaxshilashga olib keladi. Shaxsning o'z imkoniyatlarini ko'rsata olishi bu psixologik jarayonlar va psixologik xususiyatlar bilan uzviy bog'liqdir.

Psixologik jarayonlar va psixologik xususiyatlar

Kasbga yo'naltirish bu o'ziga yarasha muhim va zaruriy jarayon bo'lib, unda kasbga yo'naltirilayotgan shaxsni psixologik xususiyatlari va psixologik jarayonlar muhim o'rganish kerak bo'lgan hodisadir.



8-chizma

Ma'lumki **psixika** – bu miya tomonidan mavjud borliqni aks ettirish, insondagi uchta psixologik hodisani psixologik jarayonlarni, psixologik holatni va shaxsning xususiyatlari ko'rinishidagi jarayondir.

Psixologik jarayonlar – psixologik faoliyatning murakkab ko'rinishini tashkil etuvchi psixik hodisalarning elementlari hisoblanadi. Ular juda qisqa vaqt davom etadi. Insondagi psixologik jarayonlarga sezgi, idrok, hissiyot iroda, diqqat, xotira, tafakkur va boshqalar kiradi.

Psixologik holatlar – bu murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir, ular bir qancha kun yoki bir qancha hafta davomida davom etishi, ya'ni shu jarayonni davomiylikda sodir bo'lishi mumkin. Bularga insondagi tetiklik, so'lg'inlik, ishga layoqatlilik yoki charchoq holati, tez jahli chiqishi, parishonxotirlik, yaxshi yoki yomon kayfiyatni bo'lishi kabilar kiradi.

Shaxsning psixologik xususiyatlariga – insonga xos individual – psixologik jarayonlar kiradi. Bunga shaxsning individual – psixologik jarayonlari, qiziqish va ishonchlari, bilimlari,

malakalari, odatlari, temperamentlari, qobiliyatlari, xarakterlari va shu kabilar. Bu insonga butun umrga beriladi yoki ma'lum bir davr davomida yuz berishiga olib keladigan hodisa hisoblanadi.

Inson hayot faoliyati davomida mana shu yuqorida ko'rsatilgan psixologik holatlarda bo'ladi. Inson nimaiki ishni bajarmasin undagi psixik jarayonlar uni maqsadi sari yetaklaydi. Xuddi shunday kasb tanlashda ham shunday jarayonlarni inson o'z boshidan kechirib boradi.

Kasb tanlashda ta'lim muhitining o'rni va ahamiyati.

Kasbiy layoqat va psixologik xavfsizlik. Kasb tanlash (проф.отбор)

Kasb tanlash jarayonida yoshlarda sodir bo'ladigan o'ziga xos jarayonlar bu undagi jismoniy va ruhiy o'zgarishlarda, o'zidagi o'zgarishlar asosida o'zini katta inson bo'lib borayotganini bilib borishi, atrofdagilarni unga nisbatan kattalardek munosabati va shu kabi jarayonlar insonni endi o'z hayotini qurish uchun kasb tanlashiga olib keladi. Kasb tanlash uchun esa unga bilim va malakalar juda zarurdir. Kasb tanlayotgan inson o'zining psixologik jarayonlarini va psixologik xususiyatlarini boshqarishi va ulardan foydalanishi zarur bo'ladi. Deylik, tikuvchilik yoki to'quvchilik kasbini o'zlashtirib borayotgan yosh inson o'zida shu kasb talab qiladigan psixologik jarayonlarni rivojlantirishi va unga tayyor turishi kerak bo'ladi. Tikuvchilikda psixologik jarayon sifatida dizaynga mos keladigan muhim psixologik jarayonlar talab qilinadi. Bu sezgirlik, didlik, diqqatini o'sganligi, hayolini rivojlanganligi, ya'ni tasavvurlari chuqur va kengligi kabi ko'plab psixologik jarayonlar kerak bo'ladi.

Shaxsning o'zi tanlagan kasbiga layoqatligi uni kelajagini ta'minlanganligini ko'rsatadi. O'z ishiga layoqatli inson umiri

bo'yicha o'ziga kerak bo'lgan ko'pgina narsalarga ega bo'ladi. Layoqatsiz inson esa o'zini hayotini qurishga imkoniyati bo'lmaganidan ko'pgina hollarda qiyinchiliklarga yo'liqadi.

Kasbga layoqatlikni shaxsda ikki yo'nalish bo'yicha muhokama qilish mumkin; biri kasbni muvaffaqiyatli egallash orqali, ikkinchisi insonni o'zini mehnatidan qoniqishi orqali. Bu ko'rsatilgan ikki tomon ham nisbiy bo'lib, u subyektivlikni ko'rsatadi. Shunga qaramasdan shu ikkala yo'nalish kasbiy layoqatlikni psixologik xarakteristikasini beradi.

Insonni tabiiy xususiyatlari juda katta, shuningdek cheksiz egi-luvchanlik imkoniyatlarini beradi. Inson kasbning juda ko'p ko'rinishlariga moslashishi mumkin, va uni subyekt sifatida qondirishi ham mumkin. Inson egallay olmaydigan kasb juda kamdir. Kasbga tayyorgarlik va keyingi faoliyat har xil tarzda kechishi mumkin, bular undagi xususiyatlardan kelib chiqib davom etadi. Eng muhimi va zaruriy tomoni bu kasbiy yo'nalganlik bo'lib, unda ijobiy kasbiy motivatsiyalar muhim rol o'ynaydi.

Takrorlash uchun savollar

1. Kasbga yo'naltirishda ta'lim muhiti va shaxs imkoniyatlari.
2. Psixologik jarayonlar va psixologik xususiyatlar.
3. Kasb tanlashda ularning o'rni va ahamiyati. Kasbiy layoqat va psixologik xavfsizlik. Kasb tanlash (проф.отбор)

2.5. Kasbga yo‘naltirish va ta’lim jarayoni ishtirokchilarining psixologik, fiziologik salomatligi

Kasbga yo‘naltirish va ta’lim jarayoni ishtirokchilari tushunchasi va uning sharxi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga kasbiy maslahat, kasbiy saralash, kasb tanlash masalalari bo‘yicha yo‘nalishlar berish

O‘qituvchi o‘z tarbiyalayotgan o‘quvchilarga ta’lim berib borar ekan, shu bilan birga ularni kasb tanlashlariga ham yordam beradi. Bizga ma’lumki, maktabning kelajakda kasb tanlashga imkoniyati bo‘lgan yoshlarga ta’lim berishdan iborat asosiy vazifasi – bu o‘quvchilarning fan asoslarini faol, ongli, mustahkam va tizimli ravishda egallashini ta’minlashdir. Bular asosida o‘qituvchi o‘quvchilarga ma’lum bir kasblarni tanlashlari uchun tavsiyalar berib boradi.

Ta’lim jarayoni ishtirokchilari – bu o‘qituvchi va o‘quvchi hisoblanadi. Bu yerda ta’lim beruvchi pedagogni va ta’lim oluvchi o‘quvchi nazarda tutiladi. Bular birgalikda ta’lim jarayoni ishtirokchilari hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki ta’lim olayotgan o‘quvchi va ta’lim beruvchi o‘qituvchining o‘ziga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlari va jismoniy imkoniyatlari mavjud bo‘ladi. Bular esa o‘z navbatida ta’lim olishga o‘z ta’sirini ko‘rsatib boradi. Bular haqida biz oldingi ma’ruzamizda ham to‘xtab o‘tgan edik.

O‘qituvchi ta’lim berish davomida bolalarning iqtidoridan va qobiliyati, qiziqishidan kelib chiqib, maktabdan keyingi uzuluksiz ta’limni qaysi yo‘nalishiga ta’lim olish uchun kirishlariga yordam beradi. Bu yerdan kasbiy maslahat bersh uchun o‘qituvchi o‘zi ham kasbiy maslahat to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishi kerakligi kelib chiqadi.

Kasbiy maslahat (профессиональная консультация) – bu lotincha so‘z bo‘lib, kasb turi, ko‘rinishi, konsultatsiya – bu maslahat

degan ma'no kelib chiqadi. Kasbiy maslahat bu asosan yoshlarga kasblar haqida ilmiy asoslangan maslahat berish bo'lib, u asosan yoshlarni qobiliyati, manfaatlari, qiziqishlari, intilishlari asosida kasb tanlashlariga yordam beruvchi sohadir. Kasbiy maslahat har bir kasb haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi, shuningdek kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar, mehnat faoliyati, kasbning ijtimoiy – iqtisodiy va sanitar – gigienik statusi, kasbga o'qitish va insonga kasb qo'yadigan talablar haqida ma'lumotga ega bo'lish kerak. Bunda inson psixik xususiyatlariga, meditsina va jismoniy ko'rsatgichlariga va kasbga mos kelmaslik to'g'risida ham ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Kasbiy maslahat – yosh davrlarga qarab, ma'lumot darajasiga qarab va unda ishtirok etayotgan o'qituvchilariga, ota - onalarning ishtirokiga qarab muvaffaqiyatli chiqadi.

Ta'lim jarayoni va kasb tanlovchilarning psixologik, fiziologik salomatligi. Yosh davrlar psixologiyasi va kasb tanlash masalalari. Bolalarning fiziologik tuzilishi va ularning evoliyutsion davrlari. Kasb tanlashda bolalar taraqqiyot davrlari va ularning ehtiyojlari. Yetuk insonni tayyorlashda meditsina, psixologiya va falsafiy bilimlarning o'rni.

O'qituvchi o'quvchilarga ta'lim berish davomida ularni kasb tanlashlariga yo'llanmalar berar ekan shuning bilan birga ularni psixologik va jismoniy salomatligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Kasb tanlovchi hisoblangan o'quvchilar o'zlarini ruhan va jismonan sog'lom ekanliklarini meditsina ko'rigidan o'tib tasdiqlashlari mumkin bo'ladi. Bundan tashqari maktab psixologlari va shifokorlari har doim ularni kuzatib boradilar. Psixik xususiyatlari yoshiga qarab rivojlanib borayotgan o'quvchi o'zidagi psixologik xususiyatlarni kuzatish orqali o'zgarib borishini bilib boradi. Boladagi diqqat, sezgi, fahm - farosat, xarakter, tafakkur qilish, qobiliyat va boshqa psixologik xususiyatlar o'quvchining

rivojlanib borishi bilan o'zgarib, takomillashib boradi. Ayniqsa bu o'smirlik davrida juda yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'sib borayotgan bolada jismonan o'zgarishlar ham sodir bo'lib boradi. O'quvchining jismonan imkoniyatlari ko'payadi. O'zini va jismoniy kuchini boshqarish, tanasidagi o'zgarishlarni kuzatish orqali, o'zida kattalarga o'xshash tomonlar paydo bo'lishini ko'radi. Bular esa uni psixologik jihatidan kattalardek tutishga, o'zini ma'lum bir kasbda ko'rishga intiltiradi. Umuman olganda o'quvchidagi psixologik va jismoniy tomonlar asosan uning nerv - fiziologik tomonlari bilan bog'liq bo'ladi. Insondagi yuz berayotgan psixologik va jismoniy o'zgarishlar uning miyasi bilan, psixofiziologik jarayonlar va nerv - fiziologik jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bularni o'rgangan olimlar insonni kasbiga xos tomonlarni ham ko'rsatib berganlar. Insonni jismoniy va ruhiy sog'lig'ini o'rgangan olimlar qatoriga I.M. Sechenovni, I.P.Pavlovni va boshqa qator olimlarni ko'rsatish mumkin. Kasb bilan bog'liq masalalar ko'proq keyinchalik K.M.Gurevich nomi bilan bog'liqdir. K.M.Gurevich kasb masalasi bilan shug'ullanar ekan insondagi individual – psixologik xususiyatlarning asosida psixofiziologik jarayonlar yotishini ko'rsatib, I.P.Pavlov, B.M. Teplov olib borgan ishlarga suyangan holda tushuntirib berishga intiladi.

O'quvchini yoshi katta bo'lib borgan sari undagi xarakter, odatlar o'zgarib boradi. Bu uning jismoniy va psixologik taraqqiyoti bilan bog'liq bo'ladi. Hozirgi vaqtda individual – psixologik farqlanishlar fundamental nazariy va amaliy eksperimentlarga asoslanadi. I.P. Pavlov tomonidan tashkil etilgan va B. M. Teplov tomonidan o'rganilgan nerv tizimining xususiyatlari nazariyasi insondagi psixofiziologik tomonlarini asoslab beradi. Bu nazariya bir qancha kollektivlarni ishi bo'lib, B.M. Teplov va uning xodimlari bu ishni boshlagan bo'lsa, uni V.S.Merlin kollektivi davom ettirdi, E.A. Kli-

mov va boshqalar bu nazariyani har xil shaharlarda va chet elda o'rganishni davom ettirdilar.

B. M. Tanlov ko'rsatib o'tganidek kasb tanlashdagi insonni har xil xatti - harakati, uning o'ziga xosligi, uning ishonchi, qiziqishi, bilmi, layoqati, odati, o'ziga xosligi shaxs psixologik hayoti bilan bog'liq bo'ladi. Insonda yuz berayotgan jarayonlarning psixologik va fiziologik tomonlarining asosi bu u yoki bu darajada sodir bo'layotgan shartli bog'lanishlar hisoblanadi. B.M. Teplov bir xil sharoitlarda ham insonlar bir - biridan ajralib turishini, ularni bilim olishida, ish bajarishdagi psixo fiziologik imkoniyatlari har xil bo'lishini ko'rsatib o'tdi. Bu jarayon I.P.Pavlov tomonidan nomlagan nerv tizimiga yoki oliy nerv faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

I. P. Pavlov tasavvuricha nerv tizimini uchta xususiyati mavjud. Bu uning kuchi, harakatchanligi va muvozanatligidir. Bular nerv tizimining xususiyatlari o'zaro munosabatda insonga xos bo'lgan 4 ta temperamentni shakllantiradi. Bular sangvinik, xolerik, flegmatik va melanxolik tiplardir. Bular esa insodagi jismoniy va psixologik jarayonlarda, ularning holalarini tushuntirib berishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Bu kabi ko'plab tadqiqotlarda kasb tanlovchining psixologik va jismoniy sog'lomligi masalasi ko'rilgandir. O'qituvchi o'quvchi bilan o'zaro munosabatda bo'lganida uning psixologik va fiziologik holatlarini ham o'rganib boradi. Tanasi sog' va ruhi sog'lom bo'lgan o'quvchi o'zi tanlayotgan kasbni aniq va irodasiga asoslanib tanlab oladi.

Yosh davrlari o'ziga xos bo'lgan psixologik va jismoniy tuzilishni olib keladi. Kasb tanlashda bolalarni yoshiga asosan o'ziga xos bo'lgan psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kasbga bo'lgan munosabati shakllanadi. Bu sohada avvaldan ham insonlarni ma'lum bir yoshiga qarab ajratishlar bo'lgan. Deylik Qadimgi Xitoyda shunday klassifikatsiya qilingan:

- * Yoshlik davri (20 yosh)
- *Nikohga kirishish davri (30 yoshgacha)
- *Ijtimoiy vazifalarni bajarish yoshi (40 yoshgacha)
- *Yanglishganligini bilish yoshi (50 yoshgacha)
- *Ijodiy hayotning oxirgi davri (60 yoshgacha)
- *Istagan yoshi (70 yoshgacha)
- *Qarilik davri (70 yoshdan katta)

Inson bilimining har xil yo‘nalishlarida: pediatriyada, antropologiyada, psixologiyada yoshiga qarab klassifikatsiya qilishning har xil ko‘rinishlari mavjud. Inson hayotini differensiatsiyalashga qarab asosan uning har xil ko‘rinishlaridan foydalanamiz.

Eramizdan avval VI asr – Pifagor klassifikatsiyasi:

- Shakllanish davri (0 – 20 yosh)
- Yoshlik davri (20 – 40 yosh)
- Kuchga kirgan davri (40 – 60 yosh)
- Qarilik davri (60 – 80 yosh)

Xuddi shuningdek kasb tanlash bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab klassifikatsiyalar mavjuddir. Deylik, D.Syuper klassifikatsiyasi.

- 1) O‘sish davri (tug‘ilgandan to 14 yoshgacha)
- 2) Izlanish davri (15 yoshdan 24 yoshgacha)
- 3) Egallagan martabasini mustahkamlash (25 dan 44 yoshgacha)
- 4) Egallaganlarini saqlab qolish (45 dan 64 yoshgacha)
- 5) Inqiroz davri (65 dan keyingi davri)

Kasb tanlash bilan bog‘liq davrlarga suyanagan E. A. Klimov bo‘yicha kasb klassifikatsiyasi. Bunda E.A. Klimov to‘qqizta fazani ko‘rsatadi. Bular:

Shakllanmagan kasb tanlash – bunda bolalarda ma’lum bir kasbga nisbatan qiziqish va havas ortadi.

Tanlash fazasi – bunda inson kasb tanlashga tegishli masalalar bilan bevosita shug‘ullana boshlaydi yoki bu majburish tarzda yuz beradi.

Muxlislik fazasi – bunda inson kasb tanlash yo‘liga o‘tadi va

uni egallaydi (bunda kasb - hunar kollejlari, litseylar, maktablarda o'qiyotgan talabalar va oliygohlarda kasbni egallab diplomga ega bo'lgan mutaxassislar kiradi).

Moslashish fazasi – yosh mutaxassis kollektiv me'yorlariga moslashadi va har xil kasbiy vazifalarni bajaradi.

Internal faza – bu endi malakaga ega bo'lgan o'z kasbini sevuvchi, mustaqil ravishda kasb bilan bog'liq masalani yecha oladigan shaxs.

Usta bo'lganlik fazasi – bunda ishchi oddiy va eng murakkab kasbga xos bo'lgan masalalarni yecha oladi. U o'ziga xos individual, qaytarilmas faoliyat turini egallagan bo'ladi.

Avtoritarlik fazasi – Avtoritet – bu o'z kasbini ustasi, nomi chiqqan mutaxassis hisoblanadi. Kasbiy vazifalarni bajarishda malakaga, bilimga, uddalay olishga, ishni tashkil eta olish bilan bog'liq bo'lgan yordamchilarga ega bo'lgan shaxsdir.

Shogirdlar yaratuvchi faza- o'z kasbida usta bo'lgan bu inson shogirdlar ottira oladi va hamfikrlarga ega bo'la oladi.

Kasb tanlashda yana shuni bilish kerakki bolalarni jismoniy tuzilishi va o'sib borishining evolyutsion davrlari mavjud. Shulardan kelib chiqqan holda bolalar o'zlari yoqtirgan kasblarni tanlab boradilar.

Takrorlash uchun savollar

Kasbga yo'naltirish va ta'lim jarayoni ishtirokchilari tushunchasi va uning sharhi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga kasbiy maslahat, kasbiy saralash, kasb tanlash masalalari bo'yicha yo'nalishlar berish.

Yosh davrlar psixologiyasi va kasb tanlash masalalari. Bolalarning fiziologik tuzilishi va ularning evolyutsion davrlari.

Kasb tanlashda bolalar taraqqiyot davrlari va ularning ehtiyojlari.

Yetuk insonni tayyorlashda meditsina, psixologiya va falsafiy bilimlarning o'rni.

2.6. Kasb psixologiyasi fani va ta'lim muhitida psixodiagnostik faoliyat

Kasb psixologiyasi fani, ta'lim muhiti va psixodiagnostik faoliyat

Insonni kasb tanlashida, uni shu kasbni egallashida va keyinchalik nafaqaga ketishida kasb psixologiyasini o'rni va ahamiyati kattadir. Ayniqsa yoshlarni o'zlari yoqtirgan kasblarini egallashlarida, shu kasbga xos bo'lgan layoqatlari borliklarini bilib olishlarida, shu kasbga tayyorgarlik ko'rishlarida kasb psixologiyasining o'rni juda kattadir. Kasb psixologiyasi inson va kasb o'rtasidagi yuz beradigan psixologik jarayonlarni, psixologik sharoitlarni va insonga tegishli bo'lgan psixologik xususiyatlarni o'rganib borib yoshlarga o'z tavsiyalarini beradi. Shuning uchun ham kasb psixologiyasining inson hayot faoliyatidagi o'rni juda kattadir.

Kasbga tayyorlashda ta'lim tizimining va jamiyat yaratayotgan muhitning o'rni ham juda katta hisoblanadi. Ta'lim muhiti bu yoshlarni yaxshi mutaxassis bo'lib yetishlariga sharoitlar yaratadi. Ta'lim muhitini yaratilishi ko'plab yaxshi kadrlarni, ya'ni bilimli, malakali, odamlar va texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarishga o'z ulushini qo'sha oladigan, intizomli, halol ishlaydigan, jamiyat manfaatlarini o'zining manfaatlari bilan qo'shib olib bora oladigan, keng dunyoqarashga ega bo'lgan, insonlarni, zamondoshlarini o'ylaydigan, ahloqli va estetik bilimlarni o'zida mujassamlantirgan shaxsni shakllantiradi. Bunday insonni shakllantirish juda ko'p vaqtni talab qiladi. Jamiyatda har bir shakllanayotgan shaxsni qanday kasbni egallashga va unga bo'lgan layoqati inson uchun bilishi zarur bo'lgan manfaatlardan biri hisoblanadi. Bunday imkoniyatni esa kasbiy psixodiagnostika beradi.

Psixodiagnostika – bu insonni individual – psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini tahlil qiladigan, o'lchaydigan va ba-

holaydigan psixologiya fanining bir yo‘nalishi hisoblanadi. Kasbiy psixologik diagnostika esa aynan kasbga xos bo‘lgan insondagi psixologik jarayonlarni va xususiyatlarni o‘lchaydigan, tahlil qiladigan va baholaydigan psixologiya fanining yana bir yo‘nalishi hisoblanadi. Bular asosan insonning amaliy hayotini o‘rganishga qaratilgan jarayonlardir. Diagnostika so‘zi grekchadan olingan bo‘lib, aniqlash degan ma‘noni bildiradi. Psixodiagnostika – bu psixologiya fanining maxsus yo‘nalishi bo‘lib individni, guruhlarni psixologik holatini, xususiyatlarini o‘rganadi va baholash uchun maxsus usullar ishlab chiqadigan sohadir.

Psixodiagnostika bu inson faoliyatini hamma qirralarini qamrab oladigan va undagi psixik tomonlarni amaliy o‘rganadigan fandir. Uning sohalari ko‘p bo‘lib, shulardan biri bu kasbiy psixologiya hisoblanadi. Kasbiy psixodiagnostika insonlarni kasblarga xos bo‘lgan qirralarini o‘rganadi, ularni kasbiy layoqatlarini, psixologik xususiyatlarini, mehnat jarayonida yuz beradigan psixologik jarayonlarini va shu kabilarni o‘rganib boradi.

Kasbiy faoliyatning psixodiagnostikasi insonni kasbiy qiziqishlarini har xil savollar orqali, maxsus psixologik testlardan foydalangan holda o‘rganadi. Bular shaxsni maxsus kasbiy yo‘nalishini chuqur o‘rganishga imkoniyat beradi va uning ko‘rinishlarini yuzaga chiqishiga imkoniyatlar beradi. Psixodiagnostika yordamida quyidagi tomonlarni aniqlanadi:

Kasbiy qobiliyatlarni aniqlaydi:

- Boshqarish qobiliyatlarini aniqlash;
- Ijodiy imkoniyatni aniqlaydi;
- Menejerlik qobiliyatini aniqlaydi;

Shaxsga xos bo‘lmagan xususiyatlarni aniqlash:

- Yutuqqa olib boruvchi motivlarni va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish;

- Shaxsning irodaviy xususiyatlarini aniqlash;
- Ishbilarmonlik qobiliyatini aniqlab olish;
- Hayotiy holatlarni nazorat qilish darajasi.

Moslashish (adaptatsiya) va irodaviy xususiyatlarni baholash:

- Nerv – psixologik barqarorlikni baholash;
- Erkaklarni liderlik xususiyatlarini aniqlash;
- Tavakkal qilishga tayyorgarlikni aniqlash;
- Ayollarni liderlik xususiyatlarini aniqlash;
- Moslashish qobiliyatlarini o‘tib borish darajasiga baho berish.

Insonni o‘ziga kasbni tanlashi ko‘p hollarda uning hayot yo‘lini aniqlab olishiga olib keladi. Insonlarni taxminan 50 foizi o‘zi tanlagan kasbni noto‘g‘ri tanlaganidan shikoyat qiladi. Insonni ma’lum bir kasbga layoqati borligini bu kasbni tanlamasdan oldin aniqlanishi psixodiagnostika orqali aniqlanishi mumkin. Bu insonni kasb tanlashida maqsadlarini aniqlab olinishiga olib keladi, shuningdek kishini egallab turgan mansabiga mos yoki mos emasligini ham ko‘rsatib beradi.

Ma’lum bir kasbiy faoliyatni tanlashda insonni qiziqishlari, manfaatlari asosiy turtki hisoblanadi. Bunda uning bilishga bo‘lgan ehtiyoji va ma’lum bir faoliyatga intilishi yotadi. Insondagi qiziqish uni ma’lum bir aniq kasbni tanlashga sharoit yaratadi.

Kasbiy qobiliyatlarni aniqlanishi. Boshqarish qobiliyatini aniqlanishi – bu boshqara olish, rahbarlik qila olish bilan bog‘liqdir. Boshqara olishga xos testlar insonni shaxsiy xarakterini va rahbarlik, tashkilotchilik qila olishga xos imkoniyatlarni sinab oladi. Vaholanki boshqaruvchi – bu lavozimli shaxs bo‘lib, bu lavozimga tayinlanadi va boshqarishga huquqi bo‘lgan javobgar shaxs hisoblanadi. Shuning uchun ham bu shaxs boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishi va quyidagi jarayonlarda ko‘rinadi:

Mustaqil ravishda qaror qabul qila olish;

Tahlil qila olishlik qobiliyati, bu esa uni kelajakni ko‘ra olishga xizmat qiladi.

Ishbilarmonlik qobiliyatiga ega bo‘lib, o‘z maqsadlarini egalashga, o‘ziga xos qaytarilmas g‘oyalarga va bir xil bo‘lgan qarorlarni qabul qila olishlik, ularni tavakkal qilish bilan bog‘liqligi va bu tavakkallarni boshqara olishlik.

rivojlangan intellekt, rivojlangan intuitsiyaga, ijod qilishga qobiliyati bo‘lishi.

Bulardan tashqari boshqaruvchi tashkilotchilik, kirishuvchanlik, muloqot qila olishlik, ilmiy - texnik, pedagogik, matematik qobiliyatlarga ega bo‘lishi zarur. Boshqaruvchida shunga mos malaka, tayyorgarlik, ishlab chiqishdagi va kasbdagi malaka, shuningdek shaxsning ma’lum bir yo‘nalishi va individual – psixologik xususiyatlari ham bo‘lishi zarur.

Boshqaruv faoliyati amaliyotida odamlarni ishontira olishlik, ayniqsa katta sonli odamlarini ishontira olishlik qobiliyati ham bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Boshqarish qobiliyatiga qaratilgan testlar bu insonni boshqara olish qobiliyatini shaxsiy xarakterlaridan kelib chiqqan holda va rahbarlik, tashkilotchilik ishiga intilishlarini ko‘rsatib beradi. Buning uchun esa insonga katta malaka, bilim va ko‘nikmalar kerak bo‘ladi. Bu boshqarish kasbning “inson - inson” ko‘rinishiga tegishli bo‘lib, boshqaruvchidan o‘ziga xos ko‘p talablarni qo‘yadi. Bu har xil darajadagi rahbarlar, ya’ni boshqaruvchi, master, kadrlar bilan bog‘liq rahbarlar va shu kabilarga xosdir.

Ijodiy imkoniyatlarni baholash: Ijodiy imkoniyatlarni diagnostika qilish:

Ijodiy imkoniyatlarni baholash – inson rivojlanishidagi muhim davr hisoblanadi. Muhim ilmiy muammolarni, nazariyalarni yechish, kashf qilish va ixtiro qilish, badiiy asarlarni yaratish – bu inson ijodiy faoli-

yatining natijasidir. Insonlarni individual xususiyatlari ko'pgina kasblar uchun ma'lum bir ahamiyatga ega bo'ladi. O'zi egallagan kasb sohasida natijali ishtirok etish uchun ularga ijodiy yondoshish zarur bo'ladi.

Ijod – bu eng avvalo ruhlantiruvchi mehnat, insondan kuchli jismoniy va ma'naviy kuch sarf qilishni talab qiladigan jarayondir. Ma'lumki har qanday inson ijodkor bo'lishi yoki mehnatkash bo'lishi qiyin, chunki bu juda murakkab jarayon bo'lib, insonni butun bir holda egallab olib uni fikrlarini, vaqtini va boshqa jarayonlarni boshqaradi. "Ijodiy tafakkur", "ijodiy mehnat" larni mashq qildirish "emotsional boy" shaxsga tegishli bo'ladi. Insonning ijodiy faoliyati uning malakalarini boyib borishi bilan, boshqa insonlarning malakalarini o'ziga singdirishi bilan o'sib boradi. Ijodiy fikrlarni asosi bo'lib motivlar yotadi va ularning sifati ijodkorning ottirgan bilimlari va malakalari bilan bog'liqdir. Agarda insonda bilishga ehtiyoj bo'lmasa, u holda ijodiy faoliyatga ham umid bog'lamasa bo'ladi.

Ijodkor insonga tegishli bir qancha asosiy sifatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Mehnatsevarlik, ishga nisbatan diqqatli bo'lish va ijodiy munosabat;
- Mustaqlligi, bajaruvchanligi, harakatchanligi.
- Bilim va umumiy madaniyat.
- Intuitsiya va aqlning egiluvchanligi.
- Ishni tashkil qila olishlik va malakani, rivojlantirish.
- To'g'rilik, o'ziga nisbatan talabchanlik, ishonch.

O'ziga bo'lgan ishonchga baho: O'ziga bo'lgan ishonchning diagnostikasi:

O'ziga bo'lgan ishonchni bo'lishi kasb tanlovchi uchun juda zarur bo'lgan jarayondir. Bu jarayon o'ziga ishonmagan odamni o'ziga ishonchni bo'lishini tarbiyalash va o'ziga beriladigan ba-

honi yuqori bo'lishiga olib keladi. Insonni o'ziga bo'lgan bahoni o'rganuvchi psixologik test shaxsni ijtimoiy – psixologik xarakterlash uchun zarurdir.

O'ziga bo'lgan ishonchni baholashga qaratilgan juda ko'p kriteriyalar bor. Bular xulq - atvor bilan bog'liq, emotsional, kognitiv, sotsial – psixologik tomonlardir. O'zida ijobiy tomonlarni yaratish uchun boshqalarga ijobiy, g'amho'rlik bilan bog'liq tomonlarni ko'rsata olish kerak bo'ladi. Bu jarayondan rol o'yinlardan, modellashtirilgan sharoitlardan foydalanish mumkin. Bular ma'lum bir murakkab sharoitlarni vujudga keltiradi va shu holatlardan chiqib keladi.

O'ziga ishongan odam har qanday holatda yutuqqa ega bo'lishiga va uni egallashga intiladi. Bu sohada o'tkaziladigan testlar, treninglar insonni o'ziga ishonchni bo'lishini ta'minlaydi.

Menejerlik qobiliyatini aniqlanishi:

Hozirgi vaqtda korxonani, tashkilotni boshqara oladigan va uni faoliyatini tashkil qila oladigan yaxshi mutaxassislariga talab o'sib bormoqda. Menejerlar boshqaruv – xo'jalik rahbarligida keng mustaqillikni egallaydilar, ayniqsa muhim iqtisodiy va mablag' masalalarida. Misol uchun, personallarni boshqarish bu juda murakkab faoliyat bo'lib, har xil faoliyat turlari qamrab olinadi.

Menejerning tashkilotchilik qobiliyati o'zida quyidagilarni qamrab oladi:

Boshqa odamning psixologiyasini chuqur va tez tushunib olish qobiliyati, uning qobiliyatlarini tashkilot manfaatlariga qarata olish;

Odamlarni ruhiyatiga ta'sir eta olish qobiliyati, ularni birlashtirish, yo'naltirish va kollektivning kuchini yo'naltirib tura olishlik;

Tashkilotchilik ishiga qiziqishi – barqaror qiziqish va unga psixologik tayyor bo'lish, uni bajarishga bo'lgan ehtiyoj;

Ma'lum bir qobiliyat haqida ma'lumotlarga ega bo'lish, bu hol-

da menejerlik haqida, kadrlarni tanlash va joyiga qo‘ya olishlikni to‘g‘ri tashkil etish;

Bu qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq bilimlarni o‘zlashtirishdan tashqari quyidagi sifatlarga ham ega bo‘lib borish zarur: qat‘iyatli bo‘lish, talabchan bo‘lish, maqsadga intiluvchan bo‘lish, harakatchan bo‘lish, uzoqni ko‘radigan bo‘lish, mustaqil bo‘lish, ishbilarmon bo‘lish kabilar.

Shaxsga xos bo‘lmagan xususiyatlarni aniqlash:

Yutuqqa olib boruvchi motivlarga va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqishga baho. Yutuqqa olib boruvchi motivlarga va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqishni o‘rganuvchi diagnostika. Yutuqqa ega bo‘lishga intilgan kishi o‘zini to‘la imkoniyatlarini shu yo‘lda sarflaydi. Kasb tanlashda kishilar noto‘g‘ri kasb tanlab qo‘yishdan qo‘rqadilar. Ayrimlar esa o‘z fikriga ega bo‘lib shu fikr uchun barcha choralarni ko‘radi. Bunday holat ko‘pincha yoshlarni kasb tanlashlarida yuz beradi. Shuning uchun ularni to‘g‘ri kasb tanlashlariga har xil darajada maslahatlar berilib boriladi. Maslahatlar berish uchun esa psixologlar testlardan foydalanadilar.

Shaxsning irodaviy sifatlariga baho: Shaxsni irodaviy sifatlarini diagnostika qilish:

Insonni o‘z irodasini shakllantirishga yordam berish uchun, o‘zidagi irodaviy sifatlarni tarbiyalash va boshqarish uchun testlardan foydalanish zarur bo‘ladi. Inson olib borayotgan ish faoliyatida insonni irodaviy kuch sarf qilishi zarur bo‘lgan jarayondir. Insondan ayrim ishlar uchun ko‘proq iroda kuchi sarf qilinadi. Inson o‘ziga xos holda bilim olish uchun, malakaga ega bo‘lish uchun, mehnat qilishi uchun, o‘ziga yoqqan ish bilan band bo‘lishi uchun va shu kabilar uchun har doim irodaviy kuch sarf qilib turadi. Insondagi sabr – toqat, chidam, o‘zini ushlab tura olishlik kabi juda ko‘p psixologik sifatlar testlar orqali aniqlanadi. Demak,

ko‘rinib turibdiki, inson har qanday kasbni tanlar ekan u yerda u-ning irodasi muhim bir psixologik jarayon sifatida kerak bo‘ladi. Bularni o‘lchash va o‘rganish esa kasb tanlash uchun juda zarur jarayon hisoblanadi.

Psixodiagnostika va kasb psixologiyasi masalalari

Psixodiagnostika bu inson haqidagi kerakli bo‘lgan psixologik ma’lumotlarni beradi. Kasbiy psixologik diagnostika rivojlanishi, shakllanishi 1849-yilda Fransiyada yozilgan “Kasb tanlash bo‘yicha qo‘llanma” kitobini nashr qilishdan boshlandi. Keyinchalik birinchi diagnostika qilish metodlari paydo bo‘la boshladi. Insonni diagnostika qilish, uning qobiliyatlarini rivojlantirish asosida xususiy maslahat beruvchi idoralar shakllandi. Bu Angliyada, AQShda, Fransiyada paydo bo‘ldi. G‘arbda bunday tizimni aniq tizimi shakllandi. U o‘ziga uchta bo‘limni qamrab oladi. Bular - maktab, mehnat birjasi va psixologik laboratoriyalardir. Bu uchta bo‘lim kasbga yo‘naltirish nazariyasini, aniq diagnostik usullarni, kasbni insonga talabini tahlil qilishni o‘zida qamrab oladi.

Kasb tanlashning birinchi nazariyalaridan biri bu F. Parsonsning uch omilli modeli bo‘lib, uning asosiy holatini F. Parsons 1908 yilda shakllantirdi. Kasbga yo‘naltirish ishining uchta fazasi uning asosiy g‘oyasini tashkil etadi:

3. Birinchi, kasbga da’vogarnining shaxsiy va psixologik qobiliyatlarini o‘rganish;

4. Ikkinchi, bu kasbni talablarini o‘rganish va ularni psixologik terminlarda shakllantirish;

5. Uchinchi, bu ikki tomonni taqqoslash asosida kasbni insonga qo‘yadigan talabini va insonni shu kasbga xos xususiyatlarini o‘rganiladi.

Bu nazariya o'tgan asrning 50-yillarigacha hukmron nazariya sifatida bo'ldi. Keyinchalik unga nisbatan tanqidlar ham paydo bo'ldi. Bunday holatning bo'lishi bu insonlarni kasb tanlashga qaratilgan testlarga qattiq berilganligi bo'ldi. Testlar orqali bildirilgan fikrlar qat'iy xukm sifatida qabul qilindi. Bunday izlanishlar va amaliy ishlanmalar kasb qo'ygan talablardan kelib chiqqan holda insonga ta'rif va xarakteristika sifatida berildi. Insondagi mavjud bo'lgan tabiiylik hisobga olinmadi. Insonning individual xislatlari, ya'ni uning tafakkuri, diqqati, xotirasi, reaksiyasining tezligi kabilar hisobga olinmadi. Bu yerda "inson – kasb" munosabati kasbdan kelib chiqqan holda insonga bo'lgan yo'nalish tarzida o'rganildi. Mana shular asosida kasb tanlash va kasbiy mashqlar amalga oshirildi.

Shuni aytish kerakki, kasb tanlashni uzoq vaqt davomida kasb va individuallik o'rtasidagi talablarni mosligini o'rganishni izlanish asosida o'rganib keldi. Bunday yondoshishni "diagnostik" yondoshuv deb nomlab, uni kasbiy maslahat va kasbga yo'naltirishga tegishli deb baholadilar. Shu bilan birga kasblar dunyosi o'zgaruvchanligi kasblarni insonga qo'yadigan talabi ham o'zgarib borishini unuttirdilar. Shu bilan birga insonning individualligi ham xuddi qotib qolgan, o'zgarmaydigan jarayon sifatida qaraldi. Lekin shuni aytish kerakki, qobiliyatlar statistika bilan bog'liq emas, balki bolani tarbiyalash va ta'lim berish bilan bog'liqdir. Bundan kelib chiqqan holda ay-tish kerakki, har qanday diagnostika bu "rivojlanish kesimini" ko'rsatadi xolos, u uzoq davom etadigan prognozni bermaydi.

Subyektning faoliyatidagi har qanday hayotiy o'zgarish, motivlarni o'zgarishlari uning qobiliyatlarini rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun qobiliyatni o'lchayotganda juda ehtiyotkorlik bilan uni tushuntirish va sharhlash kerak bo'ladi. Faqat shularga asosan kasbga yo'nalish berishga yo'l qo'ymaslik kerak.

Kasb tanlash uchun kerak bo'lgan qobiliyatlarni rivojlantirishga

kerak bo'ladigan testlar arsenalini psixologlarda mavjuddir. Masalan, R. Amtxauer ning testi uch parametrdagi – gumanitar, matematik va texnik sohada qobiliyatlarni ko'rsatib berishi mumkin.

Psixodiagnostika ayniqsa uni kasb bilan bog'liq jarayonlari yoshlarni o'zlarining layoqatlaridan kelib chiqqan holda kasb tanlashlari uchun muhim vosita hisoblanadi. Albatta faqat psixodiagnostik tomonlarga suyanish, ya'ni testlardan foydalanish, suhbatlar qilish, bolani o'z ustida ishlashi, atrofdagilarni bolaga ta'siri va shu kabi ko'plab omillar kasb tanlayotgan bolaga to'g'ri kasb tanlashlarida yo'l yo'riq berishda foydali hisoblanadi. Kasb tanlayotgan bolalarning ongi, bilimi, malakasi, qiziqishi, hayotiy ehtiyojlari uning faoliyatida yetarli ta'sirga ega bo'ladi.

Kasb psixologiyasi albatta o'z oldida turgan vazifalarni va majburiyatlarni o'tashda psixodiagnostikaga suyanadi. Uning imkoniyatlaridan keng foydalanadi.

Kasbiy maslahat berish uchun ishlatiladigan testlar.

Kasbiy maslahat – bu yoshlarni o'zlari qiziqqan kasblarini tanlab shu kasb bo'yicha tayyorgarlik ko'rishlari bilan bog'liq jarayondir. Kasbiy maslahat berish uchun esa shaxsni diagnostika qilinadi, ya'ni uning qiziqishlarini, intilishlarini, qobiliyatlari, layoqatlari testlar orqali sinalladi. Testlardan olingan ma'lumotlar asosida esa psixologlar o'z tavsiyalarini beradilar. Test – bu inson haqidagi ma'lumotlar olish, uni ma'lum bir yo'nalish bo'yicha imkoniyatlarini sinash hisoblanadi. Testlar o'tkazish orqali nafaqat ma'lumot olish balki, olingan natijalar asosida maslahatlar berishni va ma'lum kasblarga yo'nalishlar berishni ham o'ziga mujassamlab oladi. Bu yerda faqat testgina emas balki o'qituvchi o'quvchini kuzatishi, ish faoliyatlarini o'rganishi ham zarur bo'ladi. Bular ham kasbiy maslahat

berishda test kabi muhim hisoblanadi. Albatta testga qo'yiladigan talablar bunda o'z ifodasini topishi zarur.

Diagnostika testlar orqali inson haqida uning faoliyatlari haqida ma'lumotlar oladi. Diagnostika testlar, so'rovnomalar, treninglar orqali o'ziga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni yig'ib oladi. Psixodiagnostika testlar orqali kasb tanlovchining kasbga layoqatini tekshirib boradi. Bunga misol qilib Dj. Xollandni shaxsni psixologik tipini aniqlovchi va unga mos bo'lgan kasbni ko'rsatib beruvchi so'rovnomani, A.E. Golomshtokning "qiziqishlar kartasini", E.A. Klimovning Defferensial- diagnostik so'rovnomani, B.A. Fedorshenning "Kommunikativ va tashkiliy qiziqishlar", D. Bennetning testlari kabilarni ko'rsatish mumkin. Bunday testlarni o'tkazish yoshlarni imkoniyat va qiziqishlarini o'rganish bilan bog'liq bo'ladi. Insonni qiziqishlarini psixodiagnostika qilish ular bilan ishlash jarayonini yengillashtirib, ularga to'g'ri maslahatlar berishga olib keladi. Biz quyida A.E.Golomshtokning qiziqishlar xaritasini misol sifatida keltirdik.

Qiziqishlar xaritasi metodikasining savolnomasi (A.E.Golomshtok)

Qiziqishlaringiz sohasi va yo'nalishini aniqlashga qaratilgan quyidagi savollarning har birini did bilan o'qing va mumkin qadar aniq javob berishga harakat qiling. Agar savolda so'ralgan mazmun, sizga har tomonlama ma'qul tushsa va juda yoqsa, unda javob varaqasining tegishli katakchasiga ikkita plyus (++) belgisini qo'yasiz. Agar savol mazmuni shunchaki yoqsa, unda bitta plyus (+), agar yoqish yoqmasligini bilmasangiz yoki ikkilansangiz, unda nol (0) qo'yasiz. Agar savol mazmuni sizga ma'qul bo'lmasa, minus (-), agar juda yoqmasa, ya'ni bu faoliyatni yomon ko'rsangiz, unda ikkita minus (--) belgisini

qo‘yasiz. Vaqt chegarlanmagan, lekin diqqat bilan, savollarni tushirib qoldirmay, tez-tez o‘ylab javob bering. Diqqat, boshladik!

Quyidagi faoliyatlar bilan shug‘ullanishni yoqtirasizmi?

Havas qilasizmi? Istaysizmi?

1. O‘simliklar va hayvonlarning hayoti bilan shug‘ullanish, tanishish.

2. Geografiya darsligi, geografiyaga oid kitoblarni o‘qish.

3. Geologik ekspeditsiyalar haqidagi badiiy yoki ilmiy – ommabop adabiyotlar o‘qish.

4. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi darslari va shu sohaga oid darsliklar kitoblarni o‘qish.

5. Uy – ro‘zg‘or darslari yoki ro‘zg‘or ishlariga taalluqli vazifalar.

6. Fizikadagi yangi kashfiyotlar va buyuk fiziklarning hayoti, ijodi haqidagi ilmiy – ommabop adabiyotlar o‘qish.

7. Kimyo fanidagi yangi ixtirolar yoki buyuk kimyogarlarning hayoti va ijodi haqida o‘qish.

8. Texnika sohasidagi tegishli jurnallar o‘qish (masalan, “Sirli olam”, “Fan va turmush”).

9. Ilmiy - ommabop jurnallardagi elektronika va radiotexnika bo‘yicha yutuqlar va yangiliklar haqida maqolalar o‘qish.

10. Yog‘ochlarning har xil turlari va ularni amalda qo‘llash haqida bilish.

11. Har xil metallar va ularning xususiyatlari bilan tanishish.

12. Qurilish sohasidagi yutuqlarni bilish.

13. Har xil turdagi transport (avtomobil, temir yo‘l) haydovchilari haqidagi kitoblar o‘qish, filmlar ko‘rish.

14. Uchuvchi va kosmonavtlar haqida kitoblar o‘qish, filmlar ko‘rish.

15. Harbiy texnika bilan tanishish.

16. Tarixiy voqealar va tarixiy arboblar haqidagi kitoblar o‘qish.
17. O‘zbek va jahon adabiyoti klassiklarini o‘qish.
18. Gazeta va jurnallarning maqola va ocherklarini muhokama qilish.
19. Sinfda va maktabda bo‘layotgan ishlar va voqealarni muhokama qilish
20. Maktab hayoti (tarbiyachi, o‘qituvchi, sardorlarning faoliyati) haqida kitoblar o‘qish.
21. Militsiyaning faoliyati haqida filmlar ko‘rish, kitob o‘qish.
22. O‘qiyotgan, ishlayotgan yoki yashayotgan joyingizni chiroyli qilib bezash, narsalarni saramjonlash, tartibga keltirish.
23. “qiziqarli matematika”, “bosh qotirma” haqidagi maqola va kitoblar o‘qish.
24. Iqtisodiy geografiyani o‘rganish
25. Chet tili mashg‘uloti.
26. Buyuk rassomlar hayoti, tasviriy san’atning rivojlanish tarixi bilan tanishish.
27. Mashhur sahna va kino artistlarining hayoti bilan tanishish, ular bilan uchrashish, fotosuratlarini yig‘ish.
28. Mashhur musiqachilarning hayoti va ijodi bilan, musiqa san’ati nazariyasiga doir masalalar bilan tanishish va o‘rganish.
29. Sport va buyuk sportchilar haqida jurnal, gazeta, kitoblar o‘qish.
30. Biologiya, botanika, zoologiyani o‘rganish.
31. Geografik ixtirolar va ma’lumotlar orqali har xil mamlakatlar bilan tanishish.
32. Mashhur geologlarning hayoti va faoliyati haqida o‘qish.
33. Odamlar qanday qilib kasalliklar bilan kurashishini o‘rganganliklari haqida, vrachlar va tibbiyot sohasidagi yutuqlari haqida o‘qish.

34. Yengil sanoat korxonalariga ekskursiyaga borish.
35. “Fiziklar hazillashadi”, “Qiziqarli fizika” sohasida kitoblar o‘qish.
36. Tabiatdagi kimyoviy hodisalarni kuzatish, kimyodan tajribalar o‘tkazish, kimyoviy reaksiyalarni borishini kuzatish.
37. Zamonaviy texnikaning eng so‘nggi yutuqlari bilan tanishish (radio va teleko‘rsatuvlarni eshitib, ko‘rib, gazetalardagi maqolalarni o‘qib).
38. Radiotexnika to‘garaklariga qatnashish yoki elektrlarning ishi bilan tanishish.
39. Metallarga ishlov berishda ishlatiladigan har xil o‘lchov asboblari bilan tanishish, ular bilan ishlash.
40. Yog‘ochdan uy jihozlarini tayyorlash jarayonini kuzatish, mebellarning yangi namunalari ishlash.
41. Quruvchilar bilan uchrashish, ularning faoliyatini kuzatish.
42. Yo‘l harakati vositalari haqida ommabop adabiyotlarni o‘qish.
43. Dengizchilar haqida kitoblar o‘qish, filmlar ko‘rish.
44. Harbiy mazmundagi filmlarni ko‘rish, kitob o‘qish, katta to‘qnashuvlar va janglar tarixi bilan tanishish.
45. O‘zimizda va chet el miqiyosida bo‘layotgan siyosiy voqealarni muhokama etish.
46. Adabiy – tanqidiy maqolalarni o‘qish.
47. Radio va televizordan har xil yangiliklar va axborot ko‘rsatuvlarini eshitish va ko‘rish.
48. Tuman, shahar, respublikada bo‘layotgan kundalik voqealardan xabardor bo‘lish.
49. O‘rtoqlaringizga darslarni bajarishda yordam berish va tushuntirish ishlarini olib borish (agar o‘zlari qila olmasalar).
50. Do‘stlarning, tanishlarning yoki adabiy qahramonlarning qilmishlarini to‘g‘ri va haqqoniy tahlil etish va baholash.

51. Oilaning oziq – ovqat bilan ta’minlanishiga ahamiyat berish, sayohatlar chog’ida hamma uchun ovqatlanishni tashkil etish.

52. Matematika sohasidagi kashfiyotlar, buyuk matematiklar hayoti va faoliyati haqida ilmiy – ommabop adabiyotlarni o’qish.

53. Xalq xo’jaligi rejalarining bajarilishi bilan qiziqish.

54. Chet tilida badiiy adabiyotlarni o’qish.

55. Redkollegiya a’zosi bo’lish, gazetalarni badiiy bezash bilan shug’ullanish.

56. Drama teatri va yosh tomoshabinlar teatriga borish.

57. Opera va simfonik musiqalarni eshitish.

58. Sport musobaqalarini tomosha qilish, sportga doir radio va teleko’rsatuvlarni eshitish, ko’rish.

59. Biologiya to’garagiga qatnashish.

60. Geografiya to’garagida shug’ullanish.

61. Yerdagi minerallarning geografik tarqalishi haqida tasvirlar, ma’lumotlar yig’ish va xaritalar tuzish.

62. Odam organizmi xislatlarini, kasallikning paydo bo’lish sabablari va davolash usullarini o’rganish.

63. Pazandalik to’garagiga qatnashish, uyda ovqat tayyorlash.

64. Fizikadan tajribalar o’tkazish.

65. Eritmalarni tayyorlash, reaktivlarning og’irligini o’lchash.

66. Har xil mexanizm (soat, dazmol)larni yig’ish, tuzatish.

67. Aniq o’lchov asboblari (ossillograf, ampermetr, voltimetr)ni ishlatish, ular yordamida har xil hisoblarni olib borish.

68. Metaldan har xil detallar va buyumlar yasash.

69. Yog’ochdan har xil qismlar va ashyolar yasash.

70. Har xil imoratlarning eskizlarini, qurilishlarning chizmalarini bajarish.

80. Yosh temir yo’lchilar va yoki avtohavaskorlar to’garagiga qatnashish.

81. Parashutchilar seksiyasida, aviomodelchilar to‘garagida ishtirok etish yoki aviaklub ishida ishtirok etish.

82. O‘q yoy otish to‘garagida shug‘ullanish.

83. Har xil xalqlar va mamlakatlarning kelib chiqish tarixini o‘rganish.

84. Adabiyot fanidan sinf va uy insholari yozish.

85. O‘zga odamlarning harakatlari, xulqi va hayotini kuzatish.

86. Jamoat topshiriqlarini, biron bir ishni bajarish, tashkil etish uchun o‘rtoqlarni uyushtirish, birlashtirish.

87. Kichik yoshdagi bolalarga qarash, ularga kitob o‘qib berish, shug‘ullanish, har xil hikoyalar gapirib berish yoki biron bir ishda ularga ko‘maklashish.

88. Tengdoshlar va kichik bolalar orasida tartib va muntazam intizom o‘rnatish.

89. Sotuvchi, oshpaz, ofitsiantlarning faoliyatini kuzatish.

90. Matematika to‘garagida shug‘ullanish.

91. Ishlab chiqarishning rivojlanish masalalarini o‘rganish, ishlab chiqarish korxonalarida hisob – kitob va rejalash borasidagi yutuqlar haqida bilish.

92. Chet tilidagi lug‘atlar bilan ishlash, yaxshi tanish bo‘lmagan tilda o‘ziga xos murakkab nutq xususiyatlarini tahlil qilish.

93. Muzey va badiiy ko‘rgazmalarga borish.

94. Tomoshabinlar oldida, sahnada badiiy faoliyat ko‘rsatish.

95. Biron bir musiqiy asbobda o‘ynash.

96. Sport o‘yinlarini o‘ynash.

97. O‘simlik va hayvonlarning rivojlanishini kuzatib, yozib borish.

98. Mustaqil ravishdageorafik xaritalarni tuzish, har xil geografik ma‘lumotlarni to‘plash.

99. Geologiya muzeylari uchun ko‘rgazma materiallar, mineral to‘plami yig‘ish.

100. Vrach, hamshira, dorishunoslarning faoliyati bilan tanishish.
101. Bichish va tikish to‘garagiga qatnashish, o‘zingizga va oilangizga tikish.
102. Fizika to‘garagida shug‘ullanish yoki fizika bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlarga qatnashish.
103. Kimyo to‘garagida shug‘ullanish yoki kimyo bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlarga borish.
104. Texnika to‘garaklaridan birida shug‘ullanish (samalyot, dengiz kemalari, boshqa inshoot modelini yasash).
105. Elektr asboblari, apparatlari va har xil elektr mashinalarning tuzilishi bilan tanishish, ishni kuzatish har xil radiouskinalar va o‘lchov asboblari bilan shug‘ullanish.
106. Mehnat darslarida metallga ishlov berish ustaxonasida shug‘ullanish.
107. “Mohir qo‘llar” yoki yog‘ochga ishlov berish to‘garagida shug‘ullanish.
108. Qurilishda bo‘lish, qurilish jarayoni va bezash ishlarini kuzatish.
109. Transport va yo‘lovchilarning yo‘l harakati qoidalarini bajarishlarini kuzatish.
110. Eshkak eshuvchi, yelkanli qayiqchi, akvalangchi (g‘ovvoslar) to‘garaklarida va suvda cho‘kayotganlarni qutqarish brigadasida qatnashish.
111. Harbiy (masalan “shunqorlar”) o‘yinida ishtirok etish.
112. Tarix muzeylariga borish, madaniy obidalar va yodgorliklar bilan tanishish.
113. Adabiyot to‘garaklarida shug‘ullanish, adabiyotdan qo‘shimcha mashg‘ulotlarda ishtirok etish.
114. Shaxsiy kundalik tutish.
115. Xalqaro ahvol haqida sinfdan axborot berish.

116. Tarbiyachilik (masalan sardorlik) ishlarini bajarish.
117. Odamlarning xatti – harakatlari va odatda yashiradigan ba’zi bir xulqlarining sabablarini ochish.
118. Magazinda xaridorlarga kerakli buyumlarni tanlashda yordam berish.
119. Matematikadan qiyin masalalarni yechish. Pullik kirim – chiqimlarni aniq hisobini olish.
120. Chet tili to‘garaklarida shug‘ullanish yoki chet tilidan qo‘shimcha darslarda qatnashish.
121. Badiiy to‘garaklarda shug‘ullanish.
122. Badiiy – havaskorlik ko‘riklarida ishtirok etish.
123. Xorda ashula aytish yoki musiqa to‘garaklarida qatnashish.
124. Sport seksiyalarining birida ishtirok etish.
125. Biologiya olimpiadalarida qatnashish yoki o‘simliklar va hayvonlar ko‘rgazmasini tayyorlash. Geografik ekspeditsiyada qatnashish.
126. Geologik ekspeditsiyada qatnashish
127. Kasallarni ahvolini kuzatish, g‘amxo‘rlik qilish, tegishli yordam berish, ahvollarini yengillashtirish choralarini ko‘rish.
128. Oshpazlik va qandolatchilik ko‘rgazmalariga qatnashish borish.
129. Fizika olimpiadasida qatnashish.
130. Ximiyadan qiyin masalalarni yechish.
131. Texnik sxema va chizmalarni tahlil qilish, ularni mustaqil ravishda tuzish.
132. Murakkab radiosxemalarni tahlil qilish.
133. Ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalarga borish, uskuna va dastgohlarning yangi turlari bilan tanishish, ularda ishlash yoki ta’mirlash ishlarini kuzatish.
134. O‘z qo‘li bilan yog‘ochdan biror narsa yasash.
135. Qurilish ishlarida imkon darajada yordamlashish.
136. Avtomobil, trolleybuslarga xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash ishlarida baholi qudrat qatnashish.

137. Har qanday ob- havo sharoitida ham “tez yordam” samalyotlarini boshqarish.

138. Qat’iy o’rnatilgan tartib bo’yicha yashash, kun tartibiga qat’iy rioya qilish.

139. Tarix to’garagida shug’ullanish, tarixiy ma’lumotlarni to’plash, ma’ruzalar qilish.

140. Adabiyot manbalari bilan ishlash, o’qiganlarim haqida taassurotlarimni kundalikka yozib borish.

141. Munozaralarda va kitobxonlar konferensiyalarida qatnashish.

142. O’quvchilar jamoatchiligi yig’ilishi yoki majlislarini tayyorlash va o’tkazish.

143. Tarbiyasi yomon bolalarga ta’sir ko’rsatish, bolalar va o’smirlar tarbiyasi masalalari haqida kattalar bilan muhokama qilish.

144. Militsiya ishiga yordam berish, “militsiyaning yosh do’sti” to’garagiga a’zo bo’lish

145. Doim har xil odamlar bilan muloqotda aloqada bo’lish.

146. Matematika olimpiadalarida qatnashish.

147. Tovarlar va ularning narxini kelib chiqishini bilish, oylik maosh, mehnatni tashkillashtirishni tushunishga harakat qilish.

148. Do’stlarim bilan chet tilida gaplashish.

149. Ta’sviriy san’at ko’rgazmalarida qatnashish.

150. Teatr to’garagiga borish.

151. Teatr ko’rik – tanlovlarida qatnashish.

152. Sport musobaqalarida qatnashish.

153. Bog’da yoki tomorqada o’simliklarni o’stirish, hayvonlarni tarbiyalash va parvarish qilish.

154. Joylarni xaritaviy (topografik) ko’rinishda suratga olish.

155. Berilgan dastur bo’yicha murakkab va jiddiy topshiriqlarni bajarishga to’g’ri keladigan qiyin va uzoq muddatli sayohatlarga borish.

156. Shifoxona, poliklinika yoki dorixonadi ishlash.

157. Oziq - ovqat yoki yengil sanoat korxonasida mutaxassis bo'lib ishlash(tikuvchi, bichuvchi, qandolatchi).

158. Fizikadan qiyin masalalar yechish.

159. Kimyoviy ishlab chiqarish korxonasida ishlash.

160. Texnik ijodiyot ko'rgazmasida ishtirok etish.

161. Elektrenergetika yoki radioelektronika sohasida ishlash.

162. Dastgoh (stanok) da ishlash, har xil detallar, buyumlar tayyorlash.

163. Chizmalar asosida modellar, yog'ochsozlik ishlarini bajarish.

164. Qurilish brigadasida ishlash.

165. Yo'lovchi yoki yuklarni tashish, yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilish.

166. Bo'ronli ob - havoda katta daryo yoki ochiq dengizda ishlash.

167. Harbiy injener yoki qo'mondon bo'lish.

168. Ona diyorning tarixiy obidalariga sayohat qilish.

169. Hikoyalar, she'r yozish va masal to'qish.

170. Devoriy gazeta yoki davriy matbuot uchun maqola yoki xus-nixat yozish.

171. Mehnat shanbaligida birigadaga boshchilik qilish.

172. Kichik bolalar uchun o'yinlar, bayramlar tashkil etish.

173. Yuridik tashkilotlarda ishlash (sud, prokuratura, advokatura, huquqiy maslahatxonalarda).

174. Odamlarga har xil katta kichik xizmatlar ko'rsatish.

175. Har doim matematik bilimlar talab qiladigan ishlarni bajarish.

176. Xalq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy, rejalashtirilishi va moliyaviy ta'minlanishi sohasida ishlash.

177. Chet tilidan olimpiada, tanlov va konferensiyalarda qatnashish.

178. Tasviriy san'at ko'rgazmalarida ishtirok etish.

179. Sahnada yoki kinoda o'ynash.

180. Musiqachi, musiqiy rejissiyor yoki musiqa darsidan o'qituvchi bo'lish.

Kasbiy faoliyat sohalari	Darajalar	Ball	Qiziqishlarning ifodalanligi
	yuqori	≥8	
	O‘rtachadan yuqori	5-7	
Natijalar	O‘rtacha	1-4	
	Past	≤(-6	
O‘rtachadan past		(-5)-0	
1.Biologiya			
2.Geografiya			
3.Geologiya			
4.Meditsina			
5.Oziq –ovqat va yengil sanoat			
6.Fizika			
7. Kimyo			
8.Texnika			
9. Elektoradio-texnika			
10. Metall. ishl. berish			
11.Duradigolrlik san’ati			
12. Qurilish			
13. Transport			
14. Aviats.daryo vadeng.trasporti			
15.Harbiy mutaxassislik			
16.Tarix			
17.Adabiyot			
18.Jurnalistika			
19.Ijtimoiy faoliyat			
20. Pedagogika			

21. X u q u q . Yuristprudensiya							
22. Savdo va xizmat							
23. Matematika							
24. Iqtisod							
25. Chet tillar							
26. Tasviriy san'at							
27. Sahna san'ati							
28. Musiqa							
29. Fizkultura va sport.							
		0 -2.0	2.1- 4.0	4.1 -8.0	8.1- 10.0	10.1-12	

Takrorlash uchun savollar

1. Kasb psixologiyasi fani, ta'lim muhiti va psixodiagnostik faoliyat.
2. Psixodiagnostika va kasb psixologiyasi masalalari.
3. Kasbiy maslahat berish uchun ishlatiladigan testlar.
4. Psixodiagnostik izlanishlarning ahamiyati.
5. Kasb psixologiyasi fani va psixodiagnostikaning o'zaro aloqasi.

1.Biologiya							Qiziqishlarning ifodalanganligi
2.Geografiya							
3.Geologiya							
4.Meditsina							
5.Oziq –ovqat va yengil sanoat							
6.Fizika							
7. Kimyo							
8.Texnika							
9.Elektro-radio-texnika							
10.Metall.ishl. berish							
11.Duradigolrlik san'ati							
12. Qurilish							
13. Transport							
14.Aviats.daryo vadeng trasporti							
15.Harbiy mutaxassislik							
16.Tarix							
17.Adabiyot							
18.Jurnalistika							
19. Ijtimoiy faoliyat							
20. Pedagogika							
21. X u q u q . Yuristprudensiya							
22. Savdo va xizmat							
23. Matematika							
24.Iqtisod							
25.Chet tillar							
26. Tasviriy san'at							
27.Sahna san'ati							
28. Musiqa							
29.Fizkultura va sport.							
		0 -2.0	2.1- 4.0	4.1 -8.0	8.1- 10.0	10.1- 12	

Takrorlash uchun savollar

1. Kasb psixologiyasi fani, ta'lim muhiti va psixodiagnostik faoliyat.
2. Psixodiagnostika va kasb psixologiyasi masalalari.
3. Kasbiy maslahat berish uchun ishlatiladigan testlar.
4. Psixodiagnostik izlanishlarning ahamiyati.
5. Kasb psixologiyasi fani va psixodiagnostikaning o'zaro aloqasi.

III Bob. Kasb psixologiyasi va o‘quv motivlari muammolari

3.1. Kasb tanlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar va motivatsiya

Kasb tanlash va unga ta’sir etuvchi omillar. Kasb tanlash va shaxs motivlari. Kasb tanlashda ta’sir etuvchi omillar. Inson qiziqishi, ehtiyoji, manfaati va yaxshi yashash orzusi

Kasb tanlash jarayoni – bu ijtimoiy foydali jarayon bo‘lib insonni o‘zi tanlagan kasbi orqali jamiyatga qo‘shadigan his-sasi hisoblanadi. Kasb tanlash bu insonni o‘zini anglash jarayoni bilan bog‘liqdir. Chunki inson o‘zini katta bo‘lib borishini anglaydi va kelajakda ma’lum bir kasb bo‘yicha ishlashi zarurligini sezadi. Bu tanlagan kasbi insonni qoniqtirishi, ehtiyojlarini qondirishi va kelajak hayoti uchun asos bo‘lishini anglashi orqali yuz beradi. Bu jarayonni dunyoni ko‘plab psixolog mutafakkirlari o‘rganganlar.


Kasb tanlash bu o‘ziga xos bo‘lgan murakkab jarayon bo‘lib, u inson va uning psixologik, fiziologik, ijtimoiy, moddiy imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Kasb tanlashning ortida inson yotadi – bu uning ehtiyojlari, manfaatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va o‘ziga xos psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu fikr har bir kasb tanlovchining psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda individual yondoshish kerakligini anglatadi.

Kasb tanlovchilarning kasb tanlashlariga ko‘pgina omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bunda birinchi o‘rinda shaxsning kasbga bo‘lgan ehtiyoji, uning motivlari, layoqati, qiziqishi, iqtidori va qobiliyati kabilar turadi. Yana shuni aytish kerakki, kasb tanlashda insonning jinsiga asosan ham kasblarga yo‘naltirish muhim hisoblanadi. Bu kabi omillarni hisobga olgan holda o‘quvchilarni kasb tanlashlariga

yoʻnalish berish oʻziga xos tomonlarda koʻzga tashlanadi. Bu kasbiy maorif yoki kasblar haqidagi bilimlar berish hisoblanadi. Bunda oʻquvchilarni kasbning mohiyati, har bir kasbni inson oldiga qoʻyadigan talablari va vazifalari, jamiyatga kerakli darajalari kabi bilan tanishtiriladi. Kasb maorifi insonni yoshi, jinsi, saviyasi, bilimlari, aql – farosati kabi tomonlarga asosan xilma xil tarzda amalga oshiriladi.

Kasb tanlashga yana oʻquvchilarga kasbiy maslahatlarning ham ahamiyati kattadir. Kasbiy maslahat oʻquvchilarni kasb tanlashlarida, bu kasbni mohiyatini va maqsadlarini ularning ongiga chuqur yetkazib berish va ularda maʼlum bir qiziqishni shakllantirish bilan bogʻliq jarayon hisoblanadi. Kasbiy maslahat bu shaxsning ishtiyoqi, havasi, intilishi, qobiliyatlariga mos kasb - hunarni tanlashlari uchun muhim obyektiv va subyektiv sharoitlar yaratish bilan bogʻliq jarayon hisoblanadi.

Shaxs tomonidan biror bir kasbni tanlash uning bilimlaridan kelib chiqqan holdagi motivlarga bogʻliq boʻladi. Motiv deganda nimani tushunamiz? Motivlar haqida juda koʻplab taʼriflar berilgan. Motiv lotincha soʻz boʻlib *movere* - harakatga keltiruvchi, undovchi degan maʼnoni bildiradi. Motiv subyektning ehtiyojlarini qondirish bilan bogʻliq boʻlgan faoliyatga undovchi xatti – harakatlardir. Tashqi va ichki sharoitlarning yigʻindisi sifatida subyektni maʼlum bir faoliyatga faolligini chaqiruvchi yoʻnalishdir. [36,218.] Motivatsiya hayotiy muhim ahamiyatga ega boʻlgan tabiiy va ijtimoiy shart – sharoitlarga, jismlarga xulq - atvorni yoʻnaltiruvchi qoʻzgʻatuvchi tariqasida baholanishi mumkin. Insonni ehtiyojlaridan kelib chiqib uning koʻplab motivlarini ajratish mumkin. Motivlarni E.Gʻoziev va A. Jabborovlar tavsiyasicha quyidagi koʻrinishlarini koʻrsatish mumkin. [35,42-43.]



9-chizma

Bizningcha, kasbiy (professional) motivlar quyidagi guruhlarga bo'linadi deb ko'rsatadilar yuqoridagi avtorlar. 1) ijtimoiy motivlar; 2) jamoaviy motivlar; 3) protsessual motivlar; 4) rag'batlantiruvchi motivlar va boshqalar.

O'quvchilarni kasb tanlashiga oid ko'plab fikrlar mavjud. Shunday fikrlardan biri E.A.Klimovga tegishlidir. U kasb tanlashni uchta tomonini ajratib ko'rsatadi.

1. Shu kasbda ishlashni istash (xohlayman).
2. Kasbni egallashga bo'lgan qobiliyat, imkoniyatlarni hisobga olish va keyinchalik yaxshi natijaga erishish (bajara olaman).
3. Tanlagan kasbga xalq xo'jaligini ehtiyojlarini hisobga olish (kerak).

Shuningdek, E.A.Klimov tomonidan kasb tanlashning aniq omillari ham ajratiladi.

Bular quyidagilar:

- 1.Oʻzni qiziqish va xohishlarini hisobga olish;
- 2.Oʻzidagi qobiliyatlarni hisobga olish;
- 3.Kasb haqida maʼlumotlarga ega boʻlish;
- 4.Ota - onaning fikrlarini hisobga olish;
- 5.Sinfdoshlarini, tengdoshlarini, oʻrtoqlarini fikrlarini hisobga olish;
- 7.Ishlab chiqarish bozorini hisobga olish;
- 8.Maʼlum bir kasbni tayyorlash boʻyicha dasturlarning mavjudligini hisobga olish.

A.I.Zelichenko va A.G.Shmelevlar kasb tanlashning ichki va tashqi faktorlarini koʻrsatib u yoki bu kasbni tayyorlashning motivlarini asoslab beradilar.Kasb tanlashga taʼsir etuvchi motivlarni tashqi va ichki omillarga boʻlib koʻrsatish mumkin. Bular quyidagicha koʻrinishga ega:

Tashqi motivatsion faktorlar:

1) Kasb tanlashda insonga oʻtkaziladigan **bosimlar**: tavsiyalar, maslahatlar, boshqa kishilar tomonidan koʻrsatilgan yoʻl - yoʻriqlar, shuningdek insonga oʻz taʼsirini koʻrsatuvchi kinodagi, adabiyotdagi qahramonlar; obyektiv xarakterga ega boʻlgan talablar (armiyada xizmat qilish, oilaning moddiy holati va shu kabilar

2) Insonni oʻziga tortib oluvchi va oʻzidan itaruvchi faoliyat turlari: tashqarida oʻrab turgan odamlarning “ijtimoiy yutuq” etalonlarining birligi (moda, obroʻ, xurofot...).

3) Inersiya: boshlangʻich ijtimoiy rollar stereotipi (oilaviy, neformal guruh aʼzosi...); odatiy mashgʻulotlar (maktabda oʻtiladigan fanlar asosida shakllanadigan, mashgʻulotlar va shu kabilar).

Ichki motivatsion faktorlar:

a. Kasbning xususiy motivatsion faktorlari: mehnat quroli, mehnat jarayoni (yoqimli – yoqimsiz, estetik tomonlari, faoliyatning

bir xilligi yoki har xilligi, yutuqning doimiyligi – ehtimoli, ish faoliyatining yengil – og‘irligi, mehnatning individualligi va kollektivligi, shu mehnatda kishini rivojlanishga yaratiladigan imkoniyatlar).

b. Mehnat sharoitlari: jismoniy (ishni iqlimga xos xarakteristika-si); hududiy geografik (ishni yaqin joyda joylashganligi); tashkiliy sharoiti (mustaqil bo‘lishi – bo‘yinsunishi, mehnatni baholashdagi obyektivlik va subyektivlik); ijtimoiy sharoit (ishni qiyinligi – yengilligi, kasbiy ma’lumot, ishga joylashishni osonligi, ishning ishonchliligi, ish rejimining erkinligi – cheklanganligi, ijtimoiy mikroklimat).

d. Kasbdan tashqarigi maqsadlarni amalga oshirishni imkoniyatlari borligi: ijtimoiy ishlarga imkoniyatni borligi, o‘zi xohlagan ijtimoiy obro‘ga ega bo‘lishi, moddiy ta’minlanganlikni yaxshiligi, dam olish va ma’lum bir narsalar bilan shug‘ullanishga imkoniyatlarni borligi, sog‘ligini saqlash va mustahkamlash uchun imkoniyatni borligi, muloqotga kirishish uchun imkoniyatni bo‘lishi.

Inson hayotida qiziqishning o‘rni va ahamiyati kattadir. Kasb tanlashda, shu kasbga yo‘naltirishda insonni qiziqishlari asosiy motivlardan biri hisoblanadi. Inson ma’lum bir qiziqishlari paydo bo‘lishi uchun unda ma’lum bir psixologik jarayonlar yuz beradi. Bolalikda u kattalarni kuzatar ekan o‘zida ma’lum bir jarayonlarga, shu jarayonlarda sodir bo‘ladigan hodisalarga havas, orzu, intilish paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘zining o‘yinlarida shu jarayonlarni takrorlab o‘yinlar o‘ynab boradi. Shular asosida bolalarda qiziqish va intilishlar paydo bo‘ladi. Qiziqish shaxsning muhim psixologik xususiyatlaridan birini tashkil etadi. Qiziqishda insonga xos bo‘lgan individual – psixologik xususiyatlar mujassamlashgan bo‘ladi. **Qiziqish** – bu insonni ehtiyojlaridan, manfaatlaridan kelib chiqqan holda, uning dunyoqarashi, bilimlari asosida insonga xos bo‘lgan orzu havaslari, intilishlari bilan bog‘liq bo‘lgan psi-

xologik jarayondir. Qiziqish bilimlarning ongli, puxta va barqaror, anglangan holda o'zlashtirishda shaxs qobiliyati rivojlanishiga, dunyoni mukammalroq tushunishga, bilim saviyasini kengayishiga yordam beradi.

Insondagi qiziqish eng avvalo uning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Inson biror narsaga ehtiyoj sezsa shu obyektga o'zining diqqatini qaratadi. Obyekt o'zining zarurligi bilan insonni diqqatini tortadi va unga ma'lum bir ehtiyoj sezib boradi. Insonni diqqatini tortgan shu obyekt inson hayot faoliyati uchun qiziqarli bo'lsa, uning ehtiyojini qondirsa, demak shu obyekt insonni intilishiga sabab bo'ladi.

Motivatsiya to'g'risida umumiy tushuncha

Motivatsiya psixologik voqelik sifatida. Motiv va motivatsiya metodologiyasi. Kasb tanlash va motivlar

Motiv haqida juda ko'plab ta'riflar berilgan va ularning har biri o'zicha to'g'ri hisoblanadi. Motiv bu insonni hayot faoliyati bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Inson shug'ullanayotgan xilma - xil faoliyat turlari aynan uning motivlari bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek inson biror kasbni egallashi uchun uni shu kasbga intiltirib turuvchi motivlar, qiziqishlar bo'lishi zarur bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, insonni faoliyati uning shu faoliyatga yetaklab boruvchi motivlar bilan bog'liq bo'ladi. Inson yuqorida ko'rsatganimizdek ehtiyojlardan kelib chiqqan holda o'z maqsadlari asosida ma'lum bir faoliyat turlari bilan shug'ullanadi. Bu esa inson shug'ullanayotgan faoliyat uning ehtiyojlari va undan kelib chiqqan holda faoliyatga undovchi motivlardan kelib chiqishini ko'rsatadi. Shunday qilib motiv – faoliyatga undovchi, maqsad esa – insonni ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanish orqali o'z ehtiyojlarini qondirishni vujudga keltirish hisoblanadi. Kasb tanlashda o'quvchini anglangan motivlari uni

ma'lum bir kasbni aniq tanlab olishiga sabab bo'ladi. Bu yo'lda har doim shunday bo'lmaydi. O'quvchi ma'lum kasbni tanlash davomida maqsadlaridan kelib chiqqan holda yaqin, qisqa va uzoq davom etadigan motivlarga duch keladi.

Insonni kasbni to'g'ri tanlashi uning hayotiy jarayonlarini to'g'ri tanlab olishiga juda katta ta'sir etadi. O'quvchini yoki kasb tanlayotgan insonni o'ziga yoqqan kasbini o'z qiziqish, ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan holda tanlab olishi o'z hayot faoliyatini deyarli to'g'ri belgilaganligini bildiradi. Kasbni to'g'ri tanlash – bu uzoq davom etadigan hayotiy jarayondir. Bu jarayonni natijaliligi insonni psixologik imkoniyatlarini kasb faoliyati talablari va mohiyati bilan mos kelganda ko'rish mumkin. Shuningdek shaxsni o'z kasbiy karerasini ta'minlashdagi ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlar va unga moslashish qobiliyatlari bilan ham bog'liqdir. Bizga ma'lumki kasb tanlashga juda ko'plab omillar ta'sir etadi.

Shuni aytish kerakki, kasb tanlash eng avvalo o'qish jarayoni bilan bog'liqdir. O'qish faoliyatini tashkil etish bilan o'sib kelayotgan yoshlarni kasb tanlashlashlari uzviy bog'liqdir. Yoshlarni qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olish va o'qishni tashkil qilinishi yaxshi, sifatli, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning asosi hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, shaxsni yo'naltirilgan ma'lumot olishi L.S. Vigotskiyning nazariy fikrlarida o'z ifodasini topgan.

Bular quyidagilarda ko'rinadi:

1) Tarbiya jarayonining asosida o'quvchining ijobiy faoliyati bo'lishi kerak va tarbiyalovchining butun san'ati shunga qaratilgan bo'lishi va faoliyatni boshqarib turilishi zarurdir.

2) Tarbiyalanuvchining shaxsiy malakasi pedagogik ishning asosi bo'lishi kerak.

3) Agarda o'qituvchining ta'siri bolaga kuchsiz bo'lsa, u holda maxsus muhit orqali unga kuchli ta'sir etish zarur

4) Tarbiya o'quvchining ottirgan shaxsiy malakasi orqali amalga oshiriladi. Bu muhit bilan belgilanadi va o'qituvchining roli muhitni tashkil etish va boshqarishdan iborat.

A.I.Gebos yoshlarni o'qishga bo'lgan ijobiy motivlariga quyidagilarni kiritadi:

- * O'qishning yaqin va oxirgi natijalarini anglashida;
- * O'zlashtirilayotgan bilimlarni nazariy va amaliy ahamiyatini anglashda;
- * o'quv materiallarini hissiy shakllarda tushuntirib berish;
- * Ilmiy tushunchalarni "kelajak yo'nalishida" tushuntirib berish;
- * o'quv faoliyatini kasbiy yo'nalish asosida olib borish;
- * o'quv faoliyatida muammoviy holatlarni yuzaga keltiradigan vazifalarni tanlay olish;
- * o'quv guruhlaridagi qiziquvchilar va "bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik iqlimni" shakllantirishda.

Kasb tanlanishda o'quvchining qaysi kasbga qiziqishini va nima uchun shu kasbni tanlaganini quyidagi tomonlar bilan sinab olish mumkin bo'ladi. Alohida kartochkaga hukm tarzida tanlangan kasbni (o'qishni) motivlarini yozib chiqish kerak. Bu yozib chiqilgan motivlarni o'quvchiga bo'lib chiqishni tavsiya etish kerak. Bu quyidagi tomonlarni o'zida aks etdirgan bo'ladi: a) o'zi uchun ahamiyatliligi qarang besh guruhga bo'lish; b) umumiy belgilardan o'zi uchun ahamiyatliroq bo'lgan 10 tasini ajratib olish. Bunda quyidagi motivlar soni beriladi:

1. O'quvchi yaxshi o'qishi kerak.
2. Men o'qituvchini aytganlarini aniq va tez bajarishga intilaman.
3. Men sinf oldida o'qishimga javob berishni tushunaman.
3. Maktabni tugatganimdan kegin men o'qishni davom etdiraman.
4. Yaxshi mutaxassis bo'lish uchun yaxshi bilimlarga ega bo'lish kerak bo'ladi.

5. Odamlar men bilan qiziqib muloqot qilishni xohlovchi inson bo‘lmoqchiman.

6. Yaxshi baholar olmoqchiman.

7. O‘qituvchi va ota - onamdan maqtoqlar eshitmoqchiman.

8. Men sinfda yuqori reytingga ega bo‘lmoqchiman.

9. Sinfning eng yaxshi o‘quvchisi bo‘lmoqchiman.

10. Meni javoblarim sinfda eng yaxshi javob bo‘lishini xohlayman.

11. Darsdan tashqari meni qiziqtiradigan fan bo‘yicha qo‘shimcha darslar olmoqchiman.

12. Sinfni o‘zimni yomon o‘qishim bilan orqaga tortmoqchi emasman.

13. Yomon o‘qishim uchun sinfda va uyda urushishlarni xohlayman.

14. Yomon baholar olmoqchi emasman.

15. Menga matematika darslari yoqadi.

16. Menga tarix, adabiyot, til va boshqa fanlar yoqadi

17. Menga o‘qituvchini yangi fikrlar asosida darsni tushuntirib berishi yoqadi.

18. Dars yangi va qiziqarli bo‘lishini xohlayman.

19. Qiyin masalalarni yechishni yoqtiraman.

20. Darsda gapirilayotgan mavzu bo‘yicha muhokama qilishni yoqtiraman.

21. Darsda qiyinchiliklarni yengib o‘tishni yaxshi ko‘raman.

22. O‘qituvchi seni yutuqlaringni ko‘rib, to‘g‘ri baholashini yaxshi ko‘raman.

23. O‘qituvchi har bir o‘quvchini yutuqlarini ko‘rishi bu juda yaxshi hodisa.

24. O‘qituvchini darsni har xil tashkil etishi juda zo‘r.

Bular asosida natijalar tahlili:

1– 15- ijtimoiy motivlar

6– 25 – o‘quv motivlari

1 – 3 – javobgarlik va burch motivi

4– 6 – o‘zini rivojlantirish va o‘zini belgilay olish motivi

7 – 9 – o‘z yutuqlarini oshirish motivi.

10 – 12 – obro‘ motivi

13 – 15 – noqulaylikdan qochish motivi

16 – 18 - dars mohiyati motivlari

19 – 21 – o‘quv jarayoni motivlari

22 – 25 - rag‘batlantirish motivi

Bu test savolida kasbni tanlagan insonni nima uchun shu kasbni tanlaganligi aniqlanadi. Bunda uni to‘g‘ri tanlaganligi yoki kimlarningdir ta’sirida shu narsa amalga oshganligi ko‘zga tashlanadi.

Takrorlash uchun savollar

1 . Kasb tanlash va unga ta’sir etuvchi omillar.

2. Kasb tanlash va shaxs motivlari.

3. Kasb tanlashda ta’sir etuvchi omillar. Inson qiziqishi, ehtiyoji, manfaati va yaxshi yashash orzusi.

4. Motivatsiya to‘g‘risida umumiy tushuncha.

5. Motivatsiya psixologik voqelik sifatida.

6.Motiv va motivatsiya metodolgiyasi. Kasb tanlash va motivlar.

3.2. Kasbga yo‘naltirishda o‘quv faoliyati va kasb motivatsiyasi **Kasb tanlash va o‘quv faoliyati**

Kasb tanlash bu murakkab va javobgarlik bilan bog‘liq psixologik jarayondir. Kasb tanlayotgan inson o‘zidagi mavjud subyektiv imkoniyatlar va tashqaridan unga o‘z ta’sirini o‘tkazayotgan obyektiv tomonlar asosida kasbni tanlaydi. Kasb tanlash haqidagi fikrlarimizda insonning eng birinchi muhim omili bu undagi bilim va malakalar tizimi ekanligini yuqorida ko‘rsatgan edik. Yoshlarni kasb tanlashlari bu

ularning maktabdagi olgan bilimlari, kuzatishlari orqali olgan malakalari, ko'nikmalari asosida sodir bo'ladi. Yoshlarda bilim bo'lmasa ular uchun qaysi kasbni egallash ham bar bir bo'lib qoladi. Chunki ular bu kasbga umuman qiziqmaydilar va unga intilmaydilar ham.

Bu kabi misollar kasb tanlashda o'quv faoliyati eng muhim tomonlardan hisoblanishini kuzatishlari mumkin bo'ladi. Kasb tanlashda o'quv faoliyatini tushunish uchun o'quv faoliyatini o'zi nima va u qanday tizimga ega degan masalalar turadi.

Kasb tanlash uchun ham xuddi inson faoliyatini boshqa jabhalari kabi bilim, malaka, ko'nikma va shu ish faoliyatini bajara olishni uddalash kabi jarayonlar talab qilinadi. Kasbiy ta'lim bu maxsus ta'lim berish yo'nalishiga taalluqli bo'lib, u kasbiy – texnik, o'rta va oliy ta'lim tizimida olinishi mumkin.

Kasbiy ta'lim ma'lum bir kasblarga tegishli bo'lgan bilimlarni, malakalarni o'zlashtirish orqali sodir bo'ladi. Deylik, yengil sanoatda kasb - hunar kollejlarida o'qitilayotgan talabalarni matolar to'qishga, ulardan insonlarga xushbichim kiyim – kechaklar tikishni, to'quv mashinalarini ta'mirlovchi ustalarni tarbiyalashda ko'zga tashlanadi. Oliygozlarda esa shu sohani yaxshi bilgan ularni ijodiy rivojlantira oladigan mutaxassislar yaratiladi. Bunga misol qilib, pedagoglarni, psixologlarni, vrachlarni va boshqa kasb egalarini ko'rsatish mumkin. Shunday qilib aytish mumkinki, kasbiy ta'limda kasbni boshlang'ich, o'rta va oliy darajadagi ko'rinishlari yaratiladi.

Kasbiy ta'lim bu kasbni egallashga qaratilgan bo'lishi va quyidagi yo'nalishlarda izlanishlar olib borishi kerak Bu izlanishlar kasbiy tayyorgarlik muammolari, o'zi uchun kasbni aniqlab olish yoki kasb tanlash, kasbiy o'z - o'zini anglash, subyektni kasbiy rivojlanish etaplarini tahlil qilish, bu jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan psixologik muammolarini o'rganib borish.

Kasbiy ta'limni tashkil qilish bir qancha tamoillarga (prinsiplar) bo'ysinishi kerak.

1. Kasbiy ta'lim tamoyillarini hozirgi zamon maxsus ta'lim tendensiyalariga mos tushishi kerakligi.

2. Kasbiy ta'limni fundamentallashtirish tamoili bilim, dunyonaqarashlarni shakllantirish, bilimlar tizimini o'zlashtirish masalalarini o'zida qamrab olish.

3. Kasbiy ta'limni individuallashtirish tamoili – bu u yoki bu kasbni namoyondasini kasbga xos bo'lgan xususiyatlarni shakllantirish muammolarini o'rganishni talab qiladi.

Shunday qilib aytish mumkinki, kasbiy ta'lim psixologik fanlarni yo'nalishlaridan biri bo'lib, pedagogik psixologiya tarkibida shakllanadi. Kasbga o'qitish orqali maxsus kasbga xos bo'lgan bilimlar, malakalar, uddalay olish kabi tomonlarni butun hayoti davomida (kasbni egallash, kasbiy mahoratga ega bo'lish, karera qilishni rivojlantirish, kasbiy o'sib borish) larni egallab boradi.

Kasb tanlash va o'quv faoliyati o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan faoliyat hisoblanadi. Kasb tanlash uchun kasb tanlayotgan inson albatta bilimlarga ega bo'lishi, bu bilimlarni o'zlashtirgan bo'lishi shart hisoblanadi. Yuqorida aytganimizdek kasb tanlayotgan inson bilimlarsiz hech qanday kasbni egallay olmaydi. Kasbga xos bilimlarni o'zlashtirish, o'qitishni tashkil qilish, bu bilimlarni kasb tanlovchiga yetkazib bera olishlik kabi tomonlar kasb tanlashda eng muhim tomonlardan hisoblanadi. Bu esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi sodir bo'ladigan o'zaro muloqotlar natijasida yuzaga kelaydi. Kasb tanlash va o'quv faoliyati bir qancha omillarga bog'liq bo'lar ekan. Eng avvalo kasb tanlovchining o'zligini anglashi, o'ziga baho bera olishi, o'zini tutgan o'rnini to'g'ri belgilay olishi, oldiga qo'ygan maqsad va manfaatlarini ko'z oldiga keltira olishi kabi qator masalalar bilan bog'liq bo'ladi. Keyingi omil jamiyatni kasbga bo'lgan ehtiyoji

bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, bu bilimlarni yetkazib berayotgan kadrlar ham juda katta o‘rin egallaydi. Kasb tanlash va o‘quv faoliyati o‘zaro ta’sirda bo‘lib ko‘proq insonni o‘ziga bog‘liq bo‘ladi. Insondagi subyektiv tomonlar uni kasb tanlashiga olib keladi, lekin bularni o‘quv faoliyatisiz tasavvur qilish mumkin emas.

O‘zbekistonda o‘qish uchun tayyorlanayotgan sharoitlar, kadrlarni tayyorlashga berilayotgan e’tibor, o‘quv sharoitlarini tubdan o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lgan islohotlar, yangi kadrlarni yaratishga qaratilgandir. Bu sohada o‘qitishning yangi usullarini tadbqiq qilish, kadrlarni o‘ylovchi, aql bilan ishlovchi qilib tarbiyalash eng muhim tamoillardan hisoblanadi. Kadrlar tayyorlashda ularni berilayotgan bilimlarni va malakalarni o‘zlashtira oladigan va tez qarorlar qabul qiladigan, chuqur bilimga ega bo‘lgan qilib tayyorlash juda zarurdir.

Kasb tanlash va o‘quv faoliyati o‘zaro ta’sirda va birlikda bo‘lganda jamiyat uchun kerakli bo‘lgan kadrlar yaratish masalasi hal etilib boriladi. Bunda asosiy omillar bo‘lib kasb tanlovchi, o‘qituvchi, jamiyat manfaatlari yotadi.

O‘quv motivlari diagnostikasi

Kasb tanlashda o‘quv motivlarini diagnostika qilish, o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan munosabatini bilishga olib keladi. O‘quv motivlarini diagnostika qilish o‘quvchini kasb tanlash davomida qaysi kasbga qiziqishini, shu kasbga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni bor yoki yo‘qligini aniqlab berishga yordam beradi. O‘quv motivlarini diagnostika qilish kuzatishga, faoliyatlarni o‘rganishga, savol – javobga va asosan test savollariga suyanadi. Maktabda o‘qishni muvaffaqiyatlilikini diagnostika qilish uchun har xil mutaxassislar tomonidan testlar ishlab chiqilgan bo‘lib, uni o‘quv faoliyatlaridagi yutuqlarni o‘rganuvchi testlar, yutuqli testlar, didaktik testlar va hatto

o'qituvchi testlari (bunda o'qituvchi o'zlashtirishni sinash uchun suhbat va so'rov metodlaridan foydalanadi) deb atash mumkin.

Amerikalik psixolog A. Anastazi aytganidek soni jihatidan bu testlar birinchi o'rinda turadi. Muvaffaqiyatga qaratilgan testlar asosan o'quv motivlarini diagnostika qilishga qaratilgan bo'lib, o'quvchini aniq bilimlar bilan yoki ma'lum o'quv fanini muvaffaqiyatli o'zlashtirishni ko'rsatib beradi. Bunda qo'yilgan bahoga nisbatan uning bilimi qanchalik obyektiv ekanligi aniqlanadi.

O'quv motivlari diagnostikasi – bu o'quvchini o'qishga bo'lgan munosabatini harakatga keltiruvchi jarayonlarni o'rganadi. Bundan kelib chiqqan holda motivlarga ozgina bo'lsa-da to'xtab o'tamiz. Motiv – bu ma'lum bir harakatga undovchi anglangan qo'zg'atuvchilar hisoblanadi. Bunda inson o'zini holatini, sharoitini, imkoniyatlarini baholaydi, maqsadlaridan va manfaatlaridan kelib chiqqan holda hayotiy harakatga kirishadi. Motiv – bu harakatga undovchi sifatida, harakatning asosi sifatida bo'lishi uchun uning o'zi shakllangan bo'lishi kerak.

O'quv faoliyati motivlari haqida alohida gapirish joiz, chunki faoliyatning alohida ko'rinishi sifatida u bilim, malaka, ko'nikmalarni o'rgatish, o'zlashtirishnigina emas, balki shu narsalar uning maqsadi sifatida namoyon bo'ladi.

Ongli o'qishning asosiy motivlari bo'lib uning vazifalarini anglash bilan bog'liq bo'lgan va kelajak faoliyatga yoshlarni tayyorgarlik ko'rish jarayonlari hisoblanadi. Chunki o'qish – bu insoniyat yaratgan bilimlarni, dunyoni bilish, bilimlarni bilishga bo'lgan qiziqishlar kabi o'ziga xos insonning intilishlari orqali yuz beradi. Lekin shu bilan birga o'qish motivlari bo'lib bir qancha jarayonlar ko'zga tashlanadi. Bu o'z kuchini va qobiliyatlarini ko'rsata olishda, sinfda o'z bilimlarini namoyish qilishda ekzamen va tekshirishda o'quvchi uchun shaxsiy muammo bo'lib ko'rinadi.

O'qish jarayoni vazifalar tizimi yoki darslar sifatida o'qituvchilar tomonidan qo'yiladigan masalalar sifatida o'quvchini o'qituvchi va shu kabi davlat oldidagi majburiyatlari sifatida bajarishni va unga amal qilishni talab qilib qo'yganligini, o'z oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun u albatta o'qishi, o'zlashtirishi zarurligini anglab boradi. O'qishni ongli tarzda o'quvchini berilayotgan o'quv materiallarini o'zlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Insonlarni, o'quvchilarni berilib o'qishi uchun ularni o'zlarida shu sohaga qiziqish bo'lishi kerak bo'ladi. Bu aynan o'qishning o'ziga yoki fanga qaratilgan qiziqish bo'lishi, shuningdek bivosita qandaydir qiziqishni to'ldiradigan bilimlar tizimi ham bo'lishi mumkin.

U yoki bu fanga bo'lgan qiziqishlar ustunligi har xil bo'lishi mumkin. Asosan ular quyidagilarda ko'rinadi:

1) Predmetning o'ziga bo'lgan bevosita qiziqish, ya'ni fanning o'zidagi aks etadigan haqiqatga qiziqish;

Bu fanga qiziqish juda kuchli va barqaror bo'lib, o'quvchi o'ziga qiziq bo'lgan tomonlarni, darslar zerikarli bo'lsa ham ajratib oladi.

2) Qiziqish fan talab qiladigan aqliy faoliyat xarakterini chaqiradi.

3) Ayrim hollarda fanga qiziqish o'smirda uning xohishlari yoki fanni o'zlashtirishni osonligi bilan bog'liq bo'ladi.

4) Qiziqish kelajakdagi faoliyat turi bilan bog'liq holda ham sodir bo'lishi mumkin.

O'quv motivlarini o'rganishda o'quvchining o'qishga bo'lgan ijobiy motivlarni o'rganish ham muhim hisoblanadi. A.I.Gebos (1977) o'qishga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllanishini ko'rsatuvchi omillarni ajratdi. Bularga quyidagilar kiradi:

- * o'qishni yaqin va oxirgi maqsadini anglash;
- * o'zlashtirilayotgan bilimni nazariy va amaliy ahamiyatini anglash;
- * o'quv materiallarini emotsional bayon etish;
- * o'quv faoliyatini kasbiy yo'nalishi;

- * o'quv faoliyatidagi muammoli sharoitni vujudga keltirish;
- * o'quv guruhidagi bilishga intiluvchanlik va bilishga intilish bilan bog'liq psixologik iqlim.

Hozirgi vaqtda o'quv jarayonida o'qituvchini pedagogik jarayonini effektivligini (natijaliligini) oshirish ishi muhim va zaruriy hodisalar-dan bo'lib turibdi. Lekin o'qituvchi va ota - onalar bolani "o'qishni xohlamayapti", "yaxshi o'qishi mumkin edi, lekin xohish yo'q" de-gan afsuslarni eshitamiz. Bu holatda o'quvchida bilim olishga qizi-qish yo'qligini ko'ramiz.

O'qituvchilar o'quvchilarda o'qishga, bilim olishga bo'lgan qiziqishni bo'lmasligi, ularni yaxshi o'qishlariga olib kelmasligini ko'rsatadilar. Shuning uchun ham o'quv maskanlari oldida o'quvchini yaxshi o'qishi, kelajakda o'zi yoqtirgan kasbni egallashlari uchun o'quv faoliyatiga olib keluvchi motivlarni yaxshi, ijobiy tomonga siljitish maqsad qilib qo'yiladi. O'qituvchilar faoliyatini kuzatar ekan-miz, ko'pchilik o'qituvchilar o'qishga olib keluvchi motivlarga e'tibor bermasligini guvohi bo'lamiz. O'qituvchilarning ko'pchiligi bola mak-tabga keldimi demak ular o'qituvchi chizgan chiziqdan chiqmasligi kerak deb hisoblaydi. Shunday o'qituvchilar ham uchraydiki, salbiy motivlarga asoslanib ish ko'radi. Bunday holatlarda o'quvchilarda har xil yoqimsiz holatlardan qochish: o'qituvchi yoki ota - onalar tomoni-dan jazolanish, yomon baholarni qo'yilishi va shu kabilardan qochish-ga intilish paydo bo'lishini ko'ramiz. Ko'p hollarda o'quvchi ilgaridek o'zini erkin tuta olmasligi, o'zi xohlagan ishini qila olmasligi kabi chek-lashlar unda maktab va o'qituvchi oldida jazolanishdan qo'rqish xissini shakllantiradi. Bunday holatlar o'quvchini cheklashga olib keladi.

Albatta bu bilan o'quvchini cheklash yoki jazolamaslik kerak demoqchi emasmiz. Ta'lim va tarbiyada rag'batlantirish va jazo-lashning o'rni mavjud. Lekin bola nima uchun jazolanayotganini va rag'batlantirilayotganini anglashi kerak bo'ladi. Ya'ni bularni


oʻrnida va koʻrsatib qilish amalga oshirish ularda tarbiyalanishni toʻgʻri boʻlishiga olib keladi.

Oʻquvchilarni oʻqishga boʻlgan motivlarini diagnostika qilib borib, ularda oʻqishga boʻlgan ijobiy munosabatni tarbiyalash va kelajakda oʻzi tanlagan kasbni egallashlarida yordam berishini koʻrsatmoqchimiz. Bunda oʻqituvchi oʻquvchilardagi ijobiy motivlarni tarbiyalash uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur deb oʻylaymiz.

- 1.Motiv haqidagi nazariy bilimlarni tahlil qilish.
2. Oʻquvchilarni motivatsion yoʻnalishini oʻrganish.
3. Oʻquv motivlarini rivojlantirish va shakllantirish yoʻllarini topish.
- 4.Bu topilgan oʻquv motivlarini rivojlantirish va shakllantirish yoʻllarini amaliyotga tadbiq etish.
- 5.Erishilgan yutuqlarni tahlil qilish.
6. Qoʻyilgan maqsadlarni egallash va yanada rivojlantirish yoʻllarini belgilab olish.

Bu koʻrsatilgan jarayonlar pedagogni oʻquv motivlarini diagnostika qilishga chorlaydi va bolada qanday motivlarni rivojlantirish orqali ularni oʻqishga boʻlgan intilishlarini shakllantirish mumkinligi masalasi yechilib boriladi. Oʻquvchini oʻqishga boʻlgan intilishi yoki undagi salbiy motivlar aniqlanadi va oʻqituvchi shular ustida ish olib borib bu diagnostik maʼlumotlarga suyangan holda amaliy ishlarni tashkil etadi.


Bu yuqorida koʻrsatilgan jarayonlarni hammasini oʻrganish natijasida mantiqiy – tizimli model sifatida koʻrsatish mumkin boʻladi. Bu quyidagicha koʻrinishga ega.



10-chizma.

L.I.Bojovichning fikricha, bunday munosabatning mohiyatini ochib beruvchi munosabat bo‘lib maktab o‘quvchisini o‘quv faoliyatini motivlarini yig‘indisi hisoblanadi.

O‘quv faoliyati turlarining diagrammasi



11-chizma.

Bilish bilan bog‘liq motivlar – bu o‘quv faoliyati va uni bajarish jarayoni bilan bog‘liqdir. Bu motivlar o‘quvchilarni yangi bilimlar va o‘quv motivlari bilan, ularni o‘zlashtirish bilan bog‘liqdir. U bilimlarga qiziqishning chuqurligi: yangi omillarni o‘rganish bilan, hodisalarning muhim jarayonlari, deduktiv xulosalar, Qonuniyat va tendensiyalar, nazariy prinsiplar, asosiy g‘oyalar va shu kabilarga asoslanadi.

Ijtimoiy motivlar. Bu o‘quvchini boshqa odamlar bilan har xil ijtimoiy o‘zaro ta‘sirini o‘rganadi. Misol uchun: jamiyatga foydali inson bo‘lish, o‘z burchini ado etish, o‘qish kerakligini tushunganligi, javobgarlik hissinı sezgani, bilim olishga intilishi kabilarda boshqalar bilan muloqotda bo‘ladi.

Takrorlash uchun savollar

- 1.Kasb tanlash va o‘quv faoliyati.
- 2.O‘quv motivlari diagnostikasi.
- 3.O‘quv motivlari eksperimental natijalarining tahlili.
- 4.O‘qishga munosabatni aniqlash natijalari va kasb tanlash.
- 5.Kasb motivatsiyasi.
- 6.Kasb tanlashda motivatsion maqsad , emotsiya va qiziqish.

3.3. Kasbga o‘qitishni individuallashtirish va differinsiallash

Individuallashtirish va differinsiallash haqida tushuncha

Insonni kasbga o‘qitish va uni shu kasbni egasi qilib tarbiyalash unga ta‘sir etayotgan obyektiv va uning subyektiv omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Jamiyatimizda ta‘lim va tarbiyaga nisbatan olib borilayotgan islohotlarning muhim tomoni ham har bir insonga uning o‘ziga xosligiga e‘tibor bergan holda tarbiyalash, ularning psixologik tomonlarini hisobga olgan holda yondoshish hisoblanadi. Har bir inson o‘zining alohidaligi va qaytarilmasligi bilan individualdir. Ta‘lim berishda, tarbiyalashda va boshqarishda insonni

eng avvalo qaytarilmasligini, individualligini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Umum ta'limning asosiy g'oyasi bu o'qitish ko'proq individuallashtirilgan, funksional va effektiv bo'lishi kerakligidir. Bu vazifani o'qitish jarayonida o'quvchilarni qiziqishini, layoqatini va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ta'limni tashkil etish, ularni qobiliyatlardan, kasbiy qiziqishlaridan kelib chiqqan holda bilim olishlarini tashkil etish yotadi. Ya'ni gap bu yerda katta sinfdagi o'quvchilarni o'qitishni individuallashtirish va differensiashtirish ustida ketadi.

Differensiasiya so'zi tilidan olingan bo'lib difference - farq degan ma'noni anglatadi va quyidagicha talqin qilinadi, farq va bo'lish, butunni bo'laklarga, shakl va darajalarga ajratish ma'nosini beradi. Pedagogik lug'atda esa bu tushuncha – o'quv faoliyatini tashkil etish shakli, uni har xil shakl, metodlar, temp, ma'lumot berish hajmi orqali har bir kishiga bilim olishda yaratiladigan sharoitlar deb tushuniladi. Bunda ta'lim olishni har xil ko'rinishlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish yotadi.

“Individuallashtirish” pedagogik lug'atida har xil tomondan qaraladi:

- **O'z individualligini ta'minlashga intilishda shaxsni o'z - o'zini yo'naltirish jarayoni sifatida**

- **O'qish jarayonida o'quvchini individual qobiliyatini har xil shakl va usullarda ko'rsatish.**

Ta'limni individuallashtirishni o'qitish yo'llari asosida ko'rib chiqilsa bo'ladi. Bu didaktik jarayon va maktabni tashkil etishda. Birinchi holatda o'quv dasturlarini, o'quv adabiyotlarini; ikkinchi holatda o'qitishni usullari va uchinchi holatda har xil ko'rinishga ega bo'lgan maktab va sinflarni tashkil etishda.


Shuni ko'rsatish kerakki, ta'limni yangilashning muhim tomonlaridan biri bu differensiasiya va individualizatsiya hiso-

blanadi. Ularni bir butun holda tushunish va o'ziga xos holda yondoshish zarur bo'ladi. Bu esa differentsiatsiya va individuallashtirishni ta'limdagi roli ko'zga tashlatadi. Ya'ni ko'pqirrali ta'lim tizimi, individual o'qitishni rivojlantirish, qobiliyatlar, o'quvchilarni bilish faolligi, ularga beriladigan o'quv nagruzkalarini me'yorida bo'lishi va shu kabilarda ko'rinadi.

Individual va differensial o'qitishning nazariy asoslarini shakllanishida psixo – pedagogik izlanishlar muhim o'rin egallaydi. Bu izlanishlarda eng avvalo B.G.Ananevni, A.N. Leonetyevni, B.F.Lomovni va boshqalarni ko'rsatish mumkin bo'ladi. Differensial o'qitishni motivlar asosida A.A.Badolev, A.N.Leontyev, ichki va tashqi pozitsiyaning xarakteri bo'yicha T.N.Molkovskayani, L.I.Bojovichni va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Shuningdek, faoliyatni individual – shaxsi xarakteriga asosan K.M.Gurevichni, S.L.Rubinshteynni, o'qitilayotgan o'quv materiallarini idrok qilish imkoniyatlaridan D.N.Bogoevlenkiy, V.A.Kuritetskiy va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Hozirgi vaqtda pedagogik va psixologik adabiyotlarda "Ta'limni defferensial" tushunchalariga bir butun ta'rif yo'qdir.

Bu tushunchalarni har xil ko'rinishdagi talqini chet el pedagogikasida ham uchraydi AQShda "individualizatsiya" tushunchasiga har qanday individual xususiyatlarni shakl va usullarini kiritiladi. Individual o'qitish ayrim hollarda ta'limning strategiyasi sifatida talqin qilinadi. N.E. Gronlundaning fikricha u quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: 1) guruhdagi minimal modifikatsiyadan tortib to bir butun hech kimga bog'liq bo'lmagan o'rganishni qamrab oladi. 2) ulgurish darajasini talab qiluvchi o'qitish, temp, o'qitish maqsadi, o'qitish metodlari, o'quv materiallaridan foydalanish. 3) hamma predmetlar bo'yicha o'qitishni individuallashtirishdan foydalanish.

Talabalarni o'qitish ularni individual - psixologik xususiyatlari bilan, ulardagi o'ziga xoslik, qaytarilmaslik bilan uzviy bog'liq bo'ladi. O'quvchilar o'zlaridagi qobiliyatlar, xarakter va temperamentlari asosida ham farqlanib turadilar. Har bir o'quvchida psixologik jarayonlari ham farqlanadi, ularda diqqat, xotira, tafakkur qilish, hayol va shu kabi tomonlar o'ziga xos holda farqlanib turadi. Diqqati, xotirasi kuchli bolalar tez o'zlashtira oladilar va ularni o'zlashtirishlari ham yaxshi bo'ladi. Buni quyidagi rasmdan ham ko'rish mumkin bo'ladi.



O'quvchining yana individual - psixologik tomonlari ham borki, ular bilim olish davomida o'ziga xos holda o'z ta'sirini o'tkazib boradi. Buni K.M. Gurevichni ilmiy izlanishlarida ko'rish mumkin bo'ladi.



Biz yuqorida o‘qitishda differensial va individual yondoshish kasb olishda ham muhim omil bo‘la olshini, kasb oluvchidagi individual – psixologik xususiyatlar kasb tanlashda ham muhim omilligini ko‘rsatib bergan edik. Quyida esa uni metodik sharoitlarini rasmda aks etdirdik.

Differensial o‘qitishning metodik sharoitlari

o‘quvchilarni individual - psixologik xususiyatlarini hisobga olish

Differensial vazifalar tizimi

o‘quv faoliyatini individual va guruhliy tashkil etish

o‘qituvchini differensial yondoshish metodikasini kasbiy faoliyat darajasida egallashi

O'sib kelayotgan yoshlarni kasbga o'rgatishda individuallashtirish va differensiallashtirish asosida yondoshish

O'sib kelayotgan har bir avlod o'zining boshqa avlodlarga nisbatan farqlanishi bilan keladi. Ularni kasbga yo'naltirish o'ziga xos tomonlar bilan ajralib turadi. Pedagogika aynan shunday tomonlarni hisobga olgan holda ularga malaka va bilimlar berib boradi. Bu esa pedagogni har doim yangi usullarni qo'llashi demakdir. Pedagogikani muhim vazifalaridan biri bu o'quvchilarni o'qitish davomida unga xos bo'lgan individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitishdir. Bu jarayonni muhimligi pedagoglar faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'quvchilarni individual xususiyatlarini hisobga olish ularni o'qitishdagi individual va differensial holda yondoshishda ko'zga tashlanadi. Bular didaktiv prinsiplarni amalga oshirishdagi individual va differensial yondoshishlarda ko'zga tashlanadi. Hozirgi vaqtda "individuallashtirish va differensiallashtirish"ga bir butun yondoshish yo'qdir. Ayrimlar ularni tushuntirishda ularga xos sinonimlarga yondoshsalar, ayrimlari shulardan bittasini olib uni keng ma'noda ishlatishga intiladilar. Ayrimlarning fikricha o'qitishni individuallashtirish o'qitish tempini, maqsadini, o'qitish usullarini, o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan darajani va shu kabilarni o'zgarib turishida ko'radi. Bunga umumiy belgilar asosida shakllantiriladigan guruhlarni tashkil etish ham kiradi.

Individuallashtirishga baho berib bu o'quvchini individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning ehtiyojlari, qiziqishlari, imkoniyatlaridan kelib chiqqan holdagi o'ziga xos usullarda va shakllarda o'qitish deb tushunmoq kerak. **Differentsatsiya** esa – bu o'quvchilarni ma'lum bir xususiyatlarini hisobga olgan holda guruhlarga ajratib o'qitish hisoblanadi.

Individualizatsiyani va differensiatsiyani o'ziga xos tarixi ham mavjud. O'qitishning individual va differensial tomoni bu D.Dyuining reformistik g'oyalari bilan bog'liq.

Kasb o'rgatishda, malakalarni va bilimlarni berishda individual yondoshishni ko'pgina olimlar o'rganganlar. I.Untning ilmiy ishlarida individualizatsiya bu insonni o'qitish davomida ma'lum bir xususiyatlarni hamma shakllarida hisobga olishni nazarda tutadi. Differensiatsiya esa o'quvchilarni individual xususiyatlarini hisobga olib va guruhlashtirib ma'lum bir maxsus o'qitishlarda undan foydalanishni nazarda tutadi. Bu holatda individualizatsiya differensiatsiyaga nisbatan kengroq tushuniladi.

Keng tarqalgan yondoshishlardan biri bu differensial o'qitish hisoblanib, bunda o'quvchining individual xususiyatlarini bir ko'rinishi sifatida o'ziga qamrab oladi. Bu holatdagi o'quv – tarbiyaviy jarayon, ya'ni o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olib o'qitish – bu **differensial** yondoshish deb nomlanadi. Bunday o'qitishni esa **differensial** o'qitish deb ataladi.




Differensial o'qitish

- o'qitishni sifatini yaxshilash
- o'quvchilarni ortiqcha yukdan xolos qilish
- o'quvchilarni bilish imkoniyatlarini rivojlantirish
- qobiliyatli o'quvchilarni aniqlash, ularni “kuchsiz” sifatida yo'qolib ketmasliklariga yo'l qo'ymaslik

O'qitishning bunday holatlarida ichki va tashqi differensiatsiya ajratiladi. Ichki differensiatsiya deb oddiy guruhlardagi o'quvchilarni individual xususiyatlarini o'qitish davomida hisobga olish nazarda tutiladi. Hamma o'quvchilar bitta dastur, bitta reja asosida o'qitiladi, lekin o'qituvchi individual usullardan, shakllardan o'qitish davomida foydalanadi. Ko'rsatib berilayotgan ramkadagi ichki differensiatsiyani o'qitishning individual yondoshishi deb belgilanadi.

Tashqi differensiatsiya - bu o'quvchilarni ma'lum bir belgilar, qobiliyatlar, qiziqishlar asosida maxsus tashkil etilganligida ko'rinadi. Bunday guruhlarda maxsus tuzilgan dastur va o'quv qo'llanmalar asosida olib boriladi. Bularni quyidagi sxemada ko'rishimiz mumkin bo'ladi.



Kasbga yo'naltirishda, kasb tanlashda individual va differensial tomonlar.

Differensial o'qitishning pedagogik – psixologik asoslari. Differensial o'qitishning asosida o'quvchilarning psixologik xususiyatlari yotadi. Eng avvalo o'qish faoliyatiga ta'sir etuvchi psixologik jarayonlar va ularni insondagi aksi yotadi. Bunday xususiyatlar yetarli darajada ko'p. Boladagi o'qish faoliyatini rivojlantiruvchi quyidagi tomonlar: aqliy rivojlanganlik darajasi, bunda o'qishga bo'lgan intilish va o'zlashtirilgan bilimlar nazarda tutiladi.


Ta'lim olmoq deganda shaxsni intellektual tizimini tushuniladi – bu o'quvchining o'quv faoliyatini mahsuldorligini ko'rsatib beruvchi aqlning sifatlari bilan bog'liq jarayondir. Ta'lim olishning darajasi va maxsusligi aqlning bir qancha xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Bular o'zlashtirishning tezligi, tafakkurning egiluvchanligi aqlning chuqurligi, fikrlash faoliyatini anglanganligi, aqlning mustaqilligi va shu kabilardir.

O'quvchining kasbga yo'naltirishda, kasb tanlashda individual va differensial tomonlar ularning psixologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Bu sohani esa differensial psixologiya fani o'rganib boradi.

Ma'lumki insondagi psixologik o'ziga xoslik uning individual psixologik tomonlari bilan bog'liqdir. Bularga temperamentni, xarakterni, qobiliyatlarni, insonni qiziqishini ko'rsatish mumkin bo'ladi. Kasb tanlashda individual va differensial tomonlar shaxsdagi psixologik xususiyatlar, ayniqsa uning qiziqishi bilan uzviy bog'liqdir. Kasb tanlashda differensiatsiya bu o'quvchilarni qobiliyatini, qiziqishini, layoqatini hisobga olish hisoblanadi. Kasb tanlashda individuallashtirish esa o'quvchining individual xususiyatlarini barcha shakl va ko'rinishlarida hisobga olishdir.

Kasb tanlashda o'quvchining o'qishini individuallashtirish o'quv materiallarini differensiatsiya qilishni hisobga olishni talab qiladi.

Bu jarayonda o'quv materialning har xil hajm va qiyinligi darajasidagi vazifalar tizimini qayta ishlab chiqiladi, guruhlarda o'qitishni tashkil qilishni tizimi ishlab chiqiladi. Bu jarayonda kasb tanlovchi har bir o'quvchining individual xususiyatlari hisobga olinadi. Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, "ichki differensiatsiya" va "individuallashtirish" mohiyati jihatidan bir xil, mos jarayondir.



13-chizma

Ta'limning hozirgi darajasida har bir insonni ma'lumoti va jamiyatning individual imkoniyatlari bir butun holda strategik resurs hisoblanadi. Shu bo'layotgan islohotlardan kelib chiqqan holda o'qitishning individual va differensial tomonlariga boshqacha qarashlar ham shakllanib bormoqda. Bunda mehnat bozorining talablaridan kelib chiqqan holda o'qitishni individuallashtirish va differensiallashtirish shakllanmoqda.

Maktabdagi o'qitishni individuallashtirish quyidagi tomonlar bilan amalga oshiriladi.

Mazmunning variantliligi (turliligi):

✓ Asosiy komponentlar

✓ Maktab komponenti

O'qitish jarayonini tashkil qilish:

- Individual tanlov asosidagi darslar;
- Darslar;
- Individual reja (master - klass);
- Intensiv (ingliz tili);
- Individual o'qitish;
- Seminar;
- Amaliyot;
- Ma'ruza;
- Maslahat;
- Ekskursiya;
- Trening;

O'qitish jarayonining shakllari;

- Kollektiv
- Guruh
- Individual
- Mustaqil

O'qitish jarayonining metodlari;

- Muammoviy – izlanuvchi;
- Muammoviy;
- Eksperimental;
- Rejalashtirilgan
- Analitik;
- Mustaqil;
- Frontal va sh.k.

O‘quv tarbiyaviy jarayonda o‘quvchilarni individual shakllanishiga differensial o‘qitishning xarakteri ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. O‘quvchilarni o‘qitishni differensiallash pedagogik jarayonni individuallashtirish sifatida ko‘zga tashlanadi va asosli ta’limni tashkil qilish sifatida bo‘lishi mumkin. Bular asosida ta’lim komponentlarini amalga oshiriladi.

Differensiatsiyani quyidagi ko‘rinishlari farqlanadi:

➤ Regional – maktab tiplari bo‘yicha (maxsus maktablar, gimnaziya, litsey, kollej, xususiy maktablar, kompleks o‘quv binolari).

➤ Maktab ichidagi (darajasiga asosan, profil bo‘yicha, alohida, chuqurlashtirilgan, kasbga yo‘naltirish, potoklar);

➤ Parallel tarzda (har xil darajadagi guruhlar va sinflar: gimnaziya xos, litseyga xos va sh.k.);

➤ Siniflararo (fakultativlar, yo‘naltiruvchi, har xil yoshdagi guruhlar);

➤ Sinf ichidagi yoki fanlar ichidagi (sinf tarkibidagi guruh).

Differensatsiyani quyidagi usullari o‘zini oqlaydi:

- Vazifaning mohiyati hamma sinf uchun bir xilligi, lekin kuchli o‘quvchilarga masalani yechish vaqti qisqartiriladi.

- Vazifaning mohiyati hamma sinf uchun bir xil, lekin kuchli o‘quvchilarga ko‘proq hajmda va murakkabroq tarzda beriladi.

- Sinf uchun umumiy vazifa beriladi, lekin kuchsiz o‘quvchilarga

yordam beruvchi materiallar beriladi (tayanch sxemasi, algoritmi, jadval, namuna, javob va sh.k.).

- Kuchli, oʻrta va kuchsiz oʻquvchilarga kuchli va mohiyati jihatidan har xil darajadagi darslardan foydalaniladi.

- Tavsiya etilgan bir qancha variantdagi vazifalar oʻquvchilarga tanlash uchun tavsiya etiladi. Koʻproq materiallarni mustahkamlashda foydalaniladi.

Oʻqish davomida differentsiatsiyadan foydalanish shaxsni ijodiy imkoniyatlarini shakllanishiga; faollikni oshishiga va oʻquv motivlarini kuchayishiga, ijodiy pedagogik tafakkurni shakllanishiga olib keladi.

Oʻqishni individuallashtirish va differentsiatsiyalashni muhim asoslaridan biri bu oʻquvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olish bilan bogʻliq jarayondir.

Kasb tanlovchining differensial va individual tomonlari boʻyicha K.M.Gurevich tomonidan ilmiy izlanish ishlari olib borilgan. Uning ishlarida insonning temperamentlaridan kelib chiqqan holda kasb tanlashning muhim tomonlari yoritib berilgan.

Takrorlash uchun savollar

1 . Oʻsib kelayotgan yoshlarni kasbga oʻrgatishda individuallashtirish va differentsiallashtirish asosida yondoshish.

2. Kasbga yoʻnaltirishda, kasb tanlashda individual va differensial tomonlar.

3. Oʻqishni individuallashtirish va differentsiatsiyalash.

3.4. Kasb psixologiyasi va o‘quv faoliyati motivlari, ularni klassifikatsiyasi

Kasb psixologiyasi va kasbga yo‘naltirishda o‘quv faoliyati motivlari

O‘quvchi yoshlarni kasbga yo‘naltirishning muhim bo‘limlaridan biri bu ularni o‘qitish hisoblanadi. Kasbga yo‘naltirish bu oson kechadigan jarayon emas. Bunda kasbni tanlash uchun o‘ziga ke- layotgan yoshlarni qiziqishlari, ehtiyojlari, manfaatlari, shart – sha- roitlari, imkoniyatlari, intilishlari, anglashlari, shuningdek ularda- gi individual – psixologik tomonlari, jismonan sog‘lomliklari, fiziologik tuzilishlari kabi ko‘plab obyektiv va subyektiv omil- lar kerak bo‘ladi. Bularni bilishlari uchun ularda atrofda gildardan o‘rganish, ahloqiy normalarga rioya qilish, fanlarni o‘zlashtirish va o‘zlaridagi imkoniyatlardan foydalanish zarur bo‘ladi.

Kasbga yo‘naltirishning eng muhim tomoni bu o‘qish va o‘qishga tortuvchi motivlar hisoblanadi. Motiv bu o‘quvchining faoliyatiga, xatti – harakatga undab turuvchi jarayondir. O‘quvchini o‘qishga tortib turuvchi, uni shu kasbga qiziqishi, uni anglab yetishi hisoblana- di. O‘quvchi o‘zi sevgan kasbni egallashi uchun o‘qishi kerakligini, shu kasbga zarur bo‘lgan bilimlarni maktab programmalaridan bilib olishi va undan tashqaridagi bilimlar bilan tanishish kerak bo‘ladi.

O‘quvchining xatti-harakatini to‘g‘ri tushunish uchun eng avva- lo uni harakatlar motivini tushunish lozim bo‘ladi. Bir harakatlarni bajarganda ham ularni motivlari har xil bo‘lishi o‘ziga xos tomon- lari bilan ajralib turishi mumkin. A.N.Leontyev motiv va maqsad tushunchalarini ajratadi.

Maqsad – bu inson tomonidan anglangan va keyingi natijalarni tasavvur qilish bo‘lsa, motiv – bu maqsadga intilishga qo‘zg‘atuvchi

jarayondir. Motivlarni tushunilgan va aniq ta'sirdagi turi mavjud. O'quvchi nima uchun o'qishi kerakligini tushunadi, lekin bu uni o'quv faoliyati bilan shug'ullanishi uchun yetarli bo'lmaydi. Aniq sharoitlarda tushunilgan motivlar aniq ta'sirga ega bo'ladi. Misol uchun, birinchi sinf o'quvchisi iloji boricha dars qilishni cho'zishga intiladi. U dars tayyorlash kerakligini tushunadi, bo'lmasa ota-onasini xafa qilishi, ikki olishi mumkinligini anglaydi, shu bilan birga o'qish uning majburiyati. Vazifasi ekanligini tushunadi. Lekin bularning hammasi uni dars qilishga majbur qila olmaydi. Bolaga endi shunday deyilsa: "Darsni tayyorlamaguningcha o'ynashga chiqmaysan deyilsa", u holda bunday ogohlantirish unga ta'sir etib uy vazifasini bajaradi. Bolaning ongida so'zsiz boshqa motivlar (yaxshi baho olish, o'z burchini ado etish) mavjud, lekin bular tushuniladigan motivlar.

2. O'qish motivlari

Motiv – inson xulq - atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchadir. Motivatsiya esa xulq - atvorning psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni bo'lib, unga tashabbus yo'nalganlik tashkilotchilik, qo'llab - quvvatlash kiradi. Ta'lim jarayonida o'qish motivlari **«nima uchun?»**, **«nimaga?»**, **«qanday maqsad bilan?»** kabi savollar asosida yuzaga keladi. Motivlar birinchidan o'quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullar tanlashga yordam beradi. O'quv faoliyatida o'quv motivlari o'quvchilar tomonidan tanlanib, ular o'quvchining maqsad, qiziqish, kelajak rejalari bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

O'quv faoliyatining motivatsiyasining manbalari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi.

1. **Ichki manbalar.** Ular insoniy tug'ma yoki ottirilgan ehtiyojlar bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimi tug'ma informatsiyaga bo'lgan ehtiyojdir. Ortirilgan ehtiyojlar esa gnostik va ijtimoiy ehtiyojlar hisoblanadi.

2. Tashqi manbalar. Ular shaxsning ijtimoiy hayot shart – sharoitlari bilan belgilanadi.

Talabalar ularning birinchisi bo‘lib, jamiatni shaxsdan talab qiladigan doimiy xulq - atvori bildiriladi. Bog‘cha, maktab, oila boladan juda ko‘p ishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Ijtimoiy kutish har birimizdan ma‘lum bilimlar, ko‘nikmalar darajasini bo‘lishi, zarurligini jamiyat kutishini bildiradi. Masalan, bir yoshli bola yurishi kerak. 7 yoshdan u o‘qish kerak, 15 yoshdan u kasb tanlashi kerak deb hisoblaymiz. Imkoniyatlar – shaxs faoliyatini belgilovchi obektiv shart – sharoitlardir. Masalan, bolaning undan boy kutubxona uni kitob o‘qishga undaydi.

3. Shaxsiy manbalar. Bu shaxsning qadriyatlar sistemasi ustanovkalari g‘oyalaridir. Bu manbalar har bir shaxs faoliyatida u yoki bu darajada mavjud. Ularning barchasi faoliyatning ketishiga ta’sir etib ta’lim jarayonining motivatsiyasini tashkil etadi. V.A.Krutetskiy o‘spirinlarda uchraydigan motivlarning quyidagilarini alohida ifodalaydi:

- a) Biror o‘quv faniga qiziqish;
- b) Vatanga foyda keltirish istagi;
- d) Shaxsiy qobilyatini ro‘kach qilish;
- e) Oilaviy an‘analarga rioya qilish;
- f) Do‘st – birodarlarga ergashish;
- g) Moddiy ta’minlash va hokazolar.

3. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari

Ta’lim jarayonining natijasi o‘zlashtirish ichki va tashqi faoliyatini maqsadga muvofiq ravishda o‘zgartirishdir. Ta’lim bir odamning boshqasiga bilim va ko‘nikmalar berishidir. Bilim, ko‘nikma va malakalar ta’lim jarayonining natijasidir. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni muammosi *P.Ya.Galpern* va *N.F.Talizina* tomonidan o‘rganilgan.

Ular aqliy xatti – harakatlarini bosqichma – bosqich shakllantirish nazariyasini ishlab chiqqanlar. Mualliflar aqliy xatti – harakatlarni moddiy holda tashqi nutq yordamida hamda aqliy shaklda, fikrda namoyon bo‘lishini izohlab beradilar. Aqliy xatti – harakatlarning **birinchi bosqichi** rasm, sxema, diagramma va shartli belgilar tarzida o‘z ifodasini topadi. Aqliy xatti – harakatlarning **ikkinchi bosqichi** ko‘rgazmalardan olgan tasavvurlari to‘g‘risida o‘quvchilarning ovoz chiqarib, fikr yuritishdan iborat. **Uchinchi bosqich** esa, subyekt ongidagi tasavvur, tushuncha, Qonuniyat, xossa, xususiyat, operatsiya, usul tariqasida namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, o‘quvchilarga taklif etiladigan axborotlar aql bovar qilmaydigan darajada tezlik bilan ko‘payib bormoqda. Shuningdek, ularning juda tez eskirib qolib, yangilashni taqozo etishi ham o‘z - o‘zidan ma’lum bo‘lmoqda. **To‘rtinchi bosqich** bajarilgan xatti – harakatlar ichki rejada ovoz chiqarilmay bajariladi. **Beshinchi bosqich** esa faoliyatni fikran bajarishga o‘tiladi.


Bundan ravshan ko‘rinib turibdiki, materialni asosan yodlab olish va xotirada saqlab qolishga asoslanadigan ta’lim hozirgi talablarga qisman javob bermoqda. O‘quvchilarga hamisha yangilanib turadigan axborotni mustaqil ravishda o‘zlashtirib borishga va o‘qishni bitirib kelgandan keyin, kishiga jadal sura’t bilan o‘sib borayotgan fan – texnika taraqqiyotidan orqada qolib ketmaslik imkoniyatini beradigan qobiliyatlar taraqqiyotini beruvchi tafakkur sifatlarini tarkib toptirish muammosi birinchi o‘ringa chiqib bormoqda. Ta’lim jarayonida o‘zlashtirishning muvaffaqiyati quyidagilarga bog‘liq:

1. **Ta’lim mazmuniga;**
2. **O‘quv rejalari, dasturlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mavjudligi;**
3. **Ta’lim metodikalarini takomillashganligi;**
4. **O‘qituvchi mahorati;**
5. **O‘quvchining individual psixologik xususiyatlari;**

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli individual tipologik xususiyatlarga ega o'quvchilar uchun ta'limning yagona qulay, optimal sharoitlarini yaratish mumkin emas. Ammo o'zlashtirishning samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim, noan'anaviy ta'lim usullarini qo'llash muhim ahamiyatga egadir.

O'quv motivlari klassifikatsiyasi

Inson faoliyatining muhim tomonlaridan biri bu uning o'qishi va malakaga ega bo'lishidir. O'qish orqali kishi o'z ehtiyojlarini qondirish yo'llarini izlaydi. O'zi uchun zarur va qiziqarli bo'lgan kasbni tanlab oladi va shu yo'lda izlanib boradi. O'qishga olib keluvchi ko'plab sabablar mavjud bo'lib inson shu motivlar asosida harakatga keladi va faoliyat ko'rsatib boradi. Bizga ma'lumki, o'quvchi o'zini o'qishga bo'lgan munosabatida ko'pgina hollarda o'qimaslikka bahonalar izlaydi. O'quvchilarni o'qishga bo'lgan intilishlarini shakllantiribgina qolmay, balki ularni bilishga bo'lgan intilishlarini ham vujudga keltirib bo'ladimi? – degan savol tug'iladi. Ha! Albatta bu sohada diagnostika tizimlarini o'rganishda o'qitishni sifatini oshirishning ko'rinishlaridan biri bu motivlarni o'rganish va uni bilish faoliyatidagi ta'sirchanligini oshirish hisoblanadi. Motiv – bu insondagi ma'lum bir moddiy narsaga yoki ma'naviy rag'batlantirishga intilish, faoliyat qilish bo'lib, bunda kishini xatti - harakatga undab turadi. Motivlarni uyg'otuvchi asosiy manba bu ehtiyoj hisoblanadi. Insondagi har qanday faoliyat har doim ma'lum bir motivlarga ega bo'ladi. Inson qanchalik o'z motivlarini chuqur va keng anglagan sari o'zini xatta - harakatlarini shunchalik yaxshi boshqara oladi. O'quv motivlarini tahlil qilar ekanmiz uni ikki tomonini ko'rsatib o'tamiz.



15-chizma

O'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan motivlar o'zida o'rganish bilan bog'liq bo'lgan mohiyatni olib yuradi (yangi omillar, bilim, hodisa...), va o'qish jarayoni (intellektual faoliyatni shakllanishi, fikrlash, to'siqlarni yengib o'tish,..). O'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan motivlar o'ziga sotsial motivlarni qamrab oladi (jamiyat oldidagi burch va javobgarlik: sinf oldida, ota - ona oldida, o'qituvchi oldida, ...), tor shaxsiy motivlar (maqtov olishga intilishda, yaxshi baho olish, birinchi bo'lish maqsadi...), salbiy motivlar (yomonlikdan qochish va shu kabilar). Bu motivlarning har biri alohida o'quv motivini rivojiga ta'sir etadi.

O'quvchilarni o'qish bilan bog'liq motivlari ko'pgina psixologlar tomonidan o'rganilganligi sababli uni ko'plab variantlari mavjuddir. Deylik, T.A. Ilina tomonidan tavsiya etilgan variant quyidagichadir.

Bevosita uyg'otuvchi motivlar:

- O'qituvchining shaxsi va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan motivlar. Bunda o'qituvchini tanlagan motivlari va usullari yotadi.

- Ijobiy emotsiyalarga asoslangan ixtiyorsiz diqqatga suyanadigan motivlar.

Kelajakka bog'liq bo'lgan motivlar:

- Bu o'quvchini kelajagi bilan bog'liq bo'lgan, uning maqsadga intilishi bilan bog'liq motivlar.

- Bu ma'lum bir predmetga, ma'lum bir faoliyatga xohish bilan bog'liq, shuningdek o'rtoqlarining maqtovini xohlash bilan bog'liq motivlar.

- Motivlarni qo'rqinch bilan bog'liq bo'lishi, deylik ota - ona oldidagi va o'qituvchi oldidagi qo'rqinch.

- Maqsadni anglagan holdagi ixtiyoriy diqqat bilan bog'liq motivlar.

Aql bilan bog'liq motivlar:

- Aqliy faoliyat jarayoni bilan bog'liq motivlar.

- Mustaqil ravishda masalaga javob berish, bu masalani hal etish bilan bog'liq hissiyot, aqliy faoliyatdan qoniqish bilan bog'liq motivlar.

- Bolalarni aqliy faoliyat usullariga o'rgatish, umum ta'limni o'zlashtirish bilan bog'liq motivlar.

Bu ajratish juda ham shartlidir, chunki motivlar bir - biri bilan birlashib ketgan, ular bir - biriga o'tib turadi, birlashadi; bundan tashqari motivlar yoshiga qarab ham o'zgarib turadi; deylik kichik maktab yoshidagilarda bevosita uyg'otuvchi motivlar ustun tursa, kattalarda - ijtimoiy va kelajakka uyg'otuvchi motivlar ustun turadi.

O'quv faoliyatini motivlarini T.A.Ilina yana bir variantini ilgari suradi. Uning fikricha bu ikki tendensiyaga asoslanadi. Biri yutuqqa ega bo'lish bo'lsa, ikkinchisi muvaffaqiyatsizlikdan qochish hisoblanadi.

T.A.Ilinaning ikki varianti bo'yicha

Muvofaqiyatga erishish tendensiyasi:

- O'quvchilar ijobiy maqsadlarni qo'yadilar
- Manbalarni faol qidiradilar
- Ijobiy emotsiyalardan foydalanadilar


Muvofaqiyatsizlikdan qochish:

- O'quvchilar o'zlariga ishonmaydilar, tanqiddan qochadilar.
- Muvofaqiyatsiz bo'lgan ishdan qochadilar.
- Ish bilan bog'liq bo'lgan salbiy emotsiyalar

15-chizma.


Bunda o'qituvchining vazifasi – o'quvchilarda muvaffaqiyat qozonishga ishonchni rivojlantirish, eng kichkina yutuqni ham rag'batlantirishlari kerak bo'ladi. Diqqatni muvaffaqiyatsizlikka qaratmasliklari kerak bo'ladi.

Bundan tashqari A.K. Markovanning motivlarni klassifikatsiya qilish varianti ham bor. Bu quyidagicha ko'rinishga ega:



16-chizma.

Motivni bundan tashqari yana quyidagicha ham klassifikatsiya qilish mumkin. Bu quyidagicha:



17-chizma

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda o'quv faoliyati bo'yicha quyidagi xulosalarni ko'rsatamiz:

1.O'quv faoliyatining yetakchi motivi bo'lib tashqi yoki ichki motivlar bo'lishi mumkin.

2. Motivlar rivojlanishini motivlarni bilish bilan bog'liq eng muhim jarayonlardandir. Shuni ham kuzatish joizki tashqi ijobiy motivlar tashqi salbiy motivlarga aylanmasligi kerak.

3. Har bir o'quvchi tashqi motivlar ta'sirida bo'ladi, chunki o'quv faoliyati har doim yarim motivlashgandir.

Takrorlash uchun savollar

1. Kasb psixologiyasi va kasbga yo'naltirishda o'quv faoliyati motivlari.

2. O'quv motivlarining klassifikatsiyasi

3.5. Kasbga o‘qitishda pedagog faoliyatining psixologik muammolari

Kasbga o‘qitishda pedagog faoliyati va uning psixologik muammolari

Pedagogning o‘qitishdagi roli hamma umumpedagogik fanlarda tan olingan va bu soha egalarini faoliyati muhimligi ko‘rsatib berilgan. “Pedagogika” termini ikki xil ahamiyatga ega. Birinchisi – bu fan, ilmiy izlanish makoni. Ikkinchisi – bu amaliy faoliyat, kasb, san’atdir. Mashhur insonlarning nomini ko‘pincha uning tarbiyachisi bo‘lgan pedagoglar nomi bilan bog‘laydilar.

Kasbga o‘qitishda pedagog faoliyatining muhim tomonlaridan biri bu uning, ya’ni o‘qituvchi shaxsi nomi bilan bog‘liqligi hisoblanadi. Uning u yoki bu xususiyatlari o‘qitish davomida ko‘tarilishi yoki pasayishi mumkin bo‘ladi. Eng avvalo bu “maxsus o‘qituvchilik xususiyati” hisoblanib, bunga “o‘qituvchining ilmiy tayyorgarligi” va “o‘qituvchining shaxsiy talanti” kiradi.

Kasbga o‘qitishda pedagog faoliyatining birinchi obyektiv xarakteri bu pedagogning o‘zi o‘qitayotgan fanini yaxshi bilishi, Ya’ni bu mutaxassislik bo‘yicha ilmiy tayyorgarligi yaxshi bo‘lishi, unga yaqin fanlarni ham bilishi, keng ma’lumot egasi bo‘lishi, fanning metodologiyasini bilishi, didaktik prinsiplarga ega bo‘lishi va nihoyat o‘zi ishlayotgan bolalarni yaxshi bilishi kerak bo‘ladi. Ikkinchi xususiyati – bu subyektiv xarakterga ega bo‘lgan va pedagoglik san’atini, pedagoglik mahoratini, pedagog ijodini qamrab oluvchi xususiyatdir. Ikkinchi tomon pedagoglik taktini, pedagogik mustaqillikni va pedagoglik talant, san’atni o‘ziga qamrab oladi. Bu jarayonda pedagogni o‘zi mustaqil bo‘lishi, erkin ijodkor, yaratuvchi bo‘lishi, har doim harakatda, izlanishda va taraqqiyotda bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Kasbga o'qitishda pedagog faoliyatida bundan tashqari "aqliy" xususiyatlarga kiruvchi "maxsus" xislatlardan tashqari shaxsiy – "irodaviy - ahloqiy" xususiyatlar ham muhim rol o'ynaydi. Bunga o'qituvchining e'tiborliligi, ziyrakligi (ayniqsa kuchsiz o'quvchilarga) halolligi, chidamliligi, o'zini ushlab tura olishi, o'z -o'zini tanqid qila olishi bolalarga bo'lgan muhabbati kiradi.

Kasbga o'qitishda pedagog faoliyatida uning ijtimoiy roli, o'rni, vazifalari va unga bo'lgan talablari,unga bo'lgan ijtimoiy munosabatlar ham muhim hisoblanadi. Bundan kelib chiqqan holda o'qituvchining kasbiy – pedagogik tayyorgarligi va o'zini tayyorlashi pedagogik faoliyatining psixologik muammolari qatoriga kiradi.

O'qitish jarayonida pedagog faoliyatining uchta komponentini ajratish mumkin. Bular konstruktiv (tuzulishi), kommunikativ (aloqa yo'li) va tashkil qilish faoliyati. Pedagog faoliyatining **konstruktiv** komponenti – bu o'qituvchi faoliyatida darsni tuzilishini shakllantirish, konstruktivlash hisoblanadi. Bunda o'qituvchi darsni tuzilishini tashkil etishi, o'quvchilarni darsdan tashqaridagi tadbirlarini shakllantirishi, maktab dasturi asosida o'quv materiallarini tanlab olish, ularni darsliklardan va har xil metodik ishlanmalardan olgan holda o'quvchilarga yetkazib berishi kabilarda ko'rinadi. Bularning hammasi bir butun dars jarayonini tuzilishini, darsdan keyingi qilinadigan ish faoliyatlarini ham tuzilishini konstruktivlab berishda ko'zga tashlanadi. Ayniqsa kasbga o'qitishda pedagogning bu faoliyati muhim hisoblanadi. Albatta kasbga o'qitish davomida, darsni konstruktivlash, ya'ni tuzilishini shakllantirish davomida o'qituvchi shaxsini oldida o'ziga xos psixologik muammolar va ularni yechimi yotadi. Bunda o'qituvchiga qo'yiladigan talablar, o'quvchida sodir bo'ladigan psixologik jarayonlar, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ko'zga tashlanib, o'ziga xos bo'lgan psixologik muammolarni vujudga keltiradi.

O'qituvchi faoliyatining ikkinchi muhim qismi bu **kommunikativ** (aloqa yo'li) hisoblanadi. Bu pedagog faoliyatidagi muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Bu pedagog faoliyatida ko'plab psixologik muammolar kelib chiqadi. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchi bilan, uning ota - onasi bilan, maktab adminstratsiyasi bilan va o'qituvchilar bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Aynan o'qituvchining o'quvchiga bo'lgan munosabati va ular o'rtasidagi o'zaro munosabat konstruktivlik va tashkilotchilik munosabatida ko'plab psixologik muammolar yuzaga chiqadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarda, o'qitish bilan bog'liq jarayonlarda emotsional kechinmalar o'qitishning o'ziga xos emotsional tomonlarini ko'rsatib beradi.

O'qituvchining o'quvchiga bo'lgan emotsional munosabatini besh tipi mavjud. Bular ijobiy – emotsional faol munosabat; ijobiy – emotsional passiv munosabat; salbiy – emotsional faol munosabat; salbiy – emotsional passiv munosabat va bir xil bo'lmagan munosabatlar.

Kasbga o'rgatishda pedagog faoliyatidagi o'quvchilar bilan bo'ladigan emotsional – ijobiy faol munosabatlarga o'qituvchining o'quvchiga bo'lgan ochiq ko'ngilli munosabati, o'quvchida yaxshi shaxsni ko'rish, unifaol rag'batlantirib borish natijasida ularni bir birlariga yordam berishlarini, tashabbuskorliklarini, sinfda o'rtoqlik xissini shakllantirib boriladi. Albatta bu ko'rsatilgan jarayonlarning ham o'ziga yarasha psixologik muammolari va yechilishini talab qiladigan tomonlari bor.

O'qituvchi faoliyatidagi **tashkilotchilik** tomonlari. O'qituvchi faoliyatida tashkilotchilik faoliyati muhim jarayonlardan biridir. Uni konstruktivlikdan ajratib bo'lmaydi, ular bir butun jarayon hisoblanadi. O'qituvchi dars davomida nimani mo'ljallagan bo'lsa, u o'qituvchining bilishi, uddalashi, tashkil qilish qobiliyati bilan bog'liq bo'ladi. Faqat shundagina o'quvchi bilim bilan ta'minlanadi.

Tashkiliy komponent o'zida uchta yo'nalishni qamrab oladi: o'zini aytmoqchi bo'lgan fikrlarini tashkil etishda; darsda o'zini tutishni tashkil etishda; bolalarni faoliyatini tashkil etishda, ya'ni ularni bilish jarayonlarini har doim faollashtirib turishda ko'rinadi.

Rossiyalik psixolog A.I.Sherbakov pedagog faoliyatining bu komponentlaridan tashqari qo'shimcha tomonlarini ham kiritadi. Bu informatsiya – ma'lumot beruvchi tomonlar (materiallarni bilish va yetkazib bera olish san'ati) Rivojlantiruvchi (maktab o'quvchini bir butun holda rivojlanishini boshqaradi) yo'nalish beruvchi (shaxsni yo'nalishlari, uning motivlari), izlanuvchanlik (pedagogik jarayonda ijodiy izlanish, eksperiment o'tkazishni uddalay olish, o'zini mahoratini va tajribasini umumlashtira olish).

Pedagogik ixlos va uni kasbga yo'naltirishdagi ahamiyati

O'qituvchi mehnatining jamiyat uchun juda katta ahamiyatga egaligi hamisha, hamma zamonda e'tirof qilib qilib kelingan, Hozirda O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarda o'qituvchining roli va ahamiyati juda kattadir. O'qituvchilar o'z faoliyatlarini yoshlarni to'g'ri tarbiyalashga va jamiyatga yetuk mutaxassisi sifatida tayyorlab berishni oldilariga maqsad qilib qo'yganlar. Bu sohada ular o'z kasblariga ixlos qilgan holda yondoshib, jamiyat qo'ygan maqsadlar sari ildam bormoqdalar. Buning uchun ular pedagogik ixlos asosida yoshlarni o'zlari qiziqqan kasblarga yo'naltirib borib ularni kelajakda yaxshi kasb egasi bo'lishlari uchun tayyorlab bormoqdalar.

Pedagogik ixlos – bu pedagogni o'z kasbiga bo'lgan sodiqligi, uni ta'lim berish va tarbiyalash ishlaridagi jonkuyarligi, o'z ishiga berilganligi, faolligi, xolisligi, ishiga vafodorligi, undagi qobiliyatlar va bag'ri kenglikning cheksizligi kabilar hisoblanadi.

Pedagogik ixlos tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, u pedagog shaxsini, pedagog ahloqini, pedagogik qobiliyatlarni, pedagog nutqini, pedagog psixologiyasi kabi qator tomonlarni o'zida qamrab olgandir. Pedagogik ixlos pedagogni uzoq yillar davomida pedagogik faoliyatga chin qalbidan xizmat qilish bilan bog'liqdir. Pedagogik ixlos bu pedagogning sabr – toqati, chidam bilan yosh avlodni tarbiyalash jarayoni bo'lib, pedagogni oldiga qo'yilgan barcha talablarni o'z vaqtida bajarib borib obro'ga ega bo'lish jarayonidir.



Pedagogning bu faoliyati juda qiyin, ko'plab mehnatni talab qiladigan faoliyat turi hisoblanadi.

Pedagogni o'z kasbiga mavjud bo'lgan ixlosi uni kasbga yoshlarni yo'naltirishda ahamiyati juda katta bo'ladi. Pedagogik ixlos eng avvalo pedagogni o'z kasbni sevishdan boshlanadi. Pedagog yoshlar bilan ishlashdan charchamaydi, ularni sevadi va ularni malakali bo'lishlariga yordamlashadi. Pedagog o'z kasbiga sadoqatli bo'lish

bilan birga u jamiyat oldidagi mas'uliyatni ham sezib turadi. Qadimgi grek filosoflaridan biri bo'lgan Platon, agar kavishdo'z yomon usta bo'lsa, davlat bundan unchalik ko'p zarar ko'rmaydi – fuqarolar bir muncha yomonroq kiyinib yuradilar, xolos, ammo bolalarni tarbiyalovchi kishi o'z vazifalarini yomon bajarsa, mamlakatda nodon va yomon odamlarning butun bir avlodi vujudga keladi, deb yozgan edi. Demak, pedagogni o'z kasbiga bo'lgan ixlosi orqali, jamiyatga yaxshi insonlar etishib chiqadi va ular jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiladilar.

O'z kasbiga ixlos qilgan pedagoglar tanlagan kasblaridan no-ilmaydilar, uzlarini har doim shu kasbga loyiq tutishga intiladilar. Pedagogik ixlos bu o'ziga yarasha chidam va sabr – toqatni talab qiladi. Yillar davomida pedagogda o'z kasbini ardoqlash, kasbga tegishli bo'lgan mahoratni o'sib borishi, kasbga ijodiy yondoshish kabi xislatlar shakllanib boradi. Taniqli pedagoglardan biri kasbga bo'lgan ixlosni quyidagicha ko'rsatib beradi. Mening butun hayotim o'zim uchun yorqin hayot bo'ldi. Umrimda zerikkan vaqtim bo'lganini bilmayman... O'z ota - onalariga nisbatan meni ko'proq yaxshi ko'radilar. Yaxshi ko'rishlarining boisi shuki, men ularga butun hayotimni tikkanman. Meni ko'z o'ngimda ular o'sib rivojlana boshlaydilar, ularning fikrlari tarkib topadi, ularda eng yaxshi odatlar vujudga keladi. Ular kitob bilan ishlashni o'rgana boshlaydilar, kitob esa insonning eng katta xazinasidir. Bu fikrlarni aytayotgan muallim o'z kasbini sodiq insoni, o'z kasbiga ixlos qo'ygan ulug' zotdir.

Pedagogik ixlos – bu o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan sodiqligi va shu yo'ldagi doimiy izlanish hisoblanadi. Ixlos bu psixologik tushuncha bo'lib insonni biror bir kasbga, hodisaga bo'lgan sodiqligi, bu kasbni o'zgartirmasligi, har doim shu kasbni ulug'lashi bilan bog'liq jarayondir. Insondagi ixlos o'ziga eng avvalo ehti-

yojni, manfaatni qamrab olib, shundan kelib chiqqan holda unda shakllanadigan qiziqishlar, motivlar, ustanovkalarga asoslanadi. Insondagi ixlos uning faoliyatini barcha sohalarida ko'zga tashlanadi. Inson biror kasbga ixlos qilishi uchun bundan tashqari unda iroda kuchi, diqqatning o'ziga xos tomonlari, hayol, tafakkur, o'ziga xos bo'lgan individual – psixologik xususiyatlar shakllantirilib borilishi kerak bo'ladi.

Pedagogik ixlos – bu pedagogni o'z kasbga bo'lgan irodaviy tomonlarni mujassamlantirgan jarayon bo'lib, yoshlarni kasbga tayyorlashda juda katta kuchni sarf qilishni talab qiladi. Pedagog o'z qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda yoshlarni kasb – hunarga yo'naltirib turadi, ularga bilimlar berib borib, malakalarini tarbiyalaydi, kasbga xos bo'lgan layoqatni shakllantirishga ko'maklashadi. Pedagogning o'z kasbga bo'lgan sadoqati, yoshlarni kasbga yo'naltirishda irodaviy kuchni, aqliy salohiyatni sarf qilishni talab qiladi. Bizga ma'lumki yoshlar o'ziga xos bo'lgan xulq - atvorga egadir. Ularni shu kasblarga yo'naltirish uchun esa pedagog o'z kasbini yaxshi bilishi va boshqa fanlar, kasblar haqida bilimga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Albatta pedagogdagi qat'iylik, chidam, mehnatkashlik, bolalarni o'zini ketidan ergashtira olishlik kabi qobiliyatlar pedagogni mehnatini ro'yobga chiqaradi.

Ko'rinib turibdiki, pedagogik ixlosni yoshlarni kasbga yo'naltirishdagi ahamiyati nihoyatda katta va bu ixlos pedagogni faoliyatini yuzaga chiqishi uchun zarurdir. Pedagogni ixlosini taqdirlab turilishi, ya'ni uni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish pedagogdagi ixlosni yanada oshiradi.

O'qituvchidagi pedagogik ixlosni shakllantirishda uning shaxsiy va qisqacha xarakteristikasini quyidagicha tasavvur qilish mumkin.

- Yuksak darajadagi fuqarolik javobgarligi va ijtimoiy faollik;
- Gumanistik yo'nalish, bolalarga bo'lgan muhabbat;

- Ma'naviy madaniyat, ziyolilik;
- Ilmiy – pedagogik tafakkurning innavatsion stili, yangi qadriyat va ijodiy qirralarni yaratishga tayyor bo'lish, yuksak kasbiy mahoratni ko'rsata olish;
- Jismoniy va psixologik sog'lomlik kasbiy layoqatlilik;
- Mustaqil o'z - o'zini ta'lim olishi uchun bo'lgan ehtiyoj va unga tayyor bo'lish.

O'qishga munosabat va intellektual sifatlar. Axloqiy – irodaviy fazilatlar. Ishbilarmonlik xislatlari

Pedagog o'z faoliyati davomida yoshlarga ta'lim va tarbiya berib boradi. Yoshlarni o'qitish, bilim va malaka berish vazifasi o'qituvchini doimo o'z ustida ishlashiga, malakasini oshirib borishni talab qiladi. Shu bilan birga o'qituvchi yoshlarni o'qitish masalasiga juda katta mas'uliyat bilan munosabat qiladi. Pedagog yoshlarni bilim va malakalar bilan ta'minlash uchun avvalam bor o'zi va o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirib boradi.

O'qituvchi o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishini shakllantirish uchun ularda intellektual sifatlarni vujudga keltiradi, shakllantiradi va ularda o'qishga bo'lgan yetuk munosabatlarni tarbiyalaydi.

O'quvchilarni intellektual – ijodiy faoliyati ma'zmuniga quyidagi guruhli sharoitlar kiradi:

- Tashkiliy sharoit: ijodiy yondoshuvchi o'qituvchilar guruhini tuzish;
- Ma'lumot beruvchi sharoit :

1. Izlanish faoliyatini tashkil qilish bilan bog'liq kataloglarni yaratish;

2. Qobiliyatli va izlanishga moil bo'lgan bolalar haqida baza yaratish;

3. Izlanish ishlari bilan shug'ullanayotgan o'qituvchilar bazasini yaratish;

4. O'quvchilarni izlanish bilan bog'liq ma'lumotlar bazasini yaratish;

5. O'quvchi va o'qituvchilarni o'tkazilishi kerak bo'lgan konkurslar bilan, ularga qo'yiladigan talablar bilan tanishtirish;

6. Ota - onalar majlisini o'tkazish va ota - onalarga maslahatlar berish

7. Ijodiy guruh haqidagi qoidalarni ishlab chiqish va izlanish ishini yozish haqida yo'riqnoma yaratish

• **Metodik sharoit:**

1. O'quvchi va o'qituvchilarni izlanish faoliyatiga munosabatlarini, ta'limni rivojlantirib boruvchi texnologiyaga, innovatsion jarayonlarga tayyorgarligini diagnostika qilish;

2. Rivojlanib boruvchi texnologiyani o'qituvchilar tomonidan foydalanishni o'quv - tarbiyaviy jarayonlardagi holatini tahlil qilish;

3. O'qituvchilarni rivojlanib boruvchi yangi texnologiyalar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi;

4. Ta'lim berishda izlanishning nazariy asoslari bilan o'qituvchini tanishtirish;

5. O'quvchilarni izlanish faoliyatiga rahbarlik haqida tanishtirish;

6. Metodikani yaratishni asosini shakllantirish;

7. O'qituvchilarni qobiliyatli bolalar bilan ishlash kurslarida o'qitish;

8. Ta'limni rivojlanib boruvchi texnologiyalar asosidagi tajribalarni umumlashtirish;

9. Kasbiy o'sib borayotgan o'qituvchini rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish.

- **Psixologik sifatlar:**

1. O'quvchilarni intellektual - ijodiy qobiliyatlarini diagnostika qilish, izlanish faoliyatiga iqtidori bor bo'lgan bolalarni aniqlash;

2. Izlanish bilan shug'ullanayotgan bolalar bilan treninglar o'tkazish;

3. Korreksion rivojlanib boruvchi darslarni tashkil etish;

4. O'quvchilar, ota - onalar va o'qituvchilar uchun maslahatlar tashkil etish;

- **Pedagogik sharoit:**

1. Maktab ilmiy jamiyatini tashkil etish;

2. O'quvchilar darajasida izlanish ishlarini olib borishga nazariy tayyorgarlik kiritish;

3. Maktab ilmiy anjumanini tashkil etish va o'tkazish;

4. O'quvchilarni shahar, viloyat, respublika konferensiyalarida ishtirok etishlarini rag'batlantirish;

5. Fan kunini o'tkazish;

6. Bilish bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar, konkurslarni tashkil etish va o'tkazish va sh.k.

Intellektual amaliy ishlarni olib borishda o'qituvchiga zarur bo'lgan amallarga shularni kiritish mumkin. Albatta bu yerda moliyaviy xarajatlar ham bordir.

O'qituvchilar bugungi o'quvchiga barcha fanlardan yaxshi bilimlar olishlarini imkoniyatlarini yaratishlari kerak. Ulardagi intellektual imkoniyatlarni tarbiyalab borishlari, ularni o'qishga bo'lgan munosabatlarini qiziqtirishlar orqali shakllantirib borishlari zarur bo'ladi. Bu bilimlar bilan tanishgan o'quvchilar aniq hollarda yaxshi fikrlar ayta olishlari, o'zlarini qobiliyatlarini ko'rsata olishlari mumkin bo'ladi. O'quvchiga berilayotgan bilimlarning hammasini unga yetkazib bermasdan uni muammoli vaziyatlarga qo'yish orqali o'ylashga, xulosa qilishga, o'zicha yangiliklarni yaratishga

majburlanadi. Bunday ishlarni olib borish ularda tafakkur qilishni, fikrlashni shakllantiradi. Psixologlar bunday jarayon hamma bolalarda mavjudligini va uni tarbiyalab borib yaxshi ta'lim olgan insonlarni yaratish mumkinligini ko'rsatib o'tganlar.

Intelлектni qiyoslashni har xil bir biridan farq qiluvchi tomonlari bor. Bugungi kunda intellektni universal hodisa sifatida psixologik tushuntirish mumkin. Buning asosida ma'lumotni ma'lum bir tezlikda va aniqlikda qayta ishlay oluvchi genetik tarzda asoslangan nerv tizimining xususiyati yotishi mumkin. Bu fikrni X.Ayzenk aytish bilan insondagi intellektni nerv tizimi bilan bog'liqligini ko'rsatib o'tadi. Insondagi nerv tizimi va uning fiziologik xususiyatlari shaxsning intellektual imkoniyatlarining asosini tashkil etadi. Bu sohada ko'plab mutaxassislar o'z tadqiqot ishlarini olib borganlar. O'quvchining intellektual imkoniyatlari va uni ro'yobga chiqishi albatta unga meros bo'lib qolgan nerv tizimi va uning imkoniyatlari bilan ham bog'liqdir. O'qishga munosabat va intellektual sifatlar bu pedagogni va o'quvchini imkoniyatlari va birgalikdagi harakatlari bilan bog'liq bo'ladi. Intelлектning tizimiga quyidagi qobiliyatlar kirishi mumkin: verbal, sonli, makonga xos. Bularning hammasi birgalikda konvergent tafakkurni xarakterlaydi. O'qituvchi bolalar bilan ish olib borib ulardagi intellektual imkoniyatlarni bilib borishi uchun ulardagi tafakkurga xos bo'lgan jarayonlarni o'zlashtirgan bo'lishi zarurdir.

Konvergent tafakkur (lot. o'xshash, mos kelish) – tafakkur shakli. Bu bolalardagi intellektual fikrlash qoidalarining ko'rinishi hisoblanadi. Ma'lum bir vazifalarni yechishning algoritmlarini aniq ishlata olishga asoslangan, ya'ni shu masalani ketma - ketlikda yechishning instruksiyasi berilgan holda unga amal qilish tushuniladi. "Aqlli" va "fahm - farosatli" so'zlarni sinonim sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari aqlli bu juda katta va boy bilimga

ega bo'lish hamdir. Yana shuni aytish joizki, haqiqiy aqlli odam yechilishi ma'lum bo'lmagan va hattoki hech kimga uni yechilish yo'li ma'lum bo'lmagan vazifalarni yechish bilan bog'liqdir.

Kreativlik (lot.- yaratuvchanlik) – individni ijodiy qobiliyati bo'lib tub yangiliklarni yaratuvchi yangi g'oyalar bilan xarakterlanadi. Torrensning fikricha kreativlik muammolarni his etishni kuchliligi, bilimlardagi difitsit yoki bu bilimga qarama – qarshi bo'lgan fikrlar, ularni aniqlashdagi xarakter, o'zlari yaratgan gipotezalar asosida ularni ye-chishga intilish kabilarni kreativlik o'ziga qamrab olishini ko'rsatadi.

Kreativlikni baholash uchun har xil divergent tafakkur, shaxsiy so'rov, faoliyatni natijaligini tahlil qilish testlaridan foydalaniladi.

Gilford kreativlikni xarakterlovchi 16 ta gipotetik intellektual qobiliyatlarni ajratadi. Shulardan asosiylari:

- Tezlik, chaqqonlik (ma'lum vaqt ichidagi fikrlar soni);
- Egiluvchanlik (bir fikrdan ikkinchisiga osonlikda o'ta olish);
- O'ziga xoslik, takrorlanmaslik (umumiy qabul qilingan fikrlardan farq qiluvchi fikrlarni yarata olish qobiliyati);
- Bilimga qiziquvchanlik (boshqalarga qiziq bo'lmagan muammolarga undagi hissiyotni kuchliligi);
- Unumdorlik;

Iste'dod va layoqat – bu shaxsni ma'lum bir faoliyatni bajarishdagi real va potensial muvaffaqiyatni ta'minlovchi va bir yoki bir qancha sohada o'rtachadan yuqori bo'lgan natijalarga erishishdir.

Iste'dod ko'zga tashlanuvchi, yashirin yoki umumiy, maxsus bo'ladi.

Maxsus iste'dod ko'rinishlari:

- Intellektual (konvergent tafakkurni yuksak natijalari);
- Texnik
- Ijodiy (divergent tafakkurni yuksak ko'rsatgichlari);
- Badiiy;

- Motor – harakatli (sportdagi);
- Ijtimoiy (liderlik);
- Akademik;
- Intellektual - ratsional qobiliyat (chap yarim sharlar);
- Emotsional - badiiy qobiliyat (o'ng yarim sharlar).

Istedod ko'rsatgichlari :

- Bilimga qiziqish va bilishga bo'lgan ehtiyoj an'anaviy ta'lim chegarasidan chiqib ketadi;
- Yuksak intellektual va ijodiy natijalar
- Abstrakt tafakkur va nutqni yuksak darajasi (nutq orqali xulosalar qila olish);
- Muloqotdagi yengillik, kirishuvchanlik;
- Faollik;
- O'quv faoliyatidagi yuksak motivatsiya;
- Dunyoni bir butun ko'rinishini stixiyalik asosda ko'rish.

Pedagogni yoshlarni tarbiyalashdagi intellektual tomonlarni shakllantirilishi yana uning ahloqiy – irodaviy fazilatlari bilan bog'liqdir. Insonning ahloqiy ongi uning emotsional jarayonlari va xulq - atvori bilan birgalikda yuz beradigan murakkab jarayondir. Insondagi ahloq uning hayoti davomida shakllana borib ahloq haqidagi bilimlar, meroslar, qadriyatlar bilan birga o'z hayoti davomida ottirgan bilimlar, malakalar asosida shakllanib boradi. Ahloqiy ongni shakllanishi va rivojlanishi, prinsiplarni bilishni, me'yorni, o'zini jamiyatdagi ahloq bilan bog'liq o'rnini har doim anglab borishi va uni fikrlashi asosida tahlil qilib borishi bilan bog'liq bo'ladi.

Pedagogning ahloqiy ongi ahloqiy bilimlar, ahloqiy hissiyot, ishonch, iroda va ideallarga asoslangan holda o'zining kasbiga xos xatti – harakatlarda ko'zga tashlanadi. Pedagogning ahloqi bu shaxs ahloqiy madaniyatining bir bo'lagi bo'lib, o'zida umuminsoniy, milliy, kasbiy madaniyatni birlashtirib turadi.

Pedagog shaxsining ahloqiy madaniyati – bu bir butun elementlar tizimi bo‘lib, quyidagilarni o‘ziga qamrab oladi:

- ahloqiy tafakkur madaniyati (ahloqiy xulosalar chiqara olish, ahloqiy va estetik bilimlardan foydalana olish, yaxshilik va yomonlik, garmoniya va go‘zallik tushunchalarini farqlay olish, ahloqiy me‘yorlarni amaliyotda tadbiq eta olishlik);

- madaniyatni his eta olish (ahloqiy jarayonlarga o‘zini munosabatini ko‘rsata olish, ichidan shu hodisaga dardkash bo‘la olish);

- o‘zini tutish madaniyati – bunda konkret amaliyotda har xil fikrlarni, bilim va xislarni kundalik hayot me‘yoriga aylanib ma‘lum bir harakatga kelishini his etib borish;

- etiketni ma‘lum muloqotlarda ushlab tura olishlik, ya’ni stil-da, manerada, reglament shakllarida.

Pedagogning ahloqiy ong tizimiga quyidagilar kiradi:

- Ahloqiy qarashlar;
- G‘oyalar, ishonchlar;
- Ahloqiy hissiyotlar – bu bolalarni o‘qitishda va tarbiyalashda sodir bo‘luvchi ahloqiy jarayonlar.

Pedagog o‘z faoliyati davomida ishlarini tashkil qilish jarayonida ishbilarmonlik qobiliyatlaridan foydalanishi zarur bo‘ladi. Ishbilarmonlik nima? Bu pedagogni o‘qitish jarayonida uni tashkil eta olishi va unumli darslarni tashkil eta olishidir. Ishbilarmon o‘qituvchi o‘zidagi qobiliyatlarni ishga solgan holda bolalarga berilayotgan darslarni tashkil etish, bolalarni imkoniyatlaridan to‘la foydalana olish, darslarni sifatini oshirishga intilish kabi ko‘plab tomonlarni o‘zida aks etdiradi. Pedagogning ishbilarmonligi bu o‘zida psixologik tomonlarni qamrab oluvchi jarayon hisoblanadi. Pedagog ishbilarmon bo‘lishi uchun eng avvalo diqqatini muammoga qarata olishi, bu masalalarni tafakkurga xos bo‘lgan jarayonlardan o‘tkaza olishi, o‘z hayollarida uni rejalay olishi va hal qilish yo‘llarini topi-

shi kerak bo‘ladi. Pedagog o‘quvchilar bilan bo‘ladigan munosabatda ularga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni bilishi va ulardan keng foydalana olishi ham zarurdir. Ishbilarmon o‘qituvchi o‘zida ma’lum bir psixik xususiyatlarni rivojlantirishi va ulardan unumli foydalana olishi zarurdir. Ishbilarmonlik o‘qituvchini o‘z faoliyatini rejalay olishni, darslarni o‘tishga ta’sir etuvchi omillarni yaxshi bilishi, bilim va malakalarni har doim rivojlantirib borishni, har doim o‘quvchilarni kuzatib borishni va ulardagi psixik xususiyatlarni diqqat bilan o‘rganishni talab qilib boradi.

Takrorlash uchun savollar

1. Kasbga o‘qitishda pedagog faoliyati va uning psixologik muammolari.
2. Pedagogik ixlos va uni kasbga yo‘naltirishdagi ahamiyati.
3. O‘qishga munosabat va intellektual sifatlar. Axloqiy – irodaviy fazilatlar. Ishbilarmonlik xislatlari.
4. Kasbga xos xislatlar va ularni rivojlantirish masalalari.

3.6 Kasbga o‘qitishda tarbiyalash va o‘z - o‘zini tarbiyalash psixologiyasi

Kasbga o‘qitishda tarbiya va uning roli

Kasbiy tarbiya tarbiya tizimining bir qismini tashkil etadi. Unda “inson - kasb” munosabatlarini shakllantiriladi. Kasbiy tarbiyaning izlanish obyekti sifatida serqirra yo‘nalishlarga ega: bular ijtimoiy, falsafiy, ijtimoiy - pedagogik, ijtimoiy - psixologik, madaniy - ma’naviy o‘rganish yo‘nalishlaridir. Bozor iqtisodi munosabatlariga o‘tish davrida kasbiy tarbiyaning e’tiborga loyiq bo‘lgan ijtimoiy - iqtisodiy, madaniylashganligi, ijtimoiy - pedagogik va psixologik

yoʻnalishlari koʻzga tashlanadi. Aynan kasb mutaxassissi sifatida ijtimoiy kasbiy kompetentlik va kasbiy madaniyat uning taraqqiyotida birinchi darajali rolni oʻynashi koʻrinadi.

Jamiyatning hozirgi taraqqiyoti, oʻzining murakkabligi va oʻzgarib borish jarayonlari bilan xarakterlanadi. Bunda yosh mutaxassislarni shaxsini shakllantirish va kasbga yoʻnaltirish, jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchi, uni yangi kasbiy mahorat va madaniyat bilan taʼminlovchi insonlarni tarbiyalash vazifasi yotadi. Yuksak darajadagi kasbga ega boʻlgan, oʻz ishining ustasi boʻlgan shaxslarni tarbiyalash bu jamiyat taraqqiyotini va ijtimoiy munosabatlarini bir xilda rivojlantirish sharoitini yaratadi.

Tez oʻzgarayotgan texnologiyalar, undagi ilmiylik darajasi kasbiy moslashishni, yangi kasbiy psixologiyani, yangi darajadagi madaniyatni talab qilib bormoqda. Bozor iqtisodi sharoitida kasbni yaxshi egallash insonni ijtimoiy himoyalanganligini bir koʻrinishi hisoblanib, uning ijtimoiy oʻzini tasdiqlashini, oʻzini shu faoliyatga baxshida etishini va aʼlo darajada ishbilarmonlikni tashkil etishga olib keladi. Hozirgi kasb sohasini egallayotgan insonni raqobatbardosh mutaxassis sifatida na faqat keng va sifatli bilimi, balki yuksak darajadagi kasbiy madaniyati, kasbiy tarbiyalanganligi, kasbiy kompetentligini egallash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirda yosh kasb egalarini tarbiyalashda quyidagi tarbiya yoʻnalishlari koʻzga tashlanadi. Bular ijtimoiy, vatanparvarlik, fuqarolik, huquqiy-fuqarolik, badiiy-estetik, milliy va shu kabilar.

Kasbning maʼnaviy elementlariga: 1) ishlab chiqarish qurollari va mehnat qurollarini ishlata olish qobiliyati; 2) amaliy ishlab chiqarish tajribasiga ega boʻlish, ishlash davomida predmetlarning xususiyati va mehnat qurollarini ishlata olishni egallab borish; 3) fanni egallash davomida ilmiy bilimlarni egallab borish.

Yoshlarni kasbga tarbiyalab borishda quyidagi mehnat bilan bog'liq tarbiya ko'rinishlarini ajratish mumkin:

- Mehnatga psixofiziologik tayyorgarlik – jismoniy imkoniyatlarni rivojlantirish va ma'lum bir amaliy faoliyatni bajarishdagi qobiliyatlarni rivojlantirish;

- Ijtimoiy – psixologik tayyorgarlik – shaxsni har xil jamoadagi moslashish imkoniyatlarini rivojlantirish;

- Mehnatga ahloqiy – psixologik tayyor bo'lish – intizomlilik, mehnatning ijtimoiy motivatsiyasi, odamlarga bo'lgan munosabat, o'zi ishlayotgan jamoaga munosabat, tabiatga ehtiyotkorlik bilan bo'lgan munosabat, jismoniy mehnatga bo'lgan ehtiyoj va sh.k.

- Irodaviy tayyorgarlik – shaxsni sifatli shakllantirish, uni mehnat faoliyatidagi ko'nikma, malaka va o'zini boshqara olish faoliyati; o'zini faoliyatini tashkil qila olish, mustaqilligi, o'ziga ishonch, o'z mehnati natijalariga va boshqalarning mehnat natijalariga talabchanlik, buyurilgan ishga bo'lgan javobgarlik, intizomlilik, o'zini nazorat qila olishlik va sh.k.

- Mehnatga estetik tayyorgarlik – o'z mehnatini sifatli va go'zal qilib tashkil etishga bo'lgan talab;

- Mehnatga amaliy tayyorgarlik – ish qobiliyatini o'qitib borish, yetarli darajada jismoniy va aqliy o'sib borish, bilimlarini o'qitib borish, umumiy mehnat jarayonida ko'nikma va malakalarni o'qitib borish

- O'zini kasbi mehnat tarbiyasida o'qitib borish – o'quvchilarni o'qitish davomida kasbni egallashga bo'lgan faolligini o'qitib borish va o'z ustida ishlashni tashkil etish.

Kasbiy tarbiya tizimiga kiruvchi quyidagi komponentarni ajratamiz:

1. Maqsadli – kasbiy tarbiyani asosiy maqsadini o'zida aks ettirib – u kasbiy faoliyatning raqobatbardosh subyektini, shaxsni shakllantirishga qaratilgandir. Har bir kasb insonga o'zini maxsus talablarini

qo‘yadiki, inson bu talablarni qondirishi kerak bo‘ladi. Har bir kasbda o‘zining qonun - qoidalari, ahloqiy normalari va qadriyatlari bo‘ladi. Insonni bularni idrok etishi uning ijtimoiy kasbiy o‘z - o‘zini anglashni vujudga keltiradi. Insonni kasb bilan uyg‘unligiga tayyorgarligi bu kasbiy tarbiya jarayonida amalga oshadi.

2. Motivlashganligi – aniq bir kasbni ijtimoiy ahamiyatini anglash, shaxsiy va kasbiy manfaatlarni mos tushganligi, insonni psixofiziologik, jismoniy xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbni tanlash, uning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari bilan amalga oshiriladi.

3. Madaniylashganligi - kasbni umumiy madaniyatning bir bo‘lagi sifatida anglanganligi, kasbga ustalik yoki kosibchilik kabi qarashda, moddiy manfaatdorlik beruvchi sifatida qaramaslik kerak bo‘lib, uni moddiy – ma’naviy madaniyat, kasbiy tarbiyaning bir bo‘lagi sifatida anglash kerak.

4. Ijtimoiy – iqtisodiy – bunda shaxs o‘zini xuddi ma’lum bir xususiy mulkni olib yuruvchi sifatida anglashi; u o‘zini ma’lum bir manfaatlarni uyg‘otuvchi bir butun iqtisodiy munosabatlarni bir bo‘lagi sifatida anglashi;

5. Psixologik – bu o‘quvchilarning texnik tafakkurida, konstruktivlashda ko‘zga tashlanib, ularni kasbga bo‘lgan yo‘nalishida yuz beradi. Shuningdek, ularda shu kasbga bo‘lgan ahloqiy – psixologik shakllanishda ham ko‘zga tashlanadi.

6. Pedagogik – bu kasbiy tarbiyaning asosiy komponenti hisoblanadi. U butun bir ta’lim – tarbiyaviy jarayonni o‘ziga qamrab olib kasbiy shaxsni tarbiyalashga va uni shakllantirishga qaratilgandir.

O‘rganilayotgan hamma kasbiy tarbiyani uchta guruhga bir-lashtirish mumkin:

*individual

*guruhiy

*ommaviy

Yoshlar o'rtasida olib borilayotgan kasbiy tarbiyaning quyidagi metodlarini ko'rsatish mumkin bo'ladi:

1. Shaxsni ongini shakllantirish metodi;
6. Faoliyatni tashkil qilish metodi va ijtimoiy xulq - atvorni shakllantirish tajribasi;
7. "faoliyatni va xulq - atvorni rag'batlantirish" metodi.

Kasbiy tarbiyada shuningdek sinf rahbari o'quvchilar bilan ishlash metodlaridan ham foydalanish mumkin bo'ladi:

- O'quvchilarni faoliyatini va rivojlanishini kuzatish metodidan.
- O'quvchilarni o'qish va o'qishdan tashqarigi faoliyatini o'rganish metodidan.
- Anketa o'tkazish metodidan.
- O'quvchilarni pedagogik – psixologik xarakteristikasini tuzish metodidan.

Kasbiy tarbiyalashda o'quvchilar bilan ishlashda quyidagi shakllarni ham ko'rsatish mumkin:

- Kasbga yo'naltiruvchi darslar;
- Ekskursiyalar;
- Kasbga yo'naltirish bilan bog'liq sinf saotlari;
- Mutaxassislar bilan uchrashish;
- Professiografik izlanish;
- Ota – onalar bilan kasbga tegishli yig'ilishlar va sh.k.

Kasbiy tarbiya kasb psixologiyasining asosiy masalalaridan bo'lib u pedagogik psixologiya o'rganish tarmoqlariga ham kiradi. Pedagogik psixologiya bilan bog'liq bo'lgan kasbiy tarbiya kasbga o'qitish va unga xos bo'lgan kasbiy tarbiyaning mexanizmlarini o'rganadi. Kasb tushunchasi asosida mehnat faoliyatining ma'lum bir yo'nalishi nazarda tutilib, unga xos bo'lgan tarbiya masalalari ham uning ichiga kirib ketadi. Unda ma'lum bir tayyorgarlik ko'rish

va inson manfaatlari uchun kerakli bo'lgan moddiy ta'minot masalalari yotadi. Yoshlarni shu kasbga tayyorlashda esa unga xos bo'lgan kasbiy tarbiya ham o'z o'rnini egallaydi.

Kasb tanlashda insonni o'z - o'zini tarbiyalashi psixologik jarayon sifatida

Inson ulg'ayib borib o'zi uchun kerakli bo'lgan, o'zini va bolalarini boqa oladigan kasbni tanlay olishi zarur bo'ladi. Hayotda insonga qiziqarli bo'lgan juda ko'p kasblar mavjuddir. Psixolog va pedagoglar inson bu kasblarni egallay olishini va bunga ularda barcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatib beradilar. Inson xilma - xil kasblardan faqat bittasinigina egallashi, uni o'zining manfaatlari-dan kelib chiqib tanlashi kerak bo'ladi. Bunday jarayon, ya'ni kasb tanlash qanday tarzda sodir bo'ladi. Insonni kasb tanlashi va unga tayyorgarlik bu uzoq davom etadigan jarayondir.

Kasb tanlash bu birdaniga bo'ladigan jarayon emas. Kasb tanlash bir qancha etaplardan tashkil topadi. Bu etaplar bir butun holda yuz beradi. Bu etaplarni davomiyligi quyidagilardan tashkil topgan.

- Tashqi sharoitlar;
- Kasb tanlayotgan subyektning individual xususiyatlari.

Kasb tanlashning 8 ta tomonini E.A.Klimov ko'rsatib beradi. Bular:

- 1) Oiladagi katta yoshdagi oila a'zolarining tutgan o'rni, ya'ni ta'siri.
- 2) O'rtoqlari va tengdoshlarining tutgan o'rni;
- 3) Sinf rahbari, maktab o'qituvchilarining tutgan o'rni;
- 4) Shaxsning kasbiy rejalari;
- 5) Qobiliyatlari;

- 6) Tanlagan kasbini ijtimoiy tan olinganlik darajasi;
- 7) Kasb haqida ma'lumotlarga ega bo'lganlik;
- 8) Faoliyati davomidagi intilishlaridan.

Insonni kasb tanlashi psixolog I.Konning fikricha, bolalik davridan boshlanadi – bu o'yinlar tarzida, bunda bola har xil kasb bilan bog'liq o'yinlarni, rollarni o'ynaydi. Bola bu rollarni bajarishda har xil simvolik narsalardan foydalanadi. Deylik stuldan – rasta, qog'ozdan – pul sifatida foydalanadi. Bular asosida ma'lum bir rollar o'ynaladi.

Kasb tanlashda inson eng muhim jarayonni boshidan kechiradi. Bu kasb tanlashda o'z - o'zini tarbiyalash, tayyorlash hisoblanadi. O'zini kasb tanlashga diqqatini qaratilishi bolada shu kasbga bo'lgan intilishlardan boshlanadi. Bu intilishlar har xil motivlar asosida sodir bo'ladi. Inson o'zi uchun kerakli bo'lgan kasbni tanlashi juda ko'plab omillar asosida shakllanib boradi. Lekin bu omillarni o'sib kelayotgan avlod o'zida singdirishi va ongli ravishda kasbni tanlashi lozim bo'ladi. Kasb tanlashda inson o'z o'zini tarbiyalab boradi, bu esa insonni o'zini anglashi, maqsad va manfaatlarini chuqur tahlil qilgan holda amalga oshirishi bilan bog'liq bo'ladi.

Yoshlardagi kasb tanlash jarayoni bu psixologik jarayon bo'lib ularni shu kasbga olib keluvchi omillarga asoslanadi. Yoshlardagi psixologik jarayonlar va xususiyatlar bir xil bo'lmaydi. Bu ularning individual – psixologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Ayrim bolalar o'zligini anglab olgan bo'lsalar, ayrimlari boshqalarning ta'siriga tushadi. Demak, ko'rinib turibdiki, kasb tanlashda bolaga ichki va tashqi omillar ta'sir etadi. Boladagi tetiklik va bo'shlik bu kasbni tanlashiga sababchi bo'ladi.

O'z - o'zini tarbiyalash – bu ongli faoliyat bo'lib insonni shaxs sifatida o'zini to'la - to'kis imkoniyatlaridan foydalana olish hisoblanadi. Inson o'zini boshqarish mexanizmlarini faollashtirish

asosida amalga oshirishi kerak bo'lgan maqsadlarni, g'oyalarni, shaxsiy fikrlarni aniq bilishga asoslanadi. U bevosita tarbiya bilan bog'liq holda shaxsni shakllantirish jarayonini mustahkamlaydi, balki uni yanada rivojlantiradi. O'z - o'zini tarbiyalashning zaruriy komponentlari – bu insonni shaxsiy rivojlanishini o'zi tahlil qilishi, o'zini o'zi tasdiqlashi va o'z - o'ziga g'oyalarni singdirishi hisoblanadi.

O'z - o'zini tarbiyalashning zaruriy sharti bo'lib eng avvalo o'zini yaxshi bilish, o'ziga to'g'ri baho berish va o'z - o'zini anglash hisoblanadi. O'z - o'zini tarbiyalash bir qancha obyektiv va subyektiv sabablar bilan: hammadan yaxshiroq bo'lish, jamiyatni fuqarolarga bo'lgan talabi bilan, ularning ma'lumoti va sifati bilan, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashdagi pedagogik ta'sirlar bilan bog'liq. Mana shular asosida o'z - o'zini tarbiyalash uchun ichki sharoitlar shakllanib ehtiyojlar, manfaatlar, qarashlar va ishonchlar asosida insonda hayotiy g'oya va maqsadlar aniqlanadi.

Insonni o'z - o'zini boshqarish mexanizmlarini faollashishi asosida, o'z - o'zini tarbiyalash shaxsiy hayot mazmunini, maqsadlarini aniq anglab olinadi. O'z - o'zini tarbiyalashning zaruriy komponentlari – bu shaxs rivojlanishining refleksiyasi, o'z - o'ziga hisobot berish, o'z - o'zini nazorat qilish hisoblanadi. O'z - o'zini tarbiyalash usullariga quyidagilar kiradi: o'zidan qoniqqanlik, o'z - o'zini muhokama qilish, o'z - o'zini ishontirish, o'z - o'ziga maqsadlarni, manfaatlarni singdirish, shuningdek o'z - o'ziga buyuruq berish. O'smirlik davrida o'z - o'zini tarbiyalashda muhim rolni o'ziga baho berish o'ynaydi. Bunda bola o'zining imkoniyatlariga baho beradi va o'zini shunga tayyorlab boradi.

Pedagogika o'z - o'zini tarbiyalash tushunchasiga insonning ichki ruhiy dunyosini qo'yadi. O'z - o'zini tarbiyalashda tashqi omillar – bu faqat tashqi sharoitlar, uni qo'zg'ovchi omillar, harakatga

keltiruvchi manfaatlar hisoblanadi. Shuning uchun ham filosoflar, psixologlar va pedagoglar inson ruhiyatiga uni rivojlantiruvchi, harakatga keltiruvchi kuch deb qaraydilar. Tarbiyalab borish davomida o'smirmni o'zini o'zi tarbiyalashga ham e'tiborni jalb qilish kerak bo'ladi.

O'z - o'zini tarbiyalash ma'lum bir darajada shaxsni rivojlanganligini ko'rsatadi, ya'ni uni o'z - o'zini anglaganligi, o'zini xatti-harakatlarini boshqalarning harakatlari bilan taqqoslashda ko'zga tashlanadi. O'z - o'zini tarbiyalashni asoslari bo'lib va insonni yetukligini ko'rsatuvchi tomonlar bo'lib kishining o'z imkoniyatlariga, ixtidorlariga bo'lgan munosabatini, o'ziga bergan bahoni to'g'riligi, o'zidagi kamchiliklarni ko'ra olishlik hisoblanadi. O'z - o'zini tarbiyalash – bu subyektning anglangan faoliyati bo'lib, o'zini shaxs sifatida to'la namoyon qilish, o'zini maqsadlarini, g'oyalarini, shaxs sifatidagi mohiyatini chuqur anglagan holda o'zgartirib borishidir. O'z - o'zini tarbiyalash – bu ontogenez davrida kechikib kirib boradi, inson o'zligini anglab borishi bilan o'ziga bo'lgan e'tibor kuchayadi va o'zini - o'zi tarbiyalashga e'tibor beriladi.

Insonni o'z “Men”ligini tanishi va kasb tanlashdagi uning ahamiyati

Insonni dunyoga kelishi va rivojlanib borishi bu biologik va sotsial jarayonlarning natijasidir. Inson rivojlanib borishi davomida o'zida psixologik rivojlanish etaplarini bosib o'tadi. Shunday rivojlanish jarayonlaridan biri bu insonda o'z “Men”ligini tanish hisoblanadi. Psixologiya fanida o'ziga baho berish, o'zini bilishni, anglashni, o'zining “Men”ligini bilishi deb hisoblanadi. O'zini - o'zi anglash bu demak o'zini kuchiga, imkoniyatlariga, shaxsiy sifatlariga, ularni rivojlanganlik darajasiga yetarli darajada baho bera olish hisoblanadi.

“Men” konsepsiyasi – bu o‘zi haqida o‘zida umumlashgan tasavvurlardir. O‘z xususiy shaxsi haqidagi ustanovkalar tizimidir. “Men” konsepsiyasi insonda bolalik davridan boshlab shakllanadi. Buni qisqacha quyidagicha ko‘rsatib o‘tamiz:

1) O‘zini atrofda dunyodan ajratish chaqaloqlik davrdan boshlab to 2 yosh atrofida tugallanadi. Bu jarayonda bola o‘zini tanasini tashqi muhitdan alohida ekanligini va faqat o‘ziga tegishli ekanligini tushunadi. Ikki yoshli bola o‘zini oynada tanib oladi va o‘ziga tegishli bo‘lgan narsalar chegarasini belgilaydi (deylik “mening botinkam”, “mening qo‘g‘irchog‘im”), u o‘zini va boshqalarni alohida mavjud ekanligini ajrata oladi.

2) O‘ziga bo‘lgan munosabatni shakllanishi maktabgacha davrda yuz beradi. Bola bu davrda o‘zini “yaxshi” deb yoki “eplab olmaydigan” deb hisoblaydi. Asosan boladagi bunday o‘ziga baho berish uning atrofida ota - onasi, aka - uka, opa - singillarning ta’sirida bo‘ladi. Bunday o‘ziga bo‘lgan munosabat keyinchalik undagi Men – konsepsiyasini asosi bo‘lib qolishi mumkin. Boladagi “Men” obrazini shakllanishiga ko‘proq ota - onalar ta’sir etadilar. Ota – onalar boladagi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri harakatlar bilan ularni ta’minlaydilar. Bu tarbiya sifatida sodir bo‘lib, bolani ota - onaning harakatlarini kuzatish orqali ham sodir bo‘ladi.

3) O‘zini boshqalardan ma’lum bir xususiyatlari bilan farq qilishini ko‘rish bu “Men obrazi”ni tashkil etadi. Kichik maktab yoshida o‘zini hurmat qilish bu darslarni o‘zlashtira olish qobiliyati bilan bog‘liqdir. Maktabda yaxshi o‘qiyotgan bolalar yomon o‘qiyotgan bolalarga nisbatan o‘zini hurmat qilish yuqori bo‘ladi. Agarda bola ta’limga e’tibor bermaydigan muhitda bo‘lsa u holda bolani yaxshi o‘qishi hech qanday hurmatga ega bo‘lmaydi.

4) O‘smirlik davrida o‘z - o‘ziga baho berish jiddiy xarakterga ega bo‘ladi. Bu davrda o‘smirlar ularni atrofda qanday tarbi-

yalayotganligi haqida qayg'uradilar. Aynan shu davrda ularning aqli, tafakkuri shu darajada bo'ladiki, ular o'zini o'rab turgan dunyoni qandayligi va bu sharoitda ularni o'zi qanday bo'lishi kerak degan masala ularni o'ylantiradi. Bu kabi yangi bilish qobiliyati o'smir bolalarni ego – aynanlik – o'zi haqida bir butun tasavvurlarni paydo qiladi.

O'ziga baho berish shaxsni ijtimoiy moslashishini sezilarli darajada belgilab beradi. U shaxsni xulq - atvorini va faoliyatini boshqarib turadi. O'z - o'zini baholashning o'z faoliyati jarayonida va shaxslararo o'zaro munosabatda yuz beradi. O'zini hurmat qilishga va o'zini baholashni shakllanishiga ko'pgina omillar ta'sir etadi. Bular ilk bolalik davrdanoq boshlanadi, ya'ni ota - onaning munosabati, tengqurlar o'rtasidagi holat, pedagoglarni munosabatlari bilan bog'liq bo'ladi. O'zi haqidagi odamlarning fikri taqqoslash orqali inson o'ziga o'zi baho bera boshlaydi. Shunisi diqqatga sazovorki inson avvalo boshqalarni baholashga o'rganadi, keyin esa o'zini ham baholaydi. 14 – 15 yoshga kelib o'smir o'zini tahlil qilish va o'ziga ham baho berishga o'rganadi.

Psixologiyada o'ziga baho berish o'zini bilishning fenomeni sifatida qaraladi. O'zini bilish – bu insonni o'z - o'zini anglash bo'lib, o'zini “Men”ligini anglash hisoblanadi. O'zini anglash – bu insonni o'z kuchiga ishonish, imkoniyatlarini baholay olish, shaxsiy sifat darajasini va ularni rivojlanganligini ko'ra olish va o'ziga hisobot berish hisoblanadi.

O'zini hurmat qilish bu “Men”ligini baholashda muhim tushuncha hisoblanadi deb ko'rsatadi (Myers D G Social psychology HcCraw-Hill education 2002) Meyrs D. o'zining kitobida. Bu yerda Meyrs D. bolani o'zini hurmat qilishini o'z “Men”ligini tanishidagi muhim omillardan deb biladi. Meyrs “Men konsepsiyasini ijtimoiy psixologiyada o'rganishning ahamiyati shundaki, u bizning tafak-

kurimizni va ijtimoiy xulq - atvorimizni boshqaradi” deb tushuntiradi. Men konsepsiyasida ijtimoiy malaka ma’lum bir muhim rolni o’ynaydi. Bunga quyidagi omillarni ko’rsatish mumkin deb yo’nalish beradi D. U. Meyrs quyidagilarni “Men” likni tashkil topishidagi omillar deb yo’nalish beradi:

- ✓ Biz o’ynayotgan rollar;
- ✓ Biz shakllantirayotgan ijtimoiy identifikatsiya;
- ✓ Biz o’zimizni atrofdagilar bilan solishtirishimiz;
- ✓ Bizning yutuqlarimiz va kamchiliklarimiz;
- ✓ Atrofdagilarni biz haqimizdagi fikrlari;
- ✓ Bizga taalluqli bo’lgan madaniyat [41, 81.]

Kasbni tanlashda shaxsni o’z - o’zini baholashi – bu o’zini shu kasbga layoqatligini, shu kasbga mosligini yoki mos emasligini tanlagan kasbining talablaridan kelib chiqib baholashi hisoblanadi. O’z - o’zini baholash har qanday psixik jarayonlar kabi hayot davomida shakllanadi.

Psixologik – pedagogik adabiyotlarda kasb tanlashdagi qarorlarni tushuntirib berishda har xil yondoshishlar mavjud. Ayrimlar kasb tanlashni xuddi faoliyatni tanlash kabi tushuntiradilar. Ba’zilar esa kasb tanlashni insonni qiziqishi yoki kasbiy yo’nalishi sifatida qaraydilar. Bu masalaga to’g’riroq yondoshganlar insonni kasb tanlashi uning faolligi va ehtiyojlari bilan bog’liqligini ko’rsatganlar hisoblanadi.

Insonni kasb tanlashidagi o’z “Men”ligini anglashi uni tanlayotgan kasbini anglab, baholab, o’z layoqatlarini chamalab keyin tanlanishiga olib keladi. O’z “Men”ligini anglamagan holda tanlangan kasb, bu o’ylab, chamalab qilinmagan ish bo’ladi. Bunday kasbni tanlangan shaxs keyinchalik o’z kasbni o’zgartirishi, undan norozi bo’lishi, ishga jonu - dili bilan yondoshmasligini ko’rsatadi.

Kasb tanlash atrofida turgan kishilar o’zlarini bilishga xos bo’lgan alohida psixologik kayfiyatda bo’ladilar. Kasb tanlayotgan bu kishi-

lar uchun o'zlarini imkoniyatlariga baho berish, shu jumladan kasb bilan bog'liq imkoniyatlariga kasbga kirishga halaqit qiladigan tomonlarini va kasbga kirishishga bog'liq imkoniyatlarini baholay olish xarakterlidir. Lekin o'smirlar kasb tanlashida o'ziga baho berishlari yaxshi rivoj topmagan. Ularning ko'pchiligi kasbni tanlashdagi imkoniyatlarini yaxshi tahlil qilmagan holda, yuzaki baholab tanlashadi. Ko'p hollarda ular kasb tanlashni yetarli darajada baholay olmaydilar yoki o'ta yuqori baholay boshlaydilar. Bular oqibatda ularni noto'g'ri kasb tanlaganligini ko'rsatadi.

O'z "Men" ligini anglash juda murakkab jarayon hisoblanadi. "Men" obrazi yoki o'z - o'zini anglash birdaniga shakllanmaydi, balki yillar davomida shakllanib boradi. V.S. Merlin bo'yicha ko'plab ijtimoiy omillardan 4 tasi "Men" obrazini shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bular:

- O'zini boshqalardan farq qilishini anglash;
- O'z menligini faoliyatdagi faol subyekt sifatida anglash;
- O'zini psixologik xususiyatlarini, o'ziga emotsional baho berishni anglash;

- Muloqot va faoliyat asosida ottirgan malakalarga suyanagan holda o'z - o'ziga ijtimoiy - ahloqiy baho berishni, o'zini hurmat qilishni shakllanishi.

Bular insonni o'z menligini shakllanib borishi bilan birga kasb tanlashga ham o'z ta'sirini o'tkazib boradi.

Takrorlash uchun savollar

- 1.Savol. Kasbga o'qitishda tarbiya va uning roli.
- 2.Savol.Kasb tanlashda insonni o'z - o'zini tarbiyalashi psixologik jarayon sifatida.
- 3.Savol. Insonni o'z "Men"ligini tanishi va kasb tanlashdagi uning ahamiyati.

3.7 Pedagogik faoliyatning psixologik muammolari

Pedagogik faoliyat, kasbiy tarbiya va uning psixologik tomonlari

Kasbga o'rgatishda va tarbiya berishda pedagog faoliyatining o'rni va roli juda kattadir. Pedagog faoliyati haqida dunyoning ko'plab mutafakkirlari o'z fikrlarini berishgan. Pedagogik faoliyat – bu jamiyatning yoshi katta bo'lgan avlodlarining faoliyati bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash uning kasbiy maqsadi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning izlanish obyekti pedagogika fanining har xil yo'nalishlari: didaktika, xususiy uslublar, tarbiyalash nazariyasi, maktabga kirish kabilar hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning psixologik tomonlarini psixologik bilimlarning bir bo'lagi sifatida belgilash mumkin. Bu psixologik bilimdagi o'qituvchining psixologik mehnat qonuniyatlarini o'rganish, o'qituvchi jamiyat talab qilayotgan maqsad va pedagogik faoliyat tizimini qanday idrok etayotganligi, o'zgartirib borishi va hayotga tadbiiq etishi, qo'yilgan vazifalarni dolzarbligini, ma'lum aniq sharoitlardan kelib chiqqan holda o'z faoliyatining mezon va shakllarini o'rganishi kiradi.

Pedagogik faoliyatning mohiyati va psixologiyasi ijtimoiy omillar bilan belgilanadi – bu o'qituvchining jamiyatdagi o'rni va vazifalari bilan, jamiyatni o'qituvchidan talab bilan, ijtimoiy – psixologik omillar bilan; o'qituvchi shaxsiga va faoliyatiga atrofda qilarni munosabati undan kutilayotgan natijalari, uning o'zini pedagogik faoliyatdagi kutayotgan natijalari va ustanovkalari bilan bog'liqdir .

Pedagog o'z faoliyatida faqat o'qitmaydi balki, bolani tarbiyalab ham boradi. Pedagog faoliyatida ta'lim va tarbiya yonma – yon amalga oshiriladi. Kasbga o'rgatish, kasbga tayyorlash bo'lg'usi kasb egalarini nafaqat bilim, malakalar bilan ta'minlash balki, ularni tarbi-

yalashni, ma'naviy – madaniy bilimlarini o'zlashtirib borishni ham talab qiladi. Kasbga xos bo'lgan tarbiya pedagogika fanining bir tarmog'i sifatida o'rganilib kelinmoqda. Bo'lg'usi kasb egalari o'zlarining kasbiy madaniyatlarini o'zlashtirish bilan birga insoniyatga xos bo'lgan madaniyat, ma'naviyat kabi jarayonlarni ham o'zlashtirib borib umuminsoniy talablarga javob bera olishlari zarur bo'ladi.

Shuni aytish joizki, agarda pedagogika tarbiyaning maqsadi, vazifalari, metodlari bilan ish olib borsa, tarbiya psixologiyasi pedagogik psixologiyaning bir tarmog'i sifatida tarbiyalash jarayonining ichki psixologik mohiyatini o'rganadi. Bundan kelib chiqqan holda kasbiy tarbiyaning psixologik Qonunlarini va mexanizmlarini ochib berish zaruriy jarayon bo'lib, unda kasbga xos shaxsni shakllanishini, uning tarbiyalashni yangi metodlari va shakllar tizimi o'rganiladi.

Psixologiya tarbiyani tarbiyalovchilar va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabat sifatida o'rganadi. Shuningdek, bu yerda yana tarbiyalovchilar o'rtasidagi va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni ham jarayon sifatida o'rganib boriladi.

Tarbiya jarayonini tashkil qilish – bu insonni subyektiv dunyosini rivojlantirish, ijtimoiy qadriyatlar va jamiyatda qabul qilingan ahloqiy normalar asosida mustaqil qarorlar qabul qilish bilan bog'liqdir.

Shunday qilib aytish mumkinki, tarbiya – bu yangi avlodlarga ijtimoiy – tarixiy malakalarni berish; inson ongiga va xulq - atvoriga maqsadga yo'naltirilgan holda, unda ma'lum qadriyatlarga yo'naltirilgan tushuncha, prinsiplar, ustanovkalarni shakllantirish asosida ijtimoiy hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni rivojlantirish yotadi.

Shaxs taraqqiyotining ma'lum psixologik tomoni – bu o'sib keelayotgan yoshlarni yosh davrlar (ontogenez) bilan bog'liq jarayondagi xarakterini shakllanishi bunda “yaqinda yuz beradigan rivojlanish” va undagi senizitiv davrlar bilan bog'liqdir.

Shu davrda sotsium (ijtimoiy aqlli mavjudot) ning tarbiya jarayoniga ta'siri juda kattadir. Chunki bu davrda o'sib borayotgan inson ijtimoiy fikrlarga, o'zini qurshab turgan atrofdagilar orasida o'zini tasdiqlashga ziyraklik bilan e'tibor berib boradi. Bu qonunlarni bilish pedagogik amaliyotni bir butun tarzda tashkil etishni, bolalarni, o'smirlarni, o'spirinlarni mustaqil bo'lishga, qat'iy bo'lishga, javobgarlikni sezishga, o'zini qadrini his qilishga, ijodiy faollikka, tanqidiy tafakkurga ega bo'lishga o'rgatadi. Bu jarayonda ijtimoiy va oilaviy tarbiyani birligini ta'minlash muhim bo'lib, unda shaxsni rivojlanishdagi orqada qolishlar korreksiya qilinadi.

Tarbiya bilan, uning ilmiy asoslanishi bilan pedagogika va psixologiyadan tashqari filosofiya va sotsiologiya fanlari ham izlanish olib boradilar. Psixologik aks etdirishni hisobga olmasdan turib tarbiyaning asosiy masalalarini yechib bo'lmaydi va hatto masalani to'g'ri qo'yib bo'lmaydi. Chunki ularni tushunish uchun shaxs psixologiyasini, insoniy munosabatlarni, har xil ijtimoiy jamoalarning farqini bilmasdan bu masalalarni to'g'ri yechib bo'lmaydi.

Tarbiyalash uning maqsadini belgilashdan boshlanadi. Tarbiyaning asosiy maqsadi- bolani shaxs sifatida shakllantirish va rivojlantirish hisoblanib, unda ijtimoiy hayotda foydali bo'lgan va jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni shakllantirish yotadi.

Kasbiy tarbiyaning maqsadi. Bunda tarbiya – bu bolani ijtimoiylashuvining muhim tomonlaridan biridir. Ta'limning diqqat markazida faqat insonning bilish jarayonlari, uning qobiliyatlari, bilimni o'zlashtirishi, ko'nikma va malakalarni egallash yotsa, tarbiyada insonni shaxs sifatida shakllanishi, uning dunyoga bo'lgan munosabati, shuningdek jamiyatga va insonlarga bo'lgan munosabatlarini tarbiyalash yotadi.

Ta'lim va tarbiya uchun umumiy bu insonni ijtimoiy amaliyotni o'zlashtirish hisoblanadi. Maxsus tomoni esa bu subyektivlashtirish, ya'ni bu malakani qabul qilish qadriyatlar sifatida ekanligida ko'rinadi. Tarbiyaga buni tadbiiq etilganda bu shaxsning sifati va xususiyatlari, uning ijtimoiy xulq - atvorining shakllari bo'lsa, ta'limga bu bilim, ko'nikma va malakalar kiradi.

Tarbiya vositalari. Tarbiya vositalariga tashkil qilingan va tashkil qilinmagan ta'sirlar kiradi va u tarbiyalanuvchida ma'lum bir xulq - atvorni va psixologik sifadni vujudga keltiradi. Bu jarayonga insonni xulq - atvorini shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan: o'rganishlar kiradi.

Tarbiya vositalari bo'lib: tarbiyachining shaxsiy namunasi, xulq - atvor namunalari, pedagogikadagi, adabiyotdagi va san'atdagi yuksak baholanuvchi me'yorlar hisoblanadi.

Psixologlar tarbiyaviy ish metodlarini ishlab chiqib, tarbiyaga mavhum tarzda qarab bo'lmashligini va baholab ham bo'lmashligini ko'rsatib o'tganlar. Bu usullar qo'llanilayotganda, birinchidan tarbiyalanayotgan o'quvchining yosh va individual xususiyatlarini, ikkinchidan shu o'quvchi a'zo bo'lgan bolalar kollektivining xususiyatlarini, uchinchidan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladigan muayyan aniq sharoitlarni hisobga olish zarur.

Kasbiy tarbiyaga xos shaxsni tarbiyalash uchun maktab, litsey, kollejlardagi talabaning barcha vaziyat va holatlarda to'g'ri yo'l tutishini *istash* hamda to'g'ri yo'l tutishi uchun uning nima qilishini bilish, o'zi hurmat qiladigan kishilarning nima qilayotganlarini ko'rish va o'zi ham to'g'ri xulq - atvorli bo'lishni *mashq qilish* (bu – eng muhim) zarur. Tarbiyaga, ahloqqa doir muayyan prinsiplar ishlab chiqilgan bo'lib, tarbiyalanuvchilar bilan bo'ladigan suhbatda shularga rioya qilish zarur bo'ladi:

1. Tarbiyaga, ahloqqa doir suhbatlar mazmuni jihatidan tegishli

yoshdagilarga tushunarli bo'lishi lozim. Mavhum tushunchalar, murakkab mulohazalar bilan toliqtirib qo'ymaslik kerak.

2. Suhbat o'tkaziladigan guruhni, uning yo'nalishini, bu guruh a'zolarining o'zaro munosabatlarini, o'qituvchiga, o'qishga va boshqalarga munosabatini yaxshi bilish zarur.

3. Yoshlar bilan bunday suhbatlarni tez - tez o'tkazib turmaslik kerak. Ular bilan bo'ladigan suhbatlarni ma'lum bir tadbirlarga bog'lab o'tkazish yaxshi natijani beradi.

4. Suhbatni yorqin, yaxshilab tanlab olingan aniq misollarda, hayotiy voqealar yoki adabiy asarlardagi faktlarni hamda kuzatishlarni tahlil qilishdan boshlab, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'tish tavsiya etiladi.

5. Emotsional tarzda keltirilgan, yorqinva ta'sirchan obrazlarga oqilona tayanish (nafis san'atdan, adabiyot asarlaridan foydalanish, kino-filmlar yoki teatr asarlariga kollektiv bo'lib borish va uni eslash) zarur.

6. Tarbiyalanuvchining ongiga singdirilayotgan qoidalarining yaxshilab asoslab berilishi, isbotlangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

7. Tarbiyalanuvchilarda faollikni uyg'otish, jonli ravishda fikr almashish istagini uyg'otish, ularning fikrini avj oldirish va o'zlarini ahloq masalalari ustida o'ylab ko'rishga majbur qilish zarur.


Pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablar va majburiyatlar **Shaxsni tarbiyalashda pedagog va o'quvchi muloqoti**

Har qanday kasbiy faoliyat u bilan shug'ullanayotgan insondan shu o'zi shug'ullanayotgan kasbga xos bo'lgan talablarni va majburiyatlarni bilishni va unga amal qilishni zaruriy qilib qo'yadi. Kasbga xos bo'lgan talab va majburiyatlar sifatida yuksak kasbiy mahoratni va shu kasbning ustasi (masteri) bo'lishni zarur qilib qo'yadi. Pedagog zamonlar va avlodlar tomonidan saralab, to'planib kelayo-

tgan yutuqlarni, bilimlarni madaniyat sifatida o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazib berib, ularni jamiyatga va uning kelajagi uchun zarur bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalab boradi.

Pedagog nafaqat o'quvchilarni fan asoslariga o'rgatib boradi, balki ularni har tomonlama rivojlantirib, o'stirib borib, jamiyatga o'z mehnatlarini qo'shishga, moddiy ne'matlar yaratishga ham o'rgatadi. Bu esa jamiyatga va insonlarga xizmat qilish, o'zini va jamiyatni bo'yib borishga olib keladi. O'qituvchi o'zining mehnati bilan jamiyatdagi ishlab chiqarishning boshida turadi va shuningdek ijtimoiy progressning, ijodiy potensialning asosini ham yaratishda ishtirok etadi.

Pedagogning yuksak majburiyatlari va unga qo'yilgan talablar, kadrlar tayyorlashning muhim talablari sifatida zaruriy jarayon hisoblanadi. Bu jarayonni o'tgan zamonning mutafakkirlari, allomalari juda yaxshi tushunganlar va bular haqida o'z fikr – mulohazalarini ham aytib ketganlar. Ularning fikricha o'qituvchi quyidagi talablarni qondirishlari zarur bo'lgan.



19-chizma.

Bo'lg'usi pedagoglarga har xil jiddiy talablar qo'yiladi. Bu talablar asosiy va qo'shimcha talablarga ajratilishi mumkin bo'ladi. Asosiy va doimiy talablarga:

- *Bolalarga bo'lgan muhabbat;
- *O'z pedagoglik kasbini sevish;
- *O'zi sevgan pedagoglik kasbi bo'yicha bilimlarni yetarli bo'lishi;
- *Keng eruditsiyaga ega bo'lish;
- *Pedagogik intuitsiya;
- *Yuksak taraqqiy etgan intellekt;
- *Yuksak darajadagi madaniyat va ahloq;
- *Bolalarni o'qitish va tarbiyalashga xos bo'lgan har xil metodlar va tushunchalarga ega bo'lish.

Yuqorida sanab o'tilganlarsiz gogik faoliyat muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Bu jarayonlar ham tug'ma bo'lmaydi, balki pedagogning ko'p yillar davomida qilgan mehnatining natijasi sifatida shakllanib boradi.

Pedagog faoliyatiga qo'yilgan qo'shimcha talablar – bu pedagog shaxsiga qo'yiladigan, doimiy bo'lgan va har doim pedagogga kerak bo'lgan talablardir. Bular pedagogdagi muloqotga kirishuvchanlik, artistlik, xushchaqchaq xulq, yaxshi did, intizomni va tartibni o'zidan va boshqalardan talab qilishi va shu kabilar. Bu xislatlar albatta yaxshi, lekin pedagogga qo'yiladigan asosiy xislatlardan pastroq turadi. Bunga misol qilib muloqot qilishi pastroq bo'lgan matematika o'qituvchisini olsak, u muloqoti past bo'lishiga qaramay asosiy talablarga javob bergan holda yaxshi o'qituvchi bo'lib qoladi. Shu bilan birga bu qo'shimcha xislatlar ham o'zining ta'siri bilan o'qituvchini boyitadi va uni o'ziga xos bo'lgan qaytarilmas shaxs sifatida shakllantirib turadi. Asosiy va asosiy bo'lmagan pedagogik sifatlar birgalikda pedagogni individualligini, ya'ni o'ziga xos qaytarilmas shaxsligini vujudga keltiradi.

Shaxsni tarbiyalashda pedagog va o'quvchi muloqoti. Shaxsni tarbiyalashda uning muhim tomonlaridan biri bu pedagog va o'quvchi o'rtasidagi sodir bo'ladigan muloqot hisoblanadi. Bu jarayonda pedagog o'z vazifalarini amalga oshirib borib yosh avlodga o'z bilimlarini va tarbiyasini berib boradi. O'quvchining vazifasi o'qituvchi, ustozi berayotgan bilimlarni o'zlashtirib borish hisoblanadi. Psixologiya va boshqa fanlar tomonidan olib borilgan izlanishlar bolalarni bir xil bo'lmasligini, ularni tuzilishi, nerv – fiziologik xususiyatlari, ma'naviyati, dunyoqarashi, shu vaqtgacha orttirib kelgan bilimlari, yashash sharoitlari va shu kabilar, tarbiyalanuvchilarni bir xil emasligini tasdiqlaydi va shunga asosan bilimlar berishni talab ham qiladi.

Pedagogik muloqot – bu pedagogning o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqarida sodir bo'ladigan kasbiy muloqoti hisoblanadi. U o'ziga xos ma'lum pedagogik vazifani bajarib, o'quv faoliyatidagi ijtimoiy – psixologik iqlimni yaxshilashga qaratilgan, ya'ni o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotni va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotlarni shakllanishidagi ijtimoiy - psixologik iqlimni vujudga keltiradi. Muloqotning yutug'i bu ta'lim va tarbiya sohasidagi muvaffaqiyatlarni rivojlantirish va yanada yaxshi shakllantirishdir.

Tarbiyalash o'zining mohiyati jihatidan – o'zaro muloqotga kirishish jarayonidir, ya'ni uning asosida o'zaro muloqotga kirishish yotadi. Muloqot orqali pedagog o'quvchilarni xulq - atvorini va faoliyatini tashkil qiladi. Ularni ishlarini, o'zlarini tutishlarini baholaydi, yuz berayotgan jarayonlar, hodisalar haqida ma'lumotlar beradi, har xil xatti – harakatlardan kuyunish hissini beradi, o'z imkoniyatlaridan ishonchni yo'qolishiga yo'l qo'ymaydi.

Bolalar bilan suhbatlashish, kattalar bilan suhbatlashishga nisbatan anchayin qiyin o'tadi. Bu jarayonda pedagog bolaning ichki dunyosidagi kechayotgan qarama – qarshiliklarni, unga so'z bilan murojaat qilganda sodir bo'ladigan emotsional kechinmalarni hisobga

olishi, uning kattalar bilan bo'ladigan munosabatidagi yolg'onlarga bo'ladigan hissini bilib turishi kerak bo'ladi. Bolalarda bo'ladigan muloqot nafaqat so'z bilan yana har xil jestlar, mimikalar, qarashlar va hatto jim turish orqali ham sodir bo'ladi.

Muloqot texnologiyasi – bu eng avvalo o'qituvchi shaxsini kasbiy faoliyatda o'zini imkoniyatlarini ko'rsatish vositasi hamdir. O'qituvchini o'quvchi bilan bo'ladigan muloqoti har xil vazifalarni bajaradi:

- 1) Ma'lumot beruvchilik;
- 2) Me'yoriy vazifasi;
- 3) Bilim berish vazifasi;
- 4) Kommunikativ vazifasi;
- 5) Boshqarish vazifasi;
- 6) Tarbiyalash vazifasi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bo'ladigan pedagogik muloqotga ko'pgina pedagoglar e'tibor berib o'z fikrlarini aytib o'tganlar. Bular quyidagilar: A.S.Makarenko o'qituvchini pedagoglik mahorati-ni texnikasini yaxshi egallash kerakligiga e'tibor bergan. S.T. Shatskiy ham bu sohaga e'tibor berib o'qituvchi nafaqat o'zi talab qilayotgan ta-lablarning mohiyatiga e'tibor berishi, balki ularni shakli va toniga ham o'z e'tiborini qaratishi kerakligini ko'rsatgan. V.A.Suxomilinskiy ham o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muloqotga e'tibor berib, maktabda aytilgan har bir so'z o'ylangan, aqlli, maqsadga muvofiq, o'z vazniga ega bo'lishi – bu aniq insonga jonli tarzda qadrsizlanmagan holda qa-ratilgan bo'lishi va uning qimmati har doim oshib borishi kerak deb ko'rsatadi.

Pedagog va o'quvchi o'rtasida bo'ladigan muloqotda muhim tomonlardan biri bu muloqot qilish stili (demokrati yoki avtoritar) hisoblanadi. O'qish jarayonini va intizomni yaxshilash uchun avto-ritar yo'ldan foydalaniladi. Bunda o'qishni xohlamaydigan, qiziqishi yo'q, darslarda faol bo'lmaydigan o'quvchilarga qaratiladi.

Demokratlashtirish – bu shaxs va jamiyatning qiziqishlariga qaratilgan burilishdir. Bunda o‘qituvchi bo‘ysundirishdan gumanizatsiyalashga asoslangan, erkin fikrlovchi, o‘z ehtiyoji va qiziqishlari asosida boshqarish hisoblanadi. Bunda o‘qish va o‘qishdan tashqari jarayonlarda bo‘ladigan muloqotlarda ijobiy muhit sodir bo‘ladi.

Kasbga yo‘naltirishda o‘quvchilarning individual - psixologik tomonlari va ularni pedagog tomonidan hisobga olinishi

Kasbga yo‘naltirishda o‘quvchilarning individual – psixologik tomonlarini hisobga olish muhim jarayonlardan hisoblanadi. Bu masalalar bilan shug‘ullanayotgan maktab psixologi har bir o‘quvchidagi individual psixologik tomonlardani hisobga olishi zarurdir. Qo‘yilgan bu masalaning dolzarbligi kasbga yo‘naltirish va uni diagnostika qilish bilan bog‘liq bo‘lib, bunda ma’lum bir tavsiyalar beriladi. Kasbga yo‘naltirish bu o‘spirinlik davrining 15 – 18 yoshiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda rivojlanish o‘z oxirgi stadiyalarini boshidan kechirayotgan davr bo‘ladi. Bu davrda o‘spirinning tafakkuri emotsional xarakterga mos tushadi, uning intellektual faoliyati affektiv (ochiq emotsional) ko‘rinishda sodir bo‘ladi.

O‘smirda bu davrda o‘z - o‘zini anglash sezilarli ravishda o‘sadi. Bu o‘sish oddiygina o‘sishdan iborat bo‘lib qolmasdan, u sifat jihatidan o‘ziga xos xarakterga ega bo‘ladi, bu hol o‘z shaxsining ma’naviy – psixologik xususiyatlarini aniq hayotiy maqsadlar va intilishlar nuqtayi nazaridan anglash va baho berish ehtiyoji bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘spirin o‘zining ustunligini va kamchiliklarini o‘smirga nisbatan yaxshiroq va chuqurroq baholay oladi. O‘spirinda o‘z - o‘zini tarbiyalashga ehtiyoj o‘sadi.

Kasbga yo‘naltirishda o‘quvchining individual – psixologik tomonlari ulardagi sodir bo‘layotgan psixologik jarayonlar bilan

psixologik holatlar bilan va xarakter, temperament, qobiliyat kabi tomonlar bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Pedagogik faoliyat, kasbiy tarbiya va uning psixologik tomonlari.
2. Pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talablar va majburiyatlar. Shaxsni tarbiyalashda pedagog va o‘quvchi muloqoti.
3. Kasbga yo‘naltirishda o‘quvchilarning individual – psixologik tomonlari va ularni pedagog tomonidan hisobga olinishi.
4. Hozirgi zamon o‘quvchisi va kasbga yo‘naltirish masalalari.
5. Kasbga xos masalalarni yechishda psixolog va pedagoglardagi psixologik muammolar.

3.8. Kasbiy qobiliyatlarni shakllanganligini diagnostika qilish

Kasbiy faoliyat tushunchasi. Yoshlarda kasb tushunchasi va ulardagi qobiliyat imkoniyatlari

Izlanuvchi yoshlar kasb - hunar va uni egallash, hayotlarini, kelajaklarini hal qiluvchi omil ekanligini bilib boradilar. Shulardan kelib chiqib **kasb – bu inson hayoti uchun zarur bo‘lgan, jamiyatdagi huquqiy normalarga javob beradigan, insonni kelajagini belgilab beradigan o‘ziga xos murakkab bo‘lgan jarayon** deb belgilashimiz mumkin. Kasb – bu insonni ma’lum bir ehtiyojlarini va manfaatlarini o‘zi tanlagan kasb faoliyatidagi bilimlari, layoqati, malakalariga xos xususiyatlari orqali namoyon bo‘lishidir. Kasbga xos bo‘lgan jarayonlar, ularni egallash, tanlash inson psixologiyasi bilan bog‘liq. Kasb psixologiyasi aynan shunday murakkab jarayonlarni o‘rganish orqali yoshlarni o‘zlari

qiziqqan kasbga yoʻnalish beruvchi murakkab fan hisoblanadi. Har bir kasbning oʻziga xos boʻlgan tomonlari, insonlarni oʻziga jalb qila oladigan qirralari mavjud boʻlib, inson bu jarayonlarni kuzatib borib shu kasbni egallashga intiladi. Bu jarayonlarda inson oʻzini ruhiyati bilan shu kasbga xos boʻlgan psixologik tomonlarni ham shakllantirib boradi.

Kasbiy faoliyat tushunchasi bu juda keng va rivojlanib borayotgan jarayon hisoblanadi. Har bir davrning rivojlanishi va oʻziga xos xarakteridan kelib chiqqan holda insoniyat kasbiy amaliyoti kengayib boraveradi. Kasb tushunchasi, yaʼni professiya – professio - lotincha soʻz boʻlib “ommaviy chiqish” degan maʼnoni bildiradi. Kasb - bu inson mehnat faoliyatining koʻrinishi hisoblanadi. Bunda inson bir butun nazariy va amaliy malakalarni egallagan boʻladi. Koʻpgina kasblar oʻzining yoʻnalishlariga ega boʻlib, bu kasb yoʻnalishlarini egallaganlarni shu sohaning mutaxassislari deb yuritiladi. Deylik vrach kasbi, bu kasb oʻz navbatida shu kasbning yoʻnalishlari boʻyicha mutaxassislarga, yaʼni vrach terapevt, xirurg, okulist, nevropatolog va boshqalarga boʻlinadi. Koʻrinib turibdiki, bu kasb juda koʻplab mutaxassislarga boʻlinadi.

Har bir davrda yoshlarni oʻzi tanlagan kasbi haqida mustahkam tasavvurlari boʻladi. Yoshlar kasb haqida jamiyatdagi talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda tasavvurlarga ega boʻladilar. Yoshlardagi kasb haqidagi tushunchalar yoshlik davrdan boshlab tadrijiy rivojlanib borish asosida shakllanadi. Yoshlarni kasbiy yoʻnalishi oʻziga xos yosh davrlar bilan bogʻliq holda rivojlanib boradi. Maktabgacha boʻlgan davrda bolalarda syujetli – rolli oʻyinlar keng tarqaladi, ulardan bir qismi kasbiy oʻyinlar xarakteriga ega boʻladi. Bolalar vrach, sotuvchi, tarbiyachi, oʻqituvchi, haydovchi, oshpaz kabi rollarni oʻynashadi. Keyinchalik bolalarda kasbga yoʻnalish beruvchi birinchi mehnat qilishga intilish, yaʼni uyni yigʻishtirish,

gullarga qarash, kiyimlarini tozalash va shu kabilar juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu kabi jarayonlar bolada mehnat qilishga qiziqishni uygʻotadi. Bular har qanday faoliyatning asosini tashkil etuvchi ijobiy motivatsiyalarni tashkil etadi va umuman kattalarni mehnati haqidagi bilimlarni boyitib boradi. Kasbiy rol oʻyinlarning natijasi – bu oddiy mehnat jarayonlarini bajarish, kattalarni qilayotgan mehnatlarini kuzatish bolalarda maktabgacha boʻlgan “kasb tanlashning” koʻrinishi hisoblanib, bular asosida ular kasblarni farqlash, har xil mehnatlarni bilishga olib boradi.

Kichik maktab yoshida esa bolalar kattalarga taqlid qilib boradilar. Bu yerda kattalarni, oʻqituvchilarni, ota - onalarni, qarindoshlarni, yaqin tanishlarni bolalarda qaysi kasbga layoqati borligiga baho berish boshlanadi. Bu yerdagi ikkinchi muhim tomon bu bolalardagi xususiyat – yaʼni motivlardagi yutuq va asosiy faoliyati koʻrinishi boʻlgan oʻqish jarayoni hisoblanadi. Bolalarni oʻqishdagi, oʻyin faoliyatidagi va mehnatdagi faoliyatlari asosida oʻz qobiliyatlarini anglash, ularni oʻzlari xohlagan kasb haqida tasavvurlarini shakllantirishga olib keladi. Boladagi kichik maktab yoshidagi qobiliyatlarini rivojlanishi ularda individual farqlanishni yaqqol koʻrsatib qoʻyadi, bular esa qaysi kasb ularga yoqishini koʻrsatib beruvchi spektrlarni rivojlantiradi. Oʻqish va mehnat faoliyati bolalardagi qayta takrorlovchi va natijaga ega (ijodiy) hayolni rivojlanishiga olib keladi. Bunday qobiliyatlar asosida har xil mehnat turlarini mohiyatini tushunish shakllanadi, oʻzini shu faoliyatda ishlashini tasavvur qiladi. Bolada ranglardagi kasbiy hayol paydo boʻladi, bu esa uning kelajagida qanday kasb tanlashiga oʻz taʼsirini oʻtkazadi.

Oʻsmirlik yoshi – bu davrda oʻsmir birinchi marotaba oʻz nafsoniyatiga asosan kasb tanlashga kirishadi. Oʻsmirlik bu shaxs boʻlib shakllanishning eng muhim, javobgarlikni his qilish bilan

bog‘liq davrdir. Bu davr har xil mehnat turlariga ahloqiy munosabatlar o‘rnatiladigan davrdir. Bu davrda har xil kasbni tanlash bilan bog‘liq qadriyatlar tizimini shakllanishi bilan bog‘liq davr hisoblanadi.

Kattalarni tashqi ko‘rinishlariga taqlid qilish bilan o‘g‘il bolalar “haqiqiy erkaklar”ga xos bo‘lgan kasblarni tanlashni xohlab qoladilar (deylik, uchuvchi bo‘lishni, kosmonavt bo‘lishni va shu kabilar). Qizlar esa ayollarga xos bo‘lgan ishlarni ko‘zlaydilar (deylik, qo‘shiqchi bo‘lishni, tikuvchi bo‘lishni, suhandon bo‘lishni va shu kabilar.). Romantik kasblarga intilish ommaviy axborot ma’lumotlari orqali ularda shakllanadi.

Yoshlarni 14 – 15 yoshidagi kasb tanlashi bu juda qiyin va murakkab jarayondir. Bu davrda ular qaysi kasbni tanlashlari hali yetarli aniqlanmagan bo‘ladi. Kelajakni aniq ko‘ra olmaslik ularda – o‘zining “Men”ligini anglash refleksiyasini rivojlantiradi. Ular o‘zlariga Men kimman? Mening qobiliyatim qanday? Mening hayotiy ideallarim qanday? Men kim bo‘lishni xohlayman? kabi savollarni bera boshlaydilar. Ko‘pgina kasbiy maktab o‘quvchilari uchun bunday o‘z - o‘zini tahlil qilish kasbiy o‘z - o‘zini aniqlab olish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik jarayonlarni uyg‘otadi. Lekin aynan kasbiy o‘quv maskanlarida, litsey va kollejlarda o‘qiyotgan o‘quvchilar kasbiy bilimlar olib o‘zlarini aynan kasblarini belgilab olishlari zarur bo‘lgan davrdir. Lekin amaliyotdagi statistik ma’lumotlar bu yoshlarni o‘zlari uchun ma’lum bir kasbni tanlab olganliklarini psixologik asoslab bergan emas. Ularni kelajakka psixologik intilishi, shuni ko‘rsatadiki, ular o‘z kelajaklarini to‘g‘ri tanlangan kasblarsiz, bu kasblarni egallamasdan turib o‘z kelajaklarini ko‘ra olmasliklarini ko‘rsatadi. Shunday qilib aytish mumkinki, bu davrda o‘smirlar uchun o‘quv kasbiy yo‘nalishni o‘zlari uchun tanlab olishi eng muhim, zaruriy jarayondir. Bunda ular kasbga va uning yo‘nalishlariga bo‘lgan

munosabatlarni shakllantirib boradilar. O‘smirlik davrining, ya’ni jismonan yetilish va ruhan bir xillikka o‘tishi ko‘p jihatdan ularni bosiq va o‘ylab ish qilishga olib keladi. O‘zlarini “Men”ligini tanib borib o‘zlari uchun kerak bo‘lgan kasblarni tanlay oladilar.

**Shaxs shakllanishining har xil davrlarida kasbiy
o‘z - o‘zini belgilash**

Yoshi	Kasb tanlashning davrlari	Kasbiy o‘z - o‘zini belgilashning usullari
Maktabgacha bolalik davri (7 yoshgacha)		Kasbiy – rolli o‘yinlar
Kichik maktab yoshi (11 yoshgacha)		Kasbiy induksiylar
O‘smirlik yoshi (15 yoshgacha)	Birinchi nafsoniy kasbni belgilash	Bo‘yoqlardagi hayoliy kasblar. Romantik bo‘yoqlardagi kasbiy mo‘ljallar
Erta o‘spirinlik davri (18 yoshgacha)	Ikkinchi realistik belgilash	Sharoiddan kelib chiqqan hollardagi kasbiy yo‘nalish, kasbiy ma’lumot va kasbiy tayyorgarlikni tanlash
O‘spirinlik (23 yoshgacha)	Kasbiy ma’lumot va kasbiy tayyorgarlikni tanlash	O‘quv – kasbiy maydonida o‘z –o‘zini belgilash
Yoshlik davri (27 yoshgacha)	Kasbiy adaptatsiya birinchi professionalizatsiya	Kasbiy yo‘nalishni mustahkamlab borish. Aniq ish joyiga o‘zini belgilab borishi

Yetuklik davri (33 yoshgacha)	Ikkinchi marotaba professionalizatsiya	Kasbda o'zini aniqlab olish
Yetuklik davri (60 yoshgacha)	Kasbiy mahorat	Kasbiy madaniyatda o'zini o'rnini belgilash
Qarilik davri (75 yoshgacha)	Mentoring -ustozlik	Ijtimoiy foydali va oilaviy hayotda o'zini belgilash

Qobiliyatni ajratib beruvchi testlar va ulardan foydalanish masalalari

Yoshlarni kasb tanlashlarida ularning qobiliyatlari katta rol o'ynaydi. Kasbga xos bo'lgan qobiliyatlarni borligi va bolaning o'zini qiziqishi to'g'ri kasb tanlashga, bu tanlagan kasbidan qoniqish hissini tuyishga olib keladi. Qobiliyati bo'lgan bolalar o'zlarini kasb tanlashlaridagi imkoniyatlari bilan boshqa bolalarga nisbatan tez o'z yo'llarini topa olishlariga olib keladi.

Yoshlarni o'zlari uchun qiziqarli va manfaatli bo'lgan kasblarini tanlashlari uchun ularni qobiliyatlarini test sinovlari orqali tekshirish mumkin bo'ladi. **Psixologik test** – bu standartlashtirilgan vazifalar bo'lib, uni bajarish tekshiriluvchini psixofiziologik va shaxsiy xarakteristikasini o'lchab beradi. Test – so'zi inglizchadan olingan bo'lib, **sinab ko'rish, tekshirish** degan ma'noni bildiradi. Demak, testlar orqali insonni barcha hayotiy jarayonlarini sinab ko'rish mumkin bo'ladi.

Insonlarni diagnostika qilish ularni qobiliyatlarini sinash qadimda mavjud bo'lgan. Deylik, qadimgi Xitoyda eramizgacha 2200-yil avval davlat ishlarida ishlamochi bo'lgan odamlarni qobiliyatlarini sinash usullari bo'lgan. Har uch yilda mansabdorlar imtihon qilinib ularni oltita san'at turlari bo'yicha sinalgan. Bular musiqa, kamondan otish, otda yurish, yozish, hisoblash, an'ana va urf - odatlarni bilishlaridan

iborat bo'lgan. Davlat tizimi uchun bu imtihon katta ahamiyat kasb etgan. Bunda sinalayotganlarni qobiliyatliroqlari, bilimdonlari, davlat hokimiyatiga yaxshi munosabatda bo'lganlari tanlab olingan. Bu kabi testlardan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan voqealar ko'pgina xalqlarda sodir bo'lib turgan.

Angiliyalik biolog Frensis Galton bir qator testlarni yaratib, bunda insonni ko'rish qobiliyatini, eshitish qobiliyatini, muskullarni kuchini bilishga qaratilgan va boshqa sensomotor vazifalarni o'rgandi. Galton sensor farqlarni o'rganuvchi testlar bu insonni intellektini ko'rsatadi deb hisoblagan edi. Amerikalik psixolog Djems Kettel og'riqni his etish, xotiradagi va boshqa psixologik jarayonlardagi farqlanishlarni o'rgandi. Kettelga birinchi marotaba testlarga qo'yiladigan talablar tegishli bo'lib, u hamma tekshiriluvchilarga bir xil sharoit yaratishni, test o'tkazishni vaqtini cheklashni, tomoshabinlarni bo'lmasligini, statistik metodlar asosida natijalarni ishlashni kiritish taalluqlidir.

Hozirgi zamon testiga fransuz olimi Alfred Bine katta hissa qo'shib inson tafakkurini testda tekshirishni olib kirdi. T.Simon bilan birgalikda u insonni tushunchalariga, hukm va xulosalariga tegishli bo'lgan testlarni ishlab chiqdi. O'tgan asrning 30 - yillarida hisoblash mashinasi yaratilib test natijalarini obyektiv hisoblashga imkoniyatlar yaratdi.

Hozirda testlarni juda ko'plab ko'rinishlari mavjud. Bular :

1. Predmetli testlar – intellektual shaxsiy va shaxslararo testlarga bo'linadi.

2. Testlarda topshiriqlardan foydalanishning alohida xususiyatlari bo'yicha amaliy obrazli va so'z testlariga bo'linadi.

3. Test materiallarining tasnifi bo'yicha sinaluvchiga talablar, blankali va apparaturali testlar.

4. Obyekt bo'yicha baholash – protsessual testlar yutuqqa erishish testi, holat va xususiyatlar testi.

Intellectual testlar shaxsni aqliy faoliyati rivojlanganlik darajasi va ularni alohida bilish jarayonlarini (idrok, diqqat, hayol, xotira, nutq) baholashda qo'llaniladi.

Qobiliyat va yaxshi tayyorlangan kadrlar masalasi. Kasb tanlashda qobiliyat va uning psixologik tomonlari

Qobiliyat – bu insonni individual – psixologik xususiyati bo'lib, uning faoliyatida ko'rinadi va bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishiga sharoit hisoblanadi. Qobiliyatda bilimlarni, malakalarni, ko'nikmalarni egallash oson kechadi va tez egallanadi, chuqur o'zlashtiriladi, puxta bo'ladi. Qobiliyatning o'ziga xos bo'lgan darajalari mavjud bo'lib, unga iste'dod, talant va geniallik kiradi.

Iste'dod, zehn – bu ko'pqirrali jarayon bo'lib, qobiliyatni paydo bo'lishi uchun asos hisoblanadi. Qobiliyatni rivojlanishida u faqat boshlang'ich, ilk momentdir. Talant va geniallik qobiliyatning darajalari hisoblanadi. Talant – bu insonni ma'lum bir faoliyatidagi yuqori darajasi hisoblanadi. Geniallik – bu ijodiy qobiliyatning oliy darajasidir.

Yoshlardagi qobiliyat ularda quyidagi xususiyatlarni bo'lishini talab qiladi:

- *kuzatuvchanlik
- *bilimga qiziqish
- *umumlashtira olishlik (xulosa)
- *mustaqil qaror qila olish
- *ijodiy hayolni bo'lishi.

Yoshlardagi qobiliyatni shakllanishiga ta'sir etuvchi tomon sifatida perseptiv – refleksiyaning ko'rsatish mumkin.

- a. Obyektni his qila olish
- b. Bilimga qiziqish

- d. O‘zini shu jarayonga tegishli ekanini his etish
- e. O‘zidagi kasbga bo‘lgan intilishni his etib turish

Yoshlarni qobiliyatini rivojlantirib borishda ularni o‘zlarini rivojlantirishga bo‘lgan intilishlari yotadi. O‘zlarini rivojlantirish uchun ularda quyidagi tomonlar bo‘lishi kerak bo‘ladi.

- *Bilimga intilish
- *Rejalashtira olish
- *Konstruktivlay olish
- *Muloqotga kirisha olish
- *Tashkilotchilik tomonlari.

Takrorlash uchun savollar

1- Savol. Kasbiy faoliyat tushunchasi. Yoshlarda kasb tushunchasi va ulardagi qobiliyat imkoniyatlari.

2- Savol. Qobiliyatni ajratib beruvchi testlar va ulardan foydalanish masalalari.

3- Qobiliyat va yaxshi tayyorlangan kadrlar masalasi. Kasb tanlashda qobiliyat va uning psixologik tomonlari.

IV Bob. Kasb psixologiyasida kasb tanlash, kasbga ongli yondoshish va o‘z - o‘zini anglash

4.1. Kasb tanlash va undagi inqirozlar

Kasb tanlashda yoshlarda sodir bo‘luvchi inqirozlar

Inqiroz tushunchasi va uning ta‘rifi

Yosh davrlar bilan bog‘liq inqirozlar

Kasb tanlash bu o‘ziga yarasha murakkab jarayon bo‘lib, unda kasbni tanlashda ikkilanishlar, adashishlar, inqirozli jarayonlar yuz beradi. Kasb tanlash har doim bir xil darajada bo‘lmaydi. Bu insondagi ko‘pgina psixologik, fiziologik jarayonlar bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Biz har birimiz hayotimiz davomida bir necha marotaba “krizis” tushunchasini uchratamiz. Krizis bu o‘zbek tilida “inqiroz” degan ma‘noni bildiradi. Kundalik hayotimizda bu tushunchani biz ko‘plab ishlatamiz, ya‘ni ishlab chiqarishdagi krizis davri, psixologik krizis va kasalning krizis davrlari haqida gapiramiz.

Krizis haqidagi nazariya yaqinda paydo bo‘ldi. Bu E. Lindemonning 1944-yilda chiqargan maqolasidan boshlandi. Chet el psixologlarining fikrlaricha, krizis nazariyasiga to‘rtta intellektual harakat o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan.

1) Evolyutsiya nazariyasi va uni umumiy va individual moslashishga ta‘siri

2) Inson motivatsiyasini o‘sishi va yutug‘i nazariyasi.

3) Insoniyat taraqqiyotiga hayotiy sikllar asosida yondoshish.

4) Ekstremal stresslar bilan birgalikdagi qiziqishlar.

Krizis nazariyasini asosi bo‘lib psixoanaliz (birinchi navbatda psixologik bir xillik va psixologik himoya tushunchalari), K. Rodjers-

ning bir xil g'oyalari, shuningdek rollar nazariyasi hisoblanadi.

“**Krizis**” so‘zi grekchadan ag‘darilganda – burilishi punkti, asos, boshlang‘ich degan ma‘noni bildiradi.

Psixologiyada bu kategoriya shunday tushuniladi:

- Birinchidan, hayotiy krizis sifatida, ya‘ni inson hayotidagi burilish davri sifatida ;

- Ikkinchidan, juda qiyin o‘tish davri, - kasallik, stress, travma va shu kabilar bilan bog‘liq burilish davri; shaxsiy hayotdagi emotional ahamiyatli voqealar yoki hayotning tubdan o‘zgarishi;

A. Reberning fikricha krizis bu kundalik, oddiy hayotdan tubdan og‘ish hisoblanadi. Krizis – bu har kungi faoliyatni umumiy ahamiyatini yo‘qotish hisoblanadi.

Krizis – bu murakkab o‘tish holati bo‘lib, oldingi hayot tarzida yashashni imkoniyatlarini yo‘qotish (yoki qiyinlashishi) va keyinchalik o‘zini yangi “Men”ni qanday yashashini bilmaslik bilan bog‘liq qiyinchiliklar hisoblanadi.

Krizis bosqichlari:

- Shok va dovdirab qolish (jarohatlanuvchi hodisalarini inkor etish)

- Voqelikni anglash va ma‘nosini izlash (g‘azab, adolatsizlikni his etish, voqelikni buzishga intilish)

- Chuqur g‘am va xafagarchilik (ruhiy azob, fikrni yig‘ishning qiyinligi, kuchni yo‘qotish)

- Qayta tashkil etish va yangilikni tug‘ilishi (xotira obrazlarini vujudga keltirish).

Shaxsning kasbiy rivojlanishdagi krizislari

Krizis	Krizisni vujudga keltiruvchi faktorlar	Krizisni yo‘qotish yo‘llari
Kasbiy o‘quv yo‘nalish krizisi. (14 – 15 yoki 16 – 17 yosh)	Ma’lum bir kasbni tanlash va uni tadbiq etish. “Men”konsepsiyasini paydo bo‘lishi va uning korreksiyasi.hayotni o‘zgartirib yuboruvchi tasodiflar	Kasbga o‘rgatuvchi korxonani tanlash yoki kasbiy tayyorgarlik ko‘rish yo‘llari
Kasb tanlash krizisi (16 – 18 yosh)	Kasbiy ma’lumotlardan vatayyorgarlikdan qoniqmaslik. Hayot faoliyatini ijtimoiy – iqtisodiy o‘zgarishi. Yetakchi faoliyatni ko‘rib chiqish	Kasbiy o‘quv faoliyatini motivlarining o‘zgarishi Kasb tanlash korreksiyasi
Kasbiy ekspektatsiya (ожидание) krizisi (18 -20 yosh)	Kasbiy adaptatsiyaning qiyinchiligi.yangi yetakchi faoliyatni o‘zlashtirish. kutilayotgan kasb bilan real faoliyatni to‘g‘ri kelmasligi	Kasbni egallashning faollashuvi. Mehnat motivlarini va “Men” konsepsiyasini korrektirovka qilish
Kasbiy o‘sish krizisi (23 -25yosh)	Egallab turgan mansabi va martabasidan qoniqmaslik. Ehtiyoj va malakasini yanada rivojlantirish. Oila qurish va iqtisodiy yetishmovchilik	Malakasini oshirish.Karera qilish.Ish joyini va faoliyatini o‘zgartirish. Xobbi, oila va turmush

Inqiroz tushunchasi va uning ta’rifi

Insonning yosh davriga qarab uni bosib o‘tadigan inqirozlarini psixolog olimlar o‘rganib, uning davrlarini asoslab berganlar. Yosh davrlariga qarab inson hayoti davomida yuz beradigan inqirozlar, krizislar qonuniy tarzda uch yoshda, yetti yoshda o‘n bir – o‘n uch yoshda sodir bo‘ladi. Albatta shuni ham unutmaslik kerakki insonni hayotini keyingi davrlarida ham o‘ziga xos bo‘lgan inqirozlar bo‘ladi. Bu krizis bir oy yoki bir- ikki yil davom etishi mumkin. Ayniqsa o‘smirlik davrida. Bu davrda jiddiy psixologik o‘zgarishlar, shaxsning o‘zgarib borishi, rivojlanishning juda tez, shiddat bilan bori-shi krizisning ko‘rinishi sifatida ko‘zga tashlanadi. Krizis davrining xususiyatlari sifatida bolani qiyin tarbiyalanishi, atrofdagilar bilan keskin konfliktlarga borishi, og‘riqli va qiyin kechadigan kechinmalarni boshidan o‘tkazishi kabilari bilan xarakterlanadi. Deylik, uch yoshli bolada krizis davrida qaysarlik, ziyonli harakati, o‘z holicha bo‘lib qolishini ko‘ramiz. Yetti yoshdagi bolalardagi krizisda psixik bir xillikni buzilishini, irodadagi barqarorlikni buzilishini, kayfiyat ham bir xil bo‘lmay o‘zgarib turishini va shu kabilarni kuzatamiz. O‘n uch yoshdagi o‘smirda esa krizis davrida ish qobiliyati pasayadi, maktabdagi yutuqlar kamayadi va shu kabilarni kuzatish mumkin. Shuni ham ta’kidlash kerakki, har bir krizis davrining asosiy mohiyati ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi. Deylik, yetti yoshli bolada negativ (salbiy)lik asosida uning mustaqilligi shakllanadi va tengdosh bolalar bilan bo‘ladigan o‘zaro muloqotda mazmunli, xilma-xil munosabatlari yuzaga keladi. Krizisni kechishi ko‘pgina hayotiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bular o‘qituvchini qobiliyati va tayyorgarligidan, oiladagi psixologik muhitdan va tarbiyadan kelib chiqadi. Demak, ko‘rinib turibdiki, krizisdan keyin yuzaga kladigan ijobiy tomonlar bu o‘qituvchidan, uning qobiliyati va bilimlaridan, oiladagi yuz be-

radigan munosabatlar natijasi bo'lgan psixologik muhitdan va bolaga beriladigan tarbiyadan kelib chiqadi. Har bir davrning krizisi o'zining o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi.

Insonda o'zining yashashi va o'zini tasdiqlashi, kattalardek bo'lib borayotganini atrofdagilarga ko'rsatishga intilishi, o'zidagi o'zgarishlarga bo'lgan munosabati, kattalar bilan teng munosabat qilishga bo'lgan intilishi va shu kabilar bolada o'zini ko'rsatishga bo'lgan psixik jarayonni vujudga keltirib boradi va biz ularni krizis sifatida bilamiz. Shundan kelib chiqqan holda bolalardagi ayrim krizisga xos bo'lgan tomonlarni ko'rsatib berishga intilamiz.



Yosh davrlar bilan bog'liq inqirozlar. Buning uchun biz kichik maktab yoshidan bu masalaga qarab, undagi krizislarni tahlil qilib ko'ramiz. Kichik maktab yoshi (7 – 12 yosh). Bu yoshda asosiy faoliyat – bu o'quv faoliyati hisoblanadi. Bu jarayonda kattalar ilmiy tizimdagi tushunchalarni olib yuruvchi sifatida tushuniladi. Subyekt uchun o'zidagi o'zgarishlarni yuz berishi yangilikning predmeti hisoblanadi. O'quv faoliyati bu o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyat shakli sifatida qaraladi. Bu davrda bolalardagi o'yin

faoliyati ilgaridagidek qolaveradi. Bolada hamkorlik va raqobat hissi rivojlanadi, shuningdek adolat va adolatsizlik tushunchalari shaxs sifatida ma'noga ega bo'lib boradi. Bu davrda bola faoliyatida texnik operatsiyalar rivojlanadi. Bolada aqliy rivojlanish darajasi aniq mantiqiy operatsiyalarni bajarishda elementar mantiqiy muhokama qilish shakllanadi. Boladagi ahloqiy ong darajasini ko'radigan bo'lsak unda konvensional (shartli) ahloq tashkil topadi. O'zini ehtiyojlaridan kelib chiqqan holdagi ta'sdiq asosida olib boradi, o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan odamlar bilan yaxshi munosabatni qo'llab turish asosida o'zini tutadi, bundan kelib chiqqan holda o'z avtoritetini ushlashga intiladi. Boladagi mehribonlik "Seni bilishsin" tarzida bo'ladi. Bunda unda ilgari muammo bo'lmagan bo'lsa, ota - ona bilan munosabat yaxshi bo'lsa. Boladagi ehtiyoj bu uni boshqalar hurmat qilishini xohlaydi.

O'smirlik krizisi 12 yosh. Bu krizisning sababi – o'smirni kattalar dunyosiga chiqishi, o'zidagi oila muhitida singdirilgan qadriyatlar tizimini qayta ko'rib chiqishni, o'zini va jamiyat munosabatlarini solishtirish jarayoniga olib keladi. Bu davrning xarakteristikasi shundaki bola o'quv faoliyatidagi va hatto ma'lum sohadagi qobiliyatga ega bo'lganligiga qaramasdan undagi mahsuldorlik kamayadi, ya'ni faoliyati pasayadi. Bu davrda bola ma'lum bir muhitdan qochishga intiladi, yolg'izlikni xohlab qoladi, intizomni buzadi va unga rioya qilmaydi, ziddiyatga borishga va janjallashishga intiladi. Shu bilan birga unda ichki halovatsizlik, norozilik, yolg'izlikka intilish, o'zini boshqalardan ajratish kabi tomonlar ko'zga tashlanadi. Krizisning oxiriga kelib bolalarda o'z xulq - atvorini ixtiyoriy boshqarish va boshqara olish, ularda kattalik hissini paydo bo'lishi va refleksiya rivojlanadi. Bu ulardagi kirizisning ijobiy natijasi sifatida paydo bo'ladi.

12 – 15 yoshdagi o'smirlik davri. Ulardagi asosiy faoliyat bu tengdoshlari bilan shaxsiy – intim munosabatlar hisoblanadi. 12 –

13 yoshga kelib bolalarda ularni ijtimoiy kattaliklarini tan olishga bo'lgan ehtiyojlar paydo bo'ladi. Jamiyatdagi o'z huquqlarini anglash, ijtimoiy foydali faoliyat bilan o'zlarini qoniqtira olishlari kabi tomonlar ularni tez rivojlanishlari uchun sharoit yaratadi. O'zini ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rnini anglashi, o'zini ijtimoiy ahamiyatli subyekt ekanligini anglab borishi kabi jarayonlar yuz beradi. Ularning faoliyatida motivlashgan ehtiyoj munosabatlari shakllanadi. O'smirlarni aqliy rivojlanish darajasi haqida gapirganimizda ularda formal fikrlash darajalari, ya'ni mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllanishi, aqliy operatsiyalarni bajara olish jarayonlari rivojlanadi. O'smirdagi ahloqiy ongining darajalari haqida so'z ketganda unda avtonom ahloqni vujudga kelishi, uning xatti – harakatlari o'zining vijdoni orqali amalga oshadi. Eng avvalo ijtimoiy yutuqlarga asoslangan prinsiplarga orqa qiladi, keyin esa umuminsoniy ahloqiy prinsiplarga suyanadi. O'smirdagi ehtiyojlar bu boshqalar bilan bo'ladigan munosabatda o'zini o'rnini belgilab olishi, uni hurmat qilishga bo'lgan ehtiyojni paydo bo'lishi, unga bo'lgan ishonch va uni tan olish, mustaqilligini hurmatlash.

Krizis davrining natijalari:

- O'z - o'zini anglashni rivojlanishi;
- Dunyoqarashning va falsafiy tafakkurning rivojlanishi;
- Nazariy bilimlar tizimini shakllanishi.

14 yoshga xos o'smirlik krizisi. (Bu davrni falsafiy tahlil davri deb baholasa bo'ladi). Bu davrda o'smir ko'proq mustaqillikka va "kattalarga" xos pozitsiyani sharoit bo'lmasa-da egallab borishga intiladi. Bu davrda u, ya'ni o'smir jizzaki va boshqalardan farqlanuvchi o'ziga xos fikrlarni bildirishga intiladi. Bu davrga tegishli bo'lgan qator qarama - qarshiliklar unda mavjud bo'ladi. O'smirdagi haddan tashqarigi faollik uni qattiq charchashga olib keladi; aqlga sig'maydigan xushchaqchaqlik umidsizlik bilan almashadi, o'ziga

bo‘lgan ishonch uyatchanlikka va qo‘rqoqlikka o‘tadi; yuksak ahloqlilik ishonchsizlik bilan almashadi, muloqotga bo‘lgan intilish yolg‘izlik bilan almashadi, nozik did beparvolik bilan almashadi. Bu yoshdagi krizisning oxiriga kelganda o‘smirda quyidagi yangi tomonlar vujudga keladi:

- kasbini va o‘z shaxsiga xos bo‘lgan tomonlarni aniqlab olish;
- o‘z xulq - atvorini mazmunga ega bo‘lgan qadriyatlar asosida boshqarish;

- o‘z shaxsiga xos bo‘lgan qadriyatlar tizimini shakllantirish;
- mantiqiy tafakkurning shakllanishi;
- gipotetik – deduktiv tafakkurning shakllanishi;
- o‘z shaxsiga xos bo‘lgan fikrlarning shakllanishi;
- O‘zini individualligini anglash.

Psixologlar krizis bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab masalalarga o‘z javoblarini berishga intilib kelmoqdalar. Krizisni inson hayotidagi o‘rni, uning sabablari nimada, uning oqibatlarini qanday bo‘ladi, krizisni yemirish bilan bog‘liq bo‘lgan oqibatlaridan qanday qochish mumkin, qanday omillar, qanday psixologik o‘ziga xos tomonlar insonni bu krizislardan saqlab qolishi mumkin degan qator savollar ularni o‘ylatadi. **Krizis** – grekcha - kreses - so‘zidan olingan bo‘lib, yechish, burilish punkti, natija degan ma’noni bildiradi. **Krizis psixologiyada qandaydir sabab yoki shaxsiy hayotdagi tub burilish asosidagi og‘ir holat deb tushuniladi.**


11 – 15 yoshdagi krizis haqida gapirganimizda uning o‘ziga xos tomonlari mavjuddir. Bu davrda jinsiy yetilish davri bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday holat yangi imkoniyatlar va yangi bog‘liqliklarni yuzaga keltiradi. Bular esa eski stereotiplarni to‘la o‘zgartirib yuborishi mumkin bo‘ladi. Bu davrni yana o‘tish davri deb ham yuritiladi. Bu davr birinchi marotaba qarama – qarshi jinsga garmonik prizma orqali qarash bo‘lib, endi eskicha tengdosh sifatida emas, balki uni

boshqa jins sifatida qarash shakllanadi. O‘smirlardagi jinsiy qiziqish ularda o‘zlarini “ego”larini, ya’ni “Men”ligini shakllantiradi. Bu davrda o‘smirlar o‘zining tashqi ko‘rinishiga diqqatlarini qaratadilar, o‘zlariga nisbatan malakali bo‘lgan o‘g‘il va qiz bolalarni so‘zlariga e’tibor beradilar.

O‘smirlardagi har doim katta kishi bo‘lishga intilish, ularni ota-onalar bilan ziddiyatga olib keladi, o‘zlarini shu davrni kechirayotganligini ham unutib qo‘yadilar. Bu davrdagi qiyinchiliklarni oldini olish uchun psixologlarga va psixoterapevtlarga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.



Quyida krizisning sabablarini ko‘rsatib beruvchi obyektiv va subyektiv hodisalar tizimini rasmda ko‘rsatib berilgan. Bu xilma - xil sabablar asosida bola rivojlanishida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.



20-chizma.

Psixologiya tarixida krizisni patologiya sifatida qaramagan psixolog olim bu L.S.Vigotskiy hisoblanadi. U navbatdagi yosh bilan bog'liq bo'lgan krizisga sekin astalik bilan o'tish, ayniqsa bolalaik davrida, shaxsni baquvvat bo'lishiga, atrof - muhitdagi salbiy holatlarga qarshi tura oluvchi irodaviy inson bo'lib yetishishiga olib keladi deb baho beradi. Lekin shu bilan birga bunday asta- sekinlik bilan krizisni o'tkazish uchun muhitda korreksiya ishini olib borish va agar psixolog bunga aralashsa mutaxassis sifatida uni ham bu sohani javobgarlik asosida olib borishi talab qilinadi.

Elkonin B.D. yosh davrlar krizisini paydo bo'lishi sababi bu insonda o'rnatilgan qolgan tushunchalar va hayotda asta sekin paydo bo'lgan yangi tomonlar o'rtasidagi ziddiyatlar deb tushuntiradi.

Sog'lig'i bilan bog'liq inqirozlar. Psixologik inqirozlar.

Deviant xulq - atvor bilan bog'liq inqirozlar.

Kasb tanlovchilarning sog'lig'i kasb tanlashda eng muhim tomonlardan hisoblanadi. Bizga ma'lumki o'quvchilarda o'sish, hayot jarayonlari davomida o'ziga xos bo'lgan jismonan kamchiliklar bo'ladi. Bular ayrimlari avloddan o'tsa, ba'zilari o'tirilgan bo'ladi. Bu esa uni kasb tanlashda inqirozni vujudga keltiradi. Bu insonni jismonan orttirib borgan kamchiligi hisoblanib o'zi orzu qilgan kasbni tanlashga halaqit beradi. Buning natijasida unda ma'lum bir norozichiliklar paydo bo'ladi. Bolalardagi bunday psixofiziologik kamliklarni tibbiy nazoratdan o'tkazish davomida aniqlash mumkin. Bolalarni vrach nazoratidan va psixolog nazoratidan o'tkazib turish va ularni kelajakda qanday kasb egasi bo'lishlarini aniqlash ko'p jihatidan ota - onalarga bog'liq bo'ladi.

Bolalarni sog'lig'i bilan bog'liq inqirozlar, eng avvalo ulardagi jismoniy yetishmovchilik, avloddan orttirib olgan kasallik, har xil travmalar, oiladagi muhit, o'zi o'ttirgan kasalliklar va shu kabilarda ko'rinadi. Bu kasalliklar o'smirni o'zi orzu qilgan kasbini egallashga halaqit beradi. Deylik hozirda bolalarda qandli diabet kasalligining ko'payishi. Bu oiladagi yoki o'zaro munosabatlardagi stresslar bilan bog'liq bo'ladi. Yoki har xil yuqumli kasalliklarning bo'lishi, ularni imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

Psixologik krizislar – bu yangilikni paydo qiladigan zaruriy, kerak bo'lgan dovuldir. Lekin insonlar boshqalarni boshqarish uchun shunday qiladigan bo'lsa, u holda ularning o'zlari asta - sekinlik bilan o'zlarini hayotlarini buzib boradilar.

Kasb tanlashda xuddi jismoniy kamchilik kabi psixologik kamchiliklar bo'lib ular ham kishini o'zi xohlagan kasbni egallashi uchun yo'l bermaydi. Bu insondagi nerv – psixologik kasallaklar tarkibiga kiradi. Buni psixologik inqirozlar bilan bog'lab tushuntiriladi. Shuni aytish mumkinki, psixologik inqirozlar har xil ko'rinishda sodir bo'ladi. Ularni endogen va ekzogen ko'rinishlarini ajratish va ularni tahlil qilishga harakatqilamiz. Endogen psixologik inqirozlarga, ya'ni aniq bir individni ichki omillari bilan bog'liq jarayon (avloddan meros bo'lib qolgan kasalliklar, inson miyasining atrofiyasi, qarichilik va sh.k.)larga, shizofreniyaga tegishli, manikal – depressiv psixoz, Parkinson kasali, epelepsiya va shu kabilar kiradi. Ekzogen kasalliklarga tashqi faktorlar asosidagi, muhitning ta'siridagi simptomatik va intoksikativ psixozlar, psixogenik (psixik travmalar asosidagi psixozlar, alkagol, narkotik, shuningdek shaxsni rivojlanishidagi patologiyalar) kiradi. Psixologik inqirozlarni darajasiga qarab nevroz va psixoz kasalliklarga ajratish mumkin. Misol uchun Fobiya (grekchadan - qo'rqish) – bunda insonni nimadandir qo'rqishi, vahimaga tushushini ko'rishimiz mumkin. Bunda insondagi vegetativ nerv tizimida buzilish yuz beradi. Buning natijasida uning yuragi tez urib ketadi va o'zi juda ham terga botib ketadi. Bu kabi kasallik nevroz holatida, psixoz va miyani kasallanishida uchraydi. Uning har xil turlari mavjud. Deylik, nozofabiya – bunda kishi kasallanishidan qo'rqadi, sotsiofabiya – bunda kishi ko'pchilik oldida so'zlashdan qo'rqadi, makondan qo'rqish – bunda inson yopiq joylardan, ochiq joylardan, balandliklardan qo'rqadi. Nevrotik fabiya – bu kishini yechib bo'lmaydigan ziddiyatlardan qo'rqishi. Bu insonlar o'rtasidagi bo'ladigan munosabatdagi ziddiyatlardan, fikrlardagi ziddiyatlardan qo'rqishi kabilarda ko'zga tashlanadi.

Bundan tashqari psixik inqirozlarga insondagi agressiv holatlar ham kiradi.

Depressiya – bu insonni faol bo‘lmasligi, ishlarda ishtirok etishga intilmasligi kabilarda ko‘rinadi. Nevrotik shaxs so‘zsiz diviant hisoblanadi, lekin u ijtimoiy hayotda hali ishtirok etishi mumkin. Lekin diviantning holati xavfliroq ko‘rinishi bu psixoz hisoblanadi. U quyidagi ko‘rinishlarda mavjud:

- Shizofreniya – bu real voqelikdan chetlashish, autizm deb ataladi. Autizm- grekchadan o‘zim deb ataladi. Bunda inson eng oxirgi begonalashuvni boshidan kechiradi. Boshqalar bilan munosabatda bo‘lmaydi va o‘zining dunyosida yashaydi.

- Paronayyal – doimiy alahsirash, aqlni pasayishi, shaxsni o‘zgarishi.

- Affektlar – bu diviant shaxsni holatini birdaniga ko‘tarilib ketishi bilan va bu kayfiyatni pastga tushib ketishi bilan bog‘liq manikal – depressiv holatdir.

Kasb tanlashda yana diviant xulq - atvor ham borki ular ham insonni kasb tanlashiga halaqit beradi. Bunga ko‘plab misollarni hayotdan keltirish mumkin. Bularga huquqni buzish, aqlan nosog‘lom bo‘lganligi, fohishabozligi, narkomanligi, aroqxo‘rligi, jamiyatda qabul qilingan normalardan og‘ishganligi kabilarni ko‘rsatish mumkin. Diviant – bu jamiyatda qabul qilingan me‘yorlardan og‘ish degan ma‘noni bildiradi. Shartli ravishda insondagi bunday xatti - harakatni uch qismga ajratish mumkin. Bular ijtimoiy – huquqiy, klinik va psixologik.

Psixologlar S. P. Karalenko va T.A.Donskoylar diviant xulq - atvorni quyidagi tipologiyasini ko‘rsatadilar.

- Ijtimoiy xulq - atvorga zid bo‘lgan (bezorilik, darbadarlik, o‘g‘rilik, jinoyat, fohishabozlik, vandalizim (moddiy boyliklarga vahshiyona munosabat) va x.k)

- Auddiktiv xulq - atvor – (narkomaniya, toksikomaniya, chekish, kompyuter va azart o‘yinlar, seksual adduksiya, fetishizm

(sajda qilish), ko‘p ovqat yeyish yoki och yurish, ritmga asoslangan musiqalar eshtish, qandaydir faoliyatga mukkasi bilan kirib ketish, hayotiy zaruriy jarayonlarni esdan chiqarish).

- Suitsid xulq - atvor
- Konformlilik (qulaylik) xulq - atvori
- Narsistik xulq - atvor
- Fanatik xulq - atvor
- Autik xulq - atvor
- Javobgarlikdan qochish
- Yolg‘on gapirish
- Xavotirlanish

Diviant xulq - atvorni xuddi shunday psixolog E.V.Zmanovskiy ham uch guruhga bo‘ladi. Bular:

Bu ijtimoiy xulq - atvorga qarashli – huquqqa qarashli bo‘lgan har qanday harakatlar (huquqni buzish, bezorilik, o‘g‘irlik, narkotiklar bilan bog‘liq jarayonlar va sh.k.)

Amaral xulq - atvor (agressiv xulq atvor, seksual og‘ish, darbadarlik, maktabdan qochish va sh.k).

autodestruktiv (o‘z - o‘zini yo‘q qilish) xulq - atvori (suitsid xulq - atvor, ozuq-ovqat va kimyoviy jarayonlarga muhtojlik, fanatiklik, sportning ekstremal ko‘rinishlari)

Diviant xulq-atvorni chet ellik olimlar o‘rganganlar. Bular antropotsentrik nazariya asoschilari P.Kelli, E.Krechmer, Ch. Lombroza, U. Sheldon, psixoanalitik nazariya asoschilari: Z.Freyd, K.Yung, E.Erikson va boshqalar.

Takrorlash uchun savollar

1. Kasb tanlashda yoshlarda sodir bo‘luvchi inqirozlar. Inqiroz tushunchasi va uning ta‘rifi. Yosh davrlar bilan bog‘liq inqirozlar.

2. Sog‘lig‘i bilan bog‘liq inqirozlar. Psixologik inqirozlar.

3. Deviant xulq - atvor bilan bog‘liq inqirozlar.
4. Kasb tanlashda adashib qolish bilan bog‘liq inqirozlar.
5. Kasb tanlashda ziddiyatlar, kelishmovchiliklar va o‘zligini ang-lamaslik masalalari.

4.2. Ongli kasb tanlash va kasbga yo‘naltirish masalalari

O‘quvchilarni tarbiyalab borish, bilim berish va ongli kasb tanlashga tayyorlash

O‘quvchilarga ta’lim berish va tarbiyalab berishning asosiy vazifasi ularni kelajak hayotga tayyorlash hisoblanadi. O‘quvchilarni bilim berish orqali va ularga ahloqiy malakalarni o‘rgatish – bu ularni kelajakda o‘zlari uchun va o‘z hayotlari uchun kerak bo‘lgan tarbiyani olish hisoblanadi. Ular har xil dunyoqarashga, psixologik xususiyatlarga ega bo‘lganliklari uchun ham kasb tanlashda har xil yondoshadilar. O‘quvchilarni kasbga ham tayyorlab borish, ularga tarbiya berish bilan bog‘liqdir.

O‘qituvchi faoliyatidagi asosiy maqsad bu o‘quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashlariga tayyorlash hisoblanadi. Buning uchun ular o‘quvchilarni tarbiyalab borishlari va o‘zlari xohlagan kasblarida mehnat qilishga tayyorlanishlari zarur bo‘ladi. Kasbga yo‘naltirishning asosiy strategik maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda o‘qituvchi o‘z oldiga aniq va yaqin orada bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalarni qo‘yadi. Bularga o‘quvchilarni aniq bilimlar bilan qurollantirish, ularda malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish, ijodiy imkoniyatlarini va ehtiyojlarini ochib berish, estetik va ahloqiy ongini tarbiyalash va sh.k. kiradi. Bularni natijasida o‘quvchilarni bilim darajasini va shaxs sifatidagi imkoniyatlarini aniqlab berish yotadi. O‘quvchilarni tarbiyalanganligi asosida ular-

ni yaqin va uzoq maqsadlari, ijtimoiy ahamiyati, shuningdek shaxsiy maqsadlari ro'yobga chiqadi.

O'qituvchi va o'quvchi faoliyatining natijasi bu kasbga yo'naltirishda ko'zga tashlanadi. O'qituvchi faoliyatining natijasi o'quvchilardagi psixologik ko'rinishda o'z aksini topadi, ya'ni ularning bilimlarida, uddalay olishlarida, malakalarida, shaxsga xos tomonlarini ko'rinishida, dunyoqarashlarida, ma'naviy ehtiyojlarida aks etadi. Ularda qadriyatlar va g'oyaviy xarakterlarni shakllantirish, ularni rivojlantirishga va o'zlarini anglashlariga olib keladi.

O'quvchilar faoliyatining natijasi – bu aniq bir kasbni tanlab olishlarida, ularni bajarishni uddalay olishlarida, shu sohani bilib borish imkoniyatlarida ko'rinadi.

O'quvchini ma'lum bir kasbni tanlab olishlariga yordamlashish muhim jarayon hisoblanib, boladagi shaxsiy imkoniyatlar va sifatlar shu kasbga mos kelishi muhim hisoblanadi. Quyidagi savollarga javoblar, ya'ni “Men kimman”, “Men nimani xohlayman”, “Meni qo'limdan nima keladi” kabi savollar bebaho yordam beruvchi savollar hisoblanadi. Bu savollarga esa psixologiyaning yosh yo'nalishi bo'lgan psixodiagnostika javob beradi. Bu yo'nalishning asosiy prinsiplari quyidagilar hisoblanadi:

1. Eng umumiy talantlilik. Talantsiz inson yo'q, balki o'z ish faoliyatini topolmagan inson bor.

2. O'zaro ustunlik. Agar siz biror bir narsani boshqalarga nisbatan yaxshi bajara olmasangiz, demak siz boshqa sohada ish faoliyatini yaxshi bajara olasiz.

3. O'zgarishlar albatta ro'y beradi. Inson haqidagi biror bir hukm, xulosa oxirigisi hisoblanmaydi. Siz biror - bir yangilikni bilib borar ekansiz, albatta ertasiga sizda biroz bo'lsa-da o'zgarish yuz beradi. Shuni aytish joizki kasbni ongli tanlashdagi psixodiagnostika test metodlari orqali olib boriladi.

Kasbga ongli ravishda qarashni o'quvchilarni motivlashgan faoliyati sifatida qarashimiz, ya'ni kasbning mohiyati bilan tushunishga yo'naltirilganligi bilan, o'zidagi imkoniyatlarni amaliy jihatdan sinashni, kelajakdagi kasbni egallashga bo'lgan faol tay-yorgarlikni, o'zida shu kasbga xos sifatlarni tarbiyalash kabilarni tushunamiz.

O'quvchilarni kasbga bo'lgan ongli munosabati hali yetarli darajadi o'rganilmagan. Bu yerdagi ongli "munosabat" olimlar tomonidan har xil tahlil qilingan. Deylik, A. Markovanning fikricha – munosabat bu o'zini va boshqa insonlarni o'rab turgan faoliyatning ichki holati hisoblanadi. N. Morozova esa buni manfaat, qiziqish sifatida tushuntirib bergan. Morozova munosabatni faoliyat bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlardan kelib chiqqan holda tushuntiradi. Shunday qilib bilim, kasbning mohiyati motiv sifatida xatti-harakatlarga undab turuvchi hisoblanadi.

Yoshlarni kasbga ongli munosabati bu ular tomonidan tanlangan kasbni ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatlilik bilan bog'langan tarzda ham tushuntiriladi.

Tanlangan kasbni ijtimoiy ahamiyatini yoshlar tomonidan anglanishi bu tanlangan kasbni mamlakatning iqtisodiy – ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga ta'sir etishini anglash bilan ham bog'liq bo'ladi. Bunda mamlakatni ishlab chiqarishini rivojlantirish, xalq xo'jaligini yetuk kadrlar bilan ta'minlash va o'zini bu harakati bilan yurtini bozor munosabatlaridagi infrastrukturasini to'ldirish ekanligini anglash yuz beradi.

Kasb tanlashning ongli munosabati – bu zarur bo'lgan bilimlarni borligi bilan belgilanadi. Bunga eng avvalo inson faoliyatidagi har xil kasblarni ko'rinishlarini va shakllarini, ularning mohiyatini tushuntirib beruvchi bilimlar kerak bo'ladi.

Bozor iqtisodiga yo'naltirilgan kasbiy yo'nalish yoshlarda hozirgi iqtisodni, menejment boshqarish nazariyasini, bozor muhitidagi marketing faoliyati va mo'ljalni, patent olishga kirishni, ma'lumotlarni bilishni va ularni mohiyatini tushunish – buning uchun informatika va informatsiyalarni asoslarini egallagan bo'lishlari kerak bo'ladi.

O'smirni kasb tanlashda o'zini aniq maqsadlarini anglab olishi va kasbga ega bo'lishga intilishi – bu ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Bunda uchta asosiy omillar birlashishi va ularga moslashish kerak bo'ladi: Bu Men xohlayman, Men eplay olaman, Men qila olaman omillaridir.

- “Xohlayman” – bu shaxsning intilishi, qiziqishi, xohlashi.
- “eplay olaman” – bu insoniy imkoniyatlar (fiziologik va psixologik, shuningdek shaxsning ta'lim resurslari).
- “qila olaman” – mehnat bozorining ehtiyojlari, insonni jamiyat, odamlar, oilasi va shu kabilar oldidagi majburiyatlari.

O'smirdagi kasbiy yo'nalish o'zida quyidagilarni qamrab oladi:

- Kasb dunyosiga moslashish (qanday kasblar mavjud?, bu kasb egasi nima bilan shug'ullanadi?)

- O'zi uchun qiziqarli bo'lishi va bu sohada uning imkoniyatlari qandayligini (qo'lidan qanday ishlar kelishini) anglab olishi.

- Mehnat bozoriga moslashish, ya'ni hozirda qanday kasblar jamiyatga kerakligini bilish.

- Ta'lim tizimidagi bozor munosabatlari, bola qiziqayotgan kasb bo'yicha olinadigan bilimlarni qayerdan olish mumkinligini anglash.

Asosiy tarbiyachi bo'lgan ota - onalar o'z bolalariga kasb tanlashda yordamchi hisoblanadilar. Ular bilan ochiq suhbat, bolalar qaysi kasbga qiziqishlarini bilib olishlari va ularga o'z yordamlarini berishlari zarur bo'ladi. Agarda ular tanlagan kasb ota - onaga yoqmasa ularni rayini qaytarmagan holda, nima uchun aynan

shu kasbni tanlaganligini va buning asosida nimalar yotganini bilib olishga ota - onalar intilishlari zarur bo'ladi. Ularni asosiy omillarini bilib olgach, o'z maslahatlari bilan yoki misollar orqali bu kasbga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishga harakat ham qilishlari mumkin bo'ladi. Albatta ota – onalarning o'zlari ham bu sohada savodli bo'lishlari, o'z bilim va ko'nikmalari bilan bolaga yetarli yo'nalish bera olishlari kerak bo'ladi. Ba'zi ota - onalar farzandining keyingi hayoti bilan qiziqmaydilar ham. Agarda bola ma'lum kasb haqida gapirsa "o'qib shaharni olib berarmiding" deb ham qo'yadilar. Bu bilan boladagi orzularni, havaslarni ular yo'qqa chiqarishlari mumkin bo'ladi. Bolani avvalom bor kelajakdan juda katta umidlari, orzulari, havaslari, intilishlari mavjud bo'ladi. Kasb tanlashda ham shu orzular ongli ravishda ro'yobga chiqadi.

O'smirlardagi ongli ravishdagi kasb tanlash quyidagilarga asoslanadi:

- 1) Kasblar dunyosi haqidagi bilimlarga;
- 2) Tanlanayotgan kasb to'g'risidagi bilimlarga;
- 3) O'z qiziqishlari va manfaatlarini o'rganishga;
- 4) O'zidagi qobiliyatlarni o'rganishga;
- 5) O'zini kuchli va kuchsiz tomonlarini o'rganishga;
- 6) O'z sog'lig'ini yaxshi bilishiga;
- 7) Oilaning moddiy tomonlarini hisobga olishga;
- 8) Mehnat bozoridagi holatni hisobga olishga.

O'smir tarbiyasi bilan bog'liq tomonlarni amalga oshirish zarur bo'lgan tomonlar. O'smirni qaysi yo'ldan borishini anglab olishi, ya'ni qaysi kasb bo'yicha bilimlar olishini aniqlab olishi zaruriy jarayon hisoblanadi. Bu sohada ko'proq "kerak" omili ishlay boshlaydi. Bugungi ijtimoiy – iqtisodiy sharoitda quyidagilar muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

*ijtimoiy zakaz, mehnat bozoridagi holat;

- *oilani moddiy ta'minlanganlik darajasi;
- *ta'lim olishda yordam olish imkoniyati;
- *shu kasb yo'nalishida mehnat haqini olish sharoiti;
- *kasbiy ta'limda mahalliy infrastrukturasi.

*Bola xohlayotgan (Men xohlayman) kasbni, mutaxassislikni tanlash. Tanlangan mutaxassislik bilan tanishish va insonga bu kasb qo'yayotgan talablar bilan tanishish.

- *bolani imkoniyatlarini hisobga olish (Men eplayman)
- *qiziqish va intilishlari;
- *o'qishdagi yutuqlar va qobiliyatlar;
- *o'zining kuchli va kuchsiz tomonlari;
- *sog'lig'i bilan bog'liq sharoitlar.

Psixologlar inson ongli ravishda kasbni quyidagilar asosida tanlab olishlari kerak deb hisoblashadi

- O'zining "Men" obrazi orqali. Xuddi shu "Men" obrazi kasbi karerani integratsiya, differensiatsiya va uni tashkil qilishni boshqarib turadi. "Men" obrazida inson o'z obrazini, o'zi haqidagi fikrlashi va o'ziga baho berishi shakllanadi.

- Intellekti: umumiy qobiliyatlar tizimi va o'qishga, o'rganishga bo'lgan qobiliyatlar namoyon bo'ladi.

- Maxsus qobiliyatlar: umumiy va maxsus qobiliyatlarni rivojlanish darajasi, ularni tuzulishi. Har qanday kasb "kasbga xos bo'lgan xususiyatlarni" insonda bo'lishini talab qiladi. Deylik rassomga – obrazli tafakkur, tkuvchiga dizayn va qobiliyat va shu kabilar. Shuning uchun biror bir kasbni tanlaganda shu sohaga loyiq qobiliyat borligini bilish kerak bo'ladi.

Ongli munosabat va kasb tanlash masalalari. Ongli harakat bu psixik jarayonlar bilan uzviy munosabatlardir

Ong va psixik jarayonlar

O'sib kelayotgan o'smirlarni kasb tanlashida ularning ongli munosabati tanlagan kasblarini to'g'ri tanlaganliklarini va bu tanlagan kasblaridan qoniqishlarini shakllantiradi. O'smirlardagi ongli munosabat bu eng avvalo bularni bilimlari va o'zligini taniganliklari bilan baholanadi. O'zini tanib olgan o'quvchi albatta biror bir kasbni mahkam ushlaydi va uni o'rganishga intiladi. O'quvchidagi ongli munosabat haqida gapirar ekanmiz, buni yaxshi tushunishimiz uchun ong va ongli munosabat tushunchalarini bir ko'rib chiqamiz.

Inson psixikasining taraqqiyoti bu biologik evolyutsiya qonunlari ta'siri bilan ro'y bergan bo'lsa, uning ongini rivojlanishi ijtimoiy – tarixiy qonunlar asosida amalga oshadi. Demak, ko'rinib turibdiki, inson ijtimoiy – biologik mavjudot bo'lar ekan, uning ongli munosabati ham xuddi shunday jarayondir. Insonning ongi bu uning asosi bo'lgan miya faoliyati, uning sog'lomligi, ishlash faoliyati imkoniyatlari bilan birga, inson yashayotgan muhit, shaxslararo munosabat, hayoti bilan bog'liq faoliyat, insonga xos bo'lgan fazilatlarni egallab, til, aql, ong yordamida kamol topib boradi.

Ong psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli hisoblanib, insonni yakka va hamkorlik faoliyatining (bu muloqot, nutq, til vositasida) ijtimoiy - tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida yuzaga kelgandir. Ongning tarkibiy qismiga bilish jarayonlari kirib, bilish esa insonni, ya'ni uni o'rab turgan borliq bilan aloqasini ta'minlab turuvchi sezgi, idrok, diqqat, xotira, hayol, tafakkur kabi jarayonlar bilan asoslanadi.

Inson ongining psixologik tushuntirishning yana bitta ko'rinishi bu insonni obyekt va subyekt o'rtasidagi aniq farqlanishini, ya'ni

shaxsning “Men” degan tushunchasi bilan “Men ” emas tushunchasini aniqlab olishi, ularning o‘zaro aloqasini bilib borishda ko‘rinadi.

Ongni yana bir tasnifi sifatida shaxsning maqsadi, manfaati, ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat hisoblanib, unda bu faoliyatga undovchi motivlar muhim hisoblanadi.

Ongning yana bir muhim tasnifi bu uning emotsional (hissiy) munosabatlari hisoblanadi. Shaxs ongiga uning dunyoqarashi, bilimlari bilan bog‘liq holda har xil his - tuyg‘ular (har xil darajada ijobiy va salbiy, barqaror, statik, dinamik) kechinmalar, stresslar, affekt holatlari kirib boradi va uning shunga xos xatti – harakatlarida ifodalanadi.

Ongning barcha vazifalari insonga xos bo‘lgan nutqda va tilda ifodalanadi Ong predmetiga faollik, yo‘nalganlik, intensiallik xususiyatlari kiradi. Bular: a) ongni doimo nimanidir tushunishga intilishida; b) refleksiyaga nisbatan qobiliyatlilikda; d) o‘z - o‘zini kuzatish, ya’ni o‘zini anglashda; e) motivatsion – inson faoliyatiga mazmun beruvchi qadriyatlilikida ko‘zga tashlanadi.

Kasb tanlashdagi imkoniyatlarni insonning ongi va ongli munosabatlari bilan bog‘laydigan bo‘lsak, u holda inson ongini tuzilishi bilan tanishib chiqamiz. Ongni tuzilishini ko‘pgina olimlar o‘zlaricha tahlil obyekti sifatida ko‘rib chiqqanlar. Deylik, professor E.G‘oziyev buni quyidagicha tariflaydi. Ongning tuzilishi:

1) Ongning tarkibi:

- a) obrazni his qilish imkoniyati;
- b) borliqdagi narsalarning qadr – qimmat;
- d) atrof - muhit obyektlarining ma’no kasb etishi.

2) Ongning vazifalari:

- a) aks ettiruvchanlik;
- b) ijodiylikni vujudga keltiruvchanligi;
- d) baholovchanligi;
- e) boshqaruvchanligi;


- f) refleksivligi;
- g) ma'naviyligi.
- 3) O'z - o'zini anglashning omillari:
 - a) oilaviy muhit ta'siri;
 - b) milliy muhit va milliy til vositalari;
 - d) ma'rifiy, ma'naviy, madaniy qurshov;
 - e) maxsus hayotiy vaziyatlar va favqulotda hodisalar.
- 4) Ongning xislatlari:
 - a) borliq obyektlari va jamiyat subyektlari bilan munosabat o'rnatish;
 - b) biosfera va neosfera hodisalarini anglash (tushunish, bilish);
 - d) tabiiy va ijtimoiy hodisalar hamda hodisalarga hamdardlik (em-patiyaning namoyon bo'lishi).
- 5) Ongning xususiyatlari:
 - a) reaktivligi;
 - b) sezgirligi;
 - d) refleksivligi;
 - e) taraqqiyotning ixtiyorsizligi (spontanligi);
 - f) polifonikligi;
 - g) dialogizmga moyilligi.
- 6) Ongning turlari :
 - a) individual;
 - b) guruh;
 - d) jamoaviy;
 - e) etnik;
 - f) milliy;
 - g) ijtimoiy.

Kasb tanlashda o'smirning ongli munosabati aynan ongning tuzi-lishidan kelib chiqadi. O'smirda kasb tanlashda ongli munosabat o'z- o'zini anglashdan boshlanadi.

Inson ongi va uning manfaat va ehtiyojlari
Inson ongi va kasb tanlashda uning o'рни
Ongli ravishda kasb tanlash bu inson kelajagi

Ong bu insoniyat tarixiy – taraqqiyotidagi eng noyob va takrorlanmas jarayondir. Inson ongini ko'p qirraligi uni o'rganuvchi obyektlarni ham xilma - xilligini ko'rsatadi. Ong muammosini falsafada, psixologiyada, psixotriyada, fiziologiya, kibernetika kabi ko'plab fanlar o'rganadi. Inson ongi bu juda murakkab tabiiy jarayon hisoblanib, uning o'ziga xos Qonuniyatlari va yuz berish xususiyatlari mavjud. Inson ongi uning butun hayotiy jarayonlarini boshqarib boradi va insonga xos bo'lgan, uning tirikligi va taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlarni boshqaradi. Inson hayoti davomida ko'plab o'zini tirikligini ta'minlovchi hodisalarga muhtoj bo'ladi. Shu hodisalarni amalga oshirib borib o'z hayotini ta'minlaydi. Bunday zaruriy va bajarilishi shart bo'lgan hodisalar eng avvalo uning biologik mavjudot sifatida yashashini ta'minlaydi. Insonning ehtiyojlari uning uchun eng zarur bo'lgan, amalga oshirishi kerak bo'lgan jarayonlar hisoblanadi. Inson ehtiyojlarini ko'pgina olimlar o'rganganlar. Ular inson etiyojlarini moddiy va ma'naviy ehtiyojlar tarzida va boshqa ko'rinishlarda bo'lib chiqqanlar. Ko'plab ehtiyojlar mavjudligi va ularning klassifikatsiyasi ham berilgan.


A.Maslov ehtiyojlar piramidasi



22-chizma.

Insonni kasbga bo'lgan intilishi uning ma'naviy ehtiyojlari qatoriga kiradi. Bu haqida O'zbekiston fanlar akademiyasining akademigi E.Yusupov shunday yozadi: "Ma'naviy kamolot muayyan ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liqdir. Ehtiyoj va zaruriyat yo'q joyda hech qanday yuksalish bo'lmaydi. Ehtiyojning o'zi ham inson ma'naviyat darajasi bilan belgilanadi.".[37,8.] Ko'rinib turibdiki, insonni kasb tanlashi bu uning ma'naviyati bilan, ongining rivojlangan darajasi bilan bog'liq bo'lar ekan. Inson ehtiyoji bu uning o'z maqsad va

manfaatlarini anglaganligi va uni qondirish yoʻlida harakatlanayotganligidan darak beradi. Inson faoliyati bu uning ehtiyojlari bilan bogʻliq boʻlishi va bu ehtiyojlar insonda maʼlum bir manfaatlarni uygʻotishini koʻrish mumkin. Quyida inson ehtiyojlarini qondirish va uning faoliyati bilan bogʻliqlik darajasini koʻrsatuvchi sxema berilgan.



23-chizma

Kasbga yoʻnaltirishning maqsadi bu jamiyat tomonidan koʻrsatilgan boʻlib uning vazifalari va ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Oʻqituvchining asosiy faoliyati oʻquvchilarni ongli tarzda kasb tanlashlariga tayyorlash hisoblanadi. Qoʻyilgan maqsad strategiyasi va oʻqituvchining kasbga yoʻnaltirish vazifasi oʻz oldiga yaqin va aniq vazifalarni qoʻyadi. Bu vazifalar oʻquvchilarni maʼlum bilimlar bilan qurollantirish, estetik ongini tarbiyalash, ularda ahloqiy, tarbiyaviy bilimlarni shakllantirish va shu kabilarni qamrab oladi. Natijada bular oʻquvchini shaxs sifatida rivojlanish darajasini shakllantirib boradi. Bunda oʻquvchini ongi shakllanib borib, oʻzini yaqin va uzoq maqsadlarini amalga oshirishi kerak boʻlgan faoliyatlarini belgilab olish jarayoni shakllanib boradi.

Tarbiyalanganlik darajasidan kelib chiqib ularni uzoq va yaqin maqsadlarini amalga oshirish kerak bo'lgan vazifalarni bajarishga qaratiladi.

Pedagog va tarbiyachi faoliyatining natijasi bu kasbga yo'naltirish jarayonida ko'rinadi. Pedagog faoliyatining natijasi bu o'quvchining psixologik qiyofasida, ya'ni bilimlarida, uddalay olishida, malakalarida, shaxs xususiyatlarida, dunyoqarashida, ma'naviy ehtiyojlari-da ko'zga tashlanadi. O'quvchilarda predmetlar va g'oyalar haqidagi fikrlarni shakllanishi bu o'zini o'sib borayotganligini anglashdir. Bunda o'quvchini intellektual, ahloqiy, estetik, ijodiy va shu kabi tomonlari rivoj topib o'z "Men"ligini tanib boradi, oqibatda o'zini anglash jarayoni shakllanib boradi.

O'quvchilar faoliyatining natijasi – bu aniq bir kasbni tanlab olish, bunda uning bilimlari, uddalay olishi, ko'rsata oladigan imkoniyatlari shakllanadi. O'quvchilar o'qituvchi bilan birga o'zlari amalga oshirayotgan faoliyat bu qandaydir taqlid yoki o'yin emasligini, balki ularni jiddiy kelajakka tayyorgarlik faoliyati ekanligini anglashlari zarur.

Kasb tanlashga ongli munosabat – bu eng avvalo mavjud bo'lgan bilimlar asosida sodir bo'ladi. Bunga eng avvalo inson faoliyati haqidagi tizimli bilimlarni kasb ko'rinishi va tiplarini, ularni mazmunini kiritish mumkin.

Kasb tanlashga ongli qarash – bu

- Shaxsni motivlashgan yo'nalishida;
- Ijtimoiy va alohida kasbni tanlashni ahamiyatini anglashda;
- Kasbga yo'naltiruvchi bilimlar tizimini egallaganda;
- Bo'lg'usi mehnatga faol tayyorgarlik va o'z imkoniyatlarini sinab borishda;
- Kasbga zarur bo'lgan sifatlarni o'z - o'zida tarbiyalashda ko'rinadi.

Kasbni ongli tanlash quyidagilarga asoslanadi:

Kasblar haqidagi bilimlar;

Alohida tanlanayotgan kasb haqidagi bilimlar;

O‘z qiziqishlarini o‘rganishga;

O‘z qobiliyatlarini o‘rganishga;

O‘zini kuchli va kuchsiz tomonlarini bilishga;

O‘z sog‘ligi haqida ma’lumotga ega bo‘lishga;

Oilasini moddiy ta’minlanganlik darajasini bilishga;

Mehnat bozorini hisobga olishga.

O‘quvchi 9 sinfni tugatgandan so‘ng qaysi yo‘ldan borishini hal qilishi zarur bo‘ladi. Bu holda eng asosiysi **“kerak”** faktori muhim hisoblanadi. Bugungi ijtimoiy – iqtisodiy sharoitda birinchi darajali ahamiyatga quyidagilar kiradi:

- Ijtimoiy talab, mehnat bozoridagi holat;
- Oilani moddiy ta’minlanganlik darajasi;
- Ta’lim olishdagi yordam olish imkoniyatlari;
- Shu sohada mehnatiga haq olish imkoniyatlari;
- Kasbiy ma’lumoti haqida mahalliy infrastruktura.

O‘quvchi xohlayotgan kasbni va mutaxassislikni tanlab olish (“Men xohlayman”) tanlangan mutaxassislik bilan tanishish, insonga bu kasbni qo‘yadigan talablari bilan tanishish.

O‘quvchini imkoniyatlarini hisobga olish (“Men qila olaman”)

- Qiziqish, intilishlari;
- O‘qishdagi yutuqlari va qobiliyat imkoniyatlari;
- O‘zini kuchli va kuchsiz tomonlarini bilish;
- O‘z sog‘ligini bilish.

Takrorlash uchun savollar

1. O‘quvchilarni tarbiyalab borish, bilim berish va ongli kasb tanlashga tayyorlash.

2. Ongli munosabat va kasb tanlash masalalari. Ongli harakat bu psixik jarayonlar bilan uzviy munosabatlardir.

3. Ong va psixik jarayonlar.

4. Inson ongi va uning manfaat va ehtiyojlari. Inson ongi va kasb tanlashda uning o'рни.

5. Ongli ravishda kasb tanlash bu inson kelajagi.

4.3. Kasbga yo'naltirish va unga xos masalalar tahlili

Kasbga yo'naltirish va uning oldida turgan masalalar

Hozirgi davr o'zining yangi tomonlari bilan o'tgan davrlardan ajralib turadi. Hozirda O'zbekiston o'zining mustaqil qadamini tashlab, o'zi uchun yangi bir kadrlarni tayyorlab bermoqda. Bu kadrlar esa o'sib kelayotgan yosh avlod bilan, ularni kasb tanlashlari bilan ko'zga tashlanadi. Yoshlar jamiyatimizdagi yaratilgan imkoniyatlardan keng foydalangan holda o'zlariga kasblar tanlab bormoqdalar. Bunda jamiyatimiz tomonidan yoshlarni tarbiyalash va ta'lim berish bilan bog'liq bo'lgan amaliy va nazariy ishlar hayotga tatbiq qilinib borilmoqda. Bu "ta'lim to'g'risidagi" Qonun va kadrlar tayyorlashning milliy dasturlari bilan birga amalga oshirayotgan ishlarda ko'zga tashlanadi.

Yoshlarni kasbga yo'naltirish masalasi hozirda o'ziga xos bo'lgan talablar bilan uzviy bog'liqdir. Eng avvalo jamiyatimizdagi yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan masalalardan kelib chiqadi. Bular jamiyatni yoshlarga qaratilgan siyosatida, yoshlarni ta'lim olish bilan bog'liq bo'lgan "ta'lim to'g'risidagi" Qonunda va kadrlar tayyorlashning milliy dasturi bilan bog'liq hujjatlarda, davlat tomonidan olib borilayotgan amaliy ishlarda, shuningdek yoshlarning ham hayotiy faoliyatlarida ko'zga tashlanadi. Ko'rinib

turibdiki, yoshlarni kasbga yoʻnaltirish eng avvalo jamiyat va unda yaratilgan sharoitlar bilan bogʻliq boʻladi. Shundan kelib chiqqan holda kasbga yoʻnaltirishning obyektiv omillari shakllanadi.

Kasbga yoʻnaltirish va uning oldida turgan koʻplab masalalarni oʻrganish orqali shuni koʻrish mumkinki, bu masalalarni obyektiv va subyektiv masalalar asosida oʻrganish mumkin boʻladi. Obyektiv masalalar bu kasbga yoʻnaltirishga bogʻliq boʻlmagan jamiyatdagi omillar hisoblansa, subyektiv masalalar bu yoshlarning oʻziga bogʻliq boʻlgan masalalar hisoblanadi. Shulardan kelib chiqqan holda kasbga yoʻnaltirishga taʼsir etuvchi omillarni koʻrib chiqishga va ularni tahlil qilishga intilamiz.

Kasbga yoʻnaltirish bu yoshlarni layoqati boʻlgan va oʻzlari qiziqqan kasblariga ega boʻlishlariga yordam beruvchi soha sifatida juda zarur boʻlgan yoʻnalish hisoblanadi. Zamonaviy kasb yoʻnalishi bilan bogʻliq boʻlgan masalalar hozirgi vaqtdagi koʻpgina omillar bilan bogʻliqdir. Ayniqsa jamiyatimizni bozor munosabatlari oʻtishi bu sohada koʻplab izlanishlar olib borishni talab qiladi.

Yoshlarni hozirda kim boʻlishiga intilishi ularni bu savolni javoblari bilan bogʻliq boʻlibgina qolmay, balki ularda layoqatlilik, qobiliyat, ijodiy yondoshish va shu kabilarni ham talab qiladi. Oʻsib borayotgan talablar esa yoshlarni kasbga yoʻnalishlarini yanada jiddiy oʻylashlariga olib keladi. Ijtimoiy muammo boʻlgan kasbga yoʻnaltirish bu eng avvalo obyektiv qarama – qarshiliklardan, shuningdek bir xil boʻlmagan subyektiv oʻziga xos tomonlarni yengib oʻtishi zarur boʻladi. Yaʼni oʻzini oʻrniga asosan kasbga yoʻnaltirish tizimi yoshlarni oʻz hayot yoʻllarini topa olishlari, kasbga adaptatsiya qilishlarini taʼminlash bilan birga mehnat resurslari boʻlgan ularni ham jamiyatda bir xil taqsimlashi zarur boʻladi.

Kasbga yoʻnaltirish vazifasidan kelib chiqib shuni koʻrsatish mumkinki, bu yoʻnalish davlat tashkilotlari boʻlgan, maktab, oila,

kasbiy - texnik, oʻrta maxsus, oliy taʼlim va boshqa ijtimoiy institutlarni, uning bajarishi kerak boʻlgan uzluksiz va zamonaviy ilmiy asosdagi tashkiliy ishlarida, kasbga yoʻnaltirish, maktab oʻqituvchisiga kasbiy xarakteristika berish, ularni ijtimoiy – iqtisodiy prognozlarga asoslangan holda koordinatsiya qilish zarur boʻladi.

Kasbga yoʻnaltirish yana shunisi bilan ahamiyatliki, u har taraflama garmonik rivojlanib borayotgan insonni tarbiyalashda uning muhim qismini tashkil etadi, yaʼni ahloqiy, mehnat, aqliy, siyosiy, estetik va jismoniy rivojlanib borayotgan shaxs sifatida, oʻquv – tarbiya jarayonining muhim boʻlagi hisoblanadi shunday qilib aytish mumkinki, kasbga yoʻnaltirish bu har bir insonni rivojlanishida, shuningdek jamiyatni bir butun holda vazifasini oʻtashda muhim bir jarayoni hisoblanadi. Bu yerdan koʻrinib turibdiki, kasbga yoʻnaltirish hammaga tushunarli boʻlib – bu maktab oʻquvchilarini kasbga yoʻnaltirish, kasb tanlashlari bilan bogʻliq hodisadir.

Kasbga yoʻnaltirish – bu yoshlarni oʻzlari tanlagan va kasblarini aniqlab olish jarayoni boʻlib, bunda shaxsning layoqatlari qiziqishlari, qobiliyatlari va jamiyatning kadrlar boʻlgan ehtiyojdan kelib chiqqan maqsadli faoliyatlari hisoblanadi.

Ishning asosiy vazifasi;

1. Kasbga yoʻnaltirish nazariyasini oʻrganish, bunga kasbga yoʻnaltirishning obyektlari va prinsiplari ham kiradi

2. Kasbga yoʻnaltirish ishlarida foydalaniladigan metodologiyani oʻrganish

3. Kasbga yoʻnaltirish ishini rejalashtirish usullarini koʻrib chiqish va oʻquvchilarni kasbiy tarbiyalashga yordamlashish.

4. Yoshlarni ijtimoiy – kasbi adaptatsiyasi bilan bogʻliq faoliyatni baholash.

Kasbga yoʻnaltirishni amalga oshirishda oʻquvchilarning xohishi,

ularni sogʻligi, shaxsga xos individual – psixologik xususiyatlarni hisobga olish zarur boʻladi. Kasb tanlashning muhim tomonlaridan biri bu kasb tanlash uchun erkin sharoit yaratishdir.

Kasb tanlashning muhimroq boʻlgan muammolari:

- Har xil kasbga va mutaxassislikka jamiyatni boʻlgan munosabatlari;
- Kasbni oʻzlashtirishga imkon beruvchi, insonga xos boʻlgan xususiyatlarga talablar va kasb nuqtayi nazaridan qoʻyiladigan xususiyatlar;
- Yoshlardan mehnat faoliyatida talab qilinadigan kasbga xos boʻlgan sogʻliq – salomatlik va uni baholash;

Bundan tashqari mehnat qilish sharoiti bilan bogʻliq boʻlgan mediko – fiziologik masalalar ham muhim hisoblanadi. Kasbiy maslahat va kasbiy yoʻnalishlarni mediko – fiziologik yoʻnalishi boʻlgan gigiyenasiga quyidagilar kiradi:

*ommaviy kasb boʻlgan mutaxassislarda hozirgi mehnat qilish sharoitiga baho;

*Ishlayotganlarning organizimiga qoʻyiladigan talablar (sanitariy xarakteristika,professiogramma).

*kasbga yoʻnaltirishda kasblarni guruhlash tomonlari.

*kasbni egallashdagi asos boʻlgan xizmat qiluvchi psixofiziologik vazifalar va sifatlarni tadbiq qilish qonuniyatlari.

*kasbiy maslahat va kasbiy yoʻnalishdagi vrachlik maslahatlarida sogʻligʻi yaxshi boʻlmagan va meʼyorlardan cheklangan bolalarga maslahatlar berish.

*oʻsmirlarni kasbiy shakllanishiga faol taʼsir etuvchi imkoniyatlarni asoslab berish.

Kasbga yo‘naltirishda o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat

Kasbga yo‘naltirish eng avvalo bu muloqot bilan bog‘liq jarayon bo‘lib o‘qituvchini o‘quvchini kasbga yo‘naltirishining asosiy yo‘li hisoblanadi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot va munosabat o‘ziga xos holda o‘sib kelayotgan avlodni kasb tanlashlari uchun imkoniyatlar yaratadi. Albatta bu jarayon o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi yuz beradigan o‘zaro muloqotda, munosabatda sodir bo‘ladi. Muloqotning asosiy tashkilotchisi bu o‘qituvchidir. O‘quvchi esa o‘qituvchi olib borayotgan munosabatda asosiy bilim oluvchi, kasblarni va borliqni bilib boruvchidir. Albatta u ham faollik ko‘rsatmasa bu yutuqlarga ega bo‘la olmaydi.

Bugungi kunda psixologik – pedagogik fanlar shuni asoslab bermoqdalarki, biz bolani qanday tarbiyalamoqchi bo‘lsak, unda shu jarayonlarga nisbatan ijobiy tomonlarni shakllantirmog‘imiz zarur. Ma’lumki u yoki bu munosabat faoliyatda shakllanadi. Ta’lim va tarbiyaning ko‘pgina murakkab muammolari o‘qituvchining bolalar bilan bo‘ladigan muloqotini noto‘g‘ri olib borganligidan kelib chiqadi.

Pedagog tomonidan bola shaxsiga ta’sir etishning muhim tomonlaridan biri bu pedagogni shu bolalar kollektiviga a’zo bo‘lishi va kollektivga xos bo‘lgan “Biz” tushunchasini shakllantirishdan kelib chiqadi. Chunki bunda pedagog bu jarayonda kollektiv manfaatlarini haqida bosh qotiradi. Ya’ni ular bilan birligini ko‘rsata oladi. Bu esa bolalarda o‘qituvchiga nisbatan ishonchni keltirib chiqaradi.

Pedagogning muhim xususiyatlaridan biri bu bolalar bilan o‘zaro muloqotni tashkil qila olish qobiliyatida ko‘zga tashlanadi. Rus pedagogi K.D.Ushinskiy tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi munosabat va muloqot ularning ahloqiy tarbiyalanishiga ta’sir etadigan eng muhim tomonlardan ekanligini ko‘rsatib o‘tgan edi.

Pedagogik faoliyat tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchidagi o'quv – tarbiyaviy ishning metodologiyasi va fan asoslarining o'zi bunda yetarli bo'lmaydi. Bunda hamma bilimlar va amaliy tomonlar o'quvchiga faqat jonli tilda va bevosita muloqotda beriladi. Bu faqat maktabda emas balki oliygohlarda ham ko'zga tashlanadi.

Ishonch bilan aytish mumkinki, muloqot orqali bolaga berilayotgan bilim va tarbiyaning ko'z ilg'amas tomonlari aynan shu o'zaro muloqotda beriladi. Ko'pgina pedagoglar bola bilan bo'ladigan o'zaro muloqot, munosabat uni o'qitayotgan fani asosida bo'ladi. Pedagogik jarayonlarda o'zaro aloqa birinchi o'rinda turib, pedagogning bolalardan xursand bo'lishi, bolalarni o'zlarini shaxs sifatida yaratishlariga olib keladi.

Ta'limda uchta asosiy vazifa : ta'lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish jarayonlari bir butun tarzda kechadi. Bu jarayonda muloqot qilish qanday ishlaydi? – degan savol tug'iladi. Ta'lim berish vazifasi o'quvchilar bilan bo'ladigan psixologik muloqotni ta'minlaydi; ta'lim olishning ijobiy motivatsiyasini shakllantiradi; birgalikda aqliy va bilish bilan bog'liq bo'lgan izlanishni vujudga keltiradigan kollektivdagi psixologik sharoitni yaratadi.

Muloqot orqali tarbiyaviy vazifalarni bajarish davomida pedagogik va tarbiyaviy munosabatlar vujudga keladi, pedagog va bola o'rtasidagi psixologik muloqot shakllanadi. Buning natijasida shaxsning bilishlilik yo'nalishi shakllanadi, psixologik to'siqlar bartaraf etiladi, kollektivdagi o'qish bilan bog'liq faoliyat, o'zaro munosabat yaxshilanib, o'quv faoliyati muvaffaqiyatli shakllanadi.

Muloqot orqali rivojlanuvchi vazifalarni yechish davomida psixologik holat, shaxsni o'z - o'zini tarbiyalash va o'z - o'zini bilimlar bilan ta'minlash rag'batlantiriladi. Bunda:

- Shaxsni muloqot orqali rivojlanishini cheklab turuvchi sotsial – psixologik faktorlar yengib o'tiladi (biqlik, uyatchanlik, o'ziga ishonchni yo'qligi va sh.k.).

- O‘quvchini individual – tipologik xususiyati yuzaga chiqishi uchun imkoniyatlar yaratiladi.

- Shaxsning muhim xususiyatlarini shakllanishi va ijtimoiy – psixologik korreksiyaning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Pedagog va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotni to‘g‘ri shakllanishi uchun quyidagilar muhimdir.

1. Tarbiyalanuvchilarni bilish, o‘zaro ishonch va psixologik qulaylikni shakllantirish;

4. Didaktik vazifalarni yechish uchun quyidagi faoliyat komponentlari: motivlar, muammoviy holatlar muhimdir.

5. Didaktik mantiq va ijtimoiy - psixologik mantiqlar o‘rtasidagi o‘zaro hisobga olishni buzilishi va ularning hisobga olinmasligi o‘quv faoliyatini natijalarini tushib ketishga olib keladi.

Albatta eng avvalo bolalarga bo‘lgan muhabbat – bu eng asosiy muloqotning o‘zagi, asosi hisoblanadi. Bu esa pedagogning kasbiy xususiyati hisoblanadi.

Kon – Kalik V.A.ning pedagogik muloqotning klassifikatsiyasi bo‘yicha quyidagilarni ko‘rsatish mumkin. a) birgalikdagi ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan muloqot; b) o‘rtoqlik asosidagi muloqot; d) masofaviy muloqot; e) qo‘rqitishga asoslangan muloqot; f) hazillashishga asoslangan muloqot.

O‘quvchilarni psixik yetukligi, ongli harakati va ularni kasb tanlashdagi ahamiyati

Kasb tanlash bu o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, u uzoq davom etadigan jarayondir. O‘quvchilar o‘zlari tanlagan kasbni egallashlari uchun eng avvalo o‘zlarini psixologik jihatdan tayyorlashlari zarur bo‘ladi. Bunda ular kasb tanlash uchun etilgan bo‘lishlari zarurdir. Yoshlarni kasb tanlashlari uchun psixologik yetukligi deganda

nimani tushunamiz. Bunda o'smirlarni va o'spirinlarni o'z yoshiga nisbatan yetilganligi nazarda tutiladi. Insonlarni psixologik yetilishi haqida juda ko'plab fikrlar mavjuddir. Xo'sh o'smirning psixologik yetukligi nimadir?

Yoshlarni kasb tanlashdagi psixologik yetukligi uning ma'naviy, ruhiy, jismoniy va o'z - o'zini anglashi bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Kasb tanlashdagi asosiy psixologik yetuklik quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

- O'zining "Men" ligini anglash va oilaviy munosabatlarda, mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarda faol qatnashish.

- Boshqalar bilan bo'ladigan munosabatda o'zini "Men"ligini ko'rsata olish va boshqalarning ham "Men"ligini hurmat qilish, kerak bo'lsa sabr - toqatli bo'lish.

- O'zini emotsional hissiyotlarini ushlab tura olish va o'z-o'zini anglash.

- Dunyoni o'z xohishlaridan emas balki qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish.

- O'z qobiliyatlarini anglab borish, o'zini kuchli va kuchsiz tomonlarini bilib borish.

Kasb tanlovchining ijtimoiy va psixologik yetukligi bu asosan uning siyosiy, ahloqiy, estetik ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'ladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- Javobgarlik hissini rivojlanishi;
- Ijtimoiy tafakkurning borligi (bunda boshqa odamlarni ham tushunish qobiliyati, har xil sharoitdagi holatlarni ham ko'ra olishlari).
- Boshqa odamlarni o'ylash bilan bog'liq ehtiyojlarni ham qobiliyat sifatida ko'ra olishlari;
- Jamiyat hayotida faol qatnashish qobiliyatlarini paydo bo'lishi.
- O'z qobiliyatlaridan va bilimlaridan samarali foydalanish qobiliyatining paydo bo'lishi;

- O‘z taraqqiyot yo‘lida paydo bo‘lgan muammolarni konstruktiv ravishda yecha olish.

Hayotiy maqsad – bu mavjud bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha harakatlanish; bu erishish kerak bo‘lgan natijalarga erishish va uni egallash hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, o‘smirning kasb tanlashdagi psixologik yetukligi eng avvalo undagi psixologik jarayonlarni, holatlarni rivojlanganligi bilan bog‘liqdir. O‘smir o‘zini ruhiy - psixologik sog‘lomligini anglashi, o‘zidagi jismoniy yetuklikni mehnat qilish jarayonlarida sinashi, aqliy va irodaviy quvvatga ega ekanligini sezib borishi kerak bo‘ladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Kasbga yo‘naltirish va uning oldida turgan masalalar.
2. Kasbga yo‘naltirishda o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat.
3. O‘quvchilarni psixik yetukligi, ongli harakati va ularni kasb tanlashdagi ahamiyati.

4.4. Kasbiy o‘z - o‘zini anglash va kasb tanlash

O‘quvchilarni o‘z “Men”ligini va jamiyatdagi o‘rnini, kelajagini anglab borishi

Kasb tanlashda o‘smirlarning o‘z “Men”ligini tanib borishlari bu muhim ijtimoiy psixologik jarayondir. O‘smir va ilk o‘spirinlik davri o‘z - o‘zini anglash bilan bog‘liq hisoblanib, bu davrda ular o‘z “Men”iga qiziqib boradilar. Bu jarayonni hisobga olish esa kasb tanlashda juda ham zarur hisoblanadi.

O'smirdagi men bu uning o'zini anglashi bilan, o'ziga baho berishi bilan, o'zini oilasidagi o'rnini belgilashi bilan, o'zini ijtimoiy hayotdagi o'rnini topishi bilan va sh.k. bilan bog'liq jarayondir. O'smir menligini bir butun obraz tarzida o'z o'ziga baho berishga qaratilgan o'rnatish sifatida qarash kerak bo'ladi. Bunda o'smir o'zini bilishga qaratilgan kognitiv – obrazlar tarzida, o'zini qobiliyatini sinash tarzida, tashqi ko'rinishiga baho berish tarzida, ijtimoiy ahamiyatligini bilishga va uni baholashga intiladi. Bu holatda o'smirda emotsional holatlar – o'z - o'zini hurmatlash, o'zini sevish, o'zini harakatiga baho berish kabilar ko'zga tashlanadi. O'ziga baho berishda o'zini bahosini ko'tarishga intiladi, o'ziga bo'lgan hurmatni egallashga harakat qiladi.


O'z "Men"ligini anglash juda murakkab hodisadir. "Men"likni mashq qilishlar, ilgari va hozirgi davrdagi "Men"likni his qilishlar orqali shakllantirish mumkin bo'ladi. O'zini "Men"ligini anglash o'z individualligini o'ziga xos mohiyatini his qilishdir. Bunda inson haqiqatda qandayligini va boshqalardan nima uni ajratib turishini his qilishi kerak bo'ladi. Bu o'ziga xos individual mohiyat shaxs bilan ham, uning tanasini tuzilishi bilan ham. Aql darajasi bilan ham, emotsiyasi bilan ham hech qanday umumiylikka ega emas. Uning o'z o'zini anglashga asoslanishiga qaramasdan, o'z o'zini anglashning holati deb ham qarab bo'lmaydi.

Shu narsa ma'lumki kun davomida bir qancha holatlarda o'z "Men" ligimizni sezib qolamiz. Deylik, guruhda o'qituvchi biror bir talabaga o'z e'tirozini bildirganda, u talaba o'zini boshqalardan alohida ekanligini va berilgan ta'sirga nisbatan o'zini oqlashga intiladi. Bunday sharoitda talaba darrov o'zini anglash, shu bilan birga uyat, qo'rqinch, noqulaylik va shu kabilar paydo bo'ladi.

O'z – o'zini anglash - bu insonni o'z "Men"ligi bilan aynanlashtirish bo'lib, u o'tmish va kelajakni birlashtirish hisoblanadi. O'z "Men"ligini anglash shuningdek haqiqat bilan bog'liq bo'lmagan

o'zini idroki, emotsiyasi va fikrlarini aynanlashtirishdan ham qochish hisoblanadi. Shuning bilan aytish kerakki, "Men" hech qanday egoizm bilan bog'liq emas. Shu bilan birga biz "Men shu mashinani olishni xohlayman", "Men meva yegim kelayapti", deganimizda "Men"ni nazarda tutmaymiz. Bizni "Men" - toza va mutloq aqli bo'lib, u kuzatadi, bilib boradi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.

Inson rivojlanib, o'sib borar ekan yoshi kattalashib borishi bilan unda o'ziga xos tabiiy va psixologik jarayonlar ham o'zgara boradi. Deylik o'quvchi o'zini mustaqilligini va o'zini alohida shaxs ekanligini yoshi katta bo'lib borgan sari sezib boradi. Unda shu yoshiga yarasha munosabatlar ham shakllanib borib o'zligini taniydi. O'quvchi o'zini katta bo'lib borayotganini va uning oldida ma'lum vazifalar turganini, bu vazifalarni u bajarishi shartligi uning ongida shakllanib boradi.



24-chizma

Inson o‘z o‘zini “Men”ligini anglab borar ekan har bir davrga tegishli bo‘lgan o‘zgarishlarni boshidan kechiradi. Yuqoridagi chizma-da aynan shular aks etdirilgandir.

O‘z - o‘zini anglashni shakllanishiga: atrofdagilarni bergan bahosi va tengdoshlar o‘rtasidagi status ta’sir etadi. “Men - real” va “Men ideal”larning o‘zaro munosabati ham ta’sir etadi. O‘z faoliyati natijalariga berilgan baho ham uni shakllanishiga ta’sir etadi.

V.S.Merlinning fikricha o‘z - o‘zini anglash – bu murakkab psixologik tizim bo‘lib o‘zida to‘rtta tarkibiy qismni qamrab oladi.

- 1) O‘z “Men” ligini anglash ;
- 2) O‘zini aynan mosligini anglashi;
- 3) Shaxsiy psixik sifatlarini anglash;
- 4) ijtimoiy – ahloqiy o‘z- o‘zini baholash tizimi.

Bularning hammasi bir - biri bilan bog‘liq, lekin ular birdaniga shakllanmaydi. O‘zini o‘zi anglash deganda o‘z shaxsini, o‘z “Men”ligini jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy mavjudotligini anglash nazarda tutiladi.

O‘quvchi o‘z yetilib borishi jarayonida mana shu kabi tomonlarni bosib o‘tadi. O‘quvchining o‘zini “Men”ligini anglashi va kelajakdagi vazifalari uni jamiyatdagi o‘rnini egallashga va unga ta’sir etayotgan obyektiv omillarni anglab borishi natijasida jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilishini ko‘ramiz.

Hayotiy masalalarni hal etayotganda o‘z kasbi va uning kerakligi darajasini bilib borish va qiziqish

O‘quvchi o‘z hayotini qurish haqida biz yuqorida ko‘rsatganimizdek o‘zini “Men”ligini anglab borish davomida bilib boradi. O‘z - o‘zini anglash o‘quvchini yoshini va olayotgan bilimlarini oshib borishi tufayli amalga oshadi. O‘quvchi atrofdagilar bilan muloqotda

bo‘lar ekan insonni kelajakdagi o‘zgarishlarini ham ko‘rib boradi. O‘zi uchun kerakli bo‘lgan qarorlar qabul qilib o‘zini kelajagi uchun kerak bo‘lgan kasbni tanlashi zaruriy holatligini ko‘radi.

O‘quvchi o‘z hayotini qurish kerakligini va bu hayotni ta’minlash uchun u o‘ziga yoqqan kasbni tanlashi zarurligini, bu kasb esa uni keyingi hayotini qurishining asosi ekanligini anglab boradi. Bunda o‘quvchi o‘zidan katta bo‘lgan insonlarni hayot kechirish tarzi bilan tanishib boradi, ularning oilalari borligini, bu oilani boqish uchun ular qandaydir faoliyatlar bilan band bo‘lishini, bu faoliyat esa ular o‘zlari uchun aniqlab olgan kasblardan kelib chiqishini tushunadi. Bu jarayonlarni kuzatib borayotgan bolalar kelajakda ular ham shunday tarzda hayot kechirishlarini va shunday hayotga tayyorgarlik ko‘rishlarini anglab boradilar. O‘z hayotini kelajagini anglagan farzandlar o‘zlarini mehnatlari jamiyat uchun, o‘zlari uchun zarurligini va kelajakdagi hayotlarini qurishda albatta biror kasbni egasi bo‘lishlariga qiziqadilar.

Inson o‘z hayoti davomida qandaydir jarayonlarga qiziqadi. Bu qiziqish bolalarda yoshligidanoq ko‘zga tashlanadi. Deylik ayrim bolalar har xil hasharotlarni o‘ynaydilar. Ular qo‘ng‘izlarni oyog‘ini uzib olib, ularni ichini yorib ko‘radilar. Ularga sen nima uchun shunday qilding deb savol berilsa, javob shunday bo‘ladi: - “bu qo‘ng‘izlarni nima harakatga solayapti. Ularni ichida nima bor?” kabi savollar beradilar. Bu savollarni o‘zi bolalarni yoshligidanoq atrofdagi voqealarga qiziqishini ko‘rsatadi. Bolalardagi qiziqish nima u?, nega shunday?, uni kim harakatlantiryapti? Kabi ko‘plab savollarni o‘rganishga qaratiladi. Chunki boladagi qiziqish shu qadar kuchli bo‘ladiki, u qo‘ygan savollarga javob topishga jon jahdi bilan harakat qiladi.

O‘smir yoshida esa endi uning aqli ko‘plab savollarga javob bera oladi. Rivojlanish ayniqsa ruhiy rivojlanish o‘smirda yanada ko‘plab

savollarni tugʻdiradi. Maktabdagi olingan bilimlar, atrofdagi kishilarni kuzatish, ota - onalarining oʻzaro munosabati va bolalari bilan boʻladigan muloqoti farzandlarga koʻpgina hayotiy bilimlarni bera oladi. Endi ular bu bilimlarni sinab koʻrishga ham intiladilar. Lekin atrofdagi ruxsat berilgan va man qilingan chegara oldida ular har doim oʻylashda boʻladilar. Bu jarayonlar ularda oʻziga yarasha psixologik holatlarni va jarayonlarni rivojlanishiga olib keladi.

Oʻquvchilarni oʻz hayotiy masalalarni hal qilishda eng birinchi masala bu ularni oʻzlariga yoqqan kasbni tanlash hisoblanadi. Kasb tanlovchilar oʻzlari tanlagan kasbni kerakligini bilishlari uchun uni yaxshi bilishlari zarur. Bu kasb ularni nimasi bilan qiziqtirishi kerak boʻladi. Oʻzi tanlagan kasbni kerakligini kasb tanlovchi anglab olishi uchun quyidagilarni hisobga olish kerak boʻladi:

- 1) Bu oʻquvchining kasbga boʻlgan qiziqishi va intilishi;
- 2) Kasbni kerakligi darajasi- bu bozor munosabatlari bilan ham bogʻliq. Buning uchun jamiyatga , oʻzi yashayotgan xududga qanday kasblar zarurligi haqida maʼlumotlarga ega boʻlishning zarurligi;

- 3) Kasbni kerakligi darajasi kasb tanlovchining sogʻligʻi, psixologik holatlari va shu kabilar bilan bogʻliqligi;

- 4) Kasbni kerakligi darajasi kasb tanlovchining bu kasbni yaxshi bilishi va qadrlay olishi bilan bogʻliq.

Kasbni kerakligi darajasi – bu yuksak iqtisodiy koʻrsatkichlar bilan bogʻliq boʻlib, unga kasbni daromadligi, har doim kerakligi, yuqori darajadagi malakani zarurligi, maʼlumoti, imtiyozligi, odamlarni nazorat qilishi, resurslari, shuningdek subyektiv tomonlari, yaʼni hurmatini qilish, ishonch, oʻz imkoniyatlarini koʻrsata olish kabilar bilan bogʻliq boʻladi. Shundan kelib chiqqan holda kasbni keraklik darajasi quyidagi tomonlar bilan bogʻliqligi ham koʻzga tashlanadi:

Iqtisodiy tomonlari:

- Mutaxassisga beriladigan haqi.
- Karera qilishga imkoniyatini borligi.
- Mehnat bozorida har doim kerakligi.

Ijtimoiy – psixologik :

- Ishga qiziqishi;
- Vazifani bajarishni murakkabligi;
- Ijodiy yondoshishning ulushi;
- O‘z imkoniyatlarini ko‘rsata olish.

Kasbni kerakligi darajasiga ta’sir etuvchi omillarga quyidagilar kiradi:

- 1.Oiladagi kattalarning ta’siri
- 2.O‘rtoqlarining kasb tanlashdagi pozitsiyasi
3. Maktab pedagog va o‘qituvchilarining pozitsiyasi
- 4.Shaxsning kasb rejalari
5. Qobiliyatlari
6. Ijtimoiy darajasi
- 7 Ma’lumotlarga egaligi
- 8.Layoqatliligi.

Kasb tanlovchining muhim masalalaridan biri bu kasb tanlash bo‘lsa uning kerakliligi darajasi inson uchun muhim manfaatlardan biri hisoblanadi. Chunki inson o‘zi tanlagan kasbi unga va atrofidagilarga o‘z ta’sirini o‘tkazishi aniqdir. U tanlagan kasb o‘zining hurmat talabligi, odamlarni e’tiboridaligi bilan kasb tanlovchini o‘z ehtiyojlarini qondirganligini ko‘rsatadi. Insonni tanlagan kasbi o‘zi uchun va atrofdagilari uchun qiziqarli bo‘lishi unda kasbga nisbatan qoniqish hissini keltirib chiqaradi.

**Kasb tanlash davomida iroda, xotira, tajriba,
malaka, bilimlar, uddalay olish, o'z kasbini sevish kabi
tomonlarni anglab borish jarayoni**

O'sib kelayotgan yoshlar o'zlarini rivojlanishlari davomida psixologik xususiyatlarini yosh davrlar bilan bog'liq holda o'zgarib borganligini sezishadi. Asosiy maqsadlari o'qish bo'lganida ulardagi psixologik jarayonlar o'qish bilan birga o'zgarib borib atrofda bo'layotgan jarayonlar asosida shakllanib borgan. Lekin o'smirlik va o'spirinlik davrlarida endi ular oldiga qo'yilgan ko'plab talablar asosida ularda yangicha bir dunyoqarash shakllanib boradi. Bu ularni etilganligini, yoshlari katta bo'lib kattalar orasiga kirib borayotganligini ko'rsatadi. Bular asosida esa ular o'zlarini mustaqil va hech kimga bog'liq bo'lmagan holda o'z irodalaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishlari mumkinligini sezaдилar. O'zlarini kattalar kabi tutishga, o'zlari uchun qarorlar qabul qila olishga huquqlari borligini biladilar. Shulardan kelib chiqqan holda o'zlari uchun kasb ham tanlay boshlaydilar. Bu jarayon o'ziga yarasha murakkab bo'lib, ular bu sohada yetarli qarorlar ham qabul qila olmaydilar. Albatta yoshlar har xil darajada bo'lganliklari uchun ayrim yoshlar o'zlari qaror qilsalar, ayrimlari esa boshqalarning yordamiga muhtoj bo'ladilar. O'sib kelayotgan yoshlardagi o'zgarishlar, ularning psixologik va ijtimoiy jabhalardagi o'rinlarini o'zgarib borishi, tafakkur qilish va irodali bo'lish kabi ko'plab psixologik xususiyatlarni yanada ko'proq rivojlantirish kerakligini ko'rsatib qo'yadi.

Kasb tanlayotgan yoshlarda kasb tanlash uchun zarur bo'lgan muhim psixologik xususiyatlar zarur bo'ladi. Bu eng avvalo uning jismoniy sog'lig'i bo'lsa, uning yana bir muhim elementi bu yoshlarning ruhan sog'lomligi hisoblanadi. Insondagi psixologik xususiyatlarni rivojlanib borib o'z yoshiga mos bo'lgan holda aks etishi uni


kasb tanlashdagi imkoniyatlarini ko'paytiradi. Kasb tanlayotgan yoshlarda eng avvalo irodani mustahkam bo'lishi, tafakkur qilishini normadali, undagi hayolni o'ziga xos shakllanganligi, sezgirligi, diqqatini o'zini qiziqtirgan obyektlarga jamlay olishi, tajribasi, malakalari, bilimlari, bu qo'yilgan jarayonlarni uddalay olishi, o'zi qiziqqan kasbga bo'lgan munosabati kabi ko'plab tomonlar juda zarur bo'lgan hodisalar hisoblanadi.

Kasb tanlashda kasb tanlovchining irodali bo'lishi ya'ni bir kasbni qiziqib tanlab olib uning qiyinchiliklarini ko'rishi bilan undan yuz o'girib boshqa kasbni tanlashga intilishi uning irodasizligini ko'rsatadi. Kasb tanlayotgan odamga irodani zarurligi tanlagan kasbini o'zgartirmagan holda uni yaxshi egallashga intilishida va kerak bo'lsa shu sohaning ustasi darajasiga yetishga harkat qilishida ko'zga tashlanadi. Kasb tanlovchi o'zi sevgin kasbni egallashi uchun kuch sarf qilishi, buning uchun esa unda sabr toqat, chidam, intilish bo'lishi kerakligini talab qiladi. Haqiqatda ham iroda insonni faollikka undovchi jarayon bo'lib, insonni o'z havaslarini, orzu istaklarini, tilak va xohishlarini amalga oshirishda asosiy vositalardan hisoblanadi. O'smirlar kasb tanlashlari davomida irodaviy kuch sarf qilib, o'zlarini boshqarib borib, tanlagan kasblarini egallashga intilib boradilar. Albatta bu jarayon hammada bir xil kechmaydi. Bu o'ziga xos havas bo'lib qolishi va kelajakda tanlagan kasbini o'zgartirishiga olib kelishi ham mumkin.

Yoshlarni kasb tanlashlarida insonning xotirasi va tafakkuri ham katta o'rin egallaydi. Yoshlar bilim va tajribalarni o'z xotiralariga saqlab borib ulardan keyinchalik foydalanishga intiladilar, ya'ni kasb tanlayotganda ottirgan bilim va malakalariga suyangan holda kasb tanlashni rejalashtirib boradilar. Albatta ko'plab kasb-larni sanab o'tish va ular haqida ma'lumotga ega bo'lish zarurdir.

Bu joyda birgina texnika universitetida bakalavr va magistratura bo'yicha bitirayotgan kasb egalarini sanashning o'zi qanchalik kasb-lar ko'pligini va ular yana tarmoqlardan ham tashkil topganini ko'ramiz. Bakalavriat bo'yicha 40 va magistratura bo'yicha 50ta mutaxassisslar tayyorlanganligi e'lon qilindi. [42, № 61.] Bu kabi kasb egalari boshqa oliygohlarda ham tayyorlanmoqda. Ularning bilimlari va malakalari esa jamiyat uchun kerak bo'lgan muhim omil hisoblanadi. Kasb tanlovchi tajribani olayotgan bilimlari va malakalari orqali bilib boradi, bundan tashqari kattalarning suhbatlaridan, olib borayotgan ish faoliyatlaridan va boshqa kuzatish obyektlaridan o'rganib boradi.

Kasb o'rganuvchi o'zi tanlagan kasbini qiziqishlari orqali tanlab olar ekan u shu kasbni yaxshi bilishi va uni sevishi zarur bo'ladi.



Kasb tanlab borish davrida o'quvchi o'zi yoqtirgan kasbga xos bo'lgan bilimlarni va malakalarni o'rganib boradi. U ko'plab ma'lumotlar olish orqali tanlagan kasbini jamiyatdagi o'rnini, o'rtoqlarini bahosini, o'zidagi imkoniyatlarni, o'qituvchilari beradigan ta'riflarni, ota - onasi tomonidan bu kasbni ta'riflanishini o'rganadi.

O'quvchi tanlagan kasbini uddalay olishini o'z tasavvurlarida ko'rib chiqishga va kelajak rejalarini tuza olishi kerak bo'ladi.

Takrorlash uchun savollar

1.O'quvchilarni o'z "Men"ligini va jamiyatdagi o'rnini, kelajagini anglab borishi.

2.Hayotiy masalalarni hal etayotganda o'z kasbi va uning kerakligi darajasini bilib borish va qiziqish.

3.Kasb tanlash davomida iroda, xotira, tajriba, malaka, bilimlar, uddalay olish,o'z kasbini sevish kabi tomonlarni anglab borish jarayoni.

4.5. Shaxs va kasb tanlashda shaxsning shakllanib borishi

Shaxs va uni kasb tanlab borish davomida o'zgarib borishi

Kasbga xos bo'lgan psixologik jarayonlarni sezish va unga amal qilish

Inson hayotga kelar ekan u insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni o'zlashtirib, boraveradi. Ya'ni moddiylashgan zotga aylanib, o'zini qaytarilmasligini ko'rsatib boradi. Insondagi xulq - atvor vaqt va sharoit bilan bog'langan holda o'zgaradi va yangi ko'rinish oladi. Insondagi bu o'zgarishlarni o'rgangan olimlar qatoriga D.Kellini, K.Rodjersni, A.Maslouni, Z.Freydni, K. Yungni va boshqalarni kiritish mumkin. Insondagi o'zgarish uning hayot jarayonlari bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Insonni shunday o'zgarishlaridan biri bu uning kasb tanlashi va unga bo'lgan e'tibori bilan bog'liqdir. Bu o'zgarishlar o'smirda o'ziga xos holda sodir bo'ladi. Kasb tanlash o'smirda o'z ta'sirini o'tkazib unda shu kasb tanlash jarayoni bilan bog'liq murakkab holatlarni vujudga keltiradi. O'smirda psixologik xususiyatlar o'zgarib boradi, uning

o‘z “Men”ligini tanish orqali, tafakkurini o‘sishi, aqliy jihatdan yetilib borishi kabi jarayonlar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Yoshlarni kasb tanlab borishi davomida o‘zgarishi bir qancha omillar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu eng avvalo ularni kasb tanlashdagi qiyinchiliklari bilan, boshqalarni yordamiga muhtojliklari bilan bog‘liqdir. Chunki o‘smir hali to‘la yetarli bo‘lmagan, aqliy darajasi va hayot tajribasi yetarli bo‘lmagan sharoitda bo‘ladi. U jamiyatdagi ma’naviy bilimlarni olib borib, unga amal qilib yetilib boradi. Bunda esa uning atrofida gilar o‘z yordamini berishlari lozim bo‘ladi.

Kasb tanlashda o‘smir qanday qiyinchiliklarga to‘g‘ri keladi? Bular quyidagilarda ko‘rinadi.

Birinchi qiyinchilik – o‘smirning ijtimoiy yetilmaganligi, mustaqil qaror qabul qilishga tayyormasligi. Afsuski, oilaviy va maktabdagi tarbiyalar mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatmaydi. Shu bilan birga o‘smir birinchi marotaba kasb tanlashni og‘irligini o‘z bo‘yniga oladi. Ota – onalar esa bolani kasb tanlash davrida har xil munosabat ko‘rsatadilar. Bir xil ota - onalar o‘g‘li yoki qiziga o‘z irodasini o‘tkazishga harakat qiladilar. Bir xillari yordam berishdan o‘zini chetga oladilar va bolani erkin kasb tanlashiga halaqit bermaydilar. Bolaga tayyor qarorni tavsiya etmagan holda, ularga maslahat, yo‘l - yo‘riq ko‘rsatib, tushuntirib o‘z maslahat ishlarini olib borishlari lozimdir.

Ikkinchi qiyinchilik – kasb tanlashga ta’sir etish bilan bog‘liq omillarni bilmaslik. Kasb tanlayotgan o‘smirga qanday omillar ta’sir etayotganligini bilmaslik, ularni hisobga olmaslik.

1. Bu o‘smirning sog‘lig‘i;
2. Kasb tanlashda bolaning intilishi, qiziqishi, qobiliyati;
3. O‘smirning tanlagan kasbini mohiyatini tushunishi.
4. Iqtisodni kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini ham hisobga olish.

Kasb tanlashdagi yana bir qiyinchilik - bu kasbga davo qiluvchilarni bir xil bo'lmagan (o'ziga yuqori yoki past baho berish) darajasi hisoblanadi.

O'smirni kasb tanlashida yana bir qiyinchilik – bu o'smirga xos bo'lgan yuqori emotsional holat hisoblanadi. Bunda o'smir kasbni tashqi tomoniga e'tibor beradi. Kasbdagi romantik tomonlar, uning yalt etib ko'rinadigan, odamlar e'tibor beradigan tomonlari o'smirni qiziqtiradi. Deylik, modeler, jinoiy bo'limning tergovchisi, biznesmen bo'lish kabilar.

O'smirning yana bir qiyinchiligi – bu ulardagi kasblar haqidagi ma'lumotlarni yo'qligi hisoblanadi. Bunda ota - onalar o'z farzandlariga kasblar haqida ma'lumotlar berishi va ularning ongida ularni tizimini shakllantirishi lozim.

O'smirdagi yana bir qiyinchilik – bu ta'lim olish tizimidagi past orientir olish, ularni bilmaslik hisoblanadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Shaxs va uni kasb tanlab borish davomida o'zgarib borishi.
2. Kasbga xos bo'lgan psixologik jarayonlarni sezish va unga amal qilish.
3. Shaxsning o'z ustida ishlashi, bilim olishi va jiddiylik masalalari. Shaxsni o'zi tanlagan kasbga sodiqligi, javobgarligi, ijodiy yondoshishi va talantililigini namoyish qilish masalalari.
4. O'zgarib borayotgan shaxsga bo'lgan talab va zaruriyat masalalari.
5. Hozirgi zamon kasblari va ularga bo'lgan e'tibor.
6. Shaxs, bozor munosabatlar va kasb tanlash muammolari.

4.6 Kasbiy xavfsizlik psixologiyasi masalasi

Kasbiy xavfsizlik psixologiyasi va uning oldida turgan ko‘plab masalalar. Yangi texnikani hayotga kirib kelishi va undagi xavfsizlik talablari

Kasbiy faoliyatning psixologik xavfsizligini psixologik xavfsizlikning bir bo‘lagi sifatida qarash mumkin. Psixologik xavfsizlik inson mehnat faoliyatida yuz beradigan baxtsiz hodisalarni o‘rganadi va uning oldini olish masalalarini ko‘tarib chiqadi. Uning o‘rganish obyekti bo‘lib kasbiy faoliyat hisoblanadi, ya’ni maxsus bilimlarni va amaliy malakalarni o‘zlashtirish davomida ularning tajribalarini ortib borishi hisoblanadi.

Kasbiy faoliyatlar o‘rtasida katta farqlanish bo‘lishiga qaramasdan ularning asosida inson – uning subyekti sifatida yotadi. Bunda umumiy bo‘lib psixologik masalalar yotadi, ya’ni insonni mehnat faoliyati davomida xavfsizligini ta’minlash, ularni mehnatlarini yaxshilash intilish yotadi. Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, psixologik xavfsizlikning izlanish predmeti bo‘lib insonning psixologik faoliyati hisoblanadi.

Psixologik faoliyat bu inson miyasining vazifasi bo‘lib, real borliqdagi predmet va hodisalarni aks etdiradi. Psixologik faoliyatini tahlil qilinganda uni shaxsning psixologik jarayonlarini, psixologik holat va xususiyatlaridan tashkil topganligini ko‘ramiz.

Psixologik jarayonlar psixologik faoliyatning asosini tashkil etadi. Ularsiz bilimlar shakllanmaydi va hayotiy tajriba ham ottirilmaydi. Bunda kognitiv (bilish), emotsional va irodaviy jarayonlar ajratiladi.

Psixologik holat – bu psixologik jarayonlarning statistik darajasiga tegishli. Ular xilma - xilligi bilan va vaqtning xarakteri bilan

bir - biridan farqlanib turadi. Psixologik holat insonni o‘rab turgan sharoitga va holatga moslashishini (adaptatsiyasini) boshqarib turish vazifasini o‘taydi. Psixologik xavfsizlik muammolaridan kelib chiqqan holda katta qiziqishni faoliyatdagi charchash va zo‘riqish holati tashkil qiladi. Shuningdek, alohida psixologik holat bo‘lgan stress, xavotirlanish, affekt holati, alkagol holati va boshqalar ham kiradi.

Psixologik xususiyat – bu inson psixikasini barqaror namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Unga inson xarakteri, temperamenti, o‘ziga baho berish va sh. k. kiradi. Insonga xos sifatlariga uning aqlliligi, emotsionalligi, irodaviyligi, ahloqiyligi, mehnatkashligi kabilar kiradi. Bir xil bo‘lgan psixologik holat vaqtiga qarab har xil baholalanadi. Masalan, affekt psixologik holat sifatida ma’lum bir vaqt ichida subyektning emotsional, bilishga intilish, xulq - atvor holati sifatida baholansa, shu holatni o‘zi boshqa vaqt birligida insonni qiziqqonligini, o‘zini boshqara olmas, g‘azabli qilib ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarish jarayonidagi xavfli o‘zaro ta’sir va xavfsizlikni ta’minlovchi asosiy yo‘nalishlar haqida gap ketganda uni o‘rganish hozirgi davrning ham dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy faoliyatdagi psixologik xavfsizlikni mehnat xavfsizligini ta’minlovchi bo‘lagi sifatida ham ko‘rib chiqish mumkin. Jismoniy xavfsizlik kelib chiqishi sabablarini uch guruhga – xavfli xulq - atvor, xavfli va ziyon yetkazuvchi omillarni uch yo‘nalishini aniqlashga va kasbiy faoliyatini xavfsizligini ta’minlashga qaratilgandir – bular psixologik xavfsizlik, texnik xavfsizlik va ishlab chiqarish sanitariyasi hisoblanadi.

Psixologik xavfsizlik - bu inson faoliyat ko‘rsatayotgan muhitdagi ijtimoiy - psixologik holat, insonning psixologik jarayonlari, xususiyatlari, ularni mehnat qilish davomida boshqarib, nazorat qilib borish bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi.

Texnik xavfsizlik – bu tashkil qilingan va texnik vositalarni tizimi, ularni inson faoliyatiga, uning xavfsizligiga ta'sirini kamaytirishga qaratilgan bilimlar tizimi.

Ishlab chiqarish sanitariyasi – bu tashkil qilingan va texnik xavfsizlik orqali insonga ta'sir etib turuvchi barcha omillar kiradi.

Psixologik baxtsiz voqealar ishlab chiqarishda ko'pgina sabablar asosida yuz beradi. Ishlab chiqarishdagi muhitning mehnat xavfsizligiga ta'siri bevosita va bivosita bo'ladi. Bevosita bu ishlab chiqarish muhitidan kelib chiqadi, deylik trubaning yorilib ketishi. Bunda kutilmagan holat yuz berish bilan birga bu aynan ishlab chiqarishdagi muhitni tashkil etadi. Bivosita ta'sir etuvchi sifatida ishxonadagi polning sirg'anchiqligi hisoblanishi mumkin. Bunda ishchi uni oldini olishi va unga o'ziga yarasha ishlov bera olishi mumkin bo'ladi. Bundan tashqari mehnat xavfsizligiga yoritish tizimi, mikroklimat, shovqin, ishchi joylarini bo'yoqlari, ranglari kabilar ham ta'sir etadi. Ish joyini yorug'lik bilan to'g'ri ta'mirlanmasa, yorug'lik manbaini noto'g'ri o'rnatilishi, yoruqlikni me'yorida berilmasa ham ish jarayonida avariya holatlari yuz berishi mumkin bo'ladi. Ish joyida mikroklimatni yomonligi ham, deylik havoni issiqligi juda yuqori bo'lishi yoki juda past bo'lishi, havoni tozalik darajasini me'yorida bo'lmasligi kabi tomonlar ham ish joyida avariya holatini yuzaga keltiradi.

Mehnat xavfsizligiga ijtimoiy muhitni ham ta'siri bo'ladi. Ijtimoiy muammolar insonni mehnatga munosabatini, mehnat motivatsiyasini va ishchi guruhdagi shaxslararo munosabatga ta'siri bo'ladi, buning natijasida mehnat xavfsizligi vujudga keladi. Bu omillar mehnat xavfsizligini, mehnat intizomini va texnik xavfsizlikni belgilab beradi. Bularga:

- **Mehnat motivatsiyasi va mehnat xavfsizligi** - mehnat ahloqi va mehnatga munosabat, mehnatdan qoniqish, iqtisodiy va ahloqiy

rag‘batlantirish mehnatni ximoya qilishni shakllantiradi, xavfsiz ish shaklini va xulqini ishlatishga sharoit yaratadi, buning natijasida beziyon faoliyatni optimal rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

- **Ijtimoiy muhit va mehnat xavfsizligi** – kollektivdagi ijtimoiy muhiti yaratuvchi bu ishchi guruhi hisoblanadi – bu guruh a’zolari o’rtasidagi o‘zaro muloqotdir. Noma’qul ijtimoiy muhit insonni ahloqiga va jismoniy holatiga ta’sirini o’tkazadi. Bu esa mehnat intizomiga (texnik xavfsizlik talablariga rioya qilish), va mehnatning o‘ziga munosabatida (ishlash jarayonidagi xulqiga) ta’sir etadi.

- **Ishchi guruhini boshqarish va mehnat xavfsizligi** – rahbarning boshqarishdagi metodi mehnat xavfsizligiga ta’sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda jamiyatning rivojlanishi yaratilayotgan ko‘plab texnikalarni yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lib bormoqda. Bular inson mehnatini yengillashtirib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sifatini yanada yaxshilash, ommabop va talabga loyiq bo‘lishini hisobga ham olmoqda. Yangi texnikalar yaratilishi bilan ularni ishlatishda o‘ziga xos bo‘lgan xavfsizlik tomonlari ham hisobga olinmoqda.

Hozirgi zamon texnikalari asosan kompyuterlashtirilgan va ularni inson programmashtirgan holda boshqarishni kompyuter zimmasiga bermoqda. Bu degani inson mehnatdan o‘zini ozod qildi degani emas, balki juda katta kuch sarf qilinadigan joylarda texnikadan kengroq foydalangan holda uni boshqarish maqsad qilingan. Bu yerda ham mehnatni tashkil etishni o‘ziga xos tomonlari, ya’ni xavfsizlikni ta’minlovchi qirralari mavjud.

Kasbiy faoliyatni psixologik xavfsizligini mehnat xavfsizligining bir bo‘lagi sifatida bilish mumkin. Jismoniy xavfsizlikni uchta guruhga bo‘lish mumkin. Bular xavfli xulq - atvor, xavf va ziyon yetkazuvchi omillar asosida kasb faoliyatini xavfsizligini

ta'minlovchi psixologik xavfsizlik, texnik xavfsizlik va ishlab chiqarish sanitariyasi hisoblanadi.

Hamma avariylar uchta sabab bo'yicha bo'ladi.


- Texnikani buzqligi va yetarli ishlanmaganligi;
- Insonni aybi bilan;
- O'rganilmagan stixiya sababli (yer qimirlashi, siklon va sh.k.)

Mehnat xavfsizligi quyidagilar asosida bo'lishi kerak:

- Texnika va qurollarni loyihalashda;
- Foydalanishni xavfsiz tashkil etishda;
- Shaxsiy tarkibni mehnat xavfsizligi bilan ta'minlashda;
- Kasbiy vazifalarni bajara olmaydigan shaxslarni mehnat joy-

lariga qo'ymaslik.

Mehnat xavfsizligini ko'rsatuvchi asosiy sabablar:



26-chizma

Psixologik xavfsizlik bo'yicha izlanishlar olib borgan M.I. Kotik o'zining "Psixologiya va xavfsizlik" nomli kitobida travmatizmga olib boruvchi omil deb texnikani ham emas, mehnatni tashkil qilishni ham emas, balki insonni o'zini sababchi deb bilish kerakligini

ko'rsatadi. Insonni baxtsiz holatga olib keluvchi sabab bu obyektiv sabab hisoblanadi deb ko'rsatadi .

Birinchi sabab insonni evolyutsiyasidan kelib chiqadi. Mehnat qurollarini rivojlanib borishi bilan insonni atrof muhitga ta'sir darajasi kengayib boradi. Shu bilan birga tashqi muhitning insonga ham javobi kengayib boradi, texnikani o'sib borishi xavfsizlik jarayonini o'sib borishiga olib boradi.

Ikkinchi sabab bu insonni hayotini va mehnat sharoitini juda ham qattiq, xavfli bo'lib borishiga olib keladi. Bu yerda qo'yilgan xato insonga juda qimmatga tushadi.

Uchinchi sabab travmatizimni o'sib borishi – bu insonni xavfsizlikka moslashishi hisoblanadi. Hozirda insonni texnik vositalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, texnika bu inson uchun xavf - xatar keltiruvchi manba hamdir.

Psixologik xavfsizlik - bu psixologiya fanining bir yo'nalishi bo'lib insonni mehnat qilish jarayonidagi xavf - xatarlarni va uning oldini olish yo'llarini o'rganuvchi fandir.

Psixologik xavfsizlikni predmeti bu insonni har xil faoliyati davomida unga xavf keltiruvchi omillarni o'rganish hisoblanadi.

Psixologik xavfsizlikni o'rganish predmeti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Faoliyat davomida yuzaga keluvchi va uning xavfsizligiga ta'sir etuvchi psixik jarayonlar;
- Inson faoliyatini xavfsizligi bilan bog'liq bo'lgan psixik holatlar;
- Inson faoliyatini xavfsizligini aks etdiruvchi shaxsning xususiyatlari.

Hozirda insoniyat taraqqiyot qilib borar ekan uning mehnatini yengillashtiradigan qator yangi texnika ko'rinishlari hayotga tadbiq etilib borilmoqda. Bu xalq xo'jaligini barcha sohalarida amalga

oshirilib borilmoqda. Albatta yangi texnika va uni inson salomatligi uchun xavfsizlik choralari ko‘rilishi zarur jarayondir. Hozirda bu sohada ergonomikaning o‘rni juda katta hisoblanadi. Bundan tashqari texnikani zamon talablariga mos tushushi, uning to‘la amalga oshirilgan ish faoliyati va bu ish faoliyatiga kerak bo‘lgan texnik xavfsizlik masalalar ish olib boruvchilarga o‘rgatilishi zarurdir.

Insonda kasb psixologiyasi bilan bog‘liq psixologik jihatlarni tarbiyalab borish. Kasb psixologiyasi, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish va yangi kasblarning paydo bo‘lishi

Pedagogik psixologiyani yo‘nalishi sifatida kasbiy psixologiya sohasi tarbiyalash va ta‘lim berishning mexanizmlarini o‘rganib boradi. “Kasb” termini asosida inson mavjudligini ta‘minlaydigan o‘ziga xos tayyorgarlikni ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan va inson hayotini moddiy asosini yaratuvchi jarayonni tushunamiz. Kasb shuningdek ma‘lum bir insonni bilim, malaka, uddalay olish tizimini xarakterlab beruvchi hodisa hamdir. Kasbiy ta‘lim bu insonni aniq bir kasb bo‘yicha bilim, malakalarini olish hamdir.

Kasbiy ta‘lim ma‘lum bir kasbni egallashga qaratilgan bo‘lishi va kasbiy faoliyatni egallashga qaratilgan kasbiy tanlovni, kasbiy o‘z - o‘zini anglashni, kasbga yo‘nalganligini, subyektning kasbiy tahlil qilish etaplarini qamrab oladi. Bularning hammasi maxsus bilimlar, malakalar asosida hayot davomida kasbni egalash, kasbni tanlab olish, karera qilishni rivojlantirish, malakani oshirish, kasbiy o‘sib borishni o‘zida qamrab oladi.

Yoshlarni kasb tanlashida bir xil bo‘lmagan obyektiv va subyektiv tomonlar ularni kasb tanlashlarini murakkablashtirib tura-di. Kasb tanlash – bu bir daqiqada bo‘ladigan jarayon emas, balki har xil etaplardan tashkil topgan, uzoq davom etadigan obyektiv

ta'sirlar va subyektning kasb tanlashidagi individual tomonlar bilan bog'liq jarayondir.

Psixologiyada kasb tanlashdagi asosiy omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatiladi: qiziqishlar (bilish bilan bog'liq qiziqishlar, kasbga bo'lgan kasbiy qiziqishlar, havas); qobiliyatlari (ma'lum bir faoliyatdagi psixologik mexanizm sifatida); temperament va xarakter. Bu omillarni ko'p hollarda subyektiv omillarga kiritishadi. Keyingi omillar guruhiga (bularni odatda obyektiv omillar deb yuritiladi) o'ziga quyidagilarni qamrab oladi: tayyorgarlik darajasi (ulgura olishi), sog'lig'ining holati, kasb haqidagi ma'lumotlari va ularni bilish darajasi. Bundan tashqari ijtimoiy muhitni ham ajratib ko'rsatiladi. Bularga ijtimoiy muhit, oilaviy muhit, ota - onaning ma'lumotlilik darajasi. Bu jarayonlarda ayniqsa qobiliyatlarga katta e'tibor beriladi. Insonning qobiliyati kasb tanlashdagi eng muhim tomonlardan hisoblanadi.

Insonni kasbga tayyorlanayotganda shu kasbga tegishli bo'lgan psixologik talablar hisobga olinadi. Har bir kasbga kerak bo'lgan xususiyatlar mavjud bo'lib ular shu kasbni yaxshi bajarilishi uchun imkoniyatlar yaratadi. Kasb tanlashda yana insonni jinsiga ham e'tibor berish talab qilinadi.

Kasb o'ziga yarasha insondan ham ma'lum bir xususiyatlarni bo'lishini talab qiladi. Deylik shunday kasblar borki ular insondan iroda kuchini ko'proq sarf qilishni talab qilsa, ayrim kasb egalari uchun ishni tez va sifatli bajarilishi talab qilinadi. Shunday kasblar borki insondan diqqatni, tafakkurni, chidamni, ozodalikni, mehrni va shu kabilarni talab qiladi. Inson kasb tanlayotganda maktabdayoq va kerak bo'lsa bog'chadayoq o'zida ma'lum bir xislatlarni borligini namoyon qiladi. Ota - onalar bolalardagi bu xislatlar ularni kelajagi bilan bog'liqligini his etgan holda ularni tarbiyalab borishlari zarur bo'ladi.

Jamiyat taraqqiy etib borar ekan uning ehtiyojlari sifatida yangi kasblar ham paydo bo'ladi va uni jamiyatga foydasi borligi uchun u

saqlanib qoladi. Agarda bu kasb jamiyatga kerak bo'lmasa o'z o'zidan yo'qolib ham ketadi. Biz yuqorida kasblar haqida fikrlar berdik, ularni tasniflab ham chiqdik. Har bir kasbni o'ziga xos bo'lgan talablari borligi, bu talablar jamiyat manfaatlari asosida shakllanib borishi, jamiyat bu talablarni qondirish uchun maxsus kadrlar masalasi bilan shug'ullanishini ko'rib chiqadi. Bu sohada kasb psixologlarning o'rni va ahamiyati oshib boradi. Kasb psixologiyasi jamiyat uchun kerak bo'lgan kadrlarni tanlashga va ularni o'zlari sevgan kasblarini to'g'ri tanlashlari uchun amaliy ishlarni olib boradi. Yangi kasblarni o'ziga xos psixologik tomonlarini o'rganish, ularni jamiyatga foydasi, bu kasbga qiziquvchi, layoqatli kadrlarni tanlash kasb psixologiyasini asosiy vazifasi hisoblanadi.

Jamiyatimiz o'zining mustaqilligini birinchi kunlaridanoq jamiyatga hozirda qanday kasb egalari kerakligini o'rganib ta'lim va ta'rbiya sohasida islohotlar olib bordi va bormoqda. Kasb psixologiyasi jamiyatimiz uchun kerak bo'lgan kadrlarni yaratishga o'z hissasini qo'shib borib, kasbga yo'naltirish, kasbiy maslahat, kasbga tayyorlash kabi masalalar bilan shug'ullanib kelmoqda. Albatta bu sohada, ya'ni kasb psixologiyasi sohasida kadrlar juda kerak bo'ladi. Buni insoniyat ijtimoiy – tarixiy rivojlanishi ko'rsatmoqda. Bu sohada kasb psixologiyasini qiladigan ishlari jamiyat oldidagi vazifalari juda ko'pdir.

Mehnatni ilmiy tashkil etish masalalari va kadrlarni mehnatga tayyorlash

Mehnatni ilmiy tashkil qilish amerikalik injener ratsionalizator F.Teylor (1856 - 1915) nomi bilan bog'liq. Uning bu tizimi juda katta, tasavvur qilib bo'lmaydigan daromad keltirdi. Ishlab chiqarishni aniq tashkil qilish, uni boshqarishni aniq tashkillashtirish ishchilar

jamoasini birligini, yaxshi ishlashini ta'minlaydi. Mehnatni ilmiy tashkil qilish bu bir butun jarayon bo'lib, ko'pgina fanlar va yo'nalishlarni mehnat jamoalarini kam moddiy vositalarni va inson energiyasini sarf qilgan holda ko'proq natija olishga qaratilgan jarayon hisoblanadi.

Mehnatni tashkil qilish – bu tadbirlar tizimi bo'lib, u ishchi kuchidan ratsional (aqlan) foydalanishni ta'minlab berib, odamlarni ishlab chiqarish jarayonida maqsadga muvofiq joylashtirishni, mehnatni taqsimlash va tashkil etishni, usul va metodlarni, mehnatni me'yorlashtirish va rag'batlantirish, ishchi joylarini tashkil qilish, ularga ko'rsatiladigan xizmatni yo'lga qo'yish, mehnat qilish uchun sharoitlar yaratish hisoblanadi.

Mehnatni tashkil qilish amaliy bo'lishi mumkin, u ma'lum bir metodlarga asoslanib, mehnat tajribasiga, aqliy (ilmiy) umumlashmalarga suyangan holda ilmiy bilish talablaridan kelib chiqadi.

Mehnatni ilmiy tashkil qilish – bu fanga va ilg'or tajribalarga asoslangan, uning yutuqlarini ishlab chiqarishga doimiy tadbiriqilib, texnika va insonni bir butun holda, inson sog'ligini saqlashga qaratilgan jarayondir. Mehnatni ilmiy tashkil qilishning asosiy maqsadi – bu jonli mehnatni doimiy yaxshilab borish, uning shakl va usullarini mavjud bo'lgan texnikaga mos bo'lishini va korxonadagi texnologiya talablariga mos tushushini ta'minlash hisoblanadi.

Mehnatni ilmiy tashkil qilishning elementlari – bu mehnatning metod va usullari, mehnatni me'yorlashtirish, uni tashkil etish shakllari, kollektivdagi ijtimoiy – psixologik holat va sh. k.

Mehnatni ilmiy tashkil qilish quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak:


1. Texnik – texnologik. Sexlarni proektlashtirish, yangi texnologik jarayonlarni ishlab chiqarish; ishchi qurollarni konstruktivlashtirish va sh.k.

2. Iqtisodiy. Insonni ishlab chiqarish vositalari va bir - birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarini yangi ko'rinishlarini ishlab chiqish, ya'ni ishlab chiqarishni maksimal holda tashkil etish, mahsulotlarni tannarxini kamaytirish, ishlab chiqarish rentabelligini yuksak darajaga ko'tarish.

3. Psixofiziologik. Ishchi o'rinlarda qulay sharoitlarni yaratish, u uzoq vaqt shu ishlayotgan joyida yuqori unumdorlik sharoitida ishlay olishi va o'z sog'lig'ini saqlay olishi bilan bog'liq.


4. Ijtimoiy. Mehnatni mazmunligini va jozibadorligini ko'tarish. Mehnat qilayotganlarni aqliy va jismoniy mosligini optimallashtirishga intilish. Bu vazifalar mehnatni ilmiy tashkil qilishning muhim vazifalari qatoriga kiradi. Bular esa o'z navbatida olib boriladigan ishlarda yanada mukammallashib boradi.

Inson mehnatini tashkil etish, uni qilayotgan mehnatini unumli qilish, insondagi ruhiy jarayonlarda mehnatni yaxshi tashkil etish ko'proq inson manfaatlarini o'ylash bu aynan mehnatni ilmiy tashkil etish jarayonlari bilan bog'liqdir.



27-chizma

Mehnatni ilmiy tashkil (MIT) qilish – bu shunday tashkil qilishki, qo'yilgan vazifalarni bajarish davomida ilmiy tahlil va bajarish sharoitlarini amaliyotda sinash, amaliyotga tadbqiq qilib natijalarini ko'rish hisoblanadi. Bunda uning asosi bo'lib fan va amaliyot yotadi. Mehnatga ilmiy yondoshish – bu mehnat unumdorligini ko'tarishga qaratilgan doimiy intilish, yangi ratsional mehnat vositalarini tadbqiq qilgan holda ishlab chiqarishda ishchilar uchun qulayliklarni yaratish bilan bog'liqdir. Bu jarayonlarni tashkil etish va yaratuvchanlik faoliyatini amalga oshirish psixologiyaga asoslanishi zarur.



28-chizma

Yangilikni izlash, bu ishdagi foydali tomon – ya'ni o'quv va ishlab chiqarishda bu yangilikni qo'llay olish, yanada yangi tomonlarini kashf qilishdir. Shuningdek, fan yutuqlaridan foydalangan holda o'quv jarayonida yoki ishlab chiqarishda mavjud bo'lmagan yangiliklarni tadbiq etishdir. Buning uchun o'quvchilarda, bo'lg'usi malakali ishchilarda texnik ijodkorlikka qobiliyatni, o'qituvchi va ustalarda – pedagogik ijodkorlikni shakllantirish zarurdir.

Birgalikda faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarda va ularning mehnat faoliyatlarini unumdorligi quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- Ishlab chiqarishdagi psixologik iqlim, holatdan ya'ni o'zaro munosabat, kelishib ishlash, o'zaro yordam va umumiy kayfiyatdan;
- Ishlab chiqarishdagi tashqi muhit, moddiy ta'minlanganlik darajasi, ishdagi sharoit;
- Mehnat rejimi, ya'ni davomiyligi, intensivligi, ritmikligi, mehnat va dam olishni to'g'ri tashkillashtirish.

Mehnatni ilmiy tashkil etish bu keng tushuncha bo'lib bir tomondan inson mehnat qilayotgan obyektni o'zgartirib borib, ikkinchi tomondan bu obyektlarni insonning psixologiyasiga mos tushushini ta'minlab insonni mehnat qilishi va o'z imkoniyatlarini ko'rsatish uchun sharoitlar yaratib berish bilan bog'liq hisoblanadi.

Mehnatni ilmiy tashkil etish bo'yicha ko'plab tajribalar olib borgan pribaltikalik psixolog V.G.Loos o'z tajribalarida inson va ishlab chiqarish o'rtasidagi munosabatlarni o'rgangan edi. Insonni ish faoliyatidagi yaratilgan sharoitlar uni mehnat faoliyatiga, mehnat jarayonidagi yaratuvchanligiga, o'zaro munosabatdagi psixologik iqlimga, individual psixologik holatlariga, mehnat unumdorligini oshib borishiga ta'sirini o'rganib borgan. V.G.Loos shaxsni har tomonlama o'rganishga intilib uni ilmiy asosda mehnat sharoitida, mehnat qilishga yaratilgan imkoniyatlarda, shaxsga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik sharoitlarda, kollektiv asosidagi sharoitlarda, korxona va uning sharoitlarini shaxs psixologiyasiga ta'sirida, mehnat bilan bog'liq vaqt sharoitlarida, charchashga olib keluvchi sharoitlarda, mehnat xavfsizligini yaratish sharoitlarida, dam olish va unga berilgan vaqt, sharoitlarda, estetik did bilan yaratilgan sharoitlarda, ishchini kiyinishi va uni faoliyatga ta'siri kabi ko'plab jarayonlarni o'rganib bordi.

Mehnatni ilmiy tashkil etish insonga mehnat qilishi davomida qanday omillar ta'sir etib uni faoliyatini unumdor qilishi va inson mehnati davomida o'z ijodiy imkoniyatlaridan qanchalik to'g'ri foydalana olishi kabi tomonlarni o'rganib boradi.

Insondagi mavjud bo'lgan tomonlardan biri bu inson har doim ijodga intilishi hisoblanadi. Inson o'zi mehnat qilayotgan joyda iloji boricha o'z mehnatini yengillashtirishga, yangi qirralarni topishga intilib boradi. Bunda mehnatni tashkil qilish muhim omillardan hisoblanadi. Shuning uchun bu yerda rahbar psixologiyasi, rahbarning tashkilotchilik tomonlari muhim hisoblanadi.

Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki jamiyatga, korxonaga kerak bo'lgan kadrlari, mutaxassisni tayyorlash, uni o'qishi, mehnat staji, malakasi, bilimi asosida sodir bo'ladi. Bu aytilgan omillar birdaniga egallanmaydi. Tarixda ham bu sohada ko'plab misollar mavjuddir. Yangi bitirib kelgan kadrga biror jiddiy masalani hal qilishida o'ylanib topshiriladi. Uni mas'uliyati, ishni kelajagini ko'ra olishi, odamlar bilan chiqisha olishi, to'g'riligi, haqiqatga asoslanishi va shu kabi ko'plab xususiyatlariga qaraladi.

Jamiyat o'ziga kerak bo'lgan kadrlarni qadrlashi, bilimidan, malakasidan, orttirib borgan tajribalaridan foydalanib, yangi kadrlar bilan jamiyatni ta'minlashga intilishi zarur. Yaxshi kadrlar ishdan bo'shatib, yangisini olish bu ish unumini pasayishiga, kollektivdagi munosabatlarga ziyon yetkazib qo'ymaslikni hisobga olish kerakligini ko'rsatadi.

Kadrlarni mehnatga tayyorlashda mehnatni ilmiy tashkil etish muhim jarayon hisoblanadi. Kadrlar o'n yillar davomida tayyorlanadi. Ularni ehtiyotlash, jamiyat manfaatlariga xizmat qilishini ta'minlash eng muhim omillardan hisoblanadi.

Yangi kadrlar tayyorlashda kasb psixologiyasi oldida turgan vazifalar

O'zbekiston yildan yilga o'zining oldida turgan ko'plab vazifalarni amalga oshirib bormoqda. Bu eng avvalo ishlab chiqarishda, kadrlar tayyorlashda ko'zga tashlanib kelmoqda. Jamiyatda olib borilayotgan islohotlar o'zining mohiyati va amaliy vazifalari jihatidan ko'pgina vazifalarni o'tashni talab qiladi. Bu sohada bu islohotlarni mohiyatini asoslab beruvchi falsafiy tahlillar kerak bo'ladi. Ko'plab savollar paydo bo'ladiki, buni asoslash, olib borilayotgan islohotlarni yo'nalishini va amaliy natijalarni tahlil qilish, unga falsafiy yondoshish kerakligini ko'rsatadi. Kasb psixologiyasi aynan amaliy va

nazariy fan sifatida ko‘plab masalalarni o‘rganadi, uni chuqur tahlil qiladi va falsafiy mushohada uchun ko‘plab masalalarni ko‘rsatib ham beradi.

Kasb psixologiyasi jamiyat manfaatlariga o‘z xizmatlarini qo‘yar ekan u jamiyatga kerakli bo‘lgan kadrlarni yetkazib berish, bu kadrlarni sifatli va raqobatbardosh bo‘lishini hisobga olgan holda ishlarni olib boradi. Jamiyat oldidagi muhim masalalardan biri albatta kadrlar masalasi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlashda kasb psixologiyasi jamiyatga kerak bo‘lgan va jamiyat manfaatlariga o‘z xizmatlarini ayamaydigan insonlarni yetkazib berishga intiladi. Ko‘rinib turibdiki, hozirda kasb psixologiyasiga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu bilan birga bu mutaxassislarni kuchidan foydalanish va kadrlarni o‘z kasbini tanlashdagi imkoniyatlarini to‘g‘ri ko‘rsatib berish zarur.

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar kadrlar masalasiga o‘ziga xos bo‘lgan holda qarashni talab qilmoqda. Ya’ni kadrlar eng avvalo sifatli va raqobatbardosh, jahon standartlariga to‘g‘ri keladigan, bilimdon va malakali mehnatsevar va ijodiy yondosha oladigan bo‘lishlari kerak. Kasb psixologiyasi fani kadrlarni tayyorlashda o‘ziga xos vazifalarni bajarishi va ularni amalga oshirishi zarur bo‘ladi. Kasb psixologiyasi yoshlarni o‘zlari qiziqqan kasblarni egallashlariga yordam berishi, ularni yetuk kadr bo‘lib borishlariga hissasini qo‘shishi, o‘zlaridan keyin shogirdlar tayyorlashlariga ko‘maklashishi va keyinchalik nafaqaga chiqishlariga tayyorlashi kerak bo‘ladi.

Yangi kadrlarni tayyorlash masalasi kasb psixologiyasi oldiga ko‘plab dolzarb masalalarni qo‘yadi. Bular quyidagilarda o‘z aksini topadi:

1. Kasb psixologiyasi fanini O‘zbekistonda fan sifatida shakllanishini vujudga keltirish;
2. Kasb psixologiyasi bo‘yicha kadrlarni tayyorlash;
3. Kasb psixologiyasi bo‘yicha laboratoriyalarni shakllantirish;

4. Kasb psixologiyasini ishlab chiqarishga va tadbirkorlikka zarur bo'lgan kadrlar bilan jamiyatni ta'minlash yo'lida yoshlarni kasbga yo'naltirib borishi;

5. Yoshlar orasida kasbga intilishni, kasb tanlashni, kasbga layoqatlikni, kasbiy maslahatni, kasbga yo'naltirishni o'rgatib borib jamiyatga kerak bo'lgan mutaxassislarni yaratish;

6. Kasb psixologiyasi kadrlarni atestatsiyasini va kasbiy layoqatini o'rganib borish, ularga kerak bo'lgan bilimlarni berishni tashkil eta olishi zarur bo'ladi;

7. Kasb psixologiyasi jamiyatda olib borilayotgan islohotlarda faol ishtirok etishi va kasblarni yanada kengayib borishiga o'z hissasini qo'shib borishi kerak bo'ladi.

8. Kasb psixologiyasi bo'yicha olib borilgan izlanishlar asosida yangi darsliklarni shakllantirish va oliygohlarda shu fan bo'yicha darslarni kiritish.

Takrorlash uchun savollar

1. Kasbiy xavfsizlik psixologiyasi va uning oldida turgan ko'plab masalalar. Yangi texnikani kirib kelishi va undagi xavfsizlik talablari.

2. Insonda kasb psixologiyasi bilan bog'liq psixologik jihatlarni tarbiyalab borish. Kasb psixologiyasi, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish va yangi kasblarni paydo bo'lishi.

3. Mehnatni ilmiy tashkil etish masalalari va kadrlarni mehnatga tayyorlash

4. Yangi kadrlar tayyorlashda kasb psixologiyasi oldida turgan vazifalar.

5. Xavfsizlik masalasi va mehnatni tashkil qilishdagi kamchiliklar, yutuqlar va to'ldirish kerak bo'lgan bilimlar.

GLOSSARIY

Kasb - inson ish faoliyatining ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir.

Kasb psixologiyasi - *bundan kelib chiqib aytish mumkinki, kasb psixologiyasi – bu amaliy psixologiya alohida yo‘nalishi bo‘lib, shaxsni kasb tanlashining Qonuniyatlarini shakllanishini, kasb tanlashini, bu kasbni egallashini, kasb mutaxassisini shakllanishi, baholanishini va shu kasbni egasi bo‘lishini, shuningdek kasbiy destrukturni o‘rganuvchi fan hisoblanadi.*

Kasb psixologiyasining predmeti – bu shaxsni kasbni egallashi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos tomonlari, Qonuniyatlari, mexanizmlarini o‘rganish hisoblanadi.

Kasb tanlash - bu murakkab, lekin zaruriy jarayon bo‘lib, insonni kelajagini va yaxshi yashash imkoniyatlarini yaratuvchi, shuningdek jamiyatda o‘z o‘rnini topib borib, unga foydali mehnat qilish hisoblanadi.

Kasb psixologiyasining obyekti - bu shaxs va kasb o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, bu ta’sirning natijalarini o‘rganish hisoblanadi.

Kasb psixologiyasini vazifalari - bu asosan inson va jamiyat manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiriladi.

Kasbga yo‘l - yo‘riq berish yoki kasbga yo‘llash – bu yoshlarni kasbga ega bo‘lishlaridagi psixologik – pedagogik va meditsina bilan bog‘liq bir butun jarayon bo‘lib, unda shu yoshlarning xohishlaridan, havaslari, qobiliyatlari va xalq xo‘jaligini, jamiyatni mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holdagi yuz beradigan jarayondir.

Kasbga yo‘naltirish (профессионалнае ориентация) – bu psixologik – pedagogik va meditsinaga oid kompleks tadbirlarning birligidir.

Kasbga yo‘naltirish – bu pedagoglarni ta’lim va tarbiya berish

jarayonida o'quvchilardagi qobiliyat va qiziqishlardan kelib chiqqan holdagi, ulardagi psixologik xususiyatlarni hisobga olgan tarzdagi maslahatlar berish jarayonidir.

Ta'lim - bu bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, insonni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir.

Motiv lotincha so'z bo'lib *movere* - harakatga keltiruvchi, undovchi degan ma'noni bildiradi. Motiv subyektning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatga undovchi xatti – harakatlardir.

Kasb tanlash jarayoni – bu kasb tanlovchini o'z qobiliyatiga bo'lgan munosabatidan, ya'ni o'zining imkoniyatlarini tahlilidan, o'zini anglagani, o'ziga beradigan baholardan kelib chiqadigan jarayon ekanligi ko'rinadi.

Kasbiy maslahat (angl. vocational counseling) — insonlarga kasb tanlashda yoki kasbni qayta tanlashlarida yordam beruvchi metod hisoblanadi.

Pedagogik ixlos – bu pedagogni o'z kasbiga bo'lgan sodiqligi, uni ta'lim berish va tarbiyalash ishlaridagi jonkuyarligi, o'z ishiga berilganligi, faolligi, xolisligi, ishiga vafadorligi, undagi qobiliyatlar va bag'ri kenglikning cheksizligi kabilar hisoblanadi.

Qobiliyat – bu insonni individual - psixologik xususiyati bo'lib, uning faoliyatida ko'rinadi va bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishiga sharoit hisoblanadi

“Krizis” so'zi grekchadan ag'darilganda – burilishi punkti, asos, boshlang'ich degan ma'noni bildiradi.

Psixodiagnostika: Diagnostika grekcha *dia* - o'zaro, orqali va *gnosis* - aniqlash so'zlaridan olingan. Diagnostikos-aniqlash usullari degan ma'noni anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlarini o'lchash va baholash prinsiplari va vositalarini ishlab chiquvchi psixologiya fani tarmog'i.

Testlashtirish - testlarni qo‘llashdan iborat, dianostik vositalar, empirik tadqiqot metodi.

Individ - tug‘ma va o‘zlashtirilgan xususiyatlarning noyob uyg‘unligini ifodalovchi alohida inson.

Metod (sinonimi – usul) - biror bir maqsadga erishish, aniq masalani yechish usuli;

-voqelikni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish operatsiyalari yoki usullari yig‘indisi.

ГЛОССАРИЙ

МОТИВ (от лат. Мовео) – материалный или реальный предмет, который направляет и побуждает на себя деятельность или поступок и ради которого они осуществляются.

Профессиональная пригодность — это совокупность психологических и психофизиологических особенностей человека, необходимых и достаточных для достижения им заданной в профессии общественно приемлемой эффективности труда

Профессия - (от лат. «профитеэр» - объявляю своим делом) род трудовой деятельности, требующий особой подготовки и обычно являющийся источником существования.

Профессиональный отбор — система специализированных процедур изучения и оценки профессиональной пригодности человека к овладению определенной профессией или группой профессий, достижению в них требуемого уровня мастерства и успешному выполнению профессиональных обязанностей в типовых и нестандартных профессиональных ситуациях.

профпсихология — это отрасль прикладной психологии, изучающая закономерности формирования профессиональных намерений, выбора профессии, овладения ею, становления и оценки специалиста и профессионала, а также профессиональных деструкций личности.

Кризис — это сложное переходное состояние, возникающее в условиях невозможности (или затрудненности) жить, как прежде, и незнания, как жить дальше, связанное с мучительным переживанием своего нового «Я».

Предметом профпсихологии являются психологические

особенности, закономерности, механизмы профессионального становления личности.

Объектом профпсихологии являясь взаимодействие личности и профессии.

Функции профпсихологии – основываясь на интересах общества и личности.

профессиональное консультирование, связанное с адекватным выбором профессии и форм подготовки, проектирование и сопровождение профессиональной карьеры, сменой профессии;

Профориентация - это научно обоснованная система социально-экономических, психолого-педагогических, медико-биологических и производственно-технических мер по оказанию молодёжи лично-ориентированной помощи в выявлении и развитии способностей и склонностей, профессиональных и познавательных интересов в выборе профессии, а также формировании потребности и готовности к труду в условиях рынка, многоукладности форм собственности и предпринимательства.

«Профессиональный отбор (подбор), то есть выбор лиц, которые с наибольшей вероятностью смогут успешно освоить данную профессию и выполнять связанные с ней трудовые обязанности»

Профессиональная пригодность человека это не что иное, как необходимый комплекс способностей, физических, нервно-психических и нравственных качеств, которые требуются для овладения определёнными рабочими функциями и успешной деятельности в той или иной сфере производства или духовной жизни.

Психодиагностика (от греч. ψυχή — душа, и греч. διαγνωστικός — способный распознавать) — отрасль психологии, разрабатывающая теорию, принципы и инструменты оценки и измерения индивидуально-психологических особенностей личности

Тестирование — эмпирический метод исследования, диагностическая процедура, заключающаяся в применении тестов (от английского test — задача, проба).

Индивид — отдельный человек как уникальное сочетание его врожденных и приобретенных свойств.

Метод (синоним – способ):

– способ достижения какой-либо цели, решения конкретной задачи;

– совокупность приемов или операций практического или теоретического освоения действительности.

GLOSSARY

MOTIV (from Latin Moveo) is a material or real thing that directs and motivates the activity or act for which they are carried out.

Professional suitability is a set of psychological and psycho-physiological characteristics of a person that are necessary and sufficient for achieving socially acceptable labor efficiency in a profession

Profession - (from the Latin “profiteer” - I declare as my business) a kind of labor activity that requires special training and is usually a source of subsistence.

Professional selection is a system of specialized procedures for studying and assessing the professional suitability of a person for mastering a certain profession or group of professions, achieving the required level of skill in them and successfully fulfilling professional duties in typical and non-standard professional situations.

Professional psychology is a branch of applied psychology that studies the patterns of the formation of professional intentions, the choice of a profession, mastering it, the formation and evaluation of a specialist and a professional, as well as professional destruction of the individual.

A crisis is a complex transitional state that arises in conditions of impossibility (or difficulty) to live, as before, and ignorance of how to live further, connected with the painful experience of its new “I”.

The subject of profsihologii are psychological features, patterns, mechanisms of professional formation of personality.

The object of occupational psychology is the interaction of personality and profession.

The functions of occupational psychology are based on the interests of society and the individual.

Professional counseling related to the adequate choice of the profession and forms of training, designing and maintaining a professional career, changing the profession;

Vocational guidance is a scientifically grounded system of socio-economic, psychological-pedagogical, medico-biological and industrial-technical measures to provide young people with personal-oriented help in identifying and developing abilities and inclinations, professional and cognitive interests in the choice of profession, and the formation of the need and Readiness for work in the conditions of the market, multistructure of forms of ownership and entrepreneurship.

“Professional selection (selection), that is the choice of persons who are most likely to be able to successfully master this profession and perform related work duties”

Professional fitness of man is nothing but a necessary set of abilities, physical, neuropsychic and moral qualities that are required for the mastery of certain workers. Functions and successful activities in a particular sphere of production or spiritual life.

Psycho - branch of psychology that develops the theory, principles and tools for assessing and measuring the individual psychological characteristics of personalit

Testing- empirical method of research,diagnostic procedure, which consists in the use of closelyComrade (from the English test - challenge test).

Individual - the individual as a unique combination of its innate and acquired properties.

Method (synonym - method):

-a way to achieve a goal, solve a specific progarden;

-set of methods and operations of practical or theoretical understanding of reality

A d a b i y o t l a r :

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: 2014.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.: – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017, 488 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.–Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016, 56b.
“Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан.:–Ташкент: “Узбекистан”, 2016, 56с.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi.:–Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017, 48b.
5. Мирзиёев Ш.М. Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития страны и благополучия народа.:–Ташкент; “Узбекистан”, 2017, 48с.
6. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.: – Toshkent; “O‘zbekiston”, 2017, 104b.
7. Мирзиёев Ш.М. Критический анализ, жесткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой в деятельности каждого руководителя.:–Ташкент; “Узбекистан”, 2017, 104с
8. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
9. *Karimov I. A Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.: –T.: 1998.*

10. *Karimov I.A.* Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T., Ma'naviyat, 2008.
11. *Karimov I.A.* O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T., O'zbekiston, 2011.
12. *Abu Nasr Forobiy Fozil* odamlar shahri.:– T., 1993.
13. *Abdulla Avloniy.* Turkiy guliston yoxud ahloq.:–Toshkent: O'zbekiston, 1992.
14. *Abduraxmanov F.R., Saidxodjaev X.* “Sotsiologiya”.: –T., IIV Akademiyasi, 2000.
15. *Abduraxmonov F.R., Abduraxmonova Z.E., Xalmuratova J.G.* Pedagogika. Psixologiya.:– TTESI T., 2015.
16. *Abduraxmonov F.R., Xalmuratova J.G.* Pedagogik jarayonlarni boshqarish o'quv uslubi qo'llanma.:–T.:TTESI., 2015.
17. *Abduraxmonov F.R.* Pedagogik sotsiologiya.:– T., “Noshir” 2015.
18. *Abduraxmonov F.R., Abduraxmonova Z.E.* Kasb psixologiyasi (o'quv qo'llanma).:–T.:P TTESI., 2017.
19. *Voronsov V.I.* Tafakkur gulshani.: – T., G'G'ulom, 1981. 155-159 b.
20. *Гуревич К.М.* Дифференциальная психология и психодиагностика.:– М., 2008.
21. *Зеер Е.* Психология профессионального образование уч.пос. для студентов.:– М., 2006.
22. *Jalolov.A* Kasb qanday tanlanadi.:– T., 2010.
23. *Климов Э.А.* Психология профессионального самоопределения.:– Ростов, Н/Д: 1996.
24. *Климов Э.А.* Как выбрать профессию.: - М., 1990
25. *Кайковус “Qobusnoma”* .:–T., 1994. 26b.
26. *Karimova V.M.* Kasb psixologiyasi.:– T., TTYI, 2013.
27. *Маркова А.К.* Психология профессионализма. - М., 1997.

28. Odob bo'stoni va ahloq gulistoni.:– T., 1994y.
29. G'oziyev E.G'. Mamedov K.Q Kasb psixologiyasi.:– T., TDAU 2003 y.
- 30 . Falsafa ensiklopedik lug'at.:– T.,2010y
31. Xayrullayev M. Forobiy ruhiy protsesslar va ta'lim – tarbiya to'g'risida.:– T., 1967 y.
32. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri.:– T., 1971.
33. Hamidjon Xamidiy. Avestodan Shohnomaga.:– T., Sharq, 2007.
34. G'oziyev E. Umumiy psixologiya.:– T. 2010y. 201 b
35. G'oziyev E., Jabborov A. faoliyat va xulq - atvor motivatsiyasi.: – T., 2003 y.1
36. Психология словарь под общ. Ред. А.В.Петровского, М.Г.Ярошевского 2-изд.:– М. 1990, 218с.
37. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari.:– T., Universitet., 1998.
38. Super D. E. Vocational Development. New York . 1957.
39. Douglas A. Bernstein, PSYCHOLOGY 2012, USA Wadsworth, Cengage Learning
40. Анастаси А., Урбина С. Психологическое тестирование. 7 –е издание. Пер.с англ. СПб.:–М. 2009.
41. Myers D G Social psychology HcCraw-Hill education 2002 21-23
42. Xalq so'zi 2016 y.29-mart № 61

I l o v a

O‘z “Men”ligini anglash mashig‘i


O‘shbu mashq insonni o‘z menligini anglashga yordam sifatida tavsiya etiladi. Ko‘pgina yoshlar o‘z menligini anglay olmaydilar, o‘zlarini qilayotgan ishlarini nechog‘liq o‘zlari uchun kerakligini ham his etmaydilar. Shuning uchun ularni shu rasmlar orqali mashq qilishlari ularga yordam berishini hisobga olgan holda shu mashqni qilishlarini tavsiya etamiz.

Rasmni o‘zidan 50 – 80 sm nariga qo‘yib, uni o‘ziga ko‘rish qulay bo‘lishini hisobga olgan holda joylashtiriladi. Keyin esa chap qo‘lni bosh va o‘rta barmoqlarini bir - biriga tegizib, mashq tamom bo‘lguncha ushlab turiladi. Keyin esa burun bilan chuqur nafas olinib yarim ochiq og‘izdan chiqariladi. Bu shoshilmasdan asta sekin bajariladi. Bu mashq bir necha marotaba qaytariladi. Keyingi holatda o‘z diqqatingizni rasmdagi “Men”ga qarating, bu esa 3 – 5 minut vaqtni oladi. Agarda bu mashq sizda uyqu holatini keltirsa qo‘rqmang. Bu mashqni xohlaganingizcha qaytarishingiz mumkin. Bu mashq insonda bo‘shashishni, dam olishni, bosiq bo‘lishni, bir xilda o‘zini ushlab turishni va ongini yuqori darajaga olib chiqishni bera oladi.

Insonni o‘z “Men”ligini tanishi uni o‘ziga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Ayrimlarni o‘z “Men”ligiga yuqori baho berishlarini me‘yoriga kelishiga yordam ham beradi. Insonni o‘z maqsad va manfaatlarini to‘g‘ri baholash uchun sharoitlar yaratadi. O‘z o‘zini baholash yo‘llarini shakllantirib, o‘zgalar manfaatlarini ham tushunishga imkoniyat yaratadi.

Yoshlardagi kasb tanlashda bu mashqning o‘ziga yarasha imkoniyatlari bo‘lib, ularni o‘z menliklarini tanishlarida ham yordam

beradi. Kasb tanlashda kasb tanlovchi o‘z “Men”ligini anglagan bo‘lsa, o‘zini tanigan bo‘lsa kasbni ham to‘g‘ri tanlaydi va o‘z manfaatlarini himoya ham qila oladi. Bu kabi mashqlar yoshlarga kasb tanlashda yordamlashadi degan umidda buni tavsiya etdik. O‘zingizni sinab ko‘ring. Bu faqat ko‘proq mashqlar orqali shakllanadi. O‘zingizni “Men”ligingizni o‘rganishdan toliqmang.



O‘z – o‘zini baholash shkalasi

Insonni o‘zini baholashga oddiy test – so‘rov orqali erishish mumkin. Berilgan savollar 32 ta hukmdan tashkil topib har bir savolga beshta variant javoblar bor, ular quyidagicha tizimga ega:

Juda ham tez – tez – 4 ball

Ko‘p hollarda – 3 ball

Gohida – 2 ball

Kam hollarda – 1 ball

Hech qachon – 0 ball

№	Hukmlar	Juda ham tez - tez	Ko‘p hollarda	Gohida	Kam hollarda	Hech qachon
1	Meni do‘stlarim qo‘llab turishini xohlayman					
2	Ishda har doim javobgarlikni his qilaman					
3	Men o‘zimni kelajagim haqida tashvishlanaman.					
4	Ko‘pchilik meni yoqtirmaydi					
5	Men boshqalarga nisbatan kamroq tashabbuskorman					

6	Men o‘zimni ruhiy - psixologik holatimdan tashvishlanaman					
7	Men ahmoq bo‘lib qolishdan qo‘rqaman					
8	Boshqalarni tashqi ko‘rinishi meni ko‘rinishimdan juda yaxshi					
9	Notanish odamlar oldida nutq so‘zlashdan qo‘rqaman					
10	Men juda ko‘p hollarda xatoga yo‘l qo‘yishdan qo‘rqaman					
11	Men odamlar bilan gaplashish qoidalarini bilmaganimdan afsuslanaman					
12	Men o‘zimga ishonchim yo‘qligidan afsuslanaman					
13	Meni harakatlarimni boshqalar tomonidan ma’qullanishini xohlayman					

14	Men juda uyatchangman, tortinchoqman					
15	Mening hayotim befoydadir deb o'ylayman					
16	Ko'pchilik men haqimda noto'g'ri fikrda					
17	Meni fikrlarimni muhokama qiladigan hech kim yo'q					
18	Odamlar mendan ko'p narsani kutadilar					
19	Odamlar meni yutuqlarim bilan qiziqishmaydi					
20	Men ko'p hollarda hijolat bo'laman					

21	Men ko‘pchilik odamlarni meni tushunmas-liklarini sezaman					
22	Men o‘zimni xavf – xatarda deb sezmayman					
23	Men ko‘p hollarda hayajonlanaman					
24	Odamlar o‘tirgan xonaga kirganimda o‘zimni noqulay his etaman					
25	Men o‘zimni erkin seza olmayman					
26	Men odamlarni orqamdan men haqimda gapirishlarini sezib turaman					
27	Odamlarni menga nisbatan bo‘ladigan hodisalarni yengil qabul qilishiga ishonchim komil					

Natijalarni tahlil qilish uchun kalit

0 – 43 ballgacha. O‘z - o‘zini baholashni yuqoriligini ko‘rsatadi. Boshqalarni ko‘rsatgan kamchiliklarini to‘g‘ri qabul qiladi va o‘zini harakatlariga juda kam holda ikkilanadi. O‘z - o‘ziga baho berishni me‘yorida ushlab turishi, yutuqlardan boshi aylanib qolmasligi uni keyinchalik yaxshi xodim bo‘lishga olib keladi.

44 – 86 ballgacha. O‘z - o‘zini o‘rtacha baholaydi. Vaqti - vaqti bilan boshqalarni ta’siriga tushub turadi va o‘zini barkamolligi haqida kam holda o‘ylaydi. Albatta inson har doim har xil bo‘ladi o‘zini ko‘p hollarda kuchsiz, yordamga muhtoj ko‘radi. Bu hollarda inson o‘zini ichki kuchlarini ishga solishi va uziga ishonchni rivojlantirishi zarurdir. Bu ham me‘yoridan oshib ketmasligi va boshqalarni ham o‘ylashini talab qiladi. Inson har doim yuksaklikni, ko‘proq yutuqlarni xohlaydi. Buning uchun siz mashqlar qilib turishingiz zarurdir.

87 – 120 ballgacha. O‘z - o‘ziga juda past baho beradi, shuning bilan birga uning sha’niga aytilgan tanqidni og‘rinib qabul qiladi. Ko‘pincha boshqalarni fikri bilan hisoblashadi va o‘zini barkamol deb hisoblamaydi. Sizga tavsiyamiz ko‘proq o‘z ustingizda ishlang. Buning uchun psixolog maslahati sizga zarurdir.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I. BOB	
Kasb psixologiyasining rivojlanish tarixi, predmeti va metodlari	5
1.1 Kasb psixologiyasi fanining predmeti, qo'llanish sohalari va asosiy muammolari	5
1.2 Kasbiy psixologiya fanining vazifalari va boshqa fanlar bilan aloqasi	31
1.3 Kasb psixologiyasi fanining metodlari va asosiy muammolari	44
1.4 Kasb psixologiyasi va uning psixologik fanlar bilan aloqasi	65
1.5 Kasb psixologiyasi fanining rivojlanish tarixi va zamonaviy ko'rinishi	70
II. BOB	
Kasb psixologiyasi, ta'lim va o'qituvchi – tarbiyalanuvchi munosabatlari	88
2.1 Kasb psixologiyasida o'qituvchi shaxsi va ta'lim psixologiyasi	88
2.2 Kasbga yo'naltirish va talaba – o'qituvchi o'rtasidagi bir - birini tushunish asoslari	110
2.3 Kasbga yo'naltirishda ta'lim muxitining psixologik tavsiflari	120

2.4 Kasbga yo‘naltirishda ta’lim muxiti va uning psixologik xavfsizligi	136
2.5 Kasbga yo‘naltirish va ta’lim jarayoni ishtirokchilarining psixologik, fiziologik salomatligi	143
2.6 Kasb psixologiyasi fani va ta’lim muhitida psixodiagnostik faoliyat	149
III. BOB	
Kasb psixologiyasi va o‘quv motivlari muammolari...	172
3.1 Kasb tanlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar va motivatsiya	172
3.2 Kasbga yo‘naltirishda o‘quv faoliyati va kasb motivatsiyasi	181
3.3 Kasbga o‘qitishni individuallashtirish va differinsiallash	190
3.4 Kasb psixologiyasi va o‘quv faoliyati motivlari, ularni klassifikatsiyasi	203
3.5 Kasbga o‘qitishda pedagog faoliyatining psixologik muammolari	213
3.6 Kasbga o‘qitishda tarbiyalash va o‘z – o‘zini tarbiyalash psixologiyasi	227
3.7 Pedagogik faolyatning psixologik muammolari	240
3.8 Kasbiy qobiliyatlarni shakllanganligini diagnostika qilish	250

IV. BOB

Kasbiy psixologiyada kasb tanlash, kasbga ongli yondoshish va o‘z – o‘zini anglash	259
--	-----

4.1 Kasb tanlash va undagi inqirozlar	259
---	-----

4.2 Ongli kasb tanlash va kasbga yo‘naltirish masalalari	273
--	-----

4.3 Kasbga yo‘naltirish va unga xos masalalar taxlili	287
---	-----

4.4 Kasbiy o‘z – o‘zini anglash va kasb tanlash	295
---	-----

4.5 Shaxs va kasb tanlashda shaxsning shakllanib borishi	305
--	-----

4.6 Kasbiy xavfsizlik psixologiyasi masalasi	308
--	-----

GLOSSARIY	325
------------------------	------------

ADABIYOTLAR	333
--------------------------	------------

28	Menga men bilan qandaydir noxush holat yuz berishi mumkindek tuyuladi					
29	Odamlarni menga qanday munosabatda ekanligi meni hayajonlantiradi					
30	Men odamlar bilan kirishuvchan emasligimga afsuslanaman.					
31	Tortishuvda o'zimni to'g'ri ekanligimga ishonganimdan keyingina gapiraman					
32	Men jamoani mendan nimani kutayotganligini o'ylayman					

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	3
I. ГЛАВА	
История развития, предмет и методы профессиональной психологии	5
1.1 Предмет профессиональной психологии и основные проблемы	5
1.2 Функции профессиональной психологии и её взаимосвязи с другими науками	31
1.3 Методы профессиональной психологии и основные проблемы	44
1.4 Профессиональная психология и её связь с другими психологическими науками	65
1.5 История возникновения профессиональной психологии и современное состояние	70
II. ГЛАВА	
Профессиональная психология, воспитания и взаимопонимания ученика с учителем	88
2.1 Личность преподавателя в профессиональной психологии и психология воспитания	88
2.2 Профессиональная ориентация и взаимопонимания ученика с учителем	110

2.3 Психологический характеристика воспитательной среды в профессиональной ориентации	120
2.4 Воспитательная среда в профессиональной ориентации и психологический безопасность	136
2.5 Профессиональная ориентация и психологическая, физиологическая здоровья участников воспитательного процесса	143
2.6 Психодиагностический деятельность в воспитательном среде.....	149
 III. ГЛАВА	
Профессиональная психология и вопросы учебной мотивации	172
3.1 Мотивация и основные факторы в выборе профессии	172
3.2 Учебная деятельность и мотивация профессии в профессиональной ориентации	181
3.3 Индивидуализация и дифференциация в профессиональной образовании	190
3.4 Профессиональная психология и мотивы учебного деятельности, и их классификация	203
3.5 Психологические проблемы в педагогической деятельности	213

3.6 Воспитание в обучении и психология самовоспитания	227
3.7 Психологические проблемы педагогической деятельности	240
3.8 Диагностика формирования профессионального способности	250
IV. ГЛАВА	
Кризисы в процессе выбора профессии	259
4.1 Кризисы в процессе выбора профессии	259
4.2 Сознательное выбор профессии и вопросы профессиональной ориентации	273
4.3 Профессиональная ориентация и анализ вопросов, связанные с ним	287
4.4 Профессиональный самосознания и профессиональной ориентация	295
4.5 Личность и формирования личности в выборе профессии	305
4.6 Психологическое вопросы профессиональный безопасности	308
ГЛОССАРИЙ	325
ЛИТЕРАТУРА	333

Abduraxmonov Farhod Raximjonovich
Abduraxmonova Zuhra Erkinovna

K a s b p s i x o l o g i y a s i

Abduraxmonov Farhod Raximjonovich - falsafa fanlari doktori, professor. 1955-yil 27-avgustda Toshkent shahrida tugʻilgan. Oʻzbekiston Milliy Universitetini 1977-yilda, psixologiya boʻlimini tugatgan. U 1995-yili “Oʻzbekiston Respublikasining mustaqillik sharoitida milliy manfaatlar muammolari” mavzusida doktorlik ilmiy darajasini himoya qilgan. 2013-yildan professor. Ilmiy yoʻnalishlari bu ijtimoiy falsafa, huquq falsafasi, sotsiologiya, psixologiyaning tarmoqlari kabilar hisoblanadi. Hozirda bu yoʻnalishlarda 250 ga yaqin nashr qilgan ilmiy ishlari mavjuddir. “Mustaqillik va milliy manfaatlar “ (1994 y.), “Milliy manfaatlar va milliy birlik tuygʻusi” (1993 y.), “Sotsiologiya “ maʼruzalar kursi,(2000 y.) “ Falsafaga yangicha yondoshish davr talabi” (1998 y) “Maʼnaviy kamolot –mustaqil taraqqiyotimizning asosiy omili” (1999 y.) “Sotsiologiya fan sifatida” (2007 y.) “Sotsiologiya uslubiy qoʻllanma “ (2008), “Ijtimoiy boshqaruv tizimining tadriji va davlatning shakllanishi” (2004 y.) “Falsafa” uslubiy qoʻllanma 2010y. “Falsafa fanidan seminar mashgʻulotlari oʻtkazish uchun” metodik qoʻllanma. (2010y.) “Din psixologiyasi” (2011 y.), tadqiqotchilar uchun “Falsafa, milliy gʻoya va fan metodologiyasi” metodik qoʻllanma (2011y.) “Qadimgi Sharqda psixologik fikrlar taraqqiyoti” (2012 y.), “Falsafa, milliy gʻoya va fan metodologiyasi” (2012 y.) “Oʻzingni bil oʻzingni angla” psixologik testlar toʻplami (2013 y.), “Oliy taʼlim pedagogikasi” (2014 y),. “Mantiq” uslubiy qoʻllanma (2016y), Abdulla Avloniyning pedagogik –psixologik qarashlar (2016y.), “Falsafa”fanidan seminar mashgʻulotlari oʻtkazish uchun uslubiy qoʻllanma (2016 y),

Farhod Rahimjanovich Abduraxmonov
Zuhra Erkinovna Abduraxmonova

KASB PSIXOLOGIYASI **(Darslik)**

Toshkent – «Barkamol fayz media» – 2018

Muharrir: D.Vahidova

Musahhih: A.Eshov

Dizayner: D.Azizov

Kompyuterda

sahifalovchi: A.Qodirov

Barkamolfayz@mail.ru

Nashr.lits. AIN№284, 12.02.2016. Bosishga ruxsat etildi: 20.12.2018.
Bichimi 60x84 1/16. «Times New Roman» garniturasida. Ofset bosma
usulida bosildi. Sharti bosma tabog'i 22. Nashriyot bosma tabog'i 22.5
Tiraji 300. Buyurtma № 17.

“AVTO-NASHR” XK bosmaxonasida chop etildi

Manzil: Toshkent sh., Mirobod tumani, 8-mart ko'chasi, 57-uy.